

Qarshi davlat universiteti falsafa kafedrası

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI

Ma'ruza matni

Qarshi – 2010

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha

**va tamoyillar” fanining predmeti,
maqsad va vazifalari, metodologik asoslari**

R E J A:

K I R I S H.

§1.“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

§2.G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni o‘rganishning metodologik asoslari.

§3.“G‘oya” va “mafkura” tushunchalari. g‘oya va mafkuraning inson dunyoqarashiga ta’siri.

§4.Dunyoqarash va uning tarkibi.

§5.Bunyodkor va vayronkor g‘oyalar.

X U L O S A.

K I R I S H.

Milliy istiqlol tufayli O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishdi. Mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurilishi jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Endigi vazifa mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimizni jahonning rivojlangan davlatlari darajasiga ko‘tarishdan iboratdir. Bunday inqilobiy o‘zgarishni amalga oshirmoq uchun, milliy istiqlol g‘oyalarining maqsad va vazifalarini, ya’ni insonparvar, demokratik jamiyat strategiyasi va taktikasini mamlakatimizning har bir fuqa-rosi, xususan jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan har bir yigit-qiz ongiga singdirishimiz zarur. Aniqroq qilib aytganimizda, mamlakatimiz fuqarolarini insonparvar, demokratik jamiyat qurish g‘oyasi atrofida birlashtirishimiz darkor. Ana shunday umumjamiyat, umumdavlat ahamiyatiga molik ulkan vazifa milliy istiqlol mafkurasi yordamida amalga oshiriladi. Xuddi shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoni bilan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” alohida fan qilib ta’lim tizimiga kiritildi. Sizning e’tiboringizga taqdim etilayotgan ma’ruza matnida ushbu o‘quv predmetining maqsad va vazifalari, metodologik asoslari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

va vazifalari, metodologik asoslari

Har qanday fan kabi “Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining ham predmeti, amalga oshirishi zarur bo‘lgan aniq vazifalari bor. Milliy g‘oyalarning shakllanishi va rivojlanishi, xususan uning milliy istiqlol g‘oyasi darajasiga ko‘tarilishi, milliy istiqlol g‘oyasining milliy istiqlol mafkurasiga aylanishi jarayonlarini har tomonlama tahlil qilish, ushbu murakkab jarayonlarning rivojlanishi, fuqarolar ongi va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi qonunlari va qonuniyatlarini o‘rganish “Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining predmetini tashkil etadi. Shuningdek, “Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining predmeti qamrovi doirasiga milliy istiqlol mafkurasining maqsad va vazifalarini aniqlash, g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sirning ustuvor yo‘nalishlari va sohalarini belgilab berish, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar samaradorligini oshiruvchi omillar va vositalar, uslublar va usullarni aniqlash ham kiradi.

“Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining markaziy tushunchalari – “milliy istiqlol g‘oyasi” va “milliy istiqlol mafkurasini”dir. Ushbu fanning tushunchalari va kategoriyalari bir butun yaxlit sistemani tashkil etadi. Ularning mohiyati, mazmunini bilish – milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining insonparvarlik, bunyodkorlik xususiyatlarini chuqur o‘rganish mustaqillikning eng muqaddas qadriyatligini, uni asrab – avaylash mamlakatimizning har bir fuqarosining burchi ekanligini anglab olishga yordam beradi.

“Milliy istiqlol g‘oyasi” fani har qanday jamiyatning, har qanday davlatning ijtimoiy tuzilishiga mos keladigan g‘oyaviy-mafkuraviy qoidalar, norma va prinsiplar mavjudligini e’tirof etadi. Xuddi shuning uchun ham talabalarni nafaqat milliy g‘oya yoki milliy mafkura haqidagi, balki inson tafakkurining mahsuli bo‘lgan barcha g‘oyalar va mafkuralar to‘g‘risidagi, ularning ijtimoiy-falsafiy ildizlari to‘g‘risidagi aniq bilimlar bilan qurollantiradi. g‘oya va mafkuralarning insoniyat tarixidagi o‘rni, millat va elat, davlat va jamiyat, shaxs va ijtimoiy guruh, sinf yoki siyosiy partiya taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri qanday ekanligini tushuntirib beradi. Bu fan faqat g‘oya va mafkuralar tarixini o‘rganish bilan kifoyalanib qolmaydi. Balki bizning zamonamizdagi g‘oya va mafkuralarning xalqlar, millatlar, davlatlar taqdiridagi o‘rni va ahamiyati, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi kabi muammolar ham uning diqqat markazida bo‘ladi.

Bugun jahondagi bir qator davlatlarning mafkurasini nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga, xalqaro demokratiya prinsiplariga asoslanmoqda. Shu bilan birga, bugungi dunyoda soxta g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralarning ta’siri ham ortib borayotir. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm g‘oyalari, mafkuralari jahon xalqlarining tinchligi va barqarorligiga rahna solmoqda.

Fan va texnika yutuqlarini inson turmush tarziga jadallik bilan kirib kelishi, ayniqsa axborotlar oqimining globallasuvi, iqtisodiyotning integratsiyalashuvi, geostrategik maqsadlar va siyosatlarining o‘zgarishi g‘ayriinsoniy g‘oyalar va mafkuralarning tezroq tarqalishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Ana shunday sharoitda “Milliy istiqlol g‘oyasi” fani zararli va yot g‘oyalar, mafkuralarni mamlakatimiz hududiga kirib kelishiga yo‘l bermasligi, unga qarshi turuvchi mustahkam to‘siq, qudratli himoya vositasi vazifasini bajarmog‘i darkor,

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta’riflagan: “Xalqni

buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat‘iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas‘uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an‘analarimizga munosib bo‘lishga erishish, yuksak fazilatli, komil insonlarni tarbiyalash, ularning yaratuvchilik ishlariga da‘vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir” (8-7). Xuddi shuning uchun ham “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining eng asosiy vazifasi insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek eng oliy maqsad atrofida fuqarolarni birlashtirishdir.

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” o‘quv fani oldida turgan eng muhim vazifalardan yana biri fuqarolarda, ayniqsa jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarda mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash va yashash madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Hayotda faol pozitsiyada turish, tabiiy-ijtimoiy muhitda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni mustaqil baholash va undan to‘g‘ri xulosa chiqarish malakalarini qaror toptirish, fuqarolarning kundalik amaliy faoliyatlarini mamlakatimizda bunyod, etilayotgan yangi jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirish vazifasi ham “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, ushbu o‘kuv predmeti unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni zararli va yot g‘oyalari, mafkuralar ta‘siridan saqlab qolish, g‘oyaviy-mafkuraviy immunitet hosil qilish vazifalarini ham bajaradi.

Yurtboshimiz I.A.Karimovning: “Men milliy istiqlol g‘oyasi bugun tez sur‘atlar bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘zligimizni anglash, bizni kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va kadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik kadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o‘sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog‘i zarur deb bilaman” (8-7) degan so‘zlari “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini unutmazlik zarur.

“Milliy istiqlol g‘oyasi” fani falsafiy bilimlar tizimiga mansub bo‘lgani uchun o‘ziga xos metodologik vazifani ham bajaradi. Turgan gapki, u ijtimoiy-gumanitar fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Lekin ular shug‘ullanayotgan o‘ziga xos muammolar yechimini topish uchun tayyor andozalar bera olmaydi, balki ular g‘oyaviy-mafkuraviy tamoyillar bilan qurollantiradi. g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

“Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining ilmiy-nazariy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida, maqolalarida, ma‘ruzalarida har tomonlama isbotlab berilgan.

§2.G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni o‘rganishning metodologik asoslari

Tarixiy taraqqiyot tajribasining guvohlik berishicha, har qanday milliy mafkuraning mag‘zini (yadrosini) milliy g‘oya tashkil etadi. Milliy g‘oyadan

tashqarida, undan uzilgan holda alohida yashaydigan milliy mafkura yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Modomiki shunday ekan, o‘sha g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni o‘rganadigan “Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining metodologik asoslarini mustahkamlash uchun nima qilmoq kerak? “Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining metodologik asoslari nimalardan iborat?

“Milliy istiqlol g‘oyasi” fanining metodologik asoslari haqida fikr-mulohaza yuritishdan avval “metodologiya” tushunchasining ma‘nosi va mazmuni, uni vujudga keltirgan tarkibiy komponentlarni aniqlab olishimiz zarur.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda metodologiya tushunchasiga turlicha ta‘riflar berilmoqda, turlicha fikr-mulohazalar bildirilmoqda(14). Bizning fikrimizcha, metodologiya inson amaliy faoliyatini to‘g‘ri, oqilona tashkil etish, uni puxta o‘ylangan aniq maqsad tomon boshqarish yo‘llari xaqidagi ta‘li-motdir. Aniqroq qilib aytganimizda, metodologiya “ishning o‘zi” xaqidagi yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar yig‘indisi emas, balki “uni amalga oshirish”, turmushga tatbiq etish uslublari haqidagi ta‘limotdir.

Bobolarimiz so‘zlari bilan aytganimizda, metodologiya “ishning o‘zi” emas, “uning ko‘zi” haqidagi ta‘limotdir. Xuddi shuning uchun ham mashhur ingliz faylasufi Frensis Bekon noto‘g‘ri metodologiya bilan qurollangan, noto‘g‘ri metodologiyaga asoslanib ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchini qorong‘uda yo‘l topolmay adashib yurgan yo‘lovchiga o‘xshatgan edi. Modomiki shunday ekan, “milliy istiqlol g‘oyasi” haqida ma‘ruza o‘qiydigan har bir ma‘ruzachi, bu borada fikr-mulohaza yuritadigan har bir targ‘ibotchi, har bir tashviqotchi, o‘z navbatida, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni o‘rganayotgan har bir tadqiqodchi aniq va tiniq metodologiya bilan qurollanmog‘i darkor.

Metodologiya, o‘ziga faqat inson amaliy va nazariy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish yo‘llari, uslublari yoki usullarini mujassamlashtirish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki o‘ziga tushunchalarni, prinsiplarni, muammolarni va yondashuvlarni ham birlashtiradi. Boshqacha aytganimizda, metodologiya deganda nafaqat uslub, balki tushunchalar, prinsiplar, muammolar, yondashuvlarning summasi, ularning ma‘lum bir sistemasi tushuniladi.

Metodologiya haqida gapirganda bir narsani unutmaslik zarurki, u har qanday yo‘l-yo‘riqlar uslublar va usullarning yig‘indisi emas, balki eng umumiy, eng universal uslublar va usullar, yo‘l-yo‘riqlar yig‘indisidir. O‘z navbatida, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, metodologiya yo‘l-yo‘riqlar, uslublar va usullarning oddiy yig‘indisi, oddiy summasi emas, balki ularni yaxlit bir butun sistemasidir. Xuddi shuning uchun ham har qanday yo‘l-yo‘riq usul yoki uslub, har qanday yo‘l-yo‘riq meto-dologiya bo‘lavermaydi. Chunki har bir fanning o‘ziga xos uslubi, usuli, yo‘l-yo‘rig‘i bor. Ular juz‘iy (spetsifik) xarakterga ega bo‘lib, o‘sha fan uchun yoki ma‘lum bir soha uchun xizmat qiladi. Masalan: fizikada yorug‘likning to‘lqin uzunligini aniqlash uchun spektral analizdan foydalanadilar. Bunday uslub metodologiya bo‘la olmaydi, chunki u faqat fizika yoki ximiya fanlari uchun xizmat qiladi, xolos.

Metodologiya yaxlit bir butun sistema bo‘lib, u turli funksiyalarni (evristik, muvofiqlashtirish, integrativ, mantiqiy-gnoseologik)bajaradi.Chunonchi:

1.Metodologiyaning evristik funksiyalari. Evristika olamdagi hodisalar,

voqealarni har tomonlama bilishga hozirlaydi, asos yaratadi. Boshqacha aytganimizda, evristika yangi bilimlarning hosil bo'lishi uchun poydevor yaratadi. Yangi bilimlar asosida, yangi tushunchalar, yangi kategoriyalar shakllanadi. Yangi tushunchalar atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, voqealarning nafaqat buguni, balki kelajagi haqida oldindan bashorat qilish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Shuningdek, evristik ma'lumotlar nafaqat yangi tushunchalarni, balki yangi uslublar va usullarni, yangi gipotezalarni shakllantirish uchun ham zamin hozirlaydi.

2. Metodologiyaning muvofiqlashtirish funksiyasi. Fan va texnika yutuqlari insonning turmush tarziga jadallik bilan kirib borayotgan, butun-butun davlatlar, mamlakatlar, xalqlar, millatlar globallashtirish jarayoni, informatsiyalarning jadallik bilan oqishi jarayoni ta'siriga tushib qolayotgan hozirgi sharoitda atrofimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni (bunday o'zgarishlar progress tomon sodir bo'ladimi yoki inqiroz, tanazzul tomon ro'y beradimi - bundan qat'iy nazar) mazmun va mohiyatini bilib olmoq uchun o'sha sohaga bir uslubni yoki bir usulni qo'llash samarali natija bermaydi. Boshqacha aytganda, hodisa va voqealarda bo'ladigan o'zgarishlar jarayoni haqida aniq tasavvurga ega bo'lmoq uchun tadqiqotning birorta usuli yoki uslubini ilohiylashtirib bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham kundalik turmushimizdagi muammolarni bartaraf etish uchun, o'sha muammoning vujudga kelishi sabablarini o'rganmoq uchun tatbiq etiladigan ilmiy bilish usullari va uslublarini muvofiqlashtirish, ya'ni koordinatsiya qilish zaruriyati vujudga keladi. Metodologiya va shunday muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi.

3. Metodologiyaning integrativ funksiyasi. Hozirgi zamon fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish oqibatida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sohalarini soni muttasil oshib bormoqda. O'z navbatida, inson amaliy faoliyatining turi ham, soni ham uzluksiz o'zgarib turibdi. Yangi-yangi mutaxassisliklar, ixtisosliklar vujudga kelmoqda. Lekin ushbu sohalar, ixtisosliklar, mutaxassisliklar orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmi yildan-yilga zaiflashib qolayotir. Kasblar, ixtisosliklar orasidagi aloqadorlikning tafti so'na boshladi. Bunday sharoitda hodisa yoki voqeada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni yaxlit tasavvur qilishga ehtiyoj orta boshladi. Aniqroq qilib aytganimizda, o'rganilayotgan sohani yaxlit tasavvur qilishga ehtiyoj o'sib ketdi. Bunday ehtiyoj hodisa yoki voqeada bo'ladigan o'zgarishlarni yaxlit tasavvur etishga yordam beruvchi uslublarni, usullarni integratsiya qilishni taqozo etadi. Xuddi shuning uchun ham metodologiya integratsiyalash funksiyasini ham bajaradi.

4. Metodologiyaning mantiqiy-gnoseologik funksiyasi. Metodologiya o'ziga xos, spetsifik ahamiyatga ega bo'lgan turli uslublarga, usullarga, qoidalarga, prinsiplarga xam ega bo'ladi. O'sha-lar yordamida turli mantiqiy-gnoseologik tushunchalarni, hukmlarni, xulosalarni ishlab chiqadi. Yangi nazariyalarni yaratadi. Xullas, g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar haqida fikr-mulohaza yuritayotgan har bir tashkilotchi, har bir targ'ibotchi ushbu jarayon samaradorligini oshirmoq uchun, bu borada o'zi aniq metodologik pozitsiyani egallamog'i uchun metodologiya bajaradigan turli funksiyalarni aniq tasavvur qilmog'i lozim.

mafkuralarining inson dunyoqarashiga ta'siri

Qadim-qadim zamonlardan buyon fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni g'oyalar va mafkuralar to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirishga katta e'tibor berilgan. Madomiki shunday ekan, g'oyalar va mafkuralar deganda nimani tushunmoq kerak?

“G'oya” tushunchasi g'arb mamlakatlarida “ideya” atamasida o'z ifodasini topgan. “Ideya” yunon tilidagi “idea” so'zidan olingan bo'lib—“timsol” (obraz), “tashqi qiyofa” degan ma'nolarni anglatadi. Xuddi shuning uchun ham “ideya” so'zi “ideologiya” so'zining o'zagini tashkil etadi. “Ideologiya” (“idea” - g'oya, tushuncha, “loros” - ta'limot) g'oyalar to'g'risidagi ta'limotdir. Lekin “g'oya” tushunchasining ma'nosi zamonlar o'zgarib borishi bilan o'zgarib turdi. Chunonchi, qadimgi yunon faylasufi Aflotun (Platon) “g'oyalar va soyalar dunyosi” to'g'risidagi o'z ta'limotini asoslar ekan, g'oyalarni olamning yaratuvchisi, uning asosi deb tushungan. g'oyalarni obyektiv reallik deb talqin qilgan. Demokrit esa, olamni asosini tashkil etgan eng mayda zarrachalarni – atomlarni ideyalar deb atagan. Mashhur nemis faylasufi Gegelning fikriga ko'ra, ideya – olamdagi barcha narsalarning ijodkori, yaratuvchidir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'li g'oyalar tarixidir(8-9). O'z navbatida, har qanday g'oya inson aql zakovatining, tafakkurning mahsulidir. Boshqacha aytganda, har qanday g'oyani inson ishlab chiqadi. Inson aql-zakovatining mahsuli bo'lgan g'oyalar til orqali ro'yobga chiqadi. Turli tushunchalarda, hukmlarda, xulosalarda, ya'ni turli bilimlarda o'z aksini topadi. Lekin inson ishlab chiqargan har qanday fikr yoki muloxaza, qarash yoki nuqtai nazar, ya'ni bilimlar g'oya bo'lavermaydi. Faqat chinakam bilimga, ilmga asoslangan fikr-mulohaza g'oya darajasiga ko'tariladi (biz bu haqida keyinroq batafsil gapiramiz).

Har qanday g'oya odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik boshqa kishilar, aholining turli qatlamlari orasida tarqaladi. Turli elat, millat, xalqlar orasiga yoyiladi. Har bir narsani boshlanishi va oxiri bo'lganidek, g'oyalarning ham o'z umri bor. g'oyalar ham ma'lum makonda va zamonda paydo bo'ladi, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadi, kishilarning ongi, shuuriga o'rnatiladi, ularning kundalik amaliy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi, o'z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo'qotgach, tarixiy xotiraga aylanib qoladi. g'oyalarning eng muhim xususiyati – shaxsni, davlatni, jamiyatni, millat yoki elatni, sinf yoki ijtimoiy guruhni ma'lum bir maqsad tomon yetaklaydi, ular harakatga keltiradi, safarbar etadi. Xuddi shuning uchun ham g'oya deb inson tafakkurida vujudga kelgan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, insonni ruhiy-ma'naviy olamiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi, shaxsni, davlatni, jamiyatni, millatni, xalqni harakatga keltiruvchi, ularni ma'lum bir maqsad – muddao tomon yetaklaydigan fikr-mulohaza, qarash va nuqtai nazarga aytiladi.

G'oyalar qanday kuch yordamida insonning xulq-atvori, hatti –harakati normalari, prinsiplariga aylanadi? g'oyalar qanday qilib inson dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazadi? Bir ibora bilan aytganda, g'oyalar qanday qudrat yordamida moddiy kuchga aylanadi?

Insoniyat to'plagan tajriba shundan dalolat beradiki, g'oyalar mafkuraviy munosabatlarga aylansa, o'shanda u moddiy qudratga aylanadi. Shunday ekan, mafkura deganda nimani tushunmoq kerak?

Mafkura falsafiy tushuncha bo'lib, insonning fahm-farosati, fikr-mulohazasi, ya'ni aql-zakovati yordamida ishlab chiqarilgan turli g'oyalar, qarashlar, ta'limotlarning yig'indisidir, uning yaxlit bir butun sistemasidir. Shuningdek, mafkura jamiyat ustqurmasining eng muhim qismi bo'lib, turli nazariy ta'limotlarni fuqarolar ongiga, kundalik turmush tarziga singdirish yo'llari, uslublari, usullari, omillari va vositalarining to'plamidir.

Hozirgi zamon ilmiy-falsafiy adabiyotlarida mafkura ikki ma'noda ishlatiladi. Xususan keng ma'noda mafkura deganda jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy faoliyati, turli g'oyaviy-nazariy ideallar, konsepsiyalar ishlab chiqish, ularni turli bahs va munozaralarda himoya qilish mahorati, uni fuqarolar ongiga, kundalik turmush tarziga singdirish, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish yo'llari, uslublari, usullari tushunilsa, tor ma'noda, mafkuraviy idoralar amalga oshirayotgan targ'ibot va tashviqot, boshqacha aytganda mafkuraviy qoidalarni kishilar ongiga singdirish tushuniladi.

Mafkura o'ziga uch asosiy komponentni - "mafkuraviy tasavvur"ni, "mafkuraviy ta'sir"ni, "mafkuraviy faoliyat"ni mujassamlashtiradi. Mafkurani yagona butunga birlashtirib turgan eng muhim komponentlardan biri "mafkuraviy tasavvur"dir. Mafkuraviy tasavvur – tarbiyaviy ta'sirning inson ongidagi in'ikosidir. Bunday in'ikos turli obrazlarda o'z ifodasini topadi va inson xotirasida uzoq vaqtlar saqlanib qoladi. Inson xotirasida saqlanib turgan mafkuraviy obrazlar, turgan gapki, insonning kundalik amaliy faoliyatida o'z ifodasini topadi. O'z navbatida, mafkuraviy tasavvur, ijtimoiy ongning muhim elementi bo'lib, mafkuraviy faoliyatning ma'no va mazmunini ijtimoiy voqeaning xayoliy obrazi bilan bog'laydi. Ayni paytda mafkuraviy faoliyatni xayoliy obrazlar bilan yaqindan ish ko'rish, o'zaro aloqadorlik mexanizmini yaratish imkonini beradi.

Mafkuraviy tasavvur, ijtimoiy muhitning ta'siri ostida odamlar ko'rsatgan turli-tuman faoliyatlar natijasida hosil bo'ladi. Bunday holat jamiyatda hamisha ma'lum bir maqsad tomon yo'naltirilgan mafkuraviy sistema mavjud ekanligidan dalolat beradi. O'z navbatida, xuddi shu holat mafkuraviy tasavvur jamiyatda mavjud bo'lgan mafkuraviy sistema - mafkuraviy institutlar, mafkuraviy muassasalar mahsuli ekanligini inkor etmaydi.

Mafkuraviy tasavvurning hosil bo'lishida jamiyatda mavjud bo'lgan turli sinflar, tabaqalar, guruhlarining ijtimoiy tajribasi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ayni paytda mafkuraviy tasavvur boshqa muassasalarining zararli targ'ibot va tashviqotlaridan himoya qiluvchi "bufer" vazifasini ham bajaradi.

"Mafkuraviy ta'sir" – mafkuraning eng muhim strukturaviy komponentlaridan biridir. Mafkuraviy ta'sir ikki asos – to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita va o'zaro aloqadorlikka asoslangan bilvosita shakllar yordamida amalga oshiriladi. Mafkuraviy ta'sir samaoradorligi uning obykti va subyektiga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, mafkuraviy ta'sir samaradorligi, mafkuraviy ta'sir o'tkazilishi lozim bo'lgan kishilarning (obyekt) ma'lumot darajasi, madaniy-axloqiy

saviyasiga bog'liq bo'lsa, o'z navbatida mafkuraviy ta'sir o'tkazayotgan idoralar, muassasalar, targ'ibotchi va tashviqotchilar (subyekt) amalga oshirayotgan tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni va shakliga, mafkura xodimlarining professional mahoratiga, ularning insoniy fazilatlari, xislatlariga bog'liq bo'ladi. Mafkuraviy ta'sir o'tkazilishi lozim bo'lgan kishilarning ma'lumot darajasi, madaniy, axloqiy, huquqiy, siyosiy saviyasi qancha baland bo'lsa, mafkuraviy ta'sir samaradorligi shunga yuqori bo'ladi. O'z navbatida, mafkuraviy ta'sir samaradorligi mafkuraviy ta'sir obyektiga bilan, uning subyektiga orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmining mustahkamligiga bog'liq. Bunday o'zaro aloqadorlik mexanizmining mazmunida biri-biriga o'rgatish, biri-biridan o'rganish, biri-biriga ustoz, biri-biriga shogird bo'lmoq prinsipi yotmog'i darkor. Ana shunday holatda har bir kishi mafkuraviy ta'sir doirasiga tushadi va o'sha ta'sir ostida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, mafkuraning eng muhim komponentlaridan ya'na biri – "mafkuraviy faoliyat"dir. Jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy institutlar - oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat kollektivlari, jamoat tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlar mafkuraviy faoliyat yordamida muvofiqlashtiriladi, yagona maqsad atrofida birlashtiriladi.

Jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari aniq dastur, reja asosida amalga oshirayotgan mafkuraviy ishlarning hammasi yaxlit bir butun sistemani tashkil etadi. Xuddi shuning uchun ham mafkuraviy faoliyat yordamida uning tashkilotchilari, targ'ibotchilari hamda tadqiqotchilarida nafaqat mafkuraviy ishlarni tashkil etish, nafaqat jamiyatning turli ijtimoiy institutlari tarbiyaviy faoliyatini taxlil qilish, balki ular orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmini takomillashtirish malakalarini, ko'nikmalarini shakllantirish darkor.

Jamiyatning turli ijtimoiy institutlari orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmini takomillashtirish yo'llari, uslublari va usullarini yaratish uchun, eng avvalo, ushbu aloqadorlikka xalaqit berib turgan, tormoz vazifasini bajarayotgan turli g'oyalarni, to'siqlarni bartaraf etish darkor. Bunday ziddiyatlarni bartaraf etish uchun, mafkuraviy ta'sir tahlilida falsafiy madaniyatning umumiy bog'lanishlar, o'zaro ta'sir, o'zaro aloqadorlik, o'zgarish, taraqqiyot to'g'risidagi qoidalariga, yaxlitlik, sistemalilik, sababiyat, mantiqiylik, tarixiylik prinsiplariga amal qilmoq zarur.

Afsuski, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari mafkuraviy ishlarini muvofiqlashtirish, ularni yagona maqsad tomon boshqarish borasidagi ishlarimizda yagona yondashuv yetishmayotir. g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar tahliliga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlarimizda, yaratilayotgan dasturlarda bunday metodologik qoidalarga rioya qilinmayotir.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan taklif va mulohazalarda falsafiy madaniyatning eng muhim prinsiplaridan biri - yaxlitlikka rioya qilmaslik, ya'ni yaxlit tahlil qilishning, yaxlit tasavvur qilishning yetishmasligi oqibatida, turli metodologik anglashilmovchiliklar, chalkashliklar vujudga kelayotir. Chunonchi, ijtimoiy tarbiyaning obyektiga bilan subyektiga, tarbiya yoki mafkura jarayoni bilan uning natijasi, tarbiyalash bilan o'z-o'zini tarbiyalash, insonning dunyoqarashiga ko'rsatilayotgan rejali – mafkuraviy ta'sir bilan rejasiz,

dastursiz, stixiyali ta'sir, tarbiyaviy-mafkuraviy ta'sir samaradorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar bilan uning omillari va vositalari bir o'ringa, bir qatorga qo'yilayotir. Bunday metodologik zaifliklar, shubhasiz, g'oyaviy mafkuraviy jarayonlar samaradorligini oshirishga xalaqit beradi.

Har qanday mafkuraning mag'zini g'oya tashkil etganidek, milliy istiqlol mafkurasining yadrosini milliy g'oya tashkil etadi. Xuddi shuning uchun ham g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar biri-ikkinchisi bilan hamisha o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. g'oyalar mafkura yordamida harakatga keladi va inson ongiga singib boradi. Pirovard natijasida inson dunyoqarashida o'zgarish sodir bo'ladi. Aniqroq qilib aytganimizda, g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar ta'sirida inson dunyoqarashida sifatiiy o'zgarish sodir bo'ladi.

§4. Dunyoqarash va uning tarkibi

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, hohlaymizmi yoki yo'qmi, mulohazalarimiz, ushbu jarayonlarning inson dunyoqarashiga ko'rsatayotgan ta'siriga borib taqaladi. Xuddi shuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasi va milliy istiqlol mafkurasining har bir tashkilotchisi, har bir targ'ibotchisi - Dunyoqarashning o'zi nima? Dunyoqarashni vujudga keltirgan eng asosiy tarkibiy komponentlar nimalardan iborat? Dunyoqarash qanday funksiyalarni (vazifalarni) bajaradi? - degan savollarga aniq javob berishi darkor.

Dunyoqarash deganda insonning olam to'g'risidagi eng umumiy qarashlari, insonning olamdagi o'rni, uning turli-tuman munosabatlari, amal qilayotgan qadriyatlarini, atrofida sodir bo'layotgan hodisalar, voqealarga bergan bahosi, hayotdagi pozitsiyasi, yashash, ishlash dasturlari, kundalik amaliy faoliyatining yig'indisi tushuniladi. Dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega bo'lib, uning o'ziga xos eng muhim xususiyatlaridan biri haqiqatni, ya'ni olamning haqiqiy manzarasini bilishga qaratilgan xulq-atvor, hatti-harakatdir.

Dunyoqarash bir butun uyushma bo'lib, o'zida uch asosiy holatni: bilish – baholash – hatti-harakatni birlashtiradi. Xuddi shuning uchun ham dunyoqarash individual (yakka kishiga xos), jamoaga xos, ommaviy bo'ladi. Dunyoqarashning eng muhim tomonlari quyidagicha: 1. Dunyoni his qilish. 2. Dunyoni tasavvur qilish. 3. Dunyoni tushunish.

Dunyoni his yoki tasavvur qilishda insonning his-tuyg'ulari, ruhiy-psixologik holatlari, kayfiyati asosiy rol o'ynaydi. Chunonchi, uning hissiyotiga, kayfiyatining optimistik yoki pessimistik bo'lishi, temperamenti yoki yoshlik, jinsiy xususiyatlari o'z ta'sirini o'tkazadi. Dunyoni tushunish turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, kundalik turmushimizda ba'zan ongli, ba'zan ongsiz xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, dunyoqarash integral uyushma bo'lib bilim, baho, munosabat, his-tuyg'u va fikr-mulohaza, dunyoni his qilish va tushunish, aql kuchiga tayanib tushuntirish va ishonch, e'tiqod va e'tiqodsizlik, shaxsiy va ijtimoiy, an'anaviy va noan'anaviy (ijodiy) fikrlash, xulq-atvor va hatti-harakatning qarama-qarshi tomonlarining yig'indi-sidir.

Dunyoqarashning eng asosiy komponentlaridan biri – bilimdir. Xuddi shuning

uchun ham milliy istiqlol g'oyalarini fuqarolar ongi va shuuriga singdirishga bel bog'lagan har bir mafkura xodimi bilimning g'oyaga, g'oyaning e'tiqodga aylanishi jarayonini aniq va tiniq tasavvur etmoqlari darkor. Bunday tasavvurga ega bo'lmagan mafkura xodimining so'zlari quruq, samarasiz bo'lib qolaveradi. Milliy istiqlol to'g'risidagi bilimlarni, milliy istiqlol g'oyasiga aylanish jarayoni haqida fikr-mulohaza bildirmoq uchun eng avvalo "bilim" deganda nimani tushunmoq kerak? - degan savolga javob berish zarur.

Tarixiy taraqqiyot tajribasidan yaxshi ma'lumki, inson o'zi yashayotgan tabiiy-ijtimoiy muhitni, hatto inson o'zini-o'zi o'zgartirishi uchun, o'zini-o'zi bilishi uchun hamisha yangi axborotlarga (informatsiyalarga) ehtiyoj sezadi. Bir ibora bilan aytganda, inson o'z tabiiy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishi uchun unga hamisha yangi axborotlar, boshkacharoq aytganimizda, yangi bilimlar zarur bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham inson bilimlari doimo o'zgarib turuvchi dinamik xarakterga ega bo'lgan sistemadir. O'z navbatida bilim inson amaliy faoliyatining maxsus turidir.

Xo'sh, bilim insonda qanday hosil bo'ladi? Bu savolga javob berish uchun, eng avvalo, "bilim" yoki "axborot" (informatsiya) degan tushunchalarning mohiyatini, mazmunini bilishimiz zarur. Kundalik faoliyatimizda ushbu tushunchalarni biri-ikkinchisiga yaqin, biri-ikkinchisiga uyqash tushunchalar sifatida ishlatiladi. Lekin chuqurroq o'ylab qarajak, ushbu tushunchalar biri-ikkinchisiga uyqash emasligiga guvoh bo'lamiz. Bilim hamisha axborot yoki informatsiya vazifasini bajaradi. Lekin har kanday axborot yoki informatsiya bilim bo'lavermaydi. Bilim, axborotlar yoki informatsiyalarning sintezi, unig eng oliy darajasi, eng yuqori holatidir. Axborotlar bilim darajasiga kutarilishi uchun inson bisotida mavjud bulgan tarixiy tajriba, ya'ni xotira, idrok, tasavvur chig'irig'idan o'tmogi darkor. Ana o'shanda axborot bilimga aylanadi. Xuddi shuning uchun ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bilim faqat axborotlar yig'indisi emas, balki ularning sintezidir. Shuningdek, bilim voqelikning inson ongidagi in'ikosidir. Bilim inson borlig'ining eng asosiy xususiyati, ya'ni inson miyasining mahsulidir.

Bilim, o'z navbatida, bilish jarayonining mahsulidir. Bilimlar eng avvalo turli tushunchalarda rasmiylashtiriladi. Boshqacha aytganimizda, bilimlar o'zining dastlabki bosqichida turli tushunchalarda o'z aksini topadi. Tushunchalar asosida esa turli g'oyalar vujudga keladi. Bilimlarning g'oyaga aylanishi jarayonini tahlil qilganda quyidagi uch holatga e'tiborni qaratmoq lozim. Boshqacha aytganimizda, bilimlarning g'oyaga aylanishida quyida biz ta'kidlamoqchi bo'lgan uch holat katta ahamiyatga ega bo'ladi.

I. O'rganilayotgan hodisa yoki voqea haqidagi bilimlarning aniq bo'lishi. Boshqacha aytganimizda, olingan yangi bilimlar hodisada yoki voqeada bo'layotgan o'zgarishlarni aniq va to'la aks ettirishi.

2. To'plangan bilimlarni amaliyotga qo'llash uchun ehtiyoj, ya'ni zaruriyatning ortib borishi.

3. Bilimlarni ishlab chiqargan kishilarning (olimlar, shoirlar, yozuvchilarning) jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar yoki tabiiy muhitda vujudga kelgan muammolarni tezroq bartaraf etish uchun o'z oldilariga qo'ygan maqsad va vazifaning aniqligi, rejaning puxtaligi.

Ishlab chiqilgan g'oyalar yuqoridagi holatlarni o'zida mujassamlashtirsa, ana o'shanda tezroq amaliyotga tatbiq etiladi va samarali natijalar beradi. g'oyalarni amaliyotga tatbiq etayotganda yana bir holatni esdan chiqarmaslik zarurki, yangi ishlab chiqarilgan g'oyalar faqat moddiy vositalar, mehnat qurollari yordamida emas, balki insonning ruhiy-ma'naviy energiyasi (his-tuyg'ulari, irodasi, e'tiqodi) yordamida ham amalga oshadi. Boshqacha aytganimizda, ishlab chiqarilgan g'oyalar amaliyotga tatbiq etilsa va amaliyotda samarali natija bergandan so'ng nazariyaga aylanadi. Amaliyot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, ma'lum bir sistemaga kiritilgan g'oyalar nazariya deyiladi.

Nazariya tushunchalar va hukmlar kabi voqelikning inson ongidagi in'kosidir. Biroq tushuncha va hukmdan farqli o'laroq, nazariya alohida fikr yoki g'oya emas, balki voqelikni biror sohasi haqidagi g'oyalarning ma'lum sistemasidir. Shuningdek, nazariya o'zida faqat g'oyalar sistemasini mujassamlashtirish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki o'sha sistema ichidagi va ostidagi sistemalarni ham o'zida birlashtiradi. Boshqacha aytganimizda, nazariya o'ziga faqat g'oyalar sistemasini emas, balki g'oyalar ostidagi sistemalarning yig'indisi hamdir.

Bilimlar g'oyaga, g'oyalar nazariyaga aylanishi uchun quyidagi uch bosqichni bosib o'tadi:

1. Eng avvalo bilishning turli uslublari (kuzatish, o'lchash, taqqoslash, eksperiment, modellashtirish) yordamida yangi bilimlar hosil qilinadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, turli axborotlar, informatsiyalar bilim darajasiga ko'tariladi.

2. Olingan bilimlar asosida (analiz va sintez, induksiya va klassifikatsiya, gipoteza) yangi g'oyalar vujudga keladi. Boshqacha aytganimizda, yangi bilimlar asosida yangi g'oyalar vujudga keladi.

3. Yangi g'oyalar ma'lum bir sistemaga solinadi (ideallashtirish, formallashtirish, deduksiya va aksiomalashtirish), ya'ni nazariyaga aylanadi.

Shunday qilib, nazariya nafaqat turli g'oyalarning yig'indisi, balki uning yaxlit sistemasidir.

Xo'sh, qanday qilib bilim, g'oya, nazariya inson e'tiqodiga aylanadi? E'tiqod deganda nimani tushunmoq darkor?

E'tiqod haqida fikr-mulohaza yuritishdan avval "e'tikod" tushunchasining ma'nosi va mazmuni, uni hosil qilgan struktura-raviy elementlar, komponentlar to'g'risida aniq asoslangan ta-savvurga ega bo'lishimiz lozim. Chunki uzoq yillardan buyon ilmiy-falsafiy adabiyotlarda "e'tiqod" tushunchasi turlicha izohlanmokda. Chunonchi, Rossiyalik tadqiqotchi E.V. Lebedevning ta'kidlashicha, e'tiqod - murakab ma'naviy uyushma bo'lib, shaxsning anglab olingan ichki pozitsiyasidir, uning bisotida mavjud bo'lgan bilimlar asosida vujudga kelgan va ma'lum ma'noda insonning harakat qilishi uchun turtki berib turuvchi qudratdir, (7-19) deb yozgan bo'lsa, V.T. Yefimov va S.M. Kosalapovlarning fikriga muvofiq, e'tiqod - bu yakka kishi yoki ijtimoiy guruhning o'z qarashlari, harakatlari, prinsiplari, ideallarining to'g'riligiga bo'lgan to'la va shubhasiz ishonchidir. E'tiqod - bu inson shaxsining axloqiy qiyofasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ustuvor g'oyalari va intilishlaridir. E'tiqod - bu, bizning fikr-muloxazalarimizda mustahkam o'rnashib olgan, butun hatti-harakatimiz

bo'yo'ngan g'oyadir. Aql esa vijdonni unga suyab qo'yadi, yopishtiradi.(6-14) T. Tugarinovning yozishicha, e'tiqod – bu bilim, o'zing bilgan bilimingga berilgan baho, u inson faoliyati faollashganligining ifodasidir.(12-14) Ko'rinib turibdiki, Rossiyalik tadqiqotchilar e'tiqodni ishonchga tenglashtirsalar, yoki ishonch e'tiqodning muqobili desalar, boshqa birovlari, e'tiqodni ilmiy bilimlarning xarakteristikasi deb tushuntiradilar. Ayrim o'zbek tadqiqotchilari esa e'tiqodni iymonga tenglashtirsalar(11-18-21), boshqa birovlari e'tiqod tushunchasi iymon tushunchasi bilan sinonim, ya'ni ma'nodosh, hamohang bo'lsa ham, ular aynan bir xil emas,(10-28) deb yozadilar.

Ba'zi mualliflar esa “e'tiqod” tushunchasini inson psixologik holatini ifodalovchi tushuncha deb talqin etsalar, boshqa bir guruh izlanuvchilar kishi xulq-atvori va hatti-harakatining holatini ifodalovchi integrativ tushuncha deb tushuntiradilar. Yana allakimlar e'tiqodni dunyoqarashdan ham kattaroq tushuncha deb tasvirlaydilar.

Turli-tumanliklarga chek qo'yish uchun “e'tiqod” tushunchasining tarkibini har tomonlama chuqur tahlil qilish zarur. Bunday ishni uddalamoq uchun, eng avvalo, e'tiqod deb nomlanuvchi bir butun strukturani vujudga keltirgan elementlarni aniqlab olish darkor. Kuzatishlar shundan dadolat beradiki, e'tiqodni yaxlit butunga birlashtirib turgan barqaror elementlardan biri – bilimdir. Chunki bilim hodisa, voqea, jarayonlarning, hatto inson ongi va faoliyatining turli xususiyatlari, xossalarini o'zida aks ettiradi. Xuddi shuning uchun ham bilim e'tiqodning vujudga kelishi uchun eng muhim asos vazifasini bajaradi. Aniqroq qilib aytganimizda, chinakam e'tiqod bilim asosida shakllanadi. Lekin e'tiqod va bilim biri ikkinchisiga uyqash tushunchalar emas. Chunki ayrim holatlarda bilim hodisa, voqea, jarayonlarning haqiqiy holatini ifodalasa, ba'zan esa hali to'liq o'rganilmagan, kishini chalg'ituvchi chala haqiqat yoki yolg'on bo'lishi ham mumkin. Boshqa bir holatda bilim haqiqatning qandaydir bo'lagi bo'lishi ham mumkin. Turgan gapki, bilimlarning chinligi e'tiqodning mustahkam bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, e'tiqodning mustahkam bo'lishida, bilim yakkayu-yagona asos deb bo'lmaydi. Inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya'ni tajriba

chig'irig'idan o'tgan, iqqinchi marta qayta hosil bo'lgan bilimlarga (g'oyalar, nazariyalar) e'tiqodning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Boshqacha aytganimizda, insoniyat tomonidan allaqachonlar yaratilgan bilimlar insonning e'tiqod darajasiga ko'tariladi.

Bilim e'tiqodga aylanishi uchun bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Chunonchi, bilim o'z taraqqiyotining dastlabki bosqichida anglash (osoznaniye) holatini bosib o'tadi. Bilimning ma'no va mohiyatini anglab yetmasdan turib uni tushunib bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham anglab olingan bilim o'z taraqqiyotining ikkinchi bosqichida tushunish (ponimaniye) holatiga kiradi. Inson bilimlarning ma'no va mohiyatini tushunib yetgach, uning to'g'riligiga (yoki noto'g'riligiga) ishonch (ubejdeniye) hosil qiladi. O'shandan sung insonda bilimlarning to'g'ri (yoki noto'g'ri) ekanligiga rizolik (soglasiiye) alomatlarini hosil bo'ladi. Inson tomonidan o'zlashtirib olingan bilimlar uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga, manfaatlariga, hohish – istaklariga, bir ibora bilan aytganda, hayotiy

mo'ljallariga mos tushsa, ana o'shanda kishida o'zlashtirib olgan bilimlarni turmushga tatbiq etish istagi (jelaniye) hosil bo'ladi. Shunday qilib, bilim (g'oya, nazariya) e'tiqodga aylanishi uchun: anglash-tushunish-ishonish-rizo bo'lish (rozi bo'lish)-istash (istak) bosqichlarini bosib o'tadi. Tajribadan ma'lumki, faqat mustahkam e'tiqodga aylangan bilim (g'oya, nazariya) inson amaliy faoliyatini takomillashtiradi.

Inson e'tiqodi nafaqat turli haqiqatlarni o'zida aks ettirgan bilimlarga, balki o'sha bilimlarga bergan bahosiga, unga bo'lgan munosabatida ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham bilimning (g'oyaning, nazariyaning) e'tiqodga aylanishi jarayonini

tahlil etganda, bilim ijtimoiy amaliyotning natijasi, insonning bilish borasidagi faoliyati hosilasi ekanligini unutmazlik darkor. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, e'tiqod o'zida nafaqat bilimni, baholashni ham mujassamlashtiradi. Nafaqat bilimga, balki baholashga ham asoslanadi. O'z navbatida, bilimlarning to'g'ri yoki noto'g'ri, ilmiy yoki g'ayriilmiy, diniy yoki dunyoviy deb baholanishi insonning manfaatlari, ehtiyojlari bilan bog'liq ekanligini payqamaslik, gumrohlik bo'lur edi.

Bilimning, g'oyaning, nazariyaning e'tiqodga aylanishi jarayonini yuqoridagi fikr-mulohazalar chig'irig'idan o'tkazib tahlil qilsak, e'tiqod o'zida quyidagi uch holatni, chunonchi: a) bilim, g'oya, nazariyani, (ya'ni aqliy); b) bilimlarga berilgan bahoni, munosabatni (ya'ni baholash holati); v) o'zlashtirilgan bilimlarni o'z hatti-harakatiga tatbiq etish, o'sha bilimlar asosida o'z hatti-harakatini tartibga solish (hohish-irodani bosh-qarish holati)ni birlashtirib turishiga ishonch hosil kilamiz.

Ko'rinib turibdiki, inson xulq-atvori va hatti-hara-katining fenomeni bo'lgan e'tiqod: bilish, baholash, boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi. Uning bilish funksiyasi asosida dunyoqarashga doir bilimlar yotsa, baholash funksiyasi o'zlashtirib olingan bilimlarga tayanib, sodir bo'layotgan o'zgarishlar ma'nosi va mohiyatini tushunib olish bilan bog'liq bo'ladi. Boshqarish funksiyasi esa insonning o'z xulq-atvori, hatti-harakatiga ko'rsatayotgan ta'siri, uni aniq maqsad tomon yo'naltira olish qobiliyati, malakasi bilan aloqador bo'ladi.

Yuqoridagi strukturaviy tahlil shundan dalolat beradiki, bilim, g'oya, nazariya, insoning amaliy faoliyati chig'irig'idan o'tgach, ishonchga aylanadi. Ishonch esa e'tiqodning mag'zini tashkil etadi. Xuddi shuning uchun ham ishonch e'tiqodga doimiy ichki

turtki berib turuvchi qudrat bo'lsa, iymon uning tashqi ifodasidir. Ishonch insonning ongliligi holati, hulk-atvorini xarakterlasa, iymon kishining hatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, iymonlilik eng avvalo insofda, diyonatda namoyon bo'ladi. Insofli, diyonatli insonga xos xislatlardan biri erkinlikdir. Iymonli kishi uchun erkin, mustaqil fikr-mulohaza yuritish, boshqacharoq aytganimizda, aql va ko'ngil ozodligi har kanday saltanat, toju-taxtdan baland-roqdir.(5,75-80) Inson o'zining kundalik amaliy faoliyatida iymonli bo'lishi uchun, ya'ni iymonini mustahkamlamog'i uchun, Sharqning buyuk shoirlaridan biri So'fi Olloyor aytganidek, bilimli, ilmi kishilar suhbatida tez-tez bo'lib turmog'i darkor. Boshqacha aytganimizda, iymonli bo'lishning dastlabki shartlaridan biri – ziyoli, bilimli, ilmi kishilar suhbatida bo'lishdir. Bunday suhbatlardan bo'lgan inson, o'z-

o'zidan muno-fiq, johil kimsalar davrasidan o'zini olib qocha boshlaydi. Ulamolar, yaxshi kishilar suhbatida bo'lgan kishi asta-sekin savob ishlar qilishni o'ziga odat qila boshlaydi. Chunonchi, tashnaga suv beradi, bemordan hol so'raydi, kambag'al bechoraga shafqat ko'rsatadi, ota-ona hurmatini o'rniga qo'ya boshlaydi va hokazo. Iymonlik kishi barcha yaxshiliklarga amal qilishni o'ziga odat qiladi.(13-126) Alisher Navoiy bilan So'fi Olloyorning fikr-mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, iymon insonning hatti-harakatida o'z ifodasini topadi.

Iymonning muhim ko'rsatkichlaridan biri – insof– diyo-natdir. Insof-diyonatli insonning hatti-harakatida hamisha bardosh-chidamlilik, shukronalik ustuvorlik qiladi. Bunday kishilar hayotning tashvishlarini hamisha sabr-toqat bilan kutib oladilar, uni o'ta sovuqqonlik bilan bartaraf etish

yo'llarini qidiradilar. Erishgan yutuqlariga esa qayta-qayta shukur qiladilar. Shukronalik, sabr-qanoat bilan qo'shib-qorilib ketadi. Bunday aralashuv natijasida hosil bo'lgan ruhiy-ma'naviy qudrat insonni hamisha yaxshilik tomon yetaklaydi. Hatti-harakatiga unum, barokot ato etadi. Shukrona-lik ruhi insonni har qanday ochko'zliklardan, hayu-havaslardan, takabburlik, boshqalarni mensimaslik, g'iybatchilik kabi illatlardan uzoq yurishga olib keladi.

E'tiqod inson xulq-atvori va hatti-harakatining birligini holatini ifodalovchi integrativ tushunchadir. O'z navbatida, e'tiqod inson hatti-harakatining yo'nalishini belgilovchi asosiy determinantadir. Hohish-iroda, istak kabi unsurlar e'tiqodning inson amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi uchun hal qiluvchi turtki beradi. Amaliy faoliyat e'tiqodni inson hayotiy pozitsiyasiga aylantiradi.

Shunday qilib, e'tiqod inson dunyoqarashining eng barqaror komponentidir. Xuddi shu komponent inson ongi bilan faoliyati, so'zi bilan ishi orasidagi birlikni ta'minlovchi mustahkam, ishonchli ko'prikdir. Lekin e'tiqod o'z mazmuni, xarakteriga ko'ra: gumanistik, fashistik, kommunistik, rasistik bo'lishi mumkin. Avtoritarizm yoki zo'ravonlik, ma'muriy buyruqbozlik yoki irqchilikka asoslangan har qanday e'tiqod shaxs mustaqilligini yemiradi. Insonni buyruqni bajaruvchi qo'g'irchoqqa aylantiradi. Aniqroq qilib aytganimizda, dunyoqarashida fashistik yoki antigumanistik, irqchilik yoki buyuk davlatchilik, shovinizm yoki fanatizm ustuvorlik qilgan e'tiqodga asoslangan har kanday inson xech qachon mustaqil shaxs darajasiga ko'tarila olmaydi. Dunyoqarashida bunday e'tikod ustuvorlik qilgan kishi, shubhasiz, mustaqil ishlar, mustaqil yashash madaniyatidan benasib bo'lib qoladi.

Shunday qilib, e'tiqod inson dunyoqarashining eng barqaror elementidir. Insonning hayotdagi pozitsiyasi, uning turmush tarzining mazmuni xuddi shu komponentning mustahkamligiga, barqarorligiga bog'liq. Bunga hech qanday shak-shubha yo'q. O'z navbatida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson e'tiqodi bilim-lar, g'oyalar, nazariyalar asosida shakllanadi. Chinakam bilimga har tomonlama asoslangan, turmush sinovlaridan o'tgan ilmiy g'oyaga, nazariyaga asoslanmagan e'tiqod g'ayriinsoniy e'tiqoddur.

Mafkuralar

Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan g'oyalar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra: ilmiy yoki g'ayriilmiy, diniy va falsafiy, badiiy yoki ijtimoiy-siyosiy, xarakteriga qarab esa: milliy yoki umummilliy, bunyodkor yoki vayronkor bo'lishi mumkin. Ilmiy g'oyalar – fan taraqqiyotining mahsuli bo'lib, ilmiy izlanishlar natijasida hosil bo'ladi. g'ayriilmiy g'oyalar esa har tomonlama asoslanmagan chala haqiqatlar, o'tkinchi - oniy his-tuyg'ular asosida vujudga keladi. Ilmiy g'oyalar turli fan sohalarining asosiy prinsiplari, qoida va tushunchalari, qonun va qonuniyatlarini tashkil qiladigan fikr-mulohazalardir.

Diniy g'oyalar - har bir dinning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Insonning xudojo'yligini, iymon va e'tiqodining asosini tashkil etadi. Falsafiy g'oyalar o'zida olam va odam to'g'risidagi eng umumiy qarashlar, fikr-mulohazalarni mujassamlashtiradi. Badiiy g'oyalar olamdagi hodisa va voqealarni turli tasvirlarda, obrazlarda ifoda etsa, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar turli millatlar, elatlar va xalqlarning farovon turmush, adolatli jamiyat, uning bunyodkori bo'lgan erkin, ozod, mustaqil barkamol inson to'g'risidagi orzu-umidlarini aks ettiradi. Ozodlik va mustaqillik g'oyalari-ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning eng baland cho'qqisidir.

Inson aql-zakovatining mahsuli bo'lgan g'oyalar ezgulikka yoki yovuzlikka, ozodlikka yoki istibdodga, ma'rifatga yoki jaholatga xizmat qildi. Chunki inson qalbida yaxshilik bilan yomonlik, bunyodkorlik bilan vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi.(1-10) Bunyodkor g'oyalar hamisha ezgulikka, yaxshilikka xizmat qilgan bo'lsa, vayronkor g'oyalar jaxolatga xizmat qildi. Chunonchi, o'tgan asrning 30-yillarida Italiya va Germaniyada fashizm g'oyalarining g'alabasi, nafaqat italyan, nafaqat nemis xalqlarining, bali dunyodagi millionlab kishilar boshiga cheksiz kulfatlar solgani, son-sanoqsiz jabru-jafolar olib kelgani hammaga ayon. Shuningdek, sinfiy antagonizm g'oyalariga asoslangan totalitar tuzum millionlab kishilar taqdiriga mash'um iz qoldirganini jahonning barcha kishilari yaxshi biladilar. Zo'rlikka, adolatsizlikka asoslangan bunday g'oyalar, mafkuralar oxir-oqibatda jahon xalqlarining ko'z o'ngida inqirozga uchradi.

Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida bunyodkor va vayronkor g'oyalar, mafkuralar davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan zamonlar ham bo'lgan. Zamonlar o'tishi bilan ular o'z mavqeini yo'qotgan yoki mustahkamlab borgan. Bunyodkor, ezgulik va yaxshilikka xizmat qilgan g'oyalar, mafkuralar xalq, millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan. Fuqarolar undan hamisha ma'naviy ozuqa olib turganlar.

Hamma zamonlarda ham g'oyalar, mafkuralar o'rtasida turli bahs-munozaralar, tortishuvlar bo'lib turgan. Shuningdek, turli g'oyalar, mafkuralarni murosaga chorlovchi, kelishtirishga urinuvchi g'oyalar, mafkuralar ham bo'lganligi rost. Chunonchi, bir-biridan keskin farq qiladigan, Xudo va diniy qadriyatlarni tomomila rad etuvchi ateizm bilan xuddi ish qoidalarini mutlaqlashtiruvchi teizm o'rtasidagi bahs-munozaralar hozir ham davom etmoqda.(9-34-36)

Yovuz va vayronkor g'oyalarga asoslangan diniy ekstremizm, fashizm,

bolshevizm, irqchilik, terrorism, millatchilik g'oyalari va mafkularining insoniyat boshiga solgan kulfatlari, jabru-jafolarining son-sanog'i yo'qligi hammaga ayon. Xususan, yovuz va vayronkor g'oyalarga asoslangan diniy ekstremizm, ayniqsa diniy fanatizm bugun davlatlar, xalqlar, millatlar taqdiriga xavf solmoqda. Ayniqsa, diniy fanatizm illatiga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlarini jamiyatda beqarorlik to'liqini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar.(4-37)

Buzg'unchi, yovuz g'oyalarning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri aqidaparastlikdir. Bunday g'oyalar, qanday ko'rinishda bo'lmasin, jamiyat uchun o'ta xavfli ekanligiga keksa tarix guvohdir. O'rta asrlarda aqidaparastlik g'arbda ham, Sharqda ham hukmronlik qildi. Aqidaparastlik yordamida Yevropada cherkovning mutlaq hukmronligi ta'minlandi. Boshqacha aytganimizda, aqidaparastlik Yevropada inkvizitsiyaning g'oyaviy quroliga aylandi. Hur, erkin fikr taraqqiyotiga g'ov bo'ldi. Nikolay Kopernik, Galileo Galiley, Jordano Bruno o'z fikr-mulohazalarini erkin aytganlari uchun jaholat qurboni bo'ldilar. Sharqda esa Imom Buxoriy, Ibn Sino singari buyuk allomalar o'zlarining hur, erkin fikrlari uchun turli tazyiqlarga duchor bo'ldilar. Mansub Xalloy, Nasimiy, Boborahim Mashrab singari mustaqil fikrlovchi zotlar esa qatl etildilar.(8-11)

Diniy ekstremizm insoniyat XXI asrga qadam qo'ygan hozirgi kunda ham jahon xalqlarining tinchligi va asoyishtaligiga tahdid solmoqda. Hozirgi zamon diniy ekstremizmining o'ziga xos xususiyati uning xalqaro terrorism bilan qo'shib-qorilib ketganligidadir. Aniqroq qilib aytganimizda, terrorism diniy ekstremizmning eng dahshatli quroliga aylandi. Terroristlar o'zlarining qabih niyatlarini amalga oshirish uchun nafaqat muqaddas islom dini, balki umuminsoniy qadriyatlar ko'zgusi bo'lgan demokratik shiorlar bilan ham niqoblanayotirlar.

Bugungi terrorismning o'ziga xos eng muhim xususiyati shundan iboratki, u o'z atrofida narkobiznes bilan shug'ulla-uvchilar, xalqaro jinoyatchilar to'ldasini ham to'plamoqda. Aniqroq qilib aytganimizda, bugungi terrorism xalqaro narkobiznes va jinoyatchilik bilan chirmashib ketgan. Xuddi shuning uchun ham bugungi terrorismning millati yoki tili, dini yoki davlati yo'q. Bunday illatga giriftor bo'lgan kimsalar ongi va faoliyatida qasoskorlik, alamzadalik tuyg'ulari ustuvorlik qiladi. O'ziga yoqmagan har qanday siyosiy partiya yoki ijtimoiy harakatni, har qanday tuzumni yo'qotib tashlashga intiladi. Biror bir davlat qo'lga kiritgan yutuqlarni ko'ra olmaydi. Unga darhol moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazish yo'llarini izlaydi.

Terrorizm bugun u yoki bu mamlakat doirasidan chiqib, xalqaro fojeaga aylandi. Uning jirkanch basharasi insoniyatning barcha ajdodlari va avlodlarining aql-zakovati tufayli yaratilgan jahon sivilizatsiyasining taqdiriga xavf solmoqda. Xuddi shuning uchun ham bugun terrorismga qarshi jahon xalqlarining ommaviy kurashi boshlandi. Bunday kurashning yalovbardori terrorism dahshatidan eng ko'p aziyat chekkan Amerika qo'shma Shtatlaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2001 yilning 5 oktabrida bergan bayonotida alohida ta'kidlaganidek, "Amerika hukumati terrorismni tag-tomiri bilan yo'q qilish, dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, bunday kuchlarni qo'llab-quvvatlayotgan, ularni mablag', qurol-yarog', buzg'unchi mafkura bilan ta'min-layotgan,

quporuvchilik, bosqinchilik harakatlarini amalga oshirish uchun joylarga jo'natayotgan yovuz niyatli markazlarga qarshi ayovsiz kurash e'lon qildi".(16) Jahonning yuzdan ortiq mamlakati AqShning terrorizmga qarshi kurashini qo'llab-quvvatladilar.

Xalqaro terrorizm bugun jahondagi barcha xalqlarning tinchligi va osiyishtaligiga, barqarorligiga va taraqqiyotiga ro'y-rost tahdid solmoqda. Shunday ekan, XXI asrning vabosi deb atalayotgan bunday illatga qarshi kurashdan chetda turishga hech kimning haqqi yo'q.

Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "...xalqaro terrorizmga qarshi kurashda qat'iyat bildirayotgan, bu yo'lda sobitlik bilan harakat qilayotgan davlatlar safiga qo'shilishimiz, xavf-sizlik, chegaralarimiz dahlsizligi borasida ularning kafolatini olishimiz, ko'magiga tayanishimiz zarurligi barchamiz uchun ayon bo'lishi kerak".(16) Chunki mamlakatimiz bir necha yillardan buyon terrorizm jabrini tortib kelayotir. Bunday qabohat o'choqlarining bizga yon qo'shni bo'lgan Afg'oniston zaminida joylashganligi, terrorchilar safida ba'zi nonko'r vatangadolarning o'z vatandoshlariga tish qayrab turgani yanada tashvishlidir. Halqaro terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etish borasidagi O'zbekiston Respublikasining pozitsiyasi davlatimiz rahbarining 2001 yilning 5 oktabridagi bayonotida aniq bayon etilgan. Xuddi shuning uchun ham O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaro terrorizmga qarshi kurashdan tashqarida turishi mumkin emas.

Insonning ongi va faoliyatida taraqqiyot, progress tomon intilish mavjud ekan bunyodkor g'oyalar va mafkuralar tug'ilaveradi. O'z navbatida, bunyodkor g'oyalarning, mafkuralarning antipodi sifatida vayronkor g'oyalar, mafkuralar ham bosh ko'taraveradi. Ular orasida kurash avj olaveradi. Shunday ekan, bunday kurashga hamisha tayyor bo'lish, ya'ni doimo hushyor va ogoh bo'lib yashamoq hayotiy zaruriyat bo'lib qolaveradi. Xuddi shuning uchun ham mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliqning vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. "Agar shunday bo'shliq paydo bo'lsa, so'zsiz uning o'rnini bizning tabiatimizga begona turli xil mafkuraviy tazyiqlar egallab olishi va o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.(2)

Bunday xavfni yaqqol tasavvur qilishimiz va uning oldini olishimiz uchun fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni, har tomonlama ilmiy asoslangan g'oyalar, mafkuralar to'g'risidagi ta'limot bilan qurollantirmog'imiz darkor. g'oyalarning, mafkuralarning shakillanishi va rivojlanishi qonunlari, qonuniyatlarini o'rganishimiz lozim.

X U L O S A.

Har qanday g'oyani, har qanday mafkurani ham inson yaratadi. Aniqroq qilib aytganimizda, g'oyalar dastlab yakka kishining ongida tug'iladi. Mafkura yordamida harakatga keladi. Fuqarolar dunyoqarashiga aylanadi. Kundalik amaliy faoliyatiga, turmush tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi va uni yagona maqsad sari yo'naltiradi. Inson o'zi ishlab chiqargan bunyodkor g'oyalardan, mafkuralardan zavq-shavq oladi, kuchiga-kuch, quvvatiga-quvvat qo'shiladi. Vayronkor g'oyalardan afsus-nadomatlar chekadi, iztirobga tushadi, pushaymon qiladi. Bunyodkor g'oyalar insonni oliyjanob maqsadlar tomon boshlasa, vayronkor g'oyalar uni inqiroz tomon yetaklaydi.

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'liga diqqat bilan razm solsak, millatlar, xalqlar yoki davlatlar rivojiga ta'sir ko'rsatgan g'oyalar, mafkuralar jahon sivilizatsiyasining yirik xazinasiga aylanganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu xazina millionlab odamlar uchun bitmas-tuganmas madaniy-ma'naviy ozuqa manbai bo'lib xizmat qilayotir. Vayronkor g'oyalar esa insoniyatning barcha avlodlari tomonidan qattiq qoralanmoqda. Xuddi shuning uchun ham insoniyat tarixi g'oyalar, mafkuralarning vujudga kelishi va ular orasidagi kurash tarixidir.

MILLIYLIK-MILLIY ISTIQLOL G‘OYASINING ASOSI

R E J A:

K I R I S H.

§1.‘Milliy istiqlol g‘oyasi tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy-falsafiy ildizlari.

§2.Milliylikni ifodalovchi eng asosiy ko‘rsatkichlar.

§3.Milliylik va baynalmilliylik dialektikasi.

§4.Milliy istiqlol g‘oyasi asosini tashkil etuvchi umuminsoniy tamoyillari.

§5.Insonparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurish-milliy istiqlol g‘oyasining yadrosi.

X U L O S A.

K I R I S H.

Mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarini insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek oliyjanob maqsad atrofida birlashtiruvchi qudrat – milliy istiqlol mafkurasidir. O‘z navbatida milliy istiqlol mafkurasining mag‘zini milliy istiqlol g‘oyasi tashkil etishini unutmazlik darkor. Milliy istiqlol g‘oyasining asosini esa milliylik tashkil etadi.

Shuning uchun ham milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasini turmushga tadbiq etish uchun bu murakkab jarayonning tashkilotchilari va targ‘ibotchilari milliylik tushunchasining mohiyatini, milliylik inson turmush tarzida namoyon bo‘lishini ifodalovchi eng asosiy ko‘rsatkichlar: milliy ong, milliy manfaat va milliy ehtiyoj, milliy g‘urur. Inson milliy xis tuyg‘ularini aniqlovchi mezonlar to‘g‘risida puxta bilimga, aniq va tiniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek, milliylik va baynalmilliylik dialektikasi. Mamlakatimizdagi millatlararo munosabatlarda, milliylik va baynalmilliylikning uyg‘unlashuvini inson kundalik faoliyatidagi ko‘rinishlarda alohida e‘tibor qaratish kerak. Shunga ko‘ra milliy istiqlol g‘oyasida mamlakatimizda yashovchi barcha millatlar, elatlar manfaati va ehtiyojlari o‘z ifodasini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘ruza matnida yuqoridagilar bilan bir qatorda , milliy istiqlol g‘oyasini fuqarolar ongiga singdirish zaruriyatining ortib borayotganligi, milliy istiqlol g‘oyasining umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlasha borishi jarayoni to‘g‘risida ham fikr yuritiladi.

Milliy istiqlol g'oyasi, tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy-falsafiy ildizlari

Mustaqillik yillarda to'plangan tajriba va ijtimoiy hayot rivoji aslida inson, jamiyat g'oya va mafkurasiz yashay olmasligini ko'rsatdi. Zotan odamzod o'zining ruhi va shuuridagi ko'pdan-ko'p savollarga javob bo'ladigan uni doimiy faoliyatga undab turadigan hayotbaxsh g'oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki tabiatda, jamiyatda bo'shliq bo'lmagani kabi inson ongi va qalbida ham bo'shliq bo'lmaydi. Jamiyat hayotida sog'lom g'oya hukmron bo'lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini yot zararli g'oyalardan bilan egallab. Xalqning turmush tarzini izdan chiqaradi. Yurtboshimiz bugungi taraqqiyotning mana shunday ziga xos xususiyatlarini teran xis etib, buyuk maqsadlar bilan yashayotgan xalqimizning intilishlariga mos keladigan milliy g'oyasi to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. Bu ta'limot Prezidentimiz asarlarida to'la-to'kis asoslab berilgan. Hozirgi davrda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarga tushuntirish, targ'ib etish, undagi bilim - qarashlar asosida yangicha e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirish nihoyatda muhim.

Milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolat, erinlik, mustaqillik bilan bog'liq tuyg'ularni aks ettiradi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'rifiga ko'ra, milliy istiqlol g'oyasi u "xalqning maqsad-muddalarini ifodalaydi, tarix sinoatlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, olloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli, yusak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tehlkali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir.

Butun insoniyat tarixida muayyan millatga xos maqsadlarni ifodalashga xizmat qiluvchi g'oya, uning asosiy tushunchalari va tamoyillarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etgan.

Ana shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi dini, e'tiqodi, jamiyatdagi qaysi tabaqaga mansubligidan qat'iy nazar, O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning umummilliy maqsadini belgilab beradi va uni ruyobga chiqarishga chorlaydi. U mamlakatimizning o'p millatli xalqi ongi va qalbida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tushunchani shakllantiradi va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz milliy istiqlol g'oyasining vazifasi haqida to'xtalib shunday degan edi: "Men milliy istiqlol g'oyasi bugun tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarni me'rosiga, necha ming yilli tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni xis etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat kelmog'i zarur, deb bilaman".

Demak, milliy istiqlol g'oyasining ma'naviy tamoyillari, falsafiy negizlari xalqning asrar davomida shakllangan qadriyatlar bilan, ya'ni tarixiy ildizlari bilan

uyg'unlashib ketgan. Fuqarolar tafakkuri va qalbida mustaqillikka sadoqat, kelajak va mustaqillik haqida qayg'rish, o'zligini, xalq Vatan qadr-qimmatini to'g'ri anglash va uni himoya qilish milliy istiqloq g'oyasining mohiyatini ko'p jihatdan belgilaydi. Milliy istiqloq g'oyasining tarixiy ildizlari – xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayogan boy madaniy va ma'naviy me'rosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi ozodlik erkinlik uchun kurash ruhi, ota-bobolarmizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan ta'surotlari, bunyodkorlik ishlari hada ularni amalga oshirishi ma'naviy ruh bergan tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. U asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallashib takomillashib kelgan. Bu tafakkurning markazida yaratganning eng ulug' mu'jizasi bo'lmish insonning ulug'ligi va mu'tabarligi g'oyasi yotadi, binobarin u qadrlanishi, e'zozlanishi lozim.

Chunki mamlakatimizning hayoti, farovonligi ana shu mehnatkash insonlarning mehnatga, faoliyatiga bog'liq. Shu tufayli ham Sharqda komil inson g'oyasi qadimdan buyuk orzu bo'lib, donishmandlarimiz hayolini band etib kelgan.

Bu tamoyil xalqimizning ruhini dahosini aks ettiruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, buyuk ajdodlarimiz, sohibqiron Amir Temurning sog'lom ma'naviyat maxsuli blgan "Kuch – adolatdadir" degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan, mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etishda, ayniqsa uni odillik bilan boshqarishda, ma'naviy-mafkuraiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Yoki ayollarning og'ir jismoniy mehnatdan ozod qilinganiga e'tibor bering. Mazdakiylik ta'limotida xotin-qizlar va erkaklar tengligi xotin-qizlarning aqliy imkoniyatlari erkaklarnikidan kam emasligi haqidagi g'oyasi ilgari surilgan.

Bir vaqtlar savdogarlar do'konlarga umuman qulf osishmaganliklari, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shuning uchun ham tarixiy xotirani uyg'otish asosida o'zlikni anglash bugungi kundagi muhim mafkuraviy vazifadir.

Demak, milliy istiqloq g'oyasining ma'no mazmunini belgilaydigan eng muhim omillardan biri bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir. Chunki tarix – buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba'zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi. Tarixga berilgan xolis baho mafkuraning hayotiyliigi va ta'sirchanligiga asos bo'ladi. Xalqimizning o'ziga xos sharqona turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatini ifoda etuvchi xalq og'zaki ijodi namunalari. "Alpomish", "Shashmaqom" kabi durdona asarlar asriy ideallarni zida ifoda etgan milliy qahramonlarning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardandir. Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning vatan taqdiri uchun olib borgan qahramonona kurashlari, ona Vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan jasoratlari har birimizda cheksiz fahr va g'urur xissini uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari deganda ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li, tafakkur tarzi, amaliy faolligi, bunyodkorlik ishlari eng yaxshi urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlari mustahkam iymon e'tiqod fuqarolarimiz uchun namuna blishi, xato kamchilik, nuqsonlardan esa to'g'ri xulosa va saboqlar chiqarish uchun asos blishitushuniladi. Milliy istiqloq g'oyasi chuqur falsafiy ildizlarga ham egadir. Bunda bir tomondan jahon falsafasidagi

umuminsoniy qadriyatlar, ikkinchi tomondan Sharq falsafasi va madaniyati, uchinchidan esa yurtimizda o'tgan alloma bobolarimizning falsafiy me'rosi o'z o'rniga ega. Ana shu asosda yaratilgan g'oya va mafkura shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga ongiga singmog'i, haqiqiy iymonga aylanishi lozim. qadimgi yunon faylasufi Geraklit o'zining Sharqda o'tgan g'oyaviy ustozlarini, "Avesto"da muqaddas kitobda bitilgan falsafiy yikrlarni nazarda tutib, yurtimizga "falsafiy tafakkur beshligi" deb ta'rf bergan edi. "Avesto" da ifodalangan falsafiy tamoyillar va milliy g'oyalar ezgulik vayovuzlik o'rtasidagi kurash, olam va odvamning yaralishi, inson va uning kamolati haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, poklik, halollik, mardlik kabi komil inson sifatleri bugungi dunyoqarash shakllanishiga samarali ta'sir o'tkazadi Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to'g'risidagi g'oyalari bu borada muhim ahamiyatga molikdir. Ayniqsa, dunyoviy kashfiyotlar yaratgan al-Xorazmiy, Sharq naturfilosofiyasining otasi Abu Rayhon Beruniyning tabiatshunoslikka oid bir qator fanlarni kashf etganligi, uning ijtimoiy ahloqiy qarashlarri, sotsiolgiyaga oid ilk falsafiy sistemani ishlab chiqqan Abk nasr Farobiyning adolatli jamiyat haqidagi qarashlari, Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy me'rosi, A.Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushohadalari, Bobur, Mashrab, Bedil va Ahmad Donish asrimiz boshidagi ma'rifatpavar ziyolilarning faoliyati ham milliy g'oya va mafkuraning teran tomirlaridir. Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy, uning ma'no mazmuni, asosiy g'oya va tamoyillari, milliy davlatchiligimizni qayta tiklab, jamiyatimizning taraqqiyot yo'lini nazariy va amaliy jihatdan belgilab bergan Prezidentimiz I.Karimov asarlarida chuqur ifoda etilgan. Bu asarlarda mamlaatning rivojlanish yo'li, uning o'ziga xos xususiyatlari, oldimizga quygan ulug'vor vazifalarni amalga oshirish imoniyatlari ko'rsatib berilgan. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Milliy g'oya-birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarinipayvand qilishdekolijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur". Xulosa qilib aytganda milliy istiqlol g'oyasining mohiyati va mazmuni Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan. Milliy istiqlol g'oyasi tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zliknianglash mezon. U xalqimizning tub maqsadlari ifodasi, jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi ma'naviy omildir.

Milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning boy madaniy merosi: qadriyatlar, urf-odatleri va an'analari, yuksak tarixi, xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakuri va dunyoqarashi, ertak va afsonalari kabi manbalardan oziqlanadi. U dunyoviy va diniy qarashlar, millat falsafasi, xalqimizning ozodlik, komil inson to'g'risidagi orzu-umidlarini aks ettradi.

Milliylikni ifodalovchi eng asosiy ko'rsatkichlar.

Har bir millat o'ziga xos madaniyat yaratatdi va shu madaniyat tufayli o'zligini anglaydi, jahon taraqqiyotiga xissa qo'shadi. Milliy madaniyatni kamol topishi, rivoji va saqlanishi uchun eng asosiy tabiiy omil bu Vatandır. Vatansiz milliy madanitning takomili, uning ajdodlaridan avlodlariga tla xolda meros qolishi to'g'risida gapirish qiyin. Faqat o'z vatanidagi millat madaniyatini cheksiz

rivojlantirish, ma'naviy kamolotning yuksak cho'qqilariga tomon yetish imkoniga to'la-to'kis ega bo'lishi mumkin.

Millatning ruhi, unga mansub kishilarning bir-biriga va dunyoga aytadigan so'zi, millatning o'tmishi va me'rosini ifoda qilish, maqsad va istaklarini bayon etish uslubi bu millatning tilidir. Xatto millat ishlatayotgan so'zlarni tahlil qilib ham shu millatning tarixiy taqdiri va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Jahon millatni, millatga mansub bo'lgan kishilarning ma'naviyati, ahloqi va nafosati kabi jihatlari orqali taniydi va baholaydi. Kishilar o'zaro munosabatga kirshayotganda millatning mentaliteti, ahloqi va ma'naviy xususiyatlari o'z ifodasini topgani singari, xalqaro munosabatlarda ham bunday xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda o'z urf-odat an'alariga ega bo'lmagan millat yo'q. Ma'naviy hayotning ana shu jihatlari orqali millatning o'zligi namoyon bo'ladi. Urf-odat va an'alarda millatning tarixi, o'tmishi, madaniy merosi o'z aksini topgan. Ana shu xususiyatlarni yo'qotgan millat etnoijtimoiy birlik sifatida yo'qoladi. Millatning madaniyat va sivilizatsiya jihatidan yaratgan boylik va ma'naviy merosini bir so'z bilan madaniy qadriyatlar deb ataladi. Milliy qadriyatlar shuningde muayyan millatning qadr-qimmat, dunyodagi o'rni va salohiyatini ham namoyon etadi. O'z qadriyatlarini ko'z qorachig'idek saqlash, asrab-avaylash va kelajak alodlarga yetkazish millatga mansub har bir kishi va avlod uchun ham qarz ham farzdir.

Insonning baxt-saodati, kelajak hayotining yaxshi yoki yomon bo'lishi davlat mustaqilligi mustahkamlash bilan bir qatorda turli millatlar, elatlar, sinflar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlik, hamjihatlik munosabatlarining takomillashishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu ayniqsa, ko'p millatli davlat jumladan, O'zbekiston Respublikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida hozir o'zining, turmush tarzi tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari va rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan qariyb ikki ming har xil xalqlar millatlar yashamoqda. Har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'iy nazar, eng avvalo o'zining milliy ongi va psixologiyasida ifodalanadi. Muayyan jamiyatda istiqomat qiluvchi har bir millatning ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyatning moddiy, ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. Milliy ong ijtimoiy ong shakllari singari ma'lum davrda o'zining nisbiy mustaqilligi tufayli jamiyat taraqqiyotining tubdan o'zgartirib yuborishga faol ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi kunda milliy uyg'onish, davr taqozasiga ko'ra, taraqqiyotning obyektiv ijtimoiy voqealigiga aylanadi. Milliy o'zlikni anglash har kishida o'zining qaysi millatga mansubligi, millat tarixi, madaniyati va me'rosi, urf-odatlari va milliy tilini har taraflama chuqur bilishni talab etadi. "Milliy ong, milliy o'ziga xoslik, millatga mansublikni yuqori darajada anglashdan kelib chiqadi. qachonki xalq tarixi taraqqiyoti davrida millat bo'lib shakllanib, unga mansublikni oriyat, qadr-qimmat va qadriyat darajasida anglasa, uni himoya qilishga, asrab avaylashga intiladi".

Milliy o'zlikni anglash "Millatning (elatning) o'zini-o'zi real mavjud bo'lgan subyekt, muayyan va ma'naviy qadriyatlarning tashuvchi sifatida tasdiqlashi, uning muayyan etnik birlikka, davlatga, tilga, madaniyat va an'analarga mansubligini tushunib yetishi hamda ularni rivojlantirish, boyitish

zaruratini va buning aniq-oydin yo‘llarini anglashidir”.

Har bir millat ma’lum manfaatlar atrofida birlashib yagona etnik birlikni tashkil etadi. Millat manfaatlar muayyan ma’noda zaruriy ehtiyojlarni anglashdir. Shunga muvofiq milliy manfaat bir millatning o‘z huquqlarini, erkinliklarini ta’minlash madaniyatining, tili, qadriyatlarining barqaror rivojlanishiga, jahon sivilizatsiyasida o‘zga millatlar o‘rtasida o‘z o‘rnini tushinib yetishga o‘sib boradigan zaruriyatni barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ehtiyojdir. Bunda milliy ehtiyojlar doimiy ravishda o‘sib boradi va millatning taraqqiyot sari intilishida yetakchi rol o‘ynaydi. Ammo milliy taraqqiyot uchun ehtiyojlarining o‘sib borishini o‘zi yetarli emas. Shu bilan birga ularni qondirish uchun zarur bo‘ladigan imkoniyat va sharoitlar bo‘lishi taqozo etiladi. Ko‘p millatli davlatlarda bir millatga nisbatan ikkinchi bir millatga taraqqiyot uchun zarur bo‘ladigan imkoniyatlar doirasi keng bo‘lsa, bir millat manfaatlari boshqalarnikidan uchtun qo‘yilsa millatlararo munosabatlarda norozilik kelib chiqadi., har qanday o‘p millatli davlatlarda millatlar uchunbarcha sohalarda keng sharoitlar yaratish, manfaatlari uyg‘unlashtirish davlat siyosatida ustivor bo‘lishi lozim. Prezidentimiz I.A.Karmov ta’kidlaganidek, har qanday millat u naqadar kichik bo‘lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi, yer yuzidagi madaniy va genetik fondlarning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo‘lmog‘i kerak. Va shu maqsad birinchi navbatda, ushbu etnik guruhlarni o‘z ichiga oluvchi har bir alohida davlatlarning vazifasidir.

Ayni mahalda bir millat o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning xalqlar vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ruyobga chiqarilmasligi lozim. Ba’zi millat, etnoslar vakillarining boshqalariga takabburlik bilan mensimay munosabatda bo‘lishi kabi holatlar yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan har qanday sharoitda barham berish lozim. “O‘zbekiston o‘zining barcha qonun va hujjatlarida o‘z xududida yashayotgan barcha millatlar va elatlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini huquqiy jihatdan kafolatlab qo‘ygan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: “O‘zbekiston respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, deb ta’kidlagan. Demokratiya faqatgina bir davlatning ichki turmush va muammolariga ta’luqli voqelik emas. Bu boshqa davlatlar bilan ham teng asosda, tinchlik, barqarorlik tamoyillari bilan yashash demakdir. Bu o‘rinda milliy manfaat, avvalo mamlakatning ichki siyosati va iqtisodiy ma’naviy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan xalqaro maydondagi faoliyat tushiniladi. Demokratiya sharoitida xalqaro munosabatlarda geopolitika ham rol o‘ynaydi. Geopolitika-ma’lum bir davlatning xalqaro munosabatlar jarayonida geografik, xududiy ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda yuritadigan tashqi siyosatidir. Bunda maskur davlat muayyan mintaqada o‘z milliy manfaatlarini qondirishga harakat qiladi. Umuman milliy manfaat-milliy ongning uzugini tashkil etadi. Milliy ong esa, milliy g‘urur bilan chambarchas bog‘liqdir. Xuddi ana shu tuyg‘u insonda mavjud bo‘lgan barcha qobiliyatlar, iste’dodlarni millat manfaati uchun safarbar

qilishga ichki stimuly vazifasini bajaradi. Mamlakatimizda sodir bo'ladigan yirik ijtimoiy o'zgarishlarni yanada jadallashtirish kishilardagi milliy g'urur tuyg'usi bilan bevosita bog'liqdir. O'z taqdirini mamalat, xalq taqdiri bilan mustahkam bog'lagan kishigina mustaqil davlatimiz manfaatini hammadan ko'proq himoya qilishga qodir bo'ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mamlakat fuqarolarining milliy g'ururi qancha baland bo'lsa, ularni jamiyat taraqqiyotiga qushadigan xissasi shuncha ko'p bo'ladi. Milliy g'urur deganda, o'z millatining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini chuqur anglab yetish, ona tili, dini, tarixi, madaniyati, adabiyoti va san'ati, urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayramu, sayillaridan fahrlanish tushuniladi. Milliy g'urur millatning vujudga kelishi, shakllanishi bilan paydo bo'ladi va rivojlana boradi. Millatning vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita Vatan ravnaqiga bog'liq bulganligi uchun milliy g'urur taraqqiyoti va yuksalishi ham Vatan taraqqiyotiga bog'liqdir. shuning uchun ham milliy g'urur-Vatanga bo'lgan sadoqat, mehr-muhabbat, bir so'z bilan aytganda vatanparvarlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin o'zoq yillar davomida o'z qadriyatlarimizni eslash ham tadqiq etilgan, xalq milliy g'ururdan mahrum bo'la boshlagan edi. O'sha davrlarda milliylik so'zini aytishning o'zi og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin edi. Bir so'z bilan aytganda milliy g'ururimiz o'zoq zamonlar toptaldi. Mamlakatimizning mustaqil bo'lishi, o'z davlatchiligimizning qaror topshi bilan xalqimizning milliy xis-tuyg'ulari uyg'onib, milliy g'urning nafaqat tiklanishi, balki uning yanada yuksalishi uchun ham mustahkam zamin yaraldi. Milliy g'ururdek tabarrukhis qalbiga jo bo'lgan inson o'zining butun talantini, iste'dodini, kuch-qudratini shu xalqqa, millatga, shu yurtga safarbar etishga doim tayyor turadi. YA'ni, bunday oliyjanoblik milliy g'urni baland insonda oddiy madaniyat ko'nikmasi bo'lib hisoblanadi. Milliy g'urur har bir insonda madaniy saviya darajasini mujassam bo'lsa, mana shunday saviyadagi farzandlari ko'p bo'lgan mamlakat, yurt doim g'olib, yengilmas va obod bo'ladi. Milliy g'urur, avvalo milliy g'oyaga tayanadi. Milliy g'oya esa milliy me'rosdan qudrat oladi. Milliy meros o'sha millatning o'zoq o'tmish davrlar davomida to'plangan aql-zakovat mevalari xazinasidir. Mana shu xazinadagi javohirlarsiz millat qiyofasini tasavvur qilish qiyin. Agar milliy merosni yuzaki o'rganar ekan, shu millatga mansub kishida madaniy saviya shakllanmaydi. U o'z millati haqida gapirganda yoki oshirib yuborishi yo bo'lmasa munosib baho berolmasligi mumkin. Har bir insonda bilim asosidagi madaniy saviya shakllanmas ekan, u maqtanchoqlikka, manmanlikka yo'l quyish mumkin. Milliy g'urur tuyg'usi-milliy takabburlik, milliy manmansirash, milliy kekkayishga tamoman qarama-qarshidir. Milliy g'urning aksi hisoblangan bunday g'ayriinsoniy qiliqlar birlashib, milliy qalandimog'likni vujudga keltiradi. Milliy kalandimog'lik ko'pmillatli mamlakat sharoitida millatning bir-biriga yaqinlashtirmaydi, balki ular orasiga adovat o'rig'ini sochadi, birini ikkinchisiga dushman qilib qo'ydi, turli nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Umuman, milliy g'urur har bir fuqaroning madaniy saviyasini, komilligini ifodalaydigan eng yuksak o'lchovdir. Milliy g'urur baland inson millat, xalq, davlat, jamiyat manfaatini o'z manfaatidan hamisha ustun quyadi.

3. Milliylik va baynalmilliylik dialektikasi.

Millat va millatlararo munosabatlar jamiyat hayotida katta o‘rin egallaydi. Milliy rivojlanishni va millatlararo munosabatlarni barqaror takomillashtirib borish ko‘pmillatli har qanday davlat uchun muhim amaliy ahamiyatga molikdir. Respublikamizda insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun avj olgan hozirgi sharoitda millatlararo madaniyatni yangi bosqichga ko‘tarmoq uchun odamlar milliy ongni va umuminsoniy qadriyatlarni, ayniqsa baynalmilal his-tuyg‘ularni shakllantirish muhim ahamiyatga molikdir. Buning uchun esa eng avvalo, milliylik va baynalmilliylik orasidagi dialektik aloqadorlik mexanizmini to‘la tushunib olmoq darkor.

Milliylik deganda, eng avvalo, o‘z millatini ulug‘lash va uni himoya qilish, milliy g‘urur va nafsoniyat tuyg‘usini o‘zining tili, adabiyoti, madaniyati va san‘ati, dini, tarixi va urf-odatlarini, barcha ma‘naviy qadriyatlarni qadrlash, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan ona diyorigini ardoqlash, uning tabiati, daryo va ko‘llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tushuniladi. Baynalmilliylik boshqa millat va elatlar manfaatini hamisha e‘tiborga olish ularning tili, adabiyoti, madaniyati, san‘ati, tarixi, dini, urf-odatlarini himoya qilish, qadrlay bilish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, bisotida baynalmilliylik tuyg‘usi bo‘lgan inson dastlab o‘z millati yoki elatining milliy qadriyatlarini uzlashtirib oladi. Milliy qadriyatlarni uzlashtirish orqali boshqa millat va elat yaratgan umuminsoniy qadriyatlarni, ya‘ni insoniyat yaratgan barcha ilg‘or progressiv qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Milliylik va baynalmilliylik inson faoliyatining bir ikkinchisi bilan dialektik aloqador bo‘lgan eng muhim his va tuyqulardir. Bu ikki xislat ikki darajada biri ikkinchisiz yashay olmaydi, mavjud ham bo‘la olmaydi. Inson faoliyatidagi bu ikki tuyg‘uning biri kuchsizlansa ikkinchisi ham darhol zaiflashadi. Lekin shuni alohida ta‘kidlash zarurki, baynalmilliylikning zaminida milliy ong yotadi. Chunki insonda milliylik tuyg‘usi bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millat elatga mansubligini his qila olmasa, o‘sha millat yoki elatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy manfaatlarini tushunib yetmasa, uni himoya qila bilmasa, urf-odatlarini va rasm-rusumlariga rioya qilmasa, madaniyati, tili, adabiyoti va tarixidan yiroq bo‘lsa, bunday kishi chinakam baynalmilalchi bo‘la olmaydi.

Ma‘lumki milliy munosabatlar ijtimoiy munosabat-larning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham milliy va millatlararo munosabatlarda ijtimoiy hayotimizning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma‘naviy va boshqa sohalarida ruy berayotgan o‘zgarishlar, qiyinchililar, ziddiyatlar o‘z aksini topmay qolmaydi. Har g‘qanday rivojlanishga ziddiyatlar xosdir. Binobarin o‘zaro milliy munosabatlar rivoji uchun ham muqarrardir. Eng muhim, ziddiyatlarni yuzaga keltirib turadigan jihatlarni ko‘ra bilish, hayot o‘rtaga qo‘yadigan savollarga o‘z vaqtida to‘g‘ri javob topib berish zarur. Afsuski, o‘tmishda milliy siyosatning yutuqlari haqida keragidan ortiqcha darajada gapirilsa, ammo maskur sohadagi jiddiy kamchiliklar, buzilishlar, xatolar, muammolar haqida lom-lum deyilmadi, jiddiy kiyinchaliklarni ko‘rib ko‘rmaslikka olindi.

Sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan tarbmyaviy-mafkuraviy ishlarimizda baynalmilliylik milliylidan ajratib qyilgan. Zo‘r baynalmilliylik haqida gapirdigu, milliy g‘urur haqida lom-lum demadik. Umumta‘lim maktablarining dasturida

milliy madaniyatni, millat tarixini, milliy tilni o'qitishga e'tibor berilmadi. Natijada yigit va qizlarimizning ko'pchiligi milliy qadriyatlarimizdan benasib bo'lib voyaga yetdilar.

Totalitar davlat uzoq yillar bir tomonlama olib borgan tarbiyaviy-mafkuraviy ishlari, ya'ni milliylikka asoslanmagan, milliylikdan ajralgan baynalminal tarbiya oqibatida odamlarning milliy manfaatlari poymol qilindi, milliy g'urur bug'ib qo'yildi.

Chunki mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, SSSRda kommunisti mafkuraning muhim maqsadi-aholini baynalmillalashtirish hamda markazning "sovet xalqi" degan o'ziga xos sotsial birlikni shakllantirish g'oyasini oshirish chog'ida barcha milliy xususiyatlari asosiy to'siq hisoblangani sir emas.

Sobiq totalitar sovet dalatining milliy masalani hal qilishdagi zo'ravonlik siyosatiga volga bo'yida yashaydigan kalmiqlar, shuningdek, chechenlar va ingushlarning ko'chirilib yuborilishi, qirim tatarlari, mesxetiyalik turklarning zo'ravonlik bilan o'z ona-Vatanlaridan mahrum qilib Markaziy Osiyoga ko'chirilib yuborishlari misoldir.

Milliy masalani hal qilishning jirkanch ko'rsatkichlaridan yana biri shu buldiki, iloji boricha millatlarni bir-biriga zo'ravonlik bilan qo'shib yuborishi ham amalga oshirildi. Taniqli etnograf S.I.Brukning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, 1926 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati bo'yicha sobiq sovet hududida 194 ta etnik birli yashagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1970 yilda 101 taga tushib qoldi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ular katta millatlarga qo'shib yuborilsa, oqibatda ular o'z ona tillari, urf-odatlar, an'analari va qadriyatlaridan asta-sekinlik bilan mahrum bo'lgan.

Sobiq totalitar sovet davlati SSSR hududida yagona tilni shakllantirish milliy madaniyatlar o'rniga yagona madaniyat vujudga keltirish borasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa til sohasida olib borilgan siyosatda rus tili rasmiy tilga aylanib bordi va kuklarga ko'tarib maqtaldi. Ammo o'z ona tilini esdan chiqarib o'zligini yuqotib manqurtga aylanib borayotgan millatlar haqida hech qayerda gapirilmas va yozilmas edi.

Milliy rivojlanishni tashkil qilish va millatlararo munosabatlarni takomillashtirish sobiq totalitar sovet davlati olib borgan siyosat nazariy jihatdan yaroqsiz ekanligini hayot tasdiqladi.

Bunday farqli ravishda milliy rivojlanish va millatlararo munosabatlarni takomillashtirib borishdagi dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida to'plangan tajribalar shundan iborat-bo'ldiki, bu mamlakatlarning ko'pchiligida har bir millatning sonidan qa'tiy nazar rivojlanish uchun ishlab chiqilgan huquqiy jihatlar real hayotda amalga oshirilishiga katta e'tibor berildi. Milliy ehtiyojlarning muntazam ravishda qondirilib borilishi asosida davlatlar o'z atrofida tabiiy ravishda turli millat va elat vakillarini birlashtiradi hamda demokratik fuqarolik jamiyat qurishga erishdilar.

Milliy va millatlararo munosabatlar masalasida yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklar qanday salbiy oqibatlarga olib kelganligini bilish, milliy masalada kelajakda bunday vaziyatlar takrorlanishiga yo'l qo'yilmaslik uchun ularni keltirib chiqargan va rivojlantirib yuborgan sabablarni keng va atroflicha idrok qilish maqsadga muvofiqdir. hozirgi kunning asosiy vazifasi milliy masalada o'tmishda ro'y bergan

nuqson va kamchiliklarni sanab o'tishdangina iborat bo'lmay, bali bugungi kunning vazifalari va kelajak haqida ilmiy asosda aniq-ravshan, fikr yuritishdir.

Milliy munosabatlarni yanada takomillashtirishda barcha millat va elatlar o'rtasidagi do'stlikni kuchaytirish, ularning hamkorligini mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan har bir milliy madaniyatdagi ijobiy yutuqlar, foydali tomonlarni doimiy ravishda o'rganib, ularni keng va atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o'zaro boyitishning, kishilarni baynalminal ruhda tarbiyalashning zarur yo'llaridan hisoblanadi.

Kishilarni baynalminal ruhda tarbiyalashda turli xalqlar o'rtasidagi do'stlikni, hamkorlikni rivojlantirishda insoniyat madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan turli tillarni mukammal egallash katta ahamiyat kasb etadi. Har bir til xalqning ma'naviy boyliklarini chuqurroq egallab olishi, millatlar va xalqlarning hayoti, tarixi, madaniyati va psixologiyasini chuqur tushunib olish uchun muhim o'ringa ega. shuningdek jahon millatlari o'rtasidagi do'stlikni, hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishda boshqa xorijiy tillarni bilish katta ahamiyat kasb etishi hammamizga ayon.

Ma'lumkiota-bobolarimiz bir necha chet tillarni, jumladan, arab, fors, sankrit, lotin, yunon va boshqa tillarda nodir asarlar yozib qoldirishgan. Umuman, har bir ko'p millatli davlatning mustaqil ishlab chiqilgan milliy siyosiy konsepsiyasi bo'lishi shart.

Davlatning faoliyatida amalga oshiriladigan milliy siyosat har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilanishi, millatlarning teng huquqligini ta'minni millatlararo munosabatlarni hisobga olish, bir millatlik, mahalliychilik, shovinizm va millatchilikni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, professor A.Choriyev ta'kidla-ganidek: "Davlat mafkurasining asosini tashkil etuvchi umum-milliy, umumdavlat g'oyasining bo'lishi tarixiy zaruratdir. Chunki, har qanday davlat sharoitida ham uning turli millat va elatlarga, maslak va manfaatlarga mansub fuqarolari uchun umumiy g'oya zarur. Yagona davlat hududida yashovchi barcha millatlar va elatlar manfaatiga mos tushuvchi umummilliy, umumdavlat g'oyasi bo'lmasa, ko'p millatli davlat sharoitida u yoki bu millat manfaati oyoq osti bo'ladi.

Xuddi shuning uchun ham turli millat va elatlar yashayotgan O'zbekiston sharoitida barcha millat va elatlarning milliy manfaatiga mos tushuvchi umummilliy g'oya ularni nurafshon kelajak-insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek oliyja-nob maqsad atrofida birlashtiradi.

4. Milliy istiqlol g'oyasi asosini tashkil etuvchi umuminsoniy tamoyillar.

Milliy mafkura vositasida elu-yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yib va ularni ado etishga qodir bo'ladi. Millatning, xalqning hamjihatligi esa har qanday taraqqiyotning garovidir.

Integrativ xususiyatga ega bo'lgan milliy mafkura jamiyat bisotida mavjud bo'lgan insonni ulug'lashga, uni erkin fikr yuritish, eng ilg'or umumbashariy g'oyalarni to'plash va uni amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan obyektiv shart-sharoitlar va

subyektiv omillarni yagona maqsad atrofida birlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'tmishda yaratilgan va mavjud bo'lgan fan, madaniyat, san'at, din, axloqning ilg'or elementlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan eng katta yutug'imiz xalqimiz azaldan orzu qilib kelgan barqarorlik, tinchlik, totuvlik kabi oliy qadriyatlarga erishganligimizdadir. Endilikda oldimizda turgan dolzarb vazifa-ana shu oliy ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qo'ldan bermay asrab-avaylab, himoya qilib saqlab qolish ustida doim izchil ravishda bosh qotirmog'imiz lozim. Bunda O'zbekistonda yashovchi har bir inson, yoshidan, millatidan qat'iy nazar o'z xissasini qo'shmog'i lozim.

O'zbekiston xalqining taraqqiyot yo'lida bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustivor va yetakchi o'rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu –intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning tinchlik-tituvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi bebaho ne'mat, ulug' saodatdir.

Lekin afsuski, hayotda bu ezgu tilaklarning ijobat bo'li-shiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o'zlarining g'arazli maqsadlari, nafs balosi yo'lida basha-riyatni hamisha nozi-adovat urush va qirg'inlar domiga tortib kelgan.

Xolbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishish, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi.

Aksincha, urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzul botqog'iga botiradi. Yi-girma yildan buyon o'zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib qolgan Afg'oniston buning yaqqol dalilidir.

Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doim tayyor turishimiz lozim. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligini – yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir.

Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oya hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlarga bunyod eta oladi.

Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mo-hiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismo-niy barkamollikni mujassam etgan, uni ezgulikka undaydigan oliyjanob g'oyadir. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda.

Insoniyat hozirgi davrda amalga oshirayotgan eng muhim g'oyalardan biri jamiyatdagi turli toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdir.

Ijtimoiy hamkorlik – murosa falsafasi bo'lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega

bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub bo'lgan shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligini ta'minlaydi. Natijada jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafoloti vujudga keladi.

Jamiyatni sun'iy ravishda bo'lib, turli qarama-qarshi-liklarni mutlaqlashtiradigan ta'limotlardan farqli o'laroq, ijtimoiy hamkorlik g'oyasi bu tabiiy rang-baranglikni milliy taraqqiyot manfaatlariga bo'yso'ndiradi. Bunda birinchi, jamiyatning ilg'or ustivor maqsad va manfaatlarini o'zida mujassam etadigan ilg'or g'oyalar milliy taraqqiyotning harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir inson ijtimoiy toifa yoki guruh o'zining dasturi maqsadlari amaliy faoliyatini ana shu g'oyalar bilan uyg'unlashtirib milliy taraqqiyotning zaruratiga aylandi.

Uchinchidan, har bir shaxs, ijtimoiy mavqei, dunyoqarash va e'tiqodidan qat'iy nazar, jamiyatning ustivor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy g'oyalarning amalga oshirish uchun o'zining mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Aholining turli qatlamlari orasidagi munosabatlar va o'zaro hamkorlikni yaxshilikni yaxshilash jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi. Binobarin, ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish hammaning, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari, jamiyatning ilg'or vakillari bo'lgan ziyolilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Milliy istiqloq g'oyasining asosiy tamoyillaridan biri, millatlararo totuvlikdir. Millatlararo totuvlik g'oyasi-umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Millalararo totuvlik – har bir millat vakilining is-te'dodi va salohiyatini to'laro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi. Bu g'oyani ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat, tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. “Tarixiy tajribaga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin. Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi”.

Shu bois, bugunki kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy istiqloq mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Milliy istiqloq g'oyasining asosiy umuminsoniy tamoyillaridan bir dinlararo bag'rikenglikdir, ya'ni xilma-xil e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, oliyanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashlaridir. qadim qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalari asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shavqat va bag'rikenglikka davat etadi. Azal-azldan diyorimizda islom, nasroniylik, iudaizm

kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Tariximizning eng murakkab, og'ir damlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojaralar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

Shuningdek, qonun ustivorligi, inson xaq-huquqlari va hurfikrlilik, dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik kabi milliy istiqlol g'oyasining umuminsoniy tamoyillari hisoblanadi.

Umuman milliy istiqlol mafkurasi yuqoridagi umumba-shariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi.

5. Insonparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurish - milliy istiqlol g'oyasining yadrosi.

Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, albatta. Bular mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy, madaniy soha-larda amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlarning qonuniy natijasidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi – huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiya-tini barpo etishdan iborat.

Ma'lumki, demokratik jamiyatni xalqaro miqyosda e'ti-rof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'z xohish irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikni ko'pchilikka bo'yso'nishi, barcha fuqarolarning huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi, davlatning asosiy organlarini saylash, ularning saylovchilar oldida hisob berish, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi".

Hozirgi zamon xorijiy mamlakatlarning huquqshunoslari, davlat va jamiyat arboblarni fikrlariga ko'ra demokratik huquqiy davlatni qurish uchun barcha mamlakatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar mavjud. Ular quyidagilar:

- 1.Saylovlar.
- 2.Saylov yakunlarini aniqlash usuli.
- 3.Teng huquqliligi.
- 4.Fikrlar erkinligi.
- 5.Ko'ppartiyaviylik.
- 6.O'z-o'zini boshqarish.

Bizning respublikamizda yuqorida ko'rsatilgan, demokratik davlatlarga xos bo'lgan asosiy belgilar qonunda ham amalda ham mavjuddir.

Ayni vaqtda jamiyatimizda demokratik jarayonlar tobora avj olib bormoqda. Mamlakatimizning siyosiy va davlat qurilishi haqida so'z yurtganda, uning quyidagi asosiy xususiyatlarini aytib o'tish lozim.

Siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda, demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, gumanizm g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish.

Demokratiyaning zaruriy sharti bo'lgan ko'ppartiyaviylik muhitini vujudga keltirish. Milliy demokratik davlatchilik qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linish bora-sidagi konstitutsiyaviy tamoyil asosida barpo etish. Mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vazifalarini

kengaytirish, “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” konsepsiyasi amalga oshirish. g‘arb xaqlari uchun notanish, ammo milliy tabiatimizga mos bo‘lgan o‘z-o‘zini boshqaruv usuli, millatni rivojlantirish hamda uning mavqeini oshirish.

Barcha fuqarolarning qonun huquqiy tengligi va qonun ustivorligini, jamiyat manfaatlarini va aholi xavfsizligini muhofazasini kafolatlovchi huquqiy davlatni barpo etish.

Jamiyatni asosi bo‘lgan oilani mustahkamlash negizida moddiy jihatdan ta‘minlash, ahloqiy jihatdan mustahkam oila bo‘lgan adolatli jamiyatni shakllantirish.

O‘zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi-ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Bu yo‘lning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bir tomondan tashabbus va tadbirkorlikni, odamni o‘z kuchi va salohiyatiga suyanishini rag‘batlantiradi, ishlab chiqarishni iste‘molchi manfaatlariga bo‘yso‘ndiradi.

Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, odamlarda mulkka egalik xissini tarbiyalash, kichik va o‘rta korxonalarni izchil rivojlantirish aholi farovonligi va daromadlarining ortishida, ishsizlik muammosini yechishda salmoqli manba vazifasini bajarmoqda.

Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma‘naviy va ahloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasiga, o‘z kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi.

Jamiyatni ma‘naviy yangilashdan ko‘zlangan bosh maqsad yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglik kabi masalalar-dan iborat. Endigi eng dolzarb vazifa – bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukam-mal ochib berish, o‘quvchilarimiz, talabalarimiz, keng jamoat-chilikka sodda, lunda tushuntirib berish, ularni zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jushqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog‘lom ezgu maqsadlar sari birlashtirib uning o‘z muddaolarga erishishi uchun ma‘naviy – ruhiy kuch-qudrat be-radigan poydevor bo‘lib kelgan.

U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas‘uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma‘naviy mezondir.

Bu O‘zbekistonda istiqomat qiladigan va o‘z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog‘lagan har bir kishining “Vatan menga nima berdi” deb emas, balki “Men Vatan ravnaqi uchun nima qilayapman” degan mas‘uliyat tuyg‘usi bilan yashashi demakdir.

Milliy mafkura haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizmi, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to‘liq ta‘min-laydi. Asosiy qonunimizning 12-moddasida bu qoida quydagicha ifodalangan:

“O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkura va

fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasida sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”.

Bu qoida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlarining birortasini das-turiy g‘oyalari yagona davlat mafkurasida bo‘la olmasligini anglatadi.

Milliy istiqlol mafkurasida turli siyosiy partiyalar va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen-ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biror bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi.

X U L O S A

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek oliy maqsadni amalga oshirish yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning manfaatlariga mos keluvchi umummilliy istiqlol g‘oyasini yaratish tarixiy zaruratdir. Milliy istiqlol g‘oyasining asosini esa milliylik tashkil etadi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda yashab, uning ravnaqi uchun o‘z xissalarini qo‘shib kelayotgan har bir millatning o‘z tarixini o‘rganish, milliy tili, urf-odat va an‘analari, madaniyatini taraqqiy ettirish uchun bab-barobar imkoniyatlar yaratib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa turli millat va elatlarning vakillari o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabat-larni shakllantirish, ularning hamjihatlikka, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun fidokorona mehnat qilishini ta‘minlashning asosiy shartidir.

Buning uchun barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik, barcha fuqarolarning teng huquqliligini, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi kabi umuminsoniy tamoyillar milliy istiqlol g‘oyasi asosini tashkil etmog‘i lozim.

Ana shundagina milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi bo‘lgan “Insonparvar, demoratik jamiyat”ni barpo etishda yuksak natijalarga erishiladi.

HOZIRGI ZAMONNING MAFKURAVIY MANZARASI

R E J A :

K i r i s h

§1.Globalizatsiya va jahon mafkuraviy manzarasining o‘zgarishi

§2.XXI asr bo‘sag‘asida geosiyosiy maqsad va ustivor yo‘nalishlarning o‘zgarishi

§3.Mustaqillikka erishgan davlatlarga mafkuraviy tazyiqlar

X u l o s a

Foydalanilgan adabiyotlar

K IRISH

Yigirmanchi asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifatan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Kosmik asr deb nom olgan bu bosqich fan va texnikaning mislsiz taraqqiyoti, uning yutuqlarining xalq xo'jaligiga keng qamrovda tatbiq etilishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar esa XXI asr arafasida kishilik jamiyatida mutlaqo yangi tendensiyani – globalizatsiya jarayonini yuzaga keltirdi.

Globalizatsiya jarayoni jahon mafkuraviy manzarasini tubdan o'zgartirdi, geosiyosatning yangi maqsad va yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Buning natijasida, bir tomondan, turli g'oyalarni kishilar ongiga singdirish uslublari va usullari mukammallashib ketdi, ikkinchi tomondan, g'ayriinsoniy g'oyalar ta'siridan fuqarolarni himoyalash imkoniyatlari kamaydi. Yuzaga kelgan vaziyatda Sovet Ittifoqining halokatga yuz tutishi va jahonning boshqa mintaqalarida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar natijasida mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlar xavfsizligiga ayniqsa katta tahdid tug' ilmoqda. Shu boisdan hozirgi zamonning mafkuraviy manzarasi, xususan mustaqillikka erishgan yurtlarga o'tkazilayotgan mafkuraviy tazyiqlar xarakteri haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'lish zarur. Mazkur matnda aynan ana shu masalalarga bag'ishlangan mulohazalar baholi qudrat umumlashtiriladi.

§1.GLOBALIZATSIYA VA JAHON MAFKURAVIY

MANZARASINING O'ZGARISHI

Yigirmanchi asr insoniyat tarixiga fan va texnika mislsiz darajada taraqqiy etgan davr sifatida kirsa ajab emas. Albatta, bundan fan va texnika yaqindagina o'tmishga yuz tutgan asrga kelibgina rivojlana boshladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Fan ijtimoiy ongning mustaqil shakli sifatida ikki ming yildan buyon rivojlanib kelmoqda. Biroq u vujudga kelishi bilanoq moddiy ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsata boshlagani yo'q. Ibtidoda fanning yutuqlari empirik xarakterga ega bo'lgani, o'rta asrlar davomida ijtimoiy ishlab chiqarish bo'g'inlarining bir-biridan ajratilganligi fanning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini cheklab qo'ygan edi. Industrial ishlab chiqarishning vujudga kelishigina fanning ishlab chiqarish jarayonidagi rolini va o'rnini mustahkamladi. Bundan ko'rinib turibdiki, fan va texnikaning maqsadli rivojlanishi, shuningdek uning yutuqlarining xalq xo'jaligi tarmoqlariga tatbiq etilishi XVII-XVIII asrlardagina boshlandi.

Tabiat haqidagi bilimlarning asta-sekinlik bilan orta borishi ilmiy qarashlar, g'oyalari olamining tubdan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Natijada mutlaqo yangi ilmiy sistema yuzaga keldi. Ushbu o'zgarishlar ikki bosqichda ro'y berdi. Birinchi bosqichda mehnat vositalari asta-sekinlik bilan o'sib bordi. Bundan texnika vositalari va ularning tabiiy-ilmiy asoslari tubdan o'zgarmagani bois fan va texnika yutuklarining xalq xo'jaligiga tatbiq etilishi sistemaviy xarakterga ega bo'lmadi.

Yigirmanchi asrda ushbu o'zgarishlar ikkinchi bosqichga qadam qo'ydi. Bu bosqichda ilmiy bilimlar hajmi va diapazoni shu qadar kengaydiki, endilikda fan ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi, ilmiy bilimning yuqori darajasiga asoslangan mehnat vositalari shakllana boshladi. Fan va texnika inson amaliy faoliyatida qo'llaniladigan quvvatning diapazonini ham kengaytirdi. Masalan, bir tomondan, u $0,1 \times 10^{-18}$ vatt quvvatga ega bo'lgan eng zaif signallarni ham ilg'ashga qodir nozik va xayratlanarli asboblarni yaratishning uddasidan chiqdi, ikkinchi tomondan esa, kosmik qudratga ega vodorod bombasini barpo etdi.¹

Ilmiy bilimlarning kommulyativ taraqqiyoti fan va texnikani qudratli ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirdi. Buning natijasida ilmiy tadqiqotlarga jalb etilgan kishilar soni ortib bordi. Ushbu tendensiyaning ijtimoiy voqelikka ta'siri o'sib borajagini o'ttizinchi yillardayoq Dj. Bernal bashorat qilgan edi.² XX asrning 60-yillariga kelib, uning bashorati to'liq ro'yobga chiqdi. Xususan, 1967 yilda jahonda 2 million 300 ming kishi, shu jumladan SSSRda 770 ming kishi, AqShda 537 ming kishi, Yaponiyada 160 ming kishi, Buyuk Britaniyada 90 ming kishi, GFR da 63 ming kishi, Fransiyada 50 ming kishi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar.³

Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ajratilgan mablag'lar miqdori ham orta bordi. Masalan, 1971 yilda AqShda ilmiy-tadqiqotlarga 27, 3 mlrd. dollar ajratilgan bo'lsa, GFR da 4 mlrd. dollar, Angliyada 2, 6 mlrd. dollar, Fransiyada 2, 8 mlrd. dollar sarflandi.¹ Ushbu xarajatlarning AqShda 55 foizi, GFRda 47 foizi, Angliyada 51 foizi, Fransiyada 70 foizi, Yapo-niyada 28 foizi davlat tomonidan qoplandi.² E'tiborli joyi shundaki, o'sha 1971 yilda (alhol, bundan ham) turli mamla-katlarda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ajratilgan mablag'lar-ning asosiy qismi amaliy tadqiqotlar va loyihalarga sarf-landi. Masalan, AqShda ilmiy-

tadqiqotlarga sarflangan mab-lag'ning 22, 1 foizi amaliy tadqiqotlar, 65, 5 foizi loyihalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar mutanosib ravishda Angliyada 26, 1 va 61, 4 foizni, Fransiyada 33, 9 va 48, 8 foizni, Italiyada 39, 9 va 41, 5 foizni tashkil etdi.³

Bunday sa'y-harakatlar pirovard natijada ixtiro va kashfiyotlarning miqdorini oshirib yubordi. Xususan, yetmi-shinchi yillarga kelib umumjahon patent jamg'armasi 13 mil-lion hujjatni o'z ichiga oldi.⁴ Har yili jahonda 2740-2750 tadan ixtiro qilib borildi.⁵ Boz ustiga, ixtiro va kash-fiyotlarning xalq xo'jaligi turli sohalariga tatbiq etilishi muddati ham keskin qisqarib bordi. Masalan, elektr toki kashf qilingan vaqtdan ilk elektrostansiya barpo qilinguniga qadar qariyb 100 yil o'tdi. Mineral o'g'itlarning ahamiyati aniqlangan vaqtdan ularning amaliy faoliyatda qo'llanila boshlanguniga qadar 70 yil o'tdi. Yigirmanchi asr ikkinchi yarmida esa uran yadrosining bo'linishi ixtiro etilganidan so'ng 15 yil o'tar-o'tmas ilk atom elektrostansiyasi tashkil qilindi.⁶ Xullas, kashfiyotning yaratilishi va undan foydalanishning boshlanishi vaqti orasidagi interval asr davomida 30 barobarga kamaydi.

Fan va texnikaning bunday qudratli rivojlanishi, uning yutuqlarining xalq xo'jaligiga tatbiq etishning tezlashishi XX asrning 90-yillariga kelib mamlakatlar, millatlar, davlat-lar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy munosabatlarning ham tezlashishiga, yaqinlashishiga olib keldiki, buning natijasi o'laroq insoniyat tarixida mutlaqo yangi tendensiya shakllandi. Ushbu tendensiyaning mutaxassislar "globalizatsiya" tushunchasi yordamida ifodala-moqdalar. Globalizatsiya jarayoni bugungi kunda kishilik ja-miyatining barcha sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Globalizatsiya deganda umumbashariy, umumsayyoraviy sivi-lizatsiyaning shakllanishi tendensiyasini tushunadilar. Ushbu tendensiyaning asosini hozirgi zamon kishilik jamiyatini birlashtirib turgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kommu-nikatsion aloqalar tashkil etadi. Aynan ana shu aloqalar umumsayyoraviy sivilizatsiyaga sistemaviylik ato etmoqda. Xu-susan, turli mamlakatlar va millatlarning o'zaro aloqadorligi oshib bormoqda. Sivilizatsion sistemaning bir sektorida yuzaga kelgan inqiroz yoki disbalans boshqa mintaqalarda joylashgan mamlakatlarning xavfsizligi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayni paytda umumbashariy o'zaro aloqadorlikning kuchayib borayotganligi tufayli shaxsiy va ijtimoiy zhtiyohlarni qondirishning samarali yo'li deb topilgan madaniyat tiplari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayot shakllari tez tarqalib va o'zlashtirilib borilayotir. Boz ustiga, ana shu ehtiyojlar va qadriyatlarining shakllanishi ham umumbashariy xarakter kasb etayotir.

Biroq ushbu mulohazalardan jahonda unifikatsiyal jarayoni sodir bo'layapti, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Chunki, bi-rinchidan, umumsayyoraviy aloqalar qanchalik mutlaqlashmasin, har bir jamiyat umuminsoniy tajribalarning o'z iqtisodiy va madaniy imkoniyatlariga mos tushganini o'zlashtiradi, xolos. Ikkinchidan, umumsayyoraviy sivilizatsiya shakllana borgani sari turli millat va elatlarning o'z madaniyatini, o'ziga xosligini saqlab qolishga bo'lgan intilishi ham kuchayadi. Buning oqibatida XXI asr kishilik jamiyati yaxlit-sistemaviy xarakterga ega bo'lishi bilan birga ichki plyuralistik xususiyatlarini ham yo'qotmaydi.

Umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllanishini turli lo-kal sivilizatsiyalarning mexanik birlashuvi bilan qiyoslamalik kerak. Aslida ushbu jarayon nihoyatda murakkab va ziddiyat-larga to'la tarkibga ega. Masalan, hozirgi zamon Sharq va Janub jamiyatlari g'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada "sinov-dan o'tgan" texnologiyalarni o'zlashtirishga moyildirlar. Biroq keyingi o'n yilda Sharq va Janub jamiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan mahsullar ham g'arbiy Yevropa hamda Shimoliy Amerika ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazayotir. Masalan, g'arb texnologiyasini o'z madaniy an'analariga moslashtirib, xo'jalik yuritishning mutlaqo yangi usulini joriy etgan Yaponiya endilikda AQSH iqtisodiyotiga kirib bormoqda. Afrika va Osiyo mamlakatlaridan g'arb jamiyatlariga ko'chib o'tayotgan immigrantrlar o'zlari bilan uchinchi dunyoga xos muammolarni ham olib kelmoqdalar. Immigratsiya g'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda marginalizatsiya jarayonini yuzaga keltirmoqdaki, buning okibatida ushbu mamlakatlarda davlat siyosatining xarakteri xam o'zgarimoqda. Xullas, hozirgi kunda nafaqat g'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning Sharq va Janubga ta'siri, balki Sharq va Janub mamlakatlarining g'arb va Shimoliy Amerikaga ta'siri ham kuchayib bormoqda.

Globalizatsiya jarayonining alomatlariga doir o'nlab misollarni keltirishimiz mumkin. Biroq faqat misollar bilan cheklanish masalaning mohiyatini yoritishga zamin tayyorlaydi. Globalizatsiyaning mohiyatini chuqur anglab yetish uchun "Umum-sayyoraviy sivilizatsiyaning lokal sivilizatsiyadan farqi nimada?" – degan savolga javob berishimiz kerak.

Hozirgi zamon ilmiy tafakkuri ushbu savolga bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib javob beradi. Zotan, XX asrning 70-yillarda g'arb iqtisodiyotining muvaffaqiyatlari asosida postindustrial jamiyat vujudga kelayotgani haqida xabar berilgan bo'lsa, 80-yillarga kelib insoniyatning informatsion jamiyatga qadam qo'ygani xususida xulosalar chiqarildi. To'qsoninchi yilarga kelib esa, mutaxassislarining mulohazalariga qaraganda, umumsayyoraviy sivilizatsiya shakllana boshladi. Bu xulosalarni aql ko'zi bilan kuzatarkanmiz, bir narsaga amin bo'lamiz: kishilik jamiyatining xarakterini aniqlash bilan bog'liq mulohazalarning barchasi umumiy metodologiyaga ega, ya'ni yangi sivilizatsiyaning yuzaga kelayotgani yangi texnologiyalar va iqtisodiy tarkiblar shakllana boshlaganiga qarab aniqlanadi. Shubhasiz, turli xizmat ko'rsatish sohaslarining rivojlanishi, shu munosabat bilan ularga aloqador ijtimoiy qatlamlar va aqliy mehnat shakllarining o'zgarishi jamiyat qiyofasiga yangicha xususiyat ato etadi. Informatsiya uzatish va qabul qilishning hozirgi imkoniyatlari, "kompyuter revolyutsiyasi" jamiyatning nafaqat iqtisodiy yuksalishiga, balki ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatayotgani rost. Biroq bundan yangi sivilizatsiyani xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zgarishlar va kompyuterlar yuzaga keltirmoqda, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Umumsayyoraviy sivilizatsiya vujudga kelayotganini faqat iqtisodiy sohadan qidirishning asl sababi shundaki, biz hali-gacha globalizatsiya jarayonining asosiy tendensiyalarini aniqlash metodologiyasini yaratganimiz yo'q. Yigirmanchi asr ilmiy tafakkuri konkret sivilizatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning

uddasidan chiqdi, lekin ularni yaxlit etib turgan asos nimada ekanligini ko'rsatib bera olmayapti.

Darhaqiqat, sivilizatsiyaga yaxlitlik ato etib turgan asos-ni topish amri mahol. Biroq masalaning bir jihati aniq: har qanday sivilizatsiyaning markazida inson turadi. Shunday ekan, unga yaxlitlik baxsh etayotgan asosni ham insoniylik me'yoridan izlamoq zarur. Aynan ana shu insoniylik me'yori XX asrning to'qsoninchi yillariga kelib umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllanishiga va unga eltuvchi globalizatsiya jarayonining yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Ushbu insoniylik me'yorini, bizning fikrimizcha, funk-sional zaruriyatdan izlamoq darkor. Boshqacha aytadigan bo'lsak, XX asrning oxirgi o'n yilligiga kelib, insoniyat o'z taraqqiyotining shunday bir bosqichiga qadam qo'ydi, bu bosqichda kishilik jamiyatining turli bo'laklarini yagona funktsiyani bajaruvchi organizmga (ya'ni umumsayyoraviy sivilizatsiyaga) birlashtirish zaruriyati tug'ildi. Turli mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish ehtiyoji, siyosat yuri-tishning umume'tirof etilgan prinsiplarini ishlab chiqishga intilish, inson huquqlari va erkinliklarining umumjahon Deklaratsiyasini imzolash borasidagi sa'y-harakatlar, umumbashariy muammolarni hamkorlikda hal etishga urinish, informatsiya almashinishga bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi – bularning barchasi biz yuqorida eslatib o'tgan funktsional zaruriyatning ko'rinishlaridir.

Umumsayyoraviy sivilizatsiyani shakllantirish zaruriyati-ning ko'rinishlari haqida chuqurroq fikr yuritsak, bir muhim xulosaga kelamiz: globalizatsiya jarayoni tezlashib borayotgan bir vaziyatda o'z g'oyalari, manfaatlari va turmush tarzini boshqa xalqlarga singdira olgan mamlakatgina iqtisodiy yuksalish uchun zamin yaratadi, o'z siyosiy qadriyatlarini jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishiga erishadi, o'zi e'tirof etgan huquq va erkinliklarning umumbashariy xarakter kasb etishini ta'minlaydi, o'z milliy xavfsizligi va barqarorligini mustahkamlaydi. Shu boisdan XX asrning to'qsoninchi yillarida globalizatsiya jarayonining kuchayishi turli mamlakatlar geosiyosatining maqsadlari va ustivor yo'nalishlarini ham o'zgartirib yubordi.

Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Yigirmanchi asrda fan va texnika taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo'ydi. Xususan, ilmiy bilimlar hajmi va diapazoni kengaydi, fan va texnika qudratli ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi.

2. Fan va texnikaning ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi ilmiy-tadqiqotlardan manfaatdorlikni oshirib yubordi. Natijada turli mamlakatlarning hukumatlari, turli konsern va korporatsiyalar tomonidan tadqiqotlarga ajratilgan mablag'lar miqdori oshib bordi. Boz ustiga, tadqiqotlarning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish sur'ati ham tezlashib ketdi.

3. Fan va texnikaning qudratli taraqqiyoti iqtisodiyot negizida umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllanishi tendensiyasini vujudga keltirdiki, uni globalizatsiya jarayoni deb atash odat bo'ldi. Umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllanishi funktsional zaruriyat bilan bog'liq bo'lgani bois, globalizatsiya jarayonining tezlashuvi ana shu zaruriyatga mos geosiyosat maqsad va ustivor yo'nalishlarini ishlab chiqish ehtiyojini vujudga keltirdi.

§2.XXI ASR BO‘SAG‘ASIDA GEOSIYOSIY MAQSAD VA USTIVOR YO‘NALISHLARNING O‘ZGARISHI

"Geosiyosat" tushunchasi dasturilavvaldanoq jahon mafku-raviy jarayonlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu boisdan globali-zatsiya jarayonining tezlashishi sharofati bilan jahon mafku-raviy manzarasining o‘zgarishi ushbu tushunchaning mazmunini boyitib bordi. Boz ustiga, geosiyosiy maqsadlar va ustivor yo‘nalishlar ham yangilanib bordi. "Geosiyosat" tushunchasini xalqaro munosabatlar va jahon mafkuraviy manzarasi prizmasidan o‘tkazib tahlil etsak, bunga amin bo‘lamiz.

"Geosiyosat" tushunchasini ilk bor shved olimi va siyosatdoni R. Chellen (1846-1922) qo‘llay boshladi. U mazkur termini qud-ratli davlatni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan samarali siyosatning asosiy xarakteristikasi sifatida ishlat-gandi.¹ Uning fikrini mantiqan davom ettirgan nemis tadqi-qotchisi F. Ratsel (1844-1904) esa geopolitika deganda davlat siyosati bilan mamlakatning geografik holati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tushundi.² Myunxendagi geopolitika instituti direktori, general K. Xausxofer (1869-1946) "geosiyosat" tushunchasini bunday talqinlash an‘anasini qabul etib, uning imperialistik ta‘rifini shakllantirdi. Uning tushuntiri-shicha, german millati uchun muhim bo‘lgan makon Germaniya hududlari bilan cheklanib qolmaydi. Shu boisdan davlat amalga oshiradigan geosiyosat maqsadi millat ravnaqi uchun zarur bo‘lgan hududlarni nazorat ostiga olishdan iborat bo‘lmog‘i shart.

Masalaning bunday qo‘yilishi XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan edi. Bizga ma‘lumki, Vestfaliyada 1648 yilda imzolangan tinchlik shartnomasi ham, Venada 1864, 1866 yillarda imzolangan xalqaro shartnomalar ham milliy suverenitet va legitimatsiya³ prinsiplariga asoslangan edi, xolos. Ushbu shartnomalarda u yoki bu mamlakatlarda joriy etilishi zarur bo‘lgan boshqaruv shakli haqida gap ham bormas edi. Shu boisdan ushbu xalqaro-siyosiy sistemalarga Chor Rossiyasi, Gabbsburglar monarxiyasi, liberal Angliya kabi turli boshqaruv shakllariga ega bo‘lgan mamlakatlar teng huquqlilik asosida kirishi mumkin edi. Bu mamlakatlardan faqat bir narsa – xalqaro munosabatlarda qabul qilingan qoidalarga amal qilish talab etilardi.

Xullas, xalqaro munosabatlar subyekti o‘z mamlakatida istalgan ijtimoiy-siyosiy rejimni o‘rnatishga haqli edi, faqat jahon arenasida umum‘tirof etilgan qoidalarni buzma-sa kifoya. Biroq XX- asrning o‘ttizinchi yillariga kelib mil-latlar va elatlar, mamlakatlar va davlatlar o‘rtasidagi muno-sabatlar yangi bosqichga qadam qo‘ydi. U yoki bu mamlakatning ravnaqi davlatdan o‘z mamlakati miqyosidagina emas, o‘zga mamlakatlar miqyosida ham keng ko‘lamda ijtimoiy faoliyat ko‘rsatishni talab qila boshladi. Buning natijasida jahonda geografik hududlar uchun kurash boshlanib ketdi. Biroq endi geografik hududlarni egallashning o‘zi kifoya qilmas edi. Endilikda o‘zga mamlakatlarning e‘tiroziga javoban o‘z mamlakatining ma‘lum geografik hududga bo‘lgan da‘vosini asoslab berish ham zarur bo‘lib qoldi.

Ko‘rinib turibdiki, xalqaro munosabatlar geosiyosiy maqsadlar va yo‘nalishlarni o‘zgartirib yuborgan bo‘lsa, o‘zgarib ketgan geosiyosiy maqsadlar

xalqaro munosabatlarning o'ziga aks ta'sir ko'rsatdi. Endilikda geosiyosatning asosiy maqsadi o'z mafkurasini mahv etilishi zarur bo'lgan geografik hududga singdirish bilan bog'lanadigan bo'ldi.

Xususan, 1930-yillarga kelib insoniyatning kelajakdagi taraqqiyotini asoslab berishga intilgan uch asosiy siyosiy-mafkuraviy yo'nalish o'rtasida ashaddiy kurash avj olib ketdi. Bu uch yo'nalishni jamiyatning asosiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy negizlarini saqlab qolgan holda tub islohotlar o'tkazishni targ'ib qiluvchi sotsial-reformizm, jahonda yangi iyerarxik tartib o'rnatish va uni oliy irq bo'lgan nemis millatiga bo'ysundirishni targ'ib qiluvchi fashizm, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy ne'matlarni ijtimoiy inqilob yordamida qayta taqsimlash va tenglik prinsiplariga asoslangan yangi jamiyat barpo etishni targ'ib qiluvchi kommunizm mafkuralari tashkil etdilar.

Ushbu mafkuralar o'rtasidagi kurash ayniqsa ikkinchi jahon urushi yillarida yaqqol namoyon bo'ldi. Shu bois ikkinchi jahon urushining ungacha bulgan boshqa urushlardan (aftidan, XVI asrdagi salb yurishlari bundan mustasno bo'lsa kerak) asosiy farqi shunda bo'ldiki, unda an'anaviy siyosiy-harbiy omillar qatorida mafkuraviy komponent ham hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu urush nafaqat geografik hududlarni egallash maqsadida, balki o'z turmush tarzini, qadriyatlarini sistemasini, boshqaruv shaklini, bir so'z bilan aytganda, o'z mafkurasini boshqa xalqlarga singdirish maqsadida ham olib borildi. Ajablanarli joyi shundaki, insoniyat boshiga mislsiz kulfat-lar keltirgan va yana keltirishi mumkin bo'lgan nemis fa-shizmiga qarshi bir-biriga yot bo'lgan ikki mafkura (sotsial reformizm va kommunizm) tarafdorlari ittifoq tuzdilar. Ushbu ittifoq har ikkala mafkura uchun qaysidir ma'noda umumiy bo'lgan komponentga asoslandi. Xususan, butun dunyo proletarlarining tengligini e'tirof etgan kommunistik internatsionalizm inson haq-huquqlari va erkinliklarini ulug'lagan liberal baynalmilliylik bilan hamohang edi. Fashistik mafkura esa aynan ana shu baynalmilliylikni inkor etar va natsional-shovinizm hamda rasizmni targ'ib etardi.

Ikkinchi jahon urushi nihoyasida Germaniya va uning itti-foqchilarining tor-mor etilishi oqibatida fashizm samarali mafkura sifatida jahon arenasidan tushdi. Asosiy muqobil mafkuralar sifatida ijtimoiy-reformistik kapitalizm va revolyutsion sotsializm (kommunizm) saqlanib koldi. Ushbu mafkuralar kurashi davomida ikki qutbli dunyo vujudga keldi. Buning pirovard natijasida geosiyosatning asosiy maqsadi ki-shilar ongi uchun kurashishdan iborat bo'lib qoldi, uning asosiy yo'nalishlarini esa o'z mamlakati tanlagan taraqqiyot yo'lining to'g'ri ekanligini asoslab berish, o'z mafkurasi ta-rafidorlarini ko'paytirish, qarshi mafkuraning tarqalishi va rivojlanishiga yo'l bermaslik tashkil etdi.

Ham sotsial-reformizm, ham kommunizm tarafdorlari o'z qudratlari va harbiy imkoniyatlarini o'zlari tanlagan yo'lning afzalliklarini targ'ib etishga safarbar qildilar. Butun dunyo ikki g'oya, ikki mafkura kurashi maydoniga aylandi. Sovuq urushning o'zi siyosiy va iqtisodiy sistemalar barqarorligi va mustahkamligini sinovdan o'tkazuvchi imtihonga aylandi.

Ikki qutbli dunyo sharoitida "Sharq" va "g'arb" tushuncha-larining o'zi mafkuraviy o'lchov darajasiga ko'tarildi va geog-rafik tushunchalardan siyosiy-mafkuraviy kategoriyaga aylandi. Aynan mafkuraviy o'lchov ikki qutbli

dunyoning asosiy mezoni bo'ldi. Aynan mafkuraviy o'lchov strategik imperativ daraja-siga ko'tarildiki, jahonning boshqa mamlakatlari shu o'lchov asosida ikki qutb - SSSR va AqSH atrofida birlasha boshla-dilar. Shu sababga ko'ra Uzoq Sharqda joylashgan Yaponiya g'arb dunyosining tarkibiy qismiga aylandi.

Albatta, jahonning uch dunyoga bo'linishi ushbu nuqtai nazarga ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Birinchi dunyo deb Yevro-pa va Shimoliy Amerika, shuningdek Yaponiya va Osiyodagi iqtisodiy taraqqiyotga erishgan ayrim mamlakatlar tan olindi. Bu mamlakatlar kapitalistik taraqqiyotning ilg'or esheloni edi. Mazkur yurtlarning birinchi dunyo deb atalishiga jiddiy sabablar bor edi: ular SSSR tashkil topguniga qadar shakl-lanib bo'lgan va yevropotsentrik dunyoning oldingi o'rinlarini egallab olgan edilar. Garchi Sovet Ittifoqi jahon xaritasida 1917 yilgi Oktabr inqilobining sharofati bilan paydo bo'lgan bo'lsa-da, ikkinchi dunyo ikkinchi jahon urushidan keyingina shakllandi.

Gap shundaki, SSSR xalqaro siyosiy munosabatlarga XX asrning 30-yillari oxiriga kelibgina jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. qonli fuqarolar urushi, uning oqibati bo'lmish ochar-chilik, iqtisodiyot borasida amalga oshirilgan ko'plab bema'ni tajribalar, resurslarning uzoq muddat nooqilona sarflanishi, keng miqyosdagi qatag'onlar SSSRga o'z mafkuraviy-siyosiy mavqeini mustahkamlashga xalal berardi. Biroq gitlercha Germaniyani tor-mor etgan Sovet Ittifoqi ikkinchi jahon urushini qudratli harbiy-siyosiy imperiya sifatida yakunladi. Natijada XX asrning o'ttizinchi yillarida SSSR kapitalistik dunyo uchun faqat mafkuraviy tahdid solgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin real harbiy tahdid sola boshladi. Boz ustiga, fashistik qullikdan xalos bo'lgan Sharqiy Yevropa mamlakatlari, undan keyin qator Osiyo mamlakatlari taraqqiyotning sotsialistik yo'lini tanladilar. Shu ko'yi jahon sotsialistik tizimi dunyoga keldi.

Ayni paytda kolonial imperiyalarning inqirozga yuz tu-tishi oqibatida jaxon xaritasida yangi mustaqil davlatlar vujudga keldilarki, ular o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy-siyosiy xususiyatlariga ko'ra yuqoridagi ikki dun-yoning birortasiga ham mos tushmas edilar. Ushbu mamlakatlar qator umumiy xususiyatlarga ega edilar. Iqtisodiyotning qoloqligi, ijtimoiy-sinfy tarkibning zaifligi, qishloq xo'jaligining ustivorligi, milliy tadbirkorlikning rivojlanmaganligi, an'anaviy patriarxal va urug'chilik strukturalarining saqlanib qolganligi shular jumlasidandir. Ushbu mamlakatlarni yuqoridagi ikki blokdan ajratish maqsadida uchinchi dunyo deb atay boshladilar.

Iqtisodiy va moliyaviy yordam ilinjida uchinchi dunyo mamlakatlari u yoki bu blok liderlarining e'tiborini jalb etish uchun musobaqaga kirishib ketdilar. SSSR va AqSH uchun esa ush-bu rivojlanayotgan mamlakatlar o'ziga xos sahna vazifasini o'tadiki, bu sahnada har bir tomon o'z ta'sirini o'tkazish uchun mafkuraviy va siyosiy kurash olib bordi. Ushbu kurash ayrim hollarda lokal va mintaqaviy urushlarga aylanib ketardi. Masalan, XX asrning 60-yillari va 70-yillari boshlarida Janubi-Sharqiy Osiyoda, 70-80 yillarda Angolada ana shunday urushlar bo'lib o'tdi. Ikki qutbli dunyo va sovuq urush sharoitida mamlakatni tashqi tahdidlardan mudofaa qilish masalasi ikki harbiy-siyosiy bloklarning ko'plab funksiyalaridan biri edi, xolos. Asosiy e'tibor "ichki" muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan edi. Ushbu "ichki" funktsiya AqSH uchun itti-foqdosh

mamlakatlarni o'z hukmi ostida ushlab turish, g'arbiy Yevropa bilan Shimoliy Amerika o'rtasidagi aloqalarni mus-tahkamlashdan iborat bo'lgan bo'lsa, SSSR uchun jahon sotsi-alistik tizimini nazorat ostida saqlash, uni o'zga sistemalar ta'siridan muhofaza qilish bilan bog'liq edi. Shu sababdan, har ikkala mamlakat ham o'zini turli xalqlar orzu-umidlari va ehtiyojlarining ifodachisi deb hisoblardi. O'z faoliyatla-rining mafkuraviy asoslarini ishlab chiqqan AqSH o'zini erkin dunyo himoyachisi deb, SSSR esa tinchlik, demokratiya va sotsializm tayanchi deb e'lon qildi.

Buning pirovard natijasi o'laroq ikki blok o'rtasidagi ixtilof katta miqyosdagi kurashga aylanib ketdi. "Sharq va g'arb o'rtasidagi kurashning uzoq muddatli xarakteri va poten-sial xavfi, - deyiladi, masalan, "Uch tomonlama komissiya" ma'ruzalaridan birida, - hozirgi zamonning ikki qudratli davlatlari orasidagi ziddiyatdan hamda turli hadriyatlarga asoslangan ikki qarama-qarshi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy sistemalar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan kelib chiqadi. Shu boisdan ham Sharq va g'arb o'rtasidagi kurash uzoq vaqtdan beri butun dunyoning markaziy muammosi bo'lib turibdi." 1

Ikki qudratli davlat o'rtasida avj olib ketgan maf-kuraviy kurash, bir mintaqada sodir bo'lgan bir ijtimoiy-siyosiy voqeaning turlicha talqin etilishi oxir-oqibatda shunga olib keldiki, ikki qutblilik ikkinchi jahon urushidan keyingi dunyoning mohiyatini tashkil etdi. Har ikkala tomon bir-biridan qo'rqib, xavfsirab yashadi. Buning oqibatida NATO va OAV kabi qarama-qarshi siyosiy kuchlar dunyoga keldiki, ular bloklarning xavfsizligini ta'minlovchi omil vazifasi o'tay boshladi.

Albatta, qo'shilmaslik harakatining rivojlanishi, Yaponiya va GFR kabi iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatlarning shakllanishi, Xitoyning yadro davlatiga aylanishi, turli min-taqalarda millatchilikning vujudga kelishi ushbu ikki-qutblilik sistemasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. Biroq, bundan qat'iy nazar, jahonning muhim siyosiy masalalari ikkiqutblilik prinsiplari asosida hal etilardi.

Ikki qutbli dunyo sharoitida jahondagi vaziyat bir qadar tushunarli edi. SSSR o'z tashqi siyosatining strategiyasi va aso-siy yo'nalishlarini ishlab chiqayotganida AqShning real dushman ekanligini, AqSH esa SSSRning asosiy raqib ekanligini ino-batga olardi. "Nyu-York tayms" gazetasining sharhlovchisi T.Fridman yozganidek, Kreml "AqSH siyosatining yo'lchi yulduzi edi". Siyosiy arboblarning shamolning qayoqdan esayotganligini (ya'ni Moskva qaysi pozitsiyada turganini) bilsalar kifoya edi, AqSH darhol shu pozitsiyaga teskari bo'lgan nuqtai-nazarni qo'llab chiqishi aniq bo'lardi-qolardi. SSSRdagi vaziyat ham shunga o'xshash edi.

Jahondagi bunday vaziyat barcha xalqlarni yurak hovuchlab yashashga majbur etardi. Butun dunyo turli manfaatlar sohasiga bo'lib chiqilgandiki, u yoki bu mintaqada yuz bergan urush yoki kelishmovchilik ikki qutb orasidagi umumsayyoraviy kurashning tarkibiy qismi sifatida baholanardi.

XX asrning to'qsoninchi yillari boshiga kelib Sovet imperiyasining barham topishi ikki qutbli dunyoning ham ni-hoyasiga yetganidan xabar berdi. Jahonning o'nlab mamla-katlariga qanday faoliyat ko'rsatishni hukm etib turgan qudratli mafkuralardan biri jahon sahnasidan tushdi. "Sharq" va "g'arb" tushunchalarining mafkuraviy mazmuni barham topdi, g'arb olamiga dahldor topilgan Yaponiya yana Sharqqa qaytdi. Bir qaraganda, mafkuraviy kurashning o'zi o'tmishga yuz

tutgandek edi. Aslida esa mamlakatlarning geo-siyosati maqsadlari o'zgargandi, xolos. Endilikda geosiyosiy maqsadlar "muayyan davlatning o'z mavqei va ta'sirini o'zga hudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosatni ifodalaydi.¹

Bugungi kunda "jahon hamjamiyati xalqaro munosabatlar sohasiga demokratiya, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyil-larini qaror toptirish uchun kurashmoqda. Bunday sharoitda zo'ravonlik qilish, harbiy kuch ishlatish va hatto iqtisodiy iskanjaga olish qat'iy qoralanishi aniq. Lekin o'z g'arazli maqsadlariga yetishni ko'zlayotgan turli kuchlar geopolitikaning eng ta'sirchan vositasi sifatida mafkuraviy quroldan keng foydalanmoqda, odamlar ongiga ta'sir o'tkazishning tuban va makkor usullarini qo'llamoqda".² Ko'rinib turibdiki, mafkuralar urushi jahonda susaygani yo'q, u o'zgacha qiyofa va shakl kasb etdi, xolos. Bunday vaziyatda eng mushkuli kushod endigina siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar zimmasiga to'g'ri kelmoqda.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. XX asr bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli mafkuralar kurashi davri bo'ldi. Bunga keskin o'zgarib borgan xalqaro vaziyat zamin tayyorladi. Xususan, xalqaro vaziyatning o'zgarishi geosiyosat maqsadlari va yo'nalishlarining o'zgarishiga sabab bo'ldi. O'z navbatida, geosiyosiy maqsadning o'zgarishi yangi xalqaro vaziyatning yuzaga kelishiga poydevor yaratdi. Buni quyidagi jadvaldan kuzatishimiz mumkin:

№

Davrlar

Halqaro vaziyatning xususiyati

Geosiyosat maqsadi va yo'nalishi

1.

XVII-XIX asrlar

Vestfaliya va Venada xalqaro muno-sabatlarning asosiy prinsiplarini e'tirof etuvchi shartnomalar imzolandi. Biroq ushbu shartnomalar mamlakat ichkarisida istalgan siyo-siy rejimni o'rnatishga imkon qol-dirardi.

Maqsad: Mamlakat siyosatini uning geografik holatidan kelib chiqqanholda olib bo-rish.

Yo'nalishlar: Mamlakat geo-grafik imkoniyatlarini umumlashtirish, undan oqilona foydalanish yo'llarini topish

2.

XX asr 20-45 yillari

Mamlakat manfaatlarini qon-dirish imkonini beradigan hudud chegarasi kengayib ketdi. O'zga geografik hududlarni mahv etish uchun shart-sharoit yaratish zaruriyati tug'ildi.

Maqsad: O'z mafkurasini mahv etilishi zarur bo'lgan geo-grafik hududga singdirish. Yo'nalishlar: Mamlakatning shu geografik hududga bo'lgan da'vosini asoslab berish, o'sha hudud aholisiga "farovon hayot" va'da qilish.

3.

XX asr 45-90 yillari

Ikkinchi jahon urushining yakunlanishi va nemis fashizmining tor-mor etilishi ikki qutbli dunyoni vujudga keltirdi. "Sovuq urush" boshlandi.

Maqsad: Kishilar ongi uchun kurash

Yo'nalishlar: O'z mamlakati tanlagan taraqqiyot yo'lining to'g'riligini asoslab berish, o'z mafkurasi tarafdorlarini ko'paytirish, qarshi mafkuraning rivojlanishi va tarqalishiga yo'l bermaslik.

4.

XX asr so'nggi o'n yili

Sovet Imperiyasining barham topishi yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Maqsad: O'zga mintaqalardagi o'z mavqei va ta'sirini kuchaytirish

Yo'nalishlar: O'z turmush tarzini, madaniyatini targ'ib etish, informatsion, psixologik, texnologik urush

2.XX asr uch qudratli mafkuraning (sotsial-reformizm, kommunizm, fashizm) kurashi ostida kechdi. Shuningdek, qarama-qarshi bo'lsa-da, umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan sotsial-reformizm va kommunizm millionlab kishilarni nemis fashizmiga qarshi kurashga chorladi. Buning oqibatida nemis fashizmi ideologiyasi barham topdi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar esa ijtimoiy-reformistik kaptalizm va revolyutsion sotsializm (kommunizm) o'rtasidagi kurash bilan bog'liq bo'ldi.

3. SSSRning parchalanib ketishi mafkuraning, mafkuraviy kurashning susayishiga emas, geosiyosiy maqsad va yo'nalishlarning o'zgarishiga olib keldi. Aksincha, mafkuraviy kurash yanada noziklashdi va keskinlashdi. Ushbu kurashning asosiy qi-yinchiligi endigina mustaqil bo'lgan davlatlar eimmasiga tushdi.

§3. MUSTAQILLIKKA ERISHGAN DAVLATLARGA MAFKURAVIY TAZYIQLAR

To'qsoninchi yillarning boshi sarosima, ishonchsizlik va ijtimoiy frustratsiya yillari bo'ldi. Eski xudolar taxtdan tushirildi, turli g'oyaviy-siyosiy konstruksiyalar el ishonchini yo'qotdi va o'tmishning ko'plab diniy ta'limotlari kabi o't-mishga yo'l oldi. U yoki bu tarzda "jon saqlab qolgan" g'oyalar esa endi xalqlarni o'z ortidan ergashtira olmay qoldi. Radikal sotsialistik va kommunistik utopiyalar barham topishi bilan birga uning o'rnini bosadigan hamda turli xalqlarning orzu-umidlarini ifodalaydigan g'oyalar ishlab chiqilmadi.

Eng e'tiborli jiyi shundaki, kishilar biror bir g'oyaga – na reformatorga, na revolyutsionerga – ishonmay qo'y-dilar. Ulug' dasturlar, ulug' ta'qiqalar, ulug' shiorlar endilikda ularni junbushga keltirmayotir, hayratga solmayotir. To'qsoninchi yillar boshida eng mantiqli g'oyalar ham kishilarning be-farqligi tufayli qudratli kuchga aylana olmadi.

O'ta mafkuralashtirilgan Sovet davlatining barham topishi bilan kommunistik

utopiya ham inqirozga yuz tutdi yoki, aksincha, kommunistik utopiya inqirozga yuz tutishi bilan Sovet davlati ham barham topdi. Marksizm-leninizm inqirozi XX asrning muhim voqealaridan biri bo'ldi. Ushbu inqiroz sotsi-alistik taraqqiyot yo'lini tanlagan ko'plab mamlakatlarni arosatda qoldirdi. So'llik va so'l g'oyaviy-siyosiy oqimlar o'z xalqchilligini yo'qotdi. Endi kommunistlar ikki yo'ldan birini tanlashga majbur bo'lib qoldilar: birinchisi, o'z an'anaviy g'oyalari va pozitsiyalariga sodiq qolib, yanada kuchliroq mafkuraviy kurash olib borish; ikkinchisi, umume'tirof etil-gan qoidalarni qabul qilib, o'zga mafkuralarning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish. Birinchi yo'l mantiqiy ravishda kommunizm g'ayalarining ijtimoiy-siyosiy hayotdan surib chiqarilishiga olib keladi. Chunki shundoq ham xalqchilligini yo'qotgan g'oyalarni o'jarlik bilan takrorlayverish o'zga inti-hoga qadam qo'ymasligi aniq. Ikkinchi yo'l esa kommunizm g'oyalarning o'zga mafkuralar bag'rida singib, yo'qolib ketishiga olib keladi. Chunki o'zga mafkuralarga eshiklarini ochib bergan har qanday utopiya o'zini o'limga hukm qilgan bo'ladi. Xullas, qaysi tomondan yondashmang, kommunizm g'oyalari o'z an'anaviy shaklida so'nggi yillarini yashayotganiga amin bo'lamiz.

Sotsialistik tenglik haqidagi afsonalarning o'z kuchini yo'qotishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning g'arbcha yo'li to'g'ri ekanligidan dalolat bermaydi. Birgina faktni tilga olaylik: dunyo bozor munosabatlari prinsiplarini qabul qilayotgan bir paytda g'arbning o'zida bozor iqtisodiyoti, shakllangan siyosiy demokratiya qoidalarini tanqid qilish kuchayib bormoqda. Boz ustiga, aynan g'arb ikki bora jahon urushini boshlab ber-ganini, totalitarizm va avtoritarizmning turli shakllarini "kashf etganini" ham unutmasligimiz lozim.

Bunday ikki taraflama inqiroz, biz avvalgi paragrafda ta'kidlab o'tganimizdek, mafkuraning o'zi o'tmishga yuz tutga-nidan dalolat berayotgandek go'yo.Mafkura olamida "qora dog" – bo'shliq vujudga keldi. Bunga asoslangan ayrim psevdomafkurashunoslar (afsuski, ular orasida o'zbek olimlari ham talaygina) mafkuradan voz kechish davri keldi, deb xulosa chiqardilar. Go'yo pragmatik liberalizm davri yuzaga kelayot-gandek tuyuldi ularga. Biroq haqiqat shuki, mafkura hech qachon tarix mulkiga aylanmaydi. Har qanday jamiyat ma'naviy sohasining nazariy darajasi, ijtimoiy ongning sistema-lashtirilgan qatlami (nazariy ong) mavjud bo'lar ekan, mafkura yashayveradi. U barcha zamonlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xarakteri va yo'nalishiga ta'sir ko'rsatuvchi qudrat bo'lib qolaveradi. Xo'sh, shunday ekan, bugungi kundagi mafkuraviy beqarorlikni, kishilardagi mafkuraviy befarqlikni qanday baholamoq kerak?

Avvalo shuni ta'kidlab o'tish zarurki, mafkuraviy beqarorlik degani aslo mafkuraviy bo'shliqni (ya'ni kishilik jamiyatida mafkuraning butunlay yo'qligini), mafkuraviy befarqlik esa aslo mafkuradan xolilikni anglatmaydi. Chunki kishilik jamiyatining biror bir ko'rinishi (nemis jamiyati, o'zbek jamiyati, yapon jamiyati) ma'lum muddat mafkuraviy bo'shliqni boshidan kechirishi mumkin, biroq kishilik jamiyatining o'zi (yaxlit holda) mafkurasiz bo'lishi mumkin emas. Xuddi shu kabi, kishilar yolg'ondakam, haqiqatdan yiroq mafkurani to'liq anglamasdan qabul qilishlari mumkin, biroq har qanday mafkuraviy ta'sirdan tashqarida bo'la olmaydilar.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, birinchidan, bugungi kunda mavjud

bo'lgan ko'pgina mafkuralar yaxlitlik va izchillikdan nihoyatda yiroq. Ularda jamiyat hayotining ma'lum jabhalari qamrab olinadi, xolos. Darvoqe, ushbu holat jahon tarixiy taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Chunonchi, xalqaro munosabatlar xilma-xil mafkuralarga buysunganlari bois bir-biriga zid bo'lgan, yaxlitlikdan yiroq iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillar yuzaga kelmoqdaki, ular jahon taraqqiyotini tendensiyaviylik xususiyatidan mah-rum etib, tasodifiy tus bermoqda. Vaholanki, ikki qutbli dunyo sharoitida jahonda yuz bergan voqeaning mohiyatini (kapi-talistik yoki sotsialistik xarakterini) mafkura nuqtai naza-ridan ilg'ab olish xamirdan qil sug'urgandek oson edi. Hozirgi sharoitda esa xalqaro voqealarning asl maqsadi va mohiyatini aniqlash nihoyatda mushkul. Ayniqsa mafkuraviy xarakterga ega bo'lgan xalqaro voqealarning maqsadi va yo'nalishini aniqlash amri mahol. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Pre-zidenti I.Karimov mafkura poligonlarini yadro poligonlariga nisbatan ko'proq kuchga egaligini ta'kidlar ekan, "agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, oldini olish mum-kin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish nihoyatda qiyin", - deydi.¹

Ikkinchidan, postindustrial inqilob, urbanizatsiya, informatizatsiya, globalizatsiya jarayonlari foyda ketidan quvadigan, asosan moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan lyumpenlarni² vujudga keltirdiki, bunday kishilar o'z maqsadlari yo'lida har qanday afsonayu g'oyani ham qo'llab-quvvatlashga qodirlar. Bunday holat mamlakat xavfsizligiga beqiyos tahdid solishi tabiiy.

Kishilik jamiyatida butun-butun xalqlarni yagona bayroq ostida birlashtirishga qodir bo'lgan qudratli mafkuralarning yo'qligi, kishilarning esa o'z onglari va faoliyatlarini qamrab olayotgan mafkuralarga befarqliklari qator g'ayriinsoniy, vayronkor g'oyalarning rivoj topishiga imkon yaratmoqda. Turli jamiyatlar an'anaviy diniy va mafkuraviy qadriyatlar, normalar va mo'ljallardan voz kechar ekanlar, osoyishta hayot va'da qiluvchi yangi g'oya va afsonalarning ildiz otishi uchun shart-sharoit yaratib bermoqdalar. Bunday vaziyatda diniy ekstremizm, millatchilik, neototalitarizm, neoavtoritarizm, shovinizm kabi ko'plab g'oya hamda ideallar shakllanib va tarqalib bormoqdaki, ularning ayrimlarini tilga olib o'tsak.

Hozirgi zamonning mafkuraviy manzarasida sezilarli ahamiyat kasb etayotgan vayronkor g'oyalarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Zotan, o'zbek jamiyatining taraqqiyotiga xavf solayotgan g'oyalarni (shovinizm, neototalitarizm, rasizm, sotsial - darvinizm, antiutopiya va shu kabilar) mamlakatimiz fuqarolariga bevosita singdirishga urinilayotgan g'oyalardan (millatchilik, diniy ekstremizm, milliy mahdudlik va shu kabilar) ajrata bilish lozim.

O'zbek jamiyatiga katta xavf solayotgan g'oyalardan biri shovinizmdir. Uni Prezident I.Karimov "muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin".¹ Shovinizm tarafdorlari o'z millatlarining manfaatlari va ehtiyojlarini haddan ziyod ulug'laydilar, ularni boshqa millat va elatlar hisobiga bo'lsa ham qondirishni targ'ib etadilar. "Iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, ijtimoiy totuvlikka zil ketgan,

ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat taqdiridan o'zining tor manfaatlarini ustun qo'yadigan, o'zaro kelisha olmayotgan, hokimiyatga da'vogar siyosiy guruhlarining mavjud muammolarni tashqi kuchlar yordamida hal qilishga urinishi va ma'naviy-ruhiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ulari hukmron bo'lgan mamlakatlar buyuk davlatchilik shovinizmi nishoniga aylanishini zamonaviy tarix ham ko'rsatib turibdi".1

Millat va elatlarning yagona totalitaristik tizim sharoitidagina farovon hayot kechira olishini targ'ib etuvchi neototalitarizm g'oyalari ham jamiyatimiz taraqqiyoti uchun katta xavf tug'dirmoqda. Chunki ushbu g'oya tarafdorlari millatlarni yana imperiya sharoitiga qaytarishni, yana mustaqillik qadriyatlariga panja ortidan qarashni taklif etadilar. Asrlar davomida orzu qilib kelingan mustaqillik millatimiz uchun qimmatga tushdi. Biz imperiyabozlik va totalitarizm kulfatlarini bisyor tatib ko'rdik. Shu bois o'zbek xalqi endi biror bir yangi totalitaristik tizimlarda hayot kechirishni istamaydi.

Yuqoridagi g'oyalar bilan birga qator vayronkor g'oyalar ham mavjudki, jahondagi turli siyosiy kuchlar ularni o'zbek xalqining ongiga singdirishga intilmoqdalar. Ibtidoga qaytish g'oyalarini targ'ib etuvchi diniy ekstremizm ana shunday g'oyalar turkumiga kiradi. U XX asrning 90-yillariga kelib, ayniqsa keskin tus oldi. Ushbu g'oyaning eng dahshatli tomoni shundaki, u bugungi kunda integratsiyaga intilayotgan insoniyatni "biz-nikilar" va "begonalarga" bo'lmoqda. Aytish joizki, diniy eks-tremizm nafaqat islom, balki xristian dini g'oyalariga ham asoslanishi mumkin. Biroq islom diniy ekstremizmi o'zining murosasizligi bilan tanilgan. "U o'zining ikki xususiyati bilan ajralib turadi:

- ularning aqidalariga ko'ra, go'yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va johiliya (islomdan avvalgi) asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga asos bo'lib xizmat qiladi;

- ular go'yo faqat haqiqiy musulmonlar, ya'ni ularning o'z-lari hokimiyatga kelgach, barpo bo'lajak islomiy tartibni o'rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydilar".1

Islom diniy ekstremizmining eng yorqin ifodasi vahho-biylik bo'lib qolmoqda. Sunniylarning 1,5 foizini tashkil etuvchi va hanbaliylarga mansub bo'lgan, o'z maqsadini islom dinini asl holatiga qaytarishdan iborat deb bilgan vah-hobiylik aslida hokimiyat uchun kurashish yo'lida vujudga kelgan siyosiy harakatdir. Muhammad ibn Abd al-Vahhob g'oyaviy qarashlariga tayangan vahhobiylar Sharq xalqlari o'rtasida nifoq solishda, ularni mustamlaka qilishda o'z "hissalarini" qo'shdilar. Musulmonchilikdan yiroq bo'lgan bu oqim taraf-dorlari 1802-1803 yillarda Rasuli akram sahobalaridan birining Jubaylidagi qabrini, Muhammad payg'ambarning na-biralari imom Hasan va imom Husanning qabrlarini, keyinroq borib Makka va Madinadagi qabr toshlarini, hatto Rasuli akramning umr yo'ldoshi Hazrati Bibi Oysha, qizi Bibi Fotimaning qabrlarini buzib tashladilar. 1810 yilda esa Rasuli akramning masjidini vayron qilib, talab olingan bezaklarni sotib yubordilar.1 2001 yilda vahhobiylarning qo'li bilan Afg'onistonda ikki ming yildan buyon saqlanib kelgan o'nlab tarixiy yodgorliklar Yer yuzidan yo'q qilib tashlandi.

Ma'lumki, narkotik moddalar iste'mol qilish XXI asr bo'sag'asida umumbashariy muammoga aylandi. Ayniqsa, Yevropa-ning yirik shaharlarida istiqomat qilayotgan yoshlar orasida giyohvandlar soni ko'payib borayotir. Bu esa, o'z navbatida, nar-kotik moddalarga bo'lgan ehtiyojni oshirib bormoqda. Jahondagi narkotik moddalarning qariyb 90 foizini eksport qila-yotgan Afg'oniston imkoniyatlari endi bu ehtiyojlarni to'liq qoplamay qo'ydi. Narkotik moddalarni ishlab chiqarish imko-nini beradigan yangi davlat tashkil etish zaruriyati tug'ildi. Shu boisdan narkobiznes liderlari jannatmakon o'lka bo'lgan O'zbekistonga ham ko'z olaytirmoqdalar. Bugungi kunda vahho-biylar ana shunday dahshatli, g'ayriinsoniy g'oyaga xizmat qilmoqdalar.

Bugungi kunda jahondagi ayrim siyosiy kuchlar o'zbek ja-miyati a'zolariga millatchilik g'oyalarini singdirishga ham in-tilmoqdalar. Globalizatsiya jarayoni umuminsoniy qadriyatlar miqdorini oshirish bilan birga milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlariga tahdid solayotgani rost. Jahon siyosiy ola-midagi ayrim kuchlar ushbu faktdan ham o'z g'arazli yo'llarida foydalanmoqdalar. Hokimiyat uchun kurash, siyosiy "obro'" ort-tirish maqsadida bu kuchlar millatchilik g'oyalarini o'zlariga qalqon qilmoqdalar.

Millatchilikning jozibasi shundaki, u eng bachkana, eng odatiy hollarni, timsollarni erkinlik va milliy o'zlik ifo-dasi sifatida talqin qila oladi. Umumsayyoraviy sivilizatsiya shakllanayotgan bir sharoitda oromi va osoyishtaligini yo'qo-tayotgan inson millatchilik g'oyalarining "sharofati" bilan hayotdan ma'no, o'z tashvishlaridan qutulish borasida yelkadosh topgandek bo'ladi, o'zini buyuk etnos vakili sifatida his etadi. Shu sababdan ham kishilar tashvishlarga to'la, hayotining ma'-nosi yo'qolib borayotgandek tuyulgan davrda millatchilik g'oyala-riga murojaat qiladilar.

Jamiyatning zamonaviylashib, kosmopolitlashib, shaxssiz-lashib borishi bilan millatchilikka bo'lgan ehtiyoj kamayib emas, oshib boradi. Ushbu jarayonlar va fenomenlar oqibatida millatlar o'rtasidagi farq va chegaraning yo'qola borishi kishilarda turli guruhlariga birlashish zaruriyatini vujudga keltiradi. Yangi tendensiyalar an'naviy tafovutlarni yo'qotib yuborayotgan bir sharoitda millatchilik odatiy, tanish va ko'ni-kilgan qoidalarni tiklayotgandek ko'rinadi. Shu bois millat-chilik g'oyalari hali o'z imkoniyatlarini to'liq sarflab bo'lgani yo'q.

Diniy ekstremizm, millatchilik va ularga o'xshagan ko'plab g'oyalarning asosiy ta'sir obyekti endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar bo'lib qolayotganini ko'rsatib o't-dik. Chunki geosiyosatning asosiy maqsadi o'z mavqeini o'zga mintaqalarda mustahkamlashdan va shu mintaqalarni o'z ta'-siri ostiga olishdan iborat bo'lgan bir davrda jahondagi turli siyosiy kuchlar yosh suveren davlatlarni o'z manfaatlari doirasiga kiritmoqdalar, ularning mustaqilligini zaif-lashtirish maqsadida biz tilga olgan g'oyalarni targ'ib et-moqdalar. "Mintaqada shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, mada-niy-ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda".¹ Ushbu vositalarni shartli ravishda uch yo'nalishga taalluqli topish mumkin.

1. Informatsion urush. Mustaqil mamlakatlar hududida ma'lum turmush tarzini,

qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, varaqalar, san'at asarlari, kinofilmlar, axbo-rotlar va hokazolar tarqatilmoqda. Informatsiya uzatish imko-niyatlari kengayib ketgan bir sharoitda informatsion urushning xavfli oqibatlarini til bilan bayon etish mushkul bo'lsa kerak. Chunonchi, 1665 yilda 10 ta, 1800 yilda 100 ta, 1850 yilda 1000 ta, 1900yilda 10 mingta, 1960 yilda 100 mingta jurnal nashr qilindi.² XX asr nihoyasiga kelib, ularning soni 1 millionga yetdi. Gazetalar miqdorining rivoji ham xuddi shu tarzda davom etdi. To'qsoninchi yillar arafasida faqatgina AqShda 1850 davriy nashr mafkuraviy maqsadlarga qo'llanildi.³ Bizning davrga kelib, sputnik antennalarining mai-shiy turmushga kirib kelishi, "Internet" tizimining rivojlanishi informatsiya uzatish imkoniyatlarini bir necha o'n barobarga mukammallashtirdi va tezlashtirdi. Ushbu holning informatsion urushga ta'siri beqiyosligini ko'rish qiyin bo'l-masa kerak.

2. Psixologik urush. Mustaqil davlatlarning aholilariga tanlangan yo'llarining noto'g'ri ekanligini singdirishga, ularni oxir-oqibatda ijtimoiy larzalar kutayotganini asoslashga intilinmoqda. Masalan, faqatgina 1999 yilning sentabr oyidan 2000 yilning mart oyiga qadar "Nezavisimaya gaze-ta"ning "Internet" dagi saytlarida O'zbekistonda ijtimoiy hayot keskinlashish arafasida turgani to'g'risida ayyuhannos soluvchi 20 ga yaqin material e'lon qilindi. Bularning barchasi millat ruhini tushirish, uni tanlagan yo'lidan qaytarish va homiy axtarishga majbur etish maqsadida amalga oshirilayotir.

3. Texnologik urush. Mustaqil davlatlarning e'tiborini jalb etish maqsadida o'z iqtisodiy, ijtimoiy, informatsion texnologiyalarini targ'ib etishga urinilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, ushbu texnologiyalarni joriy etish bozori vujudga keltirilsa, yangi texnologiyalar bilan birga o'z taraqqiyot modelini ham singdirish, eksport qilish imkoni yara-tiladi.

Ushbu mulohazarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. XX asrning to'qsoninchi yillariga qadar hukm surgan sotsial-reformistik g'oyalar va kommunistik utopiya o'zini oqlamagani bois XXI asr arafasida jahonda, bir tomondan, mafkuraviy beqarorlikni, ikkinchi tomonda esa, mafkuraviy befarqlikni vujudga keltirdi. Xususan, mafkuraviy beqaror-lik jahonda butun-butun xalqlarni jipslashtirish imkoniga ega g'oyalarning yo'qligida namoyon bo'layotgan bo'lsa, mafkuraviy befarqlik kishilarning o'z ongi va faoliyatlarini egallayotgan g'oyaga e'tiborsizliklarida o'z ifodasini topmoqda.

2. Bunday sharoitda diniy ekstremizm, millatchilik, neoto-talitarizm, neoavtoritarizm kabi g'ayriinsoniy g'oyalar ri-vojlaniishi va tarqalishi uchun shart-sharoitlar hosil bo'l-moqdaki, undan eng avvalo endigina mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar ayniqsa katta zarar ko'rmoqdalar. Ushbu g'oyalar turli siyosiy kuchlarning geopolitik maqsadlarini ro'yobga chiqarish maksadida tarqatilmoqda va targ'ib etilmoqda.

3. Mustaqil davlatlarga qilinayotgan mafkuraviy tazyiq informatsion urush, texnologik urush sifatida olib boril-moqdaki, ularning asl maqsadi millatga begona turmush tarzi va qadriyatlar sistemasini singdirish, tanlagan yo'lidan ozdirish, o'z texnologiyasini joriy etish, oxir-oqibatda esa uni o'z ta'siri ostiga olishdan iborat.

X U L O S A

Hozirgi zamon mafkuraviy manzarasi g'oyalar rang-barangligi, g'oyaviy kurash keskinligi bilan farqlanadi. Maf-kuraviy beqarorlik, mafkuraviy befarqlik sharoitida ushbu omillar O'zbekiston xavfsizligiga tahdid solmoqda. Xuddi shuning uchun ham bugungi kunda yuzaga kelgan mafkuraviy manzara XX asrdagi kishilik jamiyati taraqqiyotining qonuniy mahsuli ekanligini yaxshi anglab olmoq, g'oyaviy kurash keskinlashgan bir sharoitda millatning orzu-umidlari va manfaatlarini ifo-dalagan g'oyani shakllantirish orqaligina uning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash mumkinligini yaxshi tushunmoq darkor.

Mafkura – ustqurmaviy hodisadir: u jamiyatdagi ijti-moiy-iqtisodiy va siyosiy voqealar ta'sirida shakllanadi. Shu bois XX asrda globalizatsiya jarayonining tezlashishi va umum-sayyoraviy sivilizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o'zgartirib yubordi. Xususan, fashizm, sotsial-reformizm, kommunizm kabi mafkuralar ushbu jarayon natijasida yuzaga kelgan xususiyatlarni asoslab bera olmaganlari tufayli inqirozga yuz tutdilar. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mafkuraning yo'qligi esa turli, fashizm-danda, kommunizmdanda g'ayriinsoniyroq bo'lgan g'oyalarning rivojlanishiga qo'l keldi. Geosiyosiy maqsadlarning o'zgarishi esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytirdi. Bunday sharoitda o'z maqsadini aniq belgilab olgan, ehtiyoj va manfaatlarini yaxshi anglab yetgan, o'z e'tiqodiga ega bo'lgan, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy g'oyasini shakllantirgan millatgina keklajagini saqlab qoladi.

O‘ZBEKISTONDA INSONPARVAR, DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING AVJ OLISHI VA MAFKURAVIY VAZIYATNING O‘ZGARISHI

R E J A:

K i r i sh.

§1. O‘zbekistonning davlat mustaqilligi va uning ijtimoiy- siyosiy ahamiyati.

§2. Ijtimoiy taraqqiyotning o‘zbek modeli.

§3. Mafkuraviy vaziyatning o‘zgarishi. Mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirish zaruriyatining vujudga kelishi.

Xulosa

Adabiyotlar

KIRISH

Bugun biz yangi davlat, yangi jamiyat qurayotgan ekanmiz, bu tizimda ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etishi shubhasiz. Avvalo, shaxs bilan davlat, inson bilan jamiyat munosabatlari batamom yangicha mazmun va shakl topishi, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillarga asoslanishi kerak.

Boshqacha aytganimizda, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demoratik prinsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan adolatli jamiyat talablariga javob beradigan munosabatlar bo'lmog'i darkor.

Bu jarayonning eng muhim jihati shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga bo'lgan o'z munosabati va o'rnini, zarur bo'lsa, o'z burchini ana shu asosda aniqlab olishi kerak. Asosiy e'tibor xuddi shu muammoga qaratilishi shart.

Hozirgi kunda O'zbekistonda insonparvar, demoratik jamiyat qurish avj olgan sharoitda millatimizni, xalqimizni ma'lum bir g'oya atrofida birlashtirish, ularni milliy istiqlol g'oyasi bilan sug'orish, har bir fuqaro u hoh katta yoshdagi, hoh kichik yoshdagi bo'lsin, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda aktiv ishtirok etmog'i lozim.

Mazkur mavzu o'z e'tibori, mazmun-mohiyati bilan bugungi mafkuraviy vaziyatning o'zgarishi, mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish bu borada Prezidentimiz I.Karimov tomonidan olg'a surilayotgan g'oyalarni talabalarga yetkazishga bag'ishlanadi.

va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

Istiqlol, Mustaqillik, Islohot-bu iboralarni juda ko‘p ishlatsakda, nazarimizda hali biz ularning butun mazmunini, qamrovini, turmushimizga tutgan o‘rnini va rolini qanchalik anglab yetayotganimizni yana bir karra uylab ko‘rishimiz kerak.

Istiqlol va islohot tushunchalari bevosita Milliy uyg‘onish, Milliy o‘zligini anglash, shaxs o‘z qadr-qimmatini tiklash, uning noyob mavjudod sifatida munosib yashash singari nihoyatda chuqur, nihoyatda teran alohida tayyorgarlik, ong va tafakkurda keskin burilish yasash bilan bog‘liq. Ana shuning o‘zi naqadar og‘ir va mashaqqatli, vaqt talab etadigan hodisa ekanligini ko‘rsatadi, mazkur tushunchalar ko‘lamini, vaznini, salmog‘ini belgilaydi. Masalalarning yana bir tomoni ham borki, bu tushunchalar bevosita Istiqlol va islohot tashab-buskori, uning rahnamosi Islom Karimov nomi bilan bog‘liq.

Biz mustaqillikni qo‘lga kiritganimizga unchalik ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Ammo yangilanishlar jarayon shu darajada tezlashdiki, har bir kunimiz yillar mazmuniga teng bo‘lmoqda. Turmush tarzimiz ham, ong va tafakkurimiz ham, tubdan uzgarmoqda. Bu esa, bevosita istiqolol, islohot va ana shu ikki tushunchani o‘z faoliyatida mujassam etgan –islom Karimov nomi bilan bog‘liq.

Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqillikning qisqa davrida asrga tatigulik tarixiy g‘alabalarni qo‘lga kiritdi. Voqealar rivoji, islohotlar shiddati, yangilanishlar odimlari shuncha-lik tezlashdiki, bunday ommaviy safarbarlikni, ommaiy yangilanishlarni insoniyat tarixi ko‘rmagan.

Mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma‘naviy islohotlar bevosita har bir fuqaro qalbi va ongi orqali o‘tkaziladi. Bu butun mamlakatning ham, har bir fuqaroning ham ma‘naviy qiyofasini o‘zida mujassam etadi.

Islohotlarimizning yutug‘i mamlakatda barqarorlikni saqlaganimiz, iqtisodiyotni rivojlanish yo‘liga olib chiqqanimiz, milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevorini yaratganimiz bilangina emas, balki ana shu islohotlar mazmuni-mohiyatining chuqurligi, ular har bir fuqaro, har bir tirik jon tuyg‘ulari, maqsadlari, orzu va umidlari orqali o‘tgan bilan alohida mavqega ega.

Islohotlarimizning ma‘naviy kuchi, qadriyati ana shu bilan belgilanadi. Demak, bunday hodisa keyingi yillar jahon islohotchilik tajribasida faqat O‘zbekistonda yuz berdi. Bu holatni nafaqat o‘zimiz, balki jahon jamoatchiligi ham to‘la tan olmoqda.

O‘zbek xalqi salkam bir yarim asrlik siyosiy kishanband-likdan tinch yo‘l bilan ozod bo‘ldi, mustaqillikka erishdik. Bugun O‘zbekistonning ovozi jahon bo‘ylab baralla yangramoqda.

Bu –siyosiy mustaqil bo‘lib, ichki va tashqi siyosatda hech kimning, hatto “katta og‘a”ning ko‘rsatmalarisiz ham, o‘z miliy istiqolol va yangilanish yo‘lidan buyuk kelajak sari borish demakdir.

Bu-iqtisodiy mustaqillik bo‘lib, yurtimizning bebaho boyiligi ehsonlariga chinakam egalik huquqini qo‘lga kiritib, o‘zbek xalqi farovonligi yo‘lida foydalanish demakdir.

Bu-ma‘naviy mustaqillik bo‘lib, xalqimizning istiqolol, ozodlikka, o‘z davalatiga ega bo‘lishga adolatli jamiyat qurishga bo‘lgan asriy orzu-umidlarining ro‘yobga

chiqarishidir. Zbek xalqi siyosiy va iqtisodiy qaramlikka tushgan davrlarida ham hech qachon ma'naiyat sohasida o'z mafkuraviy mustaqilligini yo'qotgan emas.

Har qanday tazyiqlarga qaramasdan, "Marksizm-Leninizm" kishanlari va panjarasi ortidan ham ma'naiyatimiz kurtaklari doimo barq urib turdi. Ammo bu chuqur milliy ildizlarga ega bo'lgan ma'naviyat sarchashmalarimi ko'p asl farzandlarini qurbon qilishlar evaziga saqlanib qolindi.

Prezidentimiz I.Karimov "O'zbeiston XXI asrga intilmoqda" kitobida XXI asr arafasida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi islohotlarni chuqurlashtirishi va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning mazmun mohiyatiga to'xtalib asosiy ustuvor yo'nalish – "jamiyati ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat" – degan edi.

Shakllanayotgan milliy istiqloq mafkurasi millatimizning asriy an'ana va urf-odatlarini, o'zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassamlashtirib, jamiyatimiz, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu muddao va vazifalarini aniq-ravshan aks ettirmog'i zarur. Toki har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday dalat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topishi lozim.

Bizning bosh strategik maqsadimiz – bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Bu – xalqimizning asriy an'analarga, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda rivojlangan dalatlarning tajribalaridan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmasdan, o'zimizga xos, o'zimizga mos rivojlanish yo'lini davom ettirishni anglatadi.

Xuddi shu strategik maqsadlar jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor bo'lgan vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Siyosiy sohada:

Jamiyat hayotni demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishdir.

1.Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarining davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faoliyatini oshirish, unda milliy va mumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish.

Xuddi shu jarayonda demokratiya, fikr va vijdon jrkinligi, plyuralizm va inson haq-huquqlarini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilib yashash tamoyilini jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylantirish.

2.Jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish.

3.Demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyat tizmlari bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyiliga qat'iy amal qilish, jamiyat a'zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini,

tashabbus erkinligini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Boshqacha aytganimizda, mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan hech qanday siyosiy kuchlarning subyektiv xohish irodasiga qaram blmasdan ishni faol tashkil qiladigan o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatning olg'a siljishiga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan samarali tizimni shakllantirish demakdir.

4. Mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini bosqichma bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzumlarining huquq va mavqeinioshishni ko'zda tutadigan "kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari" konsepsiyasini hayotga joriy qilish.

YA'ni, bu-odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolliги yuksalib borgani sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzulmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko'proq huquqlar berilishini ta'minlash demakdir.

5. davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablari asosida, xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos holda amalga oshiradigan iste'dodli, izlanuvchan, chuqur bilimli va yuksak malakali, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli yosh kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va yangilashga imkon beradigan tizimni takomillashtirishni taqoza qiladi.

Iqtisodiy sohada:

Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini amalga oshirish, olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish-asosiy vazifadir.

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – bu eng avvalo davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi nabatda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini tiklash.

2. Xususilashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda mulkdorlar sinfini shakllantirish, jarayonga tarmoqlarning aosini tashkil qiluvchi yirk korxonalarni jalb qilish.

3. Iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay hug'ug'iy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish.

4. Mamlakat eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatli shartlar asosida ishtirok etish, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish.

5. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

1. Iqtisodiyotning mulkchilik asoslari rivojlantirilyapdi. Turli mulk shakllari vujudga keldi va takomillashtirilmoqda.

2. Tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar tarmog'i kengaytirilmoqda, yangilari qurilmoqda.

3. Kichik va o'rtta biznes korxonalari tizimi shakllantirildi va jadal rivojlantirilmoqda.

4. Bozor infratuzilmasi vujudga keldi. Tadbirkorlarga va aholiga rang-baorang, iqtisodiy, moliyaviy, axborot-reklama, huquqiy va ilgari o'zimizda bo'lmagan boshqa xizmat turlari ko'rsatilmoqda.

5. O'zbekistonning geografik o'rnini va geopolitika xususiyatlari, transport va kommunikatsiya masalalariga jiddiy e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Ijtimoiy sohada:

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari ustuvor bo'lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosiy yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu esa milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga-oshirishiga xizmat qiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat deganda, xalq to'g'risida – har bir ijtimoiy guruh qatlam, tabaqa, har bir fuqaro, yoshu keksa, erkagu ayol – barcha yurtdoshlarimiz to'g'risida g'amxo'rlik qilish, islohotlarni, iqtisodiy tadbirlarni xalqmanfaatlarini ko'zlagan holda o'tkazish, xalq ta'limi, sog'loqni saqlash, madaniyat, ilm-fan sohaslariga e'tiborni susaytirmaslik tushuniladi. Prezident Islom Karimovning islohotlar islohotlar uchun emas, xalq uchun, uning turmush farovonligi o'sishi, munosib hayot kechirishi uchun, degan xulosasi kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazishning ma'no-mazmunini tashkil etadi. Bu esa – davlatimiz siyosatining insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqadi.

1. Xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich va izchil oshirib borish, yurtdoshlarimizning munosib hayot kechirishi va kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo, uning yordamga muhtoj qatlamlari – bolalar, qariyalar, nogironlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yo'naltirilgan mexanizmini yanada takomillashtirish.

2. Xalqimiz uchun muqaddas bo'lgan oila, onalar va balalarimizning jamiyatdagi o'rnini va mavqegini oshirish sohasidagi ishlarni davom ettirish.

3. Fuqarolarning huquqiy tengligini va qonun ustuvorligini, jamiyat manfaatlari va aholi xavfsizligini yanada samarali kafolatlovchi davlat tuzulmalari faoliyatini takomillashtirish.

4. Kelajagi buyuk davlatni sog'lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlod barpo etishni nazarda tutib, komil insonni siyosati darajasida kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish.

Ma'naviy sohada:

Ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirishga, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo'l qo'ymaslik – bu boradagi asosiy vazifalarimizdir. Ushbu vazifalar milliy istiqlol g'oyasining ma'naviy sohada namoyon bo'lishining asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Yangi jamiyat barpo etish jarayonida, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlarni to'g'ri baholay olishni, soxta qadriyatlardan yoki tarixan eskirgan, o'zidagi bunyodkorlik va ijobiy salohiyatni sarflab bo'lgan qadriyatlardan haqiqiy hayotbaxsh qadriyatni

ajrata olishni o'rg'zhanish lozim. Biror – bir qadriyatga baho berlar ekan, uning makmlakatimiz mustaqil taraqqiyotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, e'tiqodiy va ahloqiy asoslarini qay darajada mustahkamlay olishi, xalqimizning umumjahon ijtimoiy taraqqiyotining faol subyektiga aylanishiga xizmat qila olishi bosh mezon bo'lishi kerak.

1.Xalqimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirok chisiga aylantirish. Ularning kuch va salohiyatlarni ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadalrga xizmat qildirish

2.Turli qarash va fikrlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish.

3.Ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushntirish borasidagi ishlarini davom ettirish, toki bu din xalqimizning ming yillik tarxi, bugungi manaviy hayotimizning ham asosi, ya'ni Alloh doimo qalbimizda. Yuragimizda ekani yurtdoshlarimiz ongiga singib borishiga erishish.

4.Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish.

5.O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va ellatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish.

2. IJTIMOIIY TARAQQIIYOTNING O'ZBEK MODELII.

XX asrning so'nggi o'n yilligi jahon tarixiga ijtimoiy dunyoqarashda, jahon hamjamiyatining jug'rofiy-siyosiy (geopolitik) tuzulishda tub o'zgarishlar davri bo'lib kiradi. Jahon yangi davrga qadam qydi. Bu davrning o'ziga xos belgilari, bir tomondan, davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi yagona xalqaro me'yorlar, qoidalar va andozalarga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomondan, sotsialistik lagerning yemirlishi totalitar tuzumlarning tugatilishi, unitar tizimlar o'rnidayosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir. Boshqa aytganimizda Yer kurrasining oltidan bir qismida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov ayganidek, "Bu yangi tuzilgan mustaqil davlatlarda davlat qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish muammolari mintaqalarning doiralaridan tashqari chiqib, xalqli ravishda umumjahon tusini olganidan dalolatdir"¹.

Sobiq sotsialistik va boshqa mamlakatlar voqeligi keltirib chiqargan yangi hodisalar, munosabatlar va jarayonlar endilikda an'anaviy tushunchalarga mos kelmay qolgandi. Mulkchilik, ishlab chiqarish, boshqarishning bozor va rejali tartibga solish mexanizmlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi va mazmun va ma'no kasb eta boshladi.

Ongimizga singib kelgan "kapitalistik" va "sotsialisti" tushunchalar o'rtasida farq allaqachonlar yo'qolganligi ma'lum bo'lib qoldi. Ularni sun'iy ravishda ajratish mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga bo'lishi mumkin xolos.

Tafakurning mafkuraviy aqidalardan holi bo'lgan, har bir mamlakatning va butun jahon ma'rifatparvarligining sifat jihatidan yangi holatga o'tish shakllari va yo'llarining xilmaxilligini ko'rsatib beradigan yangi turi va uslubini yaratish zarurati vjudga keldi.

Yurtboshimiz aytganidek, "Hozirgi ijtimoiy, shu jumladan iqtisodiy rivojlanishning hammabop, har qanday mamlakat uchun birday tavsiya etish mumkin bo'lgan andozalari yo'qligi aniq-ravshan bo'lib qoldi.2. Ijtimoiy rivojlanishning turli madaniy, ma'rifiy, tarixiy an'analarning nodirligi va o'ziga xosligiga tayanadigan shakllari va usullari xilma-xilligi ma'lum bo'lib qoladi.

Totalitar tuzum sharoitida orttirilgan butun tajriba shundan dalolat beradiki, aniq-ravshan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy ruhiy, demografik, tabiiy-iqlim va boshqa sharoitlarni, mintaqalarning obyektiv farqini hisobga olmaydigan siyosat va xo'jalik tajribasi inqirozga uchrashi muqarrar. SSSRning parchalanib ketgani, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslubini targ'ib qiluvchi vamyuqoridan ko'rsatma bilan (direktiv) rejalashtirishga hamda resurslarni markazlashtirilgan tartibda, o'zboshimchalik bilan taqsimlashga asoslangan Sotsialistik xo'jalik yaratish usulining barbod bo'lganligi buni isbotlaydi.

Bunday sharoitda o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li va andozasini tanlab olishdek o'ta mas'uliyatli ishni hal qilishlozim edi. Bu yo'l va andoza iqtisodiyoti bozor munosabatlari asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasiga, hamda O'zbekiston xalqining milliy, tarixiy merosi, turmush tarz, an'analari va ruhiyati, xususiyatlarini inobatga olgan holda taraqqiyotni belgilashni talab etadi.

"Bozor munosabatlariga o'tishning konservativ andozalaridan tortibradikal andozalargacha, tadrijiy (evolyutsion) rivojlanish andozasidan tortib to "falaj (shok) bilan davolash" tarzidagi jadallashtirish andozasigacha bo'lgan jahon tajribasibu andozalarni amalga oshirishning turli ko'lamlari va muddatlarini o'rganishga imkon beradi"3.-degan edi I.Karimov.

Lein, bu tajriba ma'lum andozalardan ko'ra-ko'rona nssxa ko'chirishga urinilayotgan joylarda islohotlar muvaffaqiyatsizlikka uchrayotganidan dalolat bermoqda. Buning sababi shundaki, dunyoda bir-biriga o'xshaydigan ikkita odam bo'lmaganide, ikkita bir-biriga o'xshash dalat ham bo'lmaydi. Agar aynan nusxa olinsa mamlakatning o'ziga xos shartsharoitlari, mavjud imkoniyatlari, yaqin va olis hamkorlik bilan ko'p yillar davomida tarkib topgan iqtisodiy hamda ma'naviy aloqalarini moslashtirib bo'lmaydi.

Xuddi shuning uchun ham Prezidentimiz I.Karimov o'zining "O'zbekiston – bozor munosabatlarga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida, "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishda respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan, O'zbekistonning o'tmishi, hozirgi kuni va kelgusi taraqqiyotiga to'la-to'kis mos keladigan mutlaqo yangi andoza, o'ziga xos yo'l zararligini ta'kidlagan edi.4.

Demak, O'zbekiston yuozor munosabatlariga o'tishda o'xshashi bo'lmagan, betakror yaxlit andozamizni ishlab chiqish, o'z yo'limizni tanlab olishimizni taqozo qilmoqda edi. Bu yo'l uch tarkibiy qismdan iboratligi ko'rsatildi.

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining

xarakteristikasi (tavsifi);

-qat'iy markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga asoslangan yo'liga o'tishning eng muhim prinsiplari.

-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tanglikdan chiqib olishning, barqarorlikni va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari.

Xuddi shunday sharoitda, istiqlolning dastlabki yillarida Prezident I.Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi mashhur besh tamoyili vujudga keldi.

Birinchi tamoyil: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ubiror mafkuraga bo'ysundirilishim mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan holi bo'lishi lozim.

Ikkinchi tamoyil: davlat bosh islohotchi. U islohotlarning ustivor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirish lozim.

Uchinchi tamoyil: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustivorligi. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

To'rtinchi tamoyil: Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa, kam ta'minlagan oilalarni, boalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

Beshinchi tamoyil: Bozor iqtisodiyotiga obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri tashkiliy negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini izchil doriy etishni ta'minlamoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlar va mentalitetiga tayangan, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

O'zbek modelining asosiy ustivor xususiyatlari nimalardan iborat? O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat iqtisodiy taraqqiyot masalalarini, balki milliy dalatchilik asoslarini, milliy qadriyatlarini, xalqning o'zligi va g'ururini qayta tiklashi, rivojlantirishi, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini tubdan yangilashi va mustaqillik g'oyalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha firlab, yangicha ish yuritadigan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalarni ham hal etish lozim.

Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Xitoy kabi mamlakatlarning taraqqiyot modellari ko'proq iqtisodiy modellar edi. Ular siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni nazarda tutgan emas. Ushbu

mamlakatlarning birortasida, iqtisodiy islohotlar davrida, milliy davlatchilikni, madaniy merosni va ona tilini tiklash singari masalalar ham dolzarb bo‘lmagan. Xulosa qilib aytganda, O‘zbeistonda barpo etilayotgan yangi jamiyat qurish sharoitida jamiyatning barcha sferalarida yangilanish talab etilmoqda. Biz rivojlangan mamlakatlar duch kelmagan muammolarga ham duch kelmoqdamiz. Demak, o‘zbek modeli iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish bilan birga davlat qurilishi, jamiyatni demokratlashtirish, mulkdorlar sinfini va xususan, o‘rta sinfi shallantirish, ijtimoiy-sinfiy tuzilmani takomillashtirish va kadrlar tayyorlash, madaniy meros va ma’naviyat bilan bog‘liq jihatlari singshari bir qator keng qamrovli hayot sohalarini qamrab oladi. Xuddi shu jihatlari o‘zbe modelining o‘ziga xos ustuvor xususiyatlaridir.

3. MAFKURAVIY VAZIYATNING O‘ZGARISHI, MAFKURAVIY BO‘SHLIQNI TO‘LDIRISH ZARURIYATINING VUJUDGA KELISHI

Kishilik tarixi taraqqiyotida nazar solmsa, uni sinchiklab o‘rgansak, tarixiy qonuniyat shundan dalolat beradiki, bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o‘tish davrida, jamiyat hayotining barcha sohalarida bo‘lgani singari, g‘oyaviy-mafkuraviy sohadaham ma’lum muammolarni hal qilish zaruriyati yuzaga keladi.

Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotish muqarrar. Ikkinchidan, qayerda mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yenda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin.

Insoniyat yangi asr, yangi ming yillik bo‘sag‘asida turgan bugungi kunda turli xil eski mafkuralarning o‘zaro kurashi har qg‘achongidan ham shiddatli tus olmoqda. Bir-biriga zid bo‘lgan dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari ba’zan bahs-munozara doirasidan chiqib qonli to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda, insonlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyodka ikki qarama-qarshi qutblardan biri barham topgan bo‘lsada, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to‘xtagani yo‘q.

Bunday tortishulardan ko‘zlangan aosiy maqsad- odamlar, eng avvalo jamiyatdagi yoshlar qalbini egallash, biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi – tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish, uni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilishdir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek “Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramliklardan ham dahshatlidir”.1.

Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddaolariga erishishi uchun ma’naviy-Oruhiy uch-quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan.

Tariximizdan ma’lumki, har qanday zo‘ravon bosqinchilar va yurtimizda hukmronlik qilmoqchi bo‘lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun avvalo milliy madaniyat va an’analarimizni yo‘q qilish, shu yo‘l bilan bizni ma’naviy jihatdan zaiflashtirishga, kuch-qudratimizni yo‘qotishga harakat qilganlar.

Bugungi kunda insoniyat shunday informatsiyalashgan davrda yashamoqdaki, u ma'lum bir dalatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy uchlarning ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi. Axborot asri, elektronika asri deb atalgan XX asrning nihoyasida-bugungi davrimizda bu ta'sirlardan holi bo'lish aslo mumkin emas.

Prezident I.Karimov ta'biri bilan aytganda "bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham qo'proq kuchga ega. Shu bilan birga kishini doimo ohoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish nihoyatda qiyin"²

Ana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyat-lariga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh bera olmaydi.

Misol tariqasida qo'yidagilarni aytish mumkin. Yaponiyada tarqalgan "AUM Senrike" degan diniy oqim vakillari, dunyoning turli mamlakatlaridagi yuzlab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong-shuuridan mahrum qilib, zombi-ya'ni manqurtga aylantirib qo'ygani yaxshi ma'lum. Yoki din niqobi ostida Mrakaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonga ham kirib kelishga urinayotgan vahhobiylilik oqimi namoyondalarining zararli kirdikorlarini aytish mumkin. Bundan tashqari, mamlakatimizda yashirincha faoliyat olib borishga urinib fosh etilgan boshqa diniy tashkilotlarning ham faoliyati hammaga ma'lum.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdii, tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum-bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayniqsa, butun dunyoda, jumladan informatsiya olamida globallashuv jarayoni yechayotgan hozirgi paytda, ya'ni, jahonning bir chekkasida sodir bo'layotgan voqealar va harakatlarning tez tarqalib ketayotganini hisobga olganda masalaning dolzarbligi yanada ortib borayotganligi ma'lum bo'ladi.

O'zbekiston o'z ozodligini qo'lga kiritgach, mohiyatan xalqimizning tabiatiga, dunyoqarashiga yot bo'lmagan kommunistik mafkuraga barham berildi. Ma'lumki, umrini o'tab bo'lgan g'oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazardan inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g'oya, ilg'or bir fikrning shakllanishiga ehtiyoj tug'iladi. Xuddi shu zaruriyat teran anglab yetilmagan holda g'oyaviy vakkum-bo'shliq yuzaga keladi. Ammo mafkura sohasida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday holatning oldini olish uchun mamalkatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ko'pgina ishlar o'zgarib, yangicha dunyoqarash osonlik bilan shakllanib qolmaydi.

Aynan mana shunday sharoitda xalq va davlatning ezgu maqsadlariga yosh va begona bo'lgan g'oyalar jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilishi muqarrar. Ayniqsa, g'oyaviy beqarorlik hukmron bo'lgan joyda mafkuraviy tahdid kuchayadi. Aholi keng qatlamlari, xususan, yoshlarning ongini egallashga o'rinishlar ortib boradi.

Xuddi shunday sharoitda yurtboshimiz I.Karimov aytganide qg'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga

kirishish”ga tayyor bo‘lmoq lozim”¹. Mana shu haqiqatning bugun jamiyatimiz, xalqimiz uchun naqadar dolzarb ekanini e’tirof etishda, mohiyatini chuqur anglab, oldimizda turgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda uni yengilmas kuchga aylantirishda xalqni bitta g‘oya atrofida jipslashtirmoq lozim. Chunki, mafkura-jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Prezidentimiz I.A.Karimov “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga bergan javobida “Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o‘z taraqqiyot yo‘lini, ertangi kun ufqlarini o‘zining milliy g‘oyasi, milliy mafkuraasi orqali belgilab olishga intiladi”-degan edi².

Bugungi kunda insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi.

Agar tarixda nazar solsak, ilgari kuchli davlatlar zaif mamlakatlarni ochiqdan-ochiq bosib olib, ularga o‘z hukmini o‘tazgan bo‘lsa, XX asrning oxiriga kelib, bunday siyosat yangi bir shakl kasb etdi. Hozirgi vaqtda qudratli davlatlar va siyosiy markazlar o‘z maqsadlariga erishish uchun avvalo zabt etmoqchi, o‘z ta’sir doirasiga olmoqchi bo‘lgan mamlakatlarning aholisi ongini o‘ziga qaram qilishga intiladi¹.

X U L O S A

Yuqoridagi aytilganlardan shunday xulosaga yelish mumkin. Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, katta mablag‘ va ta’sir kuchga ega bo‘lgan ba’zi markazlar vujudga kelgan mafkuraviy bo‘shliqdan foydalanib, o‘z yovuz niyatlariga erishishga urinishmoqda.

Bunday kuchlarning mamlakatimizga ko‘z olaytirishi, bizga o‘z hukmini o‘tkazishga intilishlarining sababi-yurtimizning geopolitik nuqtai nazardan g‘oyat qulay hududda joylashgani, intellektual salohiyat va tabiiy zahiralarga boyligidir.

1980 yillarning oxirlaridan boshlab mamlakatimizda kirib kelgan vahhobiylik, “Xizbut tahrir” kabi zararli oqimlar turli sektalar dinning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g‘ur yoshlarni yo‘ldan ozdira boshladi. Ular halqimiz, ayniqsa farzandlarimizning ko‘ngli ochiq, soddadil, ishonuvchanligidan foydalanishmoqda.

Hozirgi kunda jaamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug‘diradigan mafkuraviy tahdidlar quyidagilardan iborat:

- islom xalifaligini tiklab, uning bayrog‘i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;
- yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g‘oyasi;
- tariximizni milliy qadriyatlarimizni va dinning mohiyatini sohtalashtirishga urinishlar;
- ahloqsizlik g‘oyalarini yoyib, xalqni ma’naviy jihatdan buzishga intilishlar;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib

chiqarishga qaratilgan harakatlar.

Bu tahdidlar, avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizatsiya yutuqlaridan mahrum qilishga, natijada yurtimizni o'ziga qaram qilib olishga qaratilgan zamonaviy tajovuzkorlikning mafkuraviy bir shaklidir.

A D A B I Y O T L A R:

Karimov I.A. "Milliy mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, 2000 yil, 12-31-betlar.

Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqini – xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin".-Tafakkur jurnali, 1998 yil, №2, 3-16-betlar.

Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda".Toshkent, 1999 yil, 14-24-betlar.

Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari". Toshkent, 1997 yil, 69-109-betlar.

Jabborov M. "Farobiyning adolati jamiyat orzusi". Muloqot, 1999 yil, №1, 20-22-betlar.

Jalolov A. "Mustaqilli – mas'ulimiyat huquqi". Muloqot, 1998 yil, №4,11-14-betlar.

Jo'rayev N."Agar ogoh sen...", Toshkent, 1998 yil, 42-128-betlar.

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, 2000 yil, 28-42-betlar.

Milliy istiqlol g'oyasi: "Yangi asr avlodi", 2001

MILLIY MAFKURANING O‘ZBEKISTONDA INSONPARVAR, DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDAGI ROLI

K i r i sh.

§1. Mafkura tushunchasi: mazmuni va mohiyati.

§2. Jamiyatni mafkurasiz yashayolmasligi.

§3. Milliy mafkuraning o‘ziga xos xususiyatlari.

§4. Milliy mafkuraning ilmiy-nazariy asoslari.

Xulosa

Adabiyotlar

KIRISH

O‘zbekiston Davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardayoq Prezident Islom Karimov,-“Oldimizda turgan eng muhim masala, bu-milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir” (8,9) degan edi. Chunki, mamlaka-timizda bunyod etilayotgan, yangi insonparvar, demokratik ja-miyat “eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning hurujidan himoyalanih, bunday tajavuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda” (10,5) edi.

Milliy istiqlol mafkurasini haqida fikr-mulohaza yuritayotgan har bir kishi, eng avvalo, jamiyat nima? Jamiyat deganda nimani tasavvur qilmoq kerak? degan savollarga javob bermog‘i lozim. Chunki milliy istiqlol mafkurasini to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritayotgan kishining metodologik pozitsiyasi ko‘p jihatdan ushbu savollarga bergan javoblariga bog‘liq.

Shunday qilib jamiyat deganda nimani tushunmoq kerak? Jamiyat deganda faqat individlarni (kishilarni) yig‘indisi, odamlarni qandaydir uyushmasi, birlashmasi emas, balki turli millat, turli sinf, turli maslak, turli manfaat, turli taba-qalarga mansub kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar-ning bir butun, yaxlit sistemasi tushuniladi.

Har qanday jamiyatni yagona sistemaga birlashtirib turgan qudrat ijtimoiy munosabatlardir. Jamiyatdagi barcha ijti-moiy munosabatlar asosan ikki sferada: moddiy va ma‘naviy sferalarda sodir bo‘ladi. Jamiyatni ma‘naviy sferasida sodir bo‘layotgan barcha aloqalarni, munosabatlarni, bir jumla bilan aytganda mafkuraviy (ideologik) munosabatlar deb yuritiladi. Xuddi shuning uchun ham mafkuraviy jarayonga rahbarlik qilayotgan har bir boshliq, har bir tashkilotchi, har bir tashviqotchi, mafkuraviy munosabatlarning strukturasi ni ya‘ni uni tashkiliy tuzilishini yaxshi bilishi lozim.

Mafkuraviy munosabatlar sistemasi, o‘sha sistemani vujudga keltiruvchi elementlar, komponentlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirishdan avval, mafkura tushunchasini mohiyatni tushunib olishimiz zarur.

Mafkura-arabcha soʻz boʻlib nuqtai nazarlar, eʼtiqodlar tizimi, majmuasi degan maʼnoni bildiradi. Xuddi shuning uchun ham, mafkura deganda jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy qarashlar, fikrlar va gʻoyalarning majmuasini tushunmoq darkor. Mafkura tushunchasini Yevropa ilmiy-falsafiy adabiyotida birinchi marta fransuz faylasufi va iqtisodchisi A.L.K.Destyut de Trasi oʻzining asarlarida ishlatgan. Destyut de Trasi-bu tushuncha yordamida, siyosat va axloqning poydevorini tashkil etuvchi gʻoyalar haqidagi taʼlimotni nazarda tutgan boʻlsa, keyingi ikki asr davomida faylasuflar mafkura tushunchasini siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va diniy qarashlar, qoidalar, gʻoya-larning muntazam sistemasi sifatida talqin eta boshladilar.

Bizning fikrimizcha: mafkura falsafiy tushuncha boʻlib, insonning fahm-farosati, fikr-mulohazasi yordamida ishlab chiqarilgan turli gʻoyalar, qarashlar, taʼlimotlarning yigʻindi-sidir, uning yaxlit bir butun sistemasidir. Mafkura jamiyat ustqurmasining eng muhim qismi boʻlib, turli nazariy taʼli-motlarni fuqarolar ongiga, kundalik turmush tarziga sing-dirish yoʻllari, uslublari va usullari, omillari va vosita-larining toʻplamidir. Shuningdek mafkura deganda aniq maqsadga qaratilgan, aniq maqsadga buysundirilgan ijtimoiy tarbiyani tushunmoq darkor. Ushbu ongli ijtimoiy jarayon uch asosiy elementni: “Mafkuraviy tasavvur”, “Mafkuraviy taʼsir”, “Mafkuraviy faoliyat” ni oʻzida mujassamlashtiradi (Biz bu haqida keyinroq batafsil gapiramiz).

Har qanday gʻoya, qarash, taʼlimot aniq bir maqsadga qara-tilgani uchun har qanday mafkura ham aniq bir maqsad, niyat yoki istakni amalga oshirishga qaratiladi va maʼlum manfaatga buysungan boʻladi. Boshqacha aytganimizda, har qanday mafkura jamiyatda mavjud boʻlgan ijtimoiy tabaqa yoki sinf, millat yoki elat, partiya yoki ijtimoiy harakat manfaatiga xizmat qiladi. Xuddi shuning uchun ham har qanday mamlakat, har qanday jamiyat mafkurasiz yashashi mumkin emas. Aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, jamiyatni mafkuradan, mafkurani jamiyat-dan ajratib boʻlmaydi. Oʻzbekiston Respublikasining Prezi-denti I.A.Karimov yozganidek, “Mafkurasiz odam, jamiyat, davlat oʻz yoʻlini yoʻqotadi” (3,32). Tarixning guvohlik berishicha, har qanday jamiyat sharoitida ham odamlar nimagadir eʼtiqod qilishgan, qandaydir bir gʻoyaga yoki taʼlimotga tayanib, ishonib faoliyat koʻrsatishgan. Oʻz maqsadi, niyati, orzu-umidlarini oldindan belgilab olmagan, uni amalga oshirish yoʻllari, vositalari va usullarini aniqlab olmagan jamiyat yoki davlat hech qachon yuksaklikka koʻtarila olmaydi. Aniq gʻoyaviy dasturga ega boʻlmagan har qanday jamiyatda, har qanday davlatda bosh-boshdoqlik hukmron boʻladi. Shunday ekan, Oʻzbekistonning oʻziga xos, oʻziga mos milliy mafkurasi boʻlishi zarur.

Afsuski, baʼzi birovlar fuqaroviy, yaʼni insonparvar, demokratik jamiyat qurish sharoitida Oʻzbekistonning milliy mafkurasi boʻlishi shart emas, degan fikr-mulohazalarni bayon etdilar. Mafkuraviy tadbirlarni amalga oshiruvchi alohida tashkilotlarga, madaniy-maʼrifiy uyushmalarning targʻibot va tashviqot ishlariga ham hojat yoʻq. Mafkuraviy tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat xazinasidan mablagʻ ajratish ham shart emas. Tashviqot va targʻibot ishlarini jamoat tashkilotlari, madaniy-maʼrifiy uyushmalarning mablagʻlari hisobida amalga oshirsa boʻladi. Demokratik davlat boshqaruviga asoslangan, fikrlar xilma-xilligiga keng

yo‘l ochilgan sharoitda mafkura davlat faoliyatidan tashqarida bo‘lishi lozim. Chunki har qanday mafkura jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy tabaqa yoki sinf, millat yoki elat, partiya yoki ommaviy harakat manfaati uchun xizmat qiladi. Davlat har qanday g‘oyaga, ta‘limotga, qarashga nisbatan aralashmaslik, qo‘shilmaslik mavqeini egallab turishi darkor, degan fikr-mulohazalarni bayon etdilar.

Boshqa bировlar esa, mafkura milliy qadriyatlar, an‘ana-larning to‘plami, sistemasi bo‘lib, u yoki bu millatga, elatga mansub shaxs dunyoqarashini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Turli millatlar va elatlarga taalluqli qadriyatlar sistemasi bo‘lishi mumkin emas. Xuddi shuning uchun ham, bir mamlakat hududida yashovchi barcha millatlar va elatlar manfaatiga mos tushuvchi mafkura bo‘lishi mumkin emas emish. Yana allakimlar, mamlakatimizda inqilobiy-ijtimoiy o‘zgarishlar boshlanishi bilan, ma‘muriy bo‘yruqbozlik tuzumi mafkurasining turli nayranglarini tushunib yetishgach, umuman mafkuradan voz kehdilar. Hatto mafkura muammolari ommaviy axborot vosita-lari, davlat muassasalarining naziradan chetga surib quyildi. Oqibatda butun boshliq jamiyatni mafkurasizlantirish, davlat tashkilotlarini undan holi etish jarayoni boshlandi. Hayriyatki, Prezidentimiz I.A.Karimov milliy istiqlol mafku-rasini yaratish va hayotimizga tadbiq etish lozimligini zuk-kolik bilan o‘z vaqtida payqab yetdi.

E’tirof etish zarurki, har qanday mafkura o‘zidan-o‘zi, tasodifan vujudga kelmaydi. Uning shakllanishi uchun ijti-moiy shart-sharoitlar pishib yetilishi, boshqacha aytganimizda jamiyat a‘zolarida ehtiyoj bo‘lishi darkor. Mamlakatimizda ikki mafkura hukmron bo‘lgan mustabid tuzumdan insonparvar, demokratik jamiyatga o‘tish davrida hosil bo‘lgan iqtisodiy beqarorlik, odamlarning intellektual, ma‘naviy-madaniy qashshoqlashuvi ijtimoiy bo‘shliqni yuzaga keltirdi. Vujudga kelgan ijtimoiy bo‘shliqdan ustakorlik bilan foydalangan ba‘zi xonaki “dohiychalar”, “payg‘ambarlik”, “yalovbardorlik” da‘vosini qilgan targ‘ibotchilar va tashviqotchilar kishilar ongi va faoliyatiga: g‘ayri-gumanistik, monarxistik, milliy- sotsialistik, diniy-ekstrimistik, g‘oyalar shovinistik millat-chilik, mahalliychilik, guruhbozlik, urug‘-aymoqchilik kabi kayfiyatlarni tiqishtirishga urina boshladilar. Ayniqsa bozor iqtisodiga o‘tish munosabati bilan: tadbirkorlik, ishbilar-monlik niqobiga bo‘rkanib olgan xalq, davlat manfaatini bir chekkaga surib qo‘yib, faqat o‘z manfaati yo‘lida xaromu-xarish, aldanchilik va tovlamachilik bilan molu-dunyo to‘plashga xirs qo‘ygan ba‘zi uddaburonlar hamma narsani, xatto kishilar ma‘naviyatini va madaniyatini, aqlu-farosatu, ilm-zakovatini ham pul, molu-dunyo, bozor qarichi bilan o‘lchay boshladilar.

Xuddi o‘sha “nazariyotchilar” bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar taranglashu-vini, ayniqsa hosil bo‘lgan ma‘naviy-ahloqiy, madaniy o‘pi-rilishni bozor mafkurasining o‘zi hal qiladi, deb bashorat qila boshladilar. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy bo‘shliq hosil bo‘lgan o‘tish sharoitida bozor mafkurasini odamlarni insonparvar, demokratik jamiyat, kelajagi buyuk huquqiy davlatni barpo etishdek mushtarak – yagona maqsad atrofida birlashtira olmaydi. Xatto kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari sharoitida ham bozor mafkurasini fuqarolarni yagona maqsad, yagona maslak atrofida birlashtira olmaganligi hammaga ayon. Bozor mafkurasini mehnatkashlarimiz ma‘na-viyati,

turmush tarzida o'rnashib ololmayotganligiga sabab, odamlarning katta qismining ongi va faoliyatida, mulkning umumiylikiga asoslangan qadriyatlarni mustahkam joylashib qolganligi emas, balki iqtisodiy manfaat atrofida birlashish, uyushish hech qachon fuqarolarni milliy va umumin-soniy qadriyatlar atrofida birlashtirish imkoniyatiga ega emasligidir. Iqtisodiy manfaat har qancha buyuk, har qancha jozibali bo'lmasin, bundan qat'iy nazar, odamlarning ma'na-viy, ahloqiy, madaniy ehtiyojlarini qondira olmaydi. Xuddi shuning uchun ham intellektual zaiflikdan, madaniy saviyasizlikdan, ahloqiy tubanlikdan ozod qiluvchi turli maslak va manfaatga ega bo'lgan har xil millat kishilarini yagona maqsad va maslak atrofida birlashtiruvchi qadriyatlar sistemasiga asoslangan yagona milliy mafkuraga bo'lgan ehtiyoj ortib boraverdi.

Milliy qadriyatlardan ajralib qolgan mustabid tuzum mafkurasining uzoq yillar tanho hukmronlik qilishi, o'z navbatida bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mafkurasiz-lashtirish, siyosatsizlashtirish jarayonini avj olib ketishi, mafkuraviy ishlarga bo'lgan e'tiborning kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Bunday sustkashlik jamiyatda ijtimoiy bo'shliqni vujudga kelishiga shart-sharoit yaratdi. Jamiyatda ijtimoiy bo'shliqni vujudga kelishi o'z navbatida aqliy-ahloqiy, madaniy-maishiy an'analimizning zaiflashib qolganligi-dan ham dalolat berardi. Ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini yemirilishi fransuz sotsiologiya maktabining asoschisi, ijtimoiy ong jarayonining zukko tadqiqodchilaridan biri Emil Dyurkgeym aytganidek, jamiyatni anomiyaga giriftor etadi. Uni harakatga keltirib turuvchi qon tomirlaridan benasib qilib qo'yadi. Bunday sharoitda jamiyatda ahloqiy normalar, huquqiy prinsiplar kundan-kunga yemiri-lib boraveradi. Mehr-oqibat, hurmat-izzat ko'tariladi. Odamlar bir-birga adovat bilan qaray boshlaydilar. Do'stu – birodarlik, xayrihohlik, oliyjanoblik tuyg'ulari o'rnini xudbinlik egallaydi. qoununni nazar-pisand qilmaydigan kishilar soni uzluksiz ko'payaveradi. Bunday noma'qulchi-liklar, tabiiyki, insonni jamiyatdan begonalashtiradi. Uni jamiyatga xizmat qiluvchi muruvvatchilarga aylantiradi. Ijtimoiy voqelik to'g'risida inson ongida yolg'on, noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi.

Insonning ruhiy holati bilan amaliy faoliyati orasidagi aloqadorlik mexanizmini har tomonlama o'rgangan Avstriyalik olim Konrad Lorens ta'kidlaganidek, ijtimoiy ongdagi frustratsiya odamlarning amaliy faoliyatida tushkunlik, najotsizlik, loqaydlik kayfiyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Oqibatda jamiyatda ma'naviy-madaniy tanazzul boshlanadi. Ma'naviy –madaniy o'pirilishning boshlanishi bilan Xudoga ham, bandaga ham, davlatga ham, partiyaga ham, xatto o'ziga ham ishonmaydigan, fikrlash madaniyatidan benasib bo'lib qolgan, faqat topshiriqni bajaradigan odamsimon odamchalar (man-qurtlar) soni ko'payib ketadi. E'tiqodsizlik avjiga minadi. Inqirozga yuz tutgan, cho'kib-yemirilib borayotgan jamiyatni bunday ijtimoiy degoradatsiyadan, ma'naviy avtarkiyadan faqat mustahkam g'oyaviy-ahloqiy e'tiqod qutqaradi. Xuddi shuning uchun ham ma'muriy buyruqbozlik tufayli turli ijtimoiy degorodatsiya, ma'naviy avtarkiyaga giriftor bo'lgan eski totalitar tuzumdan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar, demokratik jamiyat tomon jadallik bilan bori-layotgan O'zbekiston sharoitida odamlarni yagona g'oyaviy-axloqiy maslak, zamonlar va zaminlar,

millatlar va elatlar sinovidan o'tgan, ajdodlarni avlodlarga bog'lovchi progressiv milliy va umuminsoniy qadriyatlar atrofida birlashtiruvchi yagona milliy mafkuraga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bordi.

§2. Jamiyatni mafkurasiz yashayolmasligi.

Mafkura jamiyat turmush tarzini, mavjud ahloqiy prinsiplar, huquqiy normalar barqarorligini uzoq muddatda saqlab turuvchi, unga yangi mazmun va yangi shakl ato etuvchi qudratdir. Bunday buyuk qudrat jamiyat bisotida mavjud bo'lgan barcha ilg'or bilimlar, tajribalar, an'analar, kayfiyatlarning sintezi zaminida vujudga keladi. Xuddi o'sha qudrat jamiyatda mavjud bo'lgan barcha xur, erkin fikrlar, mulohazalar, intel-lektual va ahloqiy imkoniyatlarni yagona maqsadga safarbar qilish uchun real imkoniyat yaratadi, mustahkam asos vazifasini bajaradi. Mafkurasiz jamiyat o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaydi. Uning maqsadi to'g'risida o'z fuqarolariga aniq tasavvur hosil qila olmaydi. Mafkurasiz jamiyat o'z kelajagi to'g'risida, xatto o'zi noto'g'ri, g'ayriilmiy tasavurga ega bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganimizda, jamiyat o'z oldiga bajarib bo'lmaydigan, real imkoniyatlarga asoslanmagan ya'ni amalga oshirib bo'lmaydigan hayol, sarob, orzu atrofida deysinib yotaverishi mumkin. Turgan gapki, bunday g'ayri-ilmiy maqsad uchun jamiyat o'ziga-o'zi jarima to'laydi. Xuddi ana shunday sharoitda jamiyatda alg'ov-dalg'ov, siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy buhron, ijtimoiy fojea, dahshat vujudga keladi.

Tarixning guvohlik berishicha, har qanday jamiyat sharoitida ham odamlar nimagadir e'tiqod qilishgan, qandaydir g'oya yoki ta'limotga tayanib, ishonib faoliyat ko'rsatishgan. Yuksak orzu, umid, niyat va istaklar ummonida yashagan. Mafkuradan xoli jamiyat bo'lmaganidek, mafkurasiz davlat ham bo'lmaydi. Davlat turli millatga va elatga mansub o'z fuqarolarini faqat milliy mafkura vositasi bilan yagona maqsad atrofida bir-lashtiradi. Sohibqiron Amir Temurning tarqoq turkiy xalqlari markazlashgan qudratli davlatga birlashtirganligi va jahon sivilizatsiyasi tarixida temuriylar davrining takrorlanmas madaniyati bilan munosib hissa qo'shganligi yagona milliy mafkuraning natijasi edi. Tarixiy haqiqat shundaki, kelajagini aniq tasavvur qila olmaydigan, o'z maqsadini oldindan aniq belgilamagan, uni amalga oshirish yo'llari, vositalari, uslublari va usullarini aniqlab olmagan davlat hech qachon yuksaklikka ko'tarilmaydi. Aniq mafkuraviy dasturga ega bo'lmagan har qanday davlatda boshboshdoqlik hukmron bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham har qanday mustaqil davlatning milliy mafkurasi bo'lishi zarur. Ayniqsa, totalitarizmdan demokratiya, ma'naviy erksizlikdan ozodlik, erkinlik, xurfiylik tomon borayotgan O'zbekiston sharoitida milliy mafkuraning bo'lishi tarixiy zaruriyatdir.

Milliy mafkura mamlakatimiz xalqlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, manfaatlari bilan dialektik aloqador. Xo'sh, milliy ehtiyoj, milliy manfaat deganda nimani tushunmoq kerak? Ularning vujudga kelishi va qondirish ja-rayoni qanday kechadi? O'zbek xalqining bugungi ehtiyojlari nimalardan iborat?

Insonparvar, demokratik jamiyat barpo etish jarayoni mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini qamrab olayotgan bugungi kunda O'zbekistonda yashayotgan har bir millatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish

yo‘llarini izlab topish muammolari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki milliy ehtiyojlar kishilarning kundalik ta-lablari, orzu-niyatlarining nafaqat yig‘indisidan, balki integratsiyasidan ham iboratdir. Ularni qondirish jarayoni esa jamiyatning rivojlanayotganligining darajasi, mavjud ijti-moiy-iqtisodiy, geografik-siyosiy shart-sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq. Ishlab chiqarish bilan iste‘mol orasidagi o‘zaro aloqadorlikning o‘zgarishi bilan yangi ehtiyojlar ham shakllanib va rivojlanib boradi.

Ehtiyoj subyektining holatini aniqlovchi munosabatdir. Millat tomonidan chuqur his etilgan ehtiyojlar milliy manfaatlariga aylanadiki, xuddi ana shu manfaatlar millatlar va elatlar ijtimoiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Milliy ehtiyojlarning bevosita ifodasi hisoblangan milliy manfaatlar aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ijtimoiy munosabatlarning moddiy va ma‘naviy turla-riga muvofiq ravishda, millat ehtiyojlarini ham ikki guruhga moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarga – bo‘lish mumkin. O‘zbekiston-da yashab, faoliyat ko‘rsatayotgan turli millat va elat vakilla-rining bugungi kundagi moddiy ehtiyojlari: yengil va og‘ir sanoatni, neft va gaz ishlab chiqarish tarmog‘ini, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash va tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolarni hal etish, ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash va hokazolar-dan iborat. Ma‘naviy ehtiyojlarga esa asosan xalqimizning ijobiy urf-odatlarini va an‘analarini tiklash, fan va ta‘lim tizimi, madaniyatni rivojlantirish, respublikamizning in-tellektual va ma‘naviy potensialini yuksaltirish, O‘zbekis-tonda yashayotgan barcha millat va elatlarning ma‘naviy tengli-gini ta‘minlash kabi masalalar kiradi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, milliy mafkurani shakllantirish ham o‘zbek xalqining ma‘naviy ehtiyojlaridan biridir. Yuqoridagi ehtiyojlar bilan bir qatorda bir gruppaga ehtiyojlar mavjuddirki, ularning mohiyatiga qarab “moddiy-ma‘naviy” ehtiyojlar deb atash maq-sadga muvofiqdir. Chunonchi, Orolni saqlab qolish xalqimiz-ning moddiy ehtiyojlaridan biridir. Shuningdek, Orol bilan O‘rta Osiyo xalqlari, xususan o‘zbeklarning ming yilliy faoliyati, ma‘naviy hayoti ham bog‘liq. Shu sababli bu dengizni saqlab qolish ma‘naviy ehtiyoj hamdir.

Ko‘p millatli mamlakat sharoitida milliy va umummilliy ehtiyojlar orasidagi muvozanatni saqlab turish ham katta ahamiyatga ega. Mazkur qoidaning buzilishi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, xususan millatlararo munosabatlarda ham ijtimoiy adolat norma va prinsiplarining defermatsiyasiga olib kelishi bizga mustabid tuzum tajribasidan ma‘lum. Sovet hokimiyati yillarida umummilliy ehtiyojlarning milliy eh-tiyojlarga nisbatan primati millat va elatlarning moddiy va ma‘naviy manfaatlarining qondirilmay qolishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham milliy va umummilliy ehtiyojlar, manfaatlar garmoniyasiga rioya qilish, huquqiy davlat qurayotgan O‘zbekistonda asosiy vazifalardan biri bo‘lmog‘i zarur.

Yuqorida ko‘rsatilgan moddiy va ma‘naviy ehtiyojlar milliy istiqbol mafkurasida o‘z ifodasini topmog‘i kerak. Ana shundagina u o‘z fuqarolari uchun munosib turmush dara-jasini ta‘minlay oladigan buyuk davlat barpo etishdek oliy maqsad atrofida kishilarni birlashtiradi va jiplashtiradi. Milliy mafkura kishilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. O‘z taqdirini mamlakat taqdiri bilan mustahkam bog‘lagan kishigina mustaqil davlatimiz manfaatini

hammadan qo‘proq himoya qilishga qodir bo‘ladi. Jamiyat, millat ravnaqiga qo‘proq hissa qo‘shadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakat fuqarolarining milliy g‘ururi qancha baland bo‘lsa, ularni jamiyat taraqqiyotiga qushgan hissasi shuncha ko‘p bo‘ladi. Xuddi shuning uchun ham milliy mafkuraning har bir tashkilotchisi, har bir targ‘ibotchisi fuqarolarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllanish jarayonini jadallashtirish yo‘llari, uslublari va usullarini yaxshi bilmog‘i darkor.

Milliy g‘urning shakllanishida madaniy meros benihoya katta rol uynaydi. Chunki, madaniy meros har bir halqning, har bir millatning tarixiy ongi, uning qadr-qimmatidir. Inson aql-zakovatining mevasi bo‘lmish-madaniy meros, xalqning bir avlodidan ikkinchi avlodiga o‘tib kelayotgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlarining yig‘indisidir. Xuddi shuning uchun ham madaniy merosning boyib borishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning har tomonlama uzlashtirili-shi, jahon madaniyati qo‘lga kiritgan yutuqlarni chuqur bilish va unga amal qilish katta ahamiyatga egadir.

Insoniyat bosib o‘tgan tarixiy taraqqiyot tajribasidan ma‘lumki, qaysi jamiyat a‘zolari o‘z madaniy-ma‘rifiy merosini qadrlasa, o‘zida mavjud bo‘lgan barcha moddiy va ma‘naviy imkoniyatlarini oddiy fuqarolarni ardoqlashga safarbar etsa, o‘sha jamiyatda tinch-totuvlik, ma‘naviy, madaniy, iqtisodiy barqarorlik hukm surgan. Ayniqsa kishi-lar madaniyatini, ma‘naviyatini unutmagan jamiyatda ma‘naviy qashshoqlik ro‘y bergan. Xuddi shuning uchun ham madaniy merosimizni har tomonlama o‘rganish jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yigit-qizlarga milliy g‘ururni shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Viloyatimizning qadimiy shaharlari qarshi, Shahrisabz shaharlarida bugungacha saqlanib qolgan tarixiy me‘morchilik yodgorliklari, asrlar sadosini ajdodlardan-avlodlarga yetka-zib kelayotgan qadimiy maqbaralar, minoralar, saroylar, sardobalar xalqimiz o‘tmishda buyuk madaniy merosga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Biroq ushbu bebaho madaniy yodgorliklar ekspluatatorlar tomonidan xalqni og‘ir dahshat-larga giriftor qilish evaziga bunyod etilgan, degan g‘ayri-ilmiy aqidalar mustabid tuzum mafkurachilari tomonidan kishilar ongiga singdirib kelindi. Bunday anglashilmovchi-liklar tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlab qolish ishla-riga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xuddi shuning uchun ham yigit va qizlarimizga tarix yodgorliklar to‘g‘risidagi bor haqiqatni ishonli ilmiy manbalarga tayanib aytib berish har bir mafkura xodimining vazifasidir.

Butun jahonni lol qoldirib, ming-minglab sayyohlarni ko‘zini qamashtirib, xayratga solayotgan tarixiy obidalarga sarflangan mablag‘larning 99 foizi o‘sha davr podsholiklari, amirliklari xazinasidan olingan. Hozirgi kun talabi bilan aytadigan bo‘lsak, o‘sha mashhur tarixiy-madaniy obidalar qurilishlari davlat budjeti hisobidan olingan mablag‘lar hisobiga bajarilgan. Ushbu markazlar o‘z bag‘riga mashhur olimlar, fozillar, shoirlar, hattotlar, rassomlarni birlash-tirgan. Sayillar ma‘rakalarda ushbu ijtimoiy-madaniy mar-kazlar fuqarolar kayfiyatini ko‘targan, ma‘naviy quvvat ato etgan, yangi zafarlarga undagan, yoshlarni esa odobu-axloqqa, xalolligu-poklik, botirlik, mardlik, vatanni himoya qilishga chaqirgan. Shu boisdan ilm, fan, madaniyat, san‘at arboblari saroy ayonlari bilan bir pog‘onada turishgan, ularga izzat-hurmat ko‘rsatilgan katta maosh tayin etilgan. Bir ibora bilan aytganda xalqimizning madaniy merosi haqida yigit-qizlarga bor

haqiqatni yetkazish-ularida milliy g'ururni shakllanti-rishda munosib hissa qo'shadi.

Madaniy meros orqali o'tmish avlodlarimizning ko'pgina xislatlari, fazilatlarini, dono tajribasi anglab olinadi. Urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayram-sayillari, ajdodlardan-avlodlarga o'tadi. Oqibatda bugungi yigit-qizlarni ma'naviyati milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyib boradi. Kasb-kor mahorati uzlusiz takomillashaveradi. O'zi-ning buyuk ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi, xalqimiz madaniy-ma'naviy merosini chuqurroq bilish uchun yigit-qizlarga turtki beradi. Xuddi shuning uchun ham, mamlaka-timizda insonparvar, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda Prezident I.A.Karimov aytganidek: "milliy madaniyatni o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berish kerak. Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbagshariy qadriyat-lari ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'ana-laridan ajralib qolishi mumkin emas" (9,73).

O'zbekiston Respublikasining milliy mafkurasi ijti-moiy hayotning in'ikosi, turmushimiz tashvishlari va quvonch-larining sintezi, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, madaniy ma'rifiy uyushmalarining qarashlari, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida shakllanmog'i darkor. Birorta siyosiy partiya, ijtimoiy harakat yoki jamoat tashkilotining mafkurasi davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Xuddi shuning uchun ham O'zbekistonning milliy mafkurasi mamlakatimiz xududida faoliyat ko'rsatuvchi barcha siyosiy partiyalar, harakatlar, ja-moat tashkilotlari, barcha millat va elatlarga mansub aholi turli-qatlamlarining yangi jamiyat qurish borasidagi orzu-umidlari, istaklari o'z ifodasini topmog'i darkor. Boshqacha aytganda, milliy mafkura har qanday partiyaviy mafkuradan ustun bo'lmog'i lozim.

§3. Milliy mafkuraning o'ziga xos xususiyatlari.

Milliy mafkura kecha, bugun yashab turgan barcha progressiv g'oyaviy qadriyatlarning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassam-lashtiradi. Xuddi shuning uchun ham O'zbekiston milliy mafkurasining asosida nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar ham yotadi. Milliy mafkura respublikamiz xududida yashovchi barcha millat va elatlarning tarixiy taraqqiyot tajribasiga asoslanishi bilan birga xorijiy mamlakatlar tajribasiga ham suyanadi.

Milliy mafkura ijtimoiy harakatlar va jamiyatning turli sotsial institutlari amalga oshirayotgan mafkuradan eng avvalo o'zining integrativ xususiyatga ega ekanligi bilan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, integrativ maf-kura odamlarni yagona maslak atrofida birlashtiruvchi tarbiya-viy tadbirlarning summasi, bir butun sistemasidir. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, Amir Temur davlatining ham, Petr I davlatining ham mafkurasi xuddi shunday integrativ xusu-siyatga ega edi.

Integrativ xususiyatga ega bo'lgan milliy mafkura jamiyat bisotida mavjud bo'lgan barcha tarbiyaviy imkoniyatlari insonni ulug'lashga, uni erkin fikr yuritishi, ozod farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan eng yaxshi, eng ilg'or umumbashariy g'oyalarni to'plashi va uni amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarni yagona maqsad atrofida birlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, milliy mafkura uchun insoniyat qo'lga

kiritgan tarixiy tajriba ochiq, undan foydalanish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Faqat milliy tajribadan emas, balki, umumbashariy tajribadan fodalaniş imkoniyati to'g'iladi. O'tmish va bugun mavjud bo'lgan fan, madaniyat, san'at, din, axloqning konstruktiv, ilg'or element-larini o'zida mujassamlashtiradi.

Milliy mafkura ijtimoiy mafkuraning boshqa shakllari-dan qudratli tashkiliy sistemaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xuddi o'sha tashkiliy sistema yordamida jamiyatda mavjud bo'lgan barcha sotsial institutlar: oila, mahalla, bolalar muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, maxsus va o'rta oliy o'quv yurtlari, mehnat kollektivlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar, jamoat tashkilotlarining mafkuraviy imkoniyatla-rini muvofiqlashtiriladi va ularning bir maromda faoliyat ko'rsatishlari ta'minlanadi. Xuddi shunday yo'l bilan inson bilan jamiyat orasidagi aloqadorlik mustahkamlanadi.

Milliy mafkuraning insonparvarligi, uning ijtimoiy adolat prinsiplari, normalariga asoslanishi bilan o'lchanadi. Faqat ana shunday mafkura ta'sirida faoliyat ko'rsatagan fuqaro o'zini hur va baxtiyor xis etadi. Kommunistik mafkura hukmron bo'lgan mustabid tuzum sharoitida inson davlatga xizmat qiladigan bo'lsa, milliy istiqlol mafkurasiga ega bo'lgan O'zbekiston sharoitida huquqiy davlat insonga xizmat qilmog'i, chunonchi har bir fuqaroning huquqlarini himoya etmog'i darkor.

Milliy mafkura xalqning, millatning ma'naviyati bilan bog'langan. Mafkura xalqning ma'naviyatiga tayangan taqdirida-gina qudratli ijtimoiy kuchga aylanadi. Boshqacha aytgani-mizda, mafkura ommaning ma'naviyatiga, odamlarning ma'naviy qiyofasi esa mafkuraga uzluksiz ta'sir o'tkazib turadi. Ana shu dialektik aloqadorlik mexanizmi qancha baquvvat bo'lsa, milliy mafkuraning xalqchilligi shuncha mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ham odamlarning ma'naviyatini boyitmasdan turib, ularning ma'naviy qiyofasida sunib ketish arafasida bo'lgan milliy qadriyatlarini tiklamasdan turib, insonparvar, demokratik jamiyat qurib bo'lmaydi. Bu esa mamalaatimizda mavjud bo'lgan barcha intellektual, ma'naviy potensiallar imkoniyatlaridan, chunonchi, maorif, madaniyat, fan, madaniy-ma'rifiy tashkilot va muassasalari erishgan yutuqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Ko'pmillatli O'zbekiston sharoitida milliy mafkuraning samaradorligi, ta'sirchanligini oshiruvchi eng muhim omil-lardan biri, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushta-rakligiga asoslanishidir. Boshqacha aytganimizda, milliy mafkura respublika xududida yashovchi yerlik xalqning tarixiy, madaniy-ma'naviy urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayram va marosimlariga asoslangandagina, qudratli ijtimoiy kuchga aylanadi. Xuddi shu dialektik aloqadorlik mexanizmi qancha baquvvat bo'lsa, milliy mafkuraning xalqchilligi ham shuncha mustahkam bo'ladi. Bayon etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, milliy mafkuraning asosini tashkil etuvchi umummilliy, umumdavlat g'oyasining bo'lishi ham tarixiy zarur-ratdir. Chunki har qanday davlat sharoitida ham uning turli millat va elatlarga, maslak va manfaatlarga mansub fuqaro-lari uchun umumiy g'oya zarur. Yagona davlat xududida yashovchi, barcha millatlar va elatlar manfaatiga mos tushuvchi umummilliy, umumdavlat g'oyasi bo'lmasa, ko'pmillatli davlat sharoitida u yoki millat manfaati oyoq osti bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham turli

millatlar va elatlar yashayotgan O'zbekiston sharoi-tida barcha millat va elatlarning milliy manfaatiga mos tushuvchi umummilliy g'oya ularni nurafshon kelajak-inson-parvar, demokratik jamiyat qurishdek oliyjanob maqsad atrofida birlashtiradi.

Umummilliy g'oya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sifatiy ijtimoiy o'zgarishni harakatga keltiruvchi qudratli motor vazifasini bajaradi. U ommaning ma'naviy-ma'rifiy energiyasini oshirishda ichki stimul beruvchi buyuk generatordir. Shunday ekan milliy mafkuraning asosida qanday umummilliy g'oya yotishi mumkin? Bizning fikrimizcha, mustaqil O'zbekiston milliy mafkurasining asosida adolatli, inson-parvar, demokratik jamiyat qurish, o'sha jamiyatning bunyodkori bo'lgan jismonan baquvvat, ma'naviy-madaniy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-kor mahoratini o'zida mujassamlashtirgan barkamol inson shaxsini shakllantirish g'oyasi yotmog'i darkor.

Mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo'lgan, milliy man-faatni to'la tasavvur qiluvchi, milliy g'ururi baland, chinakkam vatanparvar, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlovchi, unga doimo amal qiluvchi xalq, davlat manfaati haqida qayg'u-ruvchi barkamol shaxsni tarbiyalamasdan turib, mamlakatimiz iqtisodiy, madaniy-ma'naviy mustaqilligini ta'minlash amri mahol. Boshqacha aytganimizda, milliy mustaqillikni mustaqil shaxs yaratadi. Mustaqil tafakkurga ega bo'lgan insongina, mustaqil davlatimiz qudratini barpo etadi. Xuddi shuning uchun ham bobolarimiz orzu qilgan fozil jamiyatning bunyodkori bo'lgan barkamol insonni tarbiyalash milliy istiqlol mafkurasining mazmunini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kishilar ongi va faoliyatida vujudga kelgan turli ijtimoiy illatlarni faqat kuchli milliy mafkura yordamida surib chiqarish mumkin. Faqat milliy mafkura yordamida jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy imkoniyatlari yagona maqsad atrofida birlashtiriladi, muvofiqlashtiriladi. Afsuski, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari: oila, mahalla, mak-tabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat kollektivlari, mahallalar, qishloq oqsoqollari ko'mitalari, jamoat tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalarining uzluksiz, tarbiyaviy-mafkuraviy ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydigan, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirib boradigan va jamiyat, millat, davlat manfaati tomon boshqarib turadigan yagona ijtimoiy boshqaruv mexanizmi hanuzgacha yaratilgani yo'q. Milliy mafkura millatning ana shu kemtigini bekitadi. Xuddi shuning uchun ham milliy mafkura jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari amalga oshirayotgan ijtimoiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari (aqliy, axloqiy, huquqiy) va sohalari (ekologik, jinsiy, diniy va hoqazolar) birligini, yaxlitligini ta'minlamog'i lozim. Xususan, aqliy, axloqiy, huquqiy tarbiya birligining ta'minlanishi fuqarolarda na-faqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usining shakllanishi jarayonini jadallashtiradi. Boshqacha aytganimizda, mafkuraviy ta'sir jarayonida aqliy, axloqiy, huquqiy tarbiya birligi mustahkam bo'lsa, fuqarolardagi umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usi shuncha kuchli bo'ladi.

Insonning kundalik faoliyati, xulq-atvori umuminsoniy qadriyatlarga qanchalik tez buysundirilsa, u o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitni demokratlashtirishga, insonparvarlashti-rishga bo'lgan moyillik shuncha tez ortib boraveradi. Boshqacha aytganda, mafkuraviy ta'sir jarayonida aqliy, axloqiy, huquqiy tarbiya birligining ta'minlanishi insonning amaliy faoliyatida umuminsoniy-axloqiy prinsiplar, umuminsoniy huquqiy normalarga rioya qilish uchun real imkoniyat yaratadi. O'z navbatida bunday dialektik aloqadorlik insonning g'oyaviy-siyosiy faoliyatida ham yangi gumanistik quvvat ato etadi. Xuddi shu quvvat inson ongi va faoliyatining xalq, millat, davlat manfaati tomon burilib ketishiga sabab bo'ladi. Jamiyat manfaatini o'z manfaatidan ustun quyish tuyg'usi hosil bo'lishiga kuchli turtki beradi. Xuddi shuning uchun ham milliy mafkura samaradorligini uzluksiz oshirish yo'llarini izlab topish ham tarixiy zaruriyatdir.

Milliy mafkuraning samaradorligi fuqarolarning kun-dalik mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq. Boshqacha aytganimizda, milliy mafkuraning samaradorligi fuqarolar-ning mehnatga, o'z kasbiga, o'ziga topshirilgan vazifaga vij-donan, halol munosabati bilan bevosita bog'liq. Faqat halol, vijdonan qilingan mehnat inson dunyoqarashini uzgartiradi. Odamlar ongi va faoliyatida mehnatni qadrlash, hurmatlash, chinakam fidoyi kishini e'zozlash tuyg'usi qancha kuchli bo'lsa, kishilarning umuminsoniy madaniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Ko'zbo'yamachilik, xaybarakalachilik, aldanchilikka asoslangan mehnat insonni tubanlashtiradi. Mehnat aql, axloq va huquq chig'irig'idan utmas ekan, bunday faoliyat insonni mehnat qiluvchi mahluqqa aylantirib qo'yadi. Boshqacha ayganimizda, insonning kundalik amaliy faoliyati aqliy, axloqiy, huquqiy mazmun bilan qancha ko'p boyitilsa, mehnatga halol, vijdonan munosabat shuncha tez shakllanadi. O'z navbatida bunday muno-sabat insonning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

Milliy mafkuraning samaradorligi ijtimoiy voqelik-ning haqiqiy manzarasini, odamlarning quvonchlari va tash-vishlari holatini tiniq tasavvur etish bilan bog'liq. Boshqacha aytganimizda, kishilar ongi va kundalik turmush tarziga ta'sir o'tkazib turgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lmasdan turib, milliy mafkuraning ta'sirchanligini ta'minlab bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham mafkuraviy jarayon tashkilotchilari kishilar ruhiyati va ma'naviyatiga bugungi ijtimoiy muhit, xususan bozor iqtisodiyoti ko'rsatayotgan ta'sir oqibatlarini sinchkovlik bilan ilg'ab olishlari, odamlarning o'zaro munosabatlaridagi o'zgarishlarni ustakorlik bilan payqab bi-lishlari, ushbu o'zgarishlarni chuqur tahlil qilib, zarur xulosalar chiqarishlari darkor. Ayniqsa bozor iqtisodining sharqona xususiyatlarini tiniq tasavvur etishlari lozim.

O'zbekistonda barpo etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyatning iqtisodiy asosini tashkil etgan – bozor iqtisodiyotining o'ziga xos eng muhim xususiyati, uni sharqona odob-axloq, insof va diyonatga asoslanganligi bilan Yevropa bozor iqtisodiyotidan tubdan farq qilmog'i lozim. Afsuski, bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan hozirgi sharoitda sharqona bozor rasm-rusumlaridan chekinish xolatlari sodir bo'layotir. Tarozidan urish, oluvchining haqqiga hiyonat qilish, yolg'on so'zlash, aldanchilik, olibsotarlik avj olib bormoqda. "Erkin narx" niqobi ostida olibsotarlar mahsulotlarga hohlagan narx bichmoqdalar. Bozorda mahsulotni

yetishtirgan dehqon, kosibu hunarmandan, kazzob olibsotarning soni ko'payib ketdi. Temir yo'l shoxbekatlari, aeroportlar, olibsotlar, sharm-hayosiz xotinqizlar, o'smirlar, bolalar bilan tirband bo'lib borayotir. Xuddi shuning uchun ham, milliy mafkuraning eng muhim vazifasi chinakam sharqona ahloq-odobga ega bo'lgan tijoratchi, dukondor, sotuvchi, savdogar shaxsini shakllanti-rishga qaratilmog'i darkor.

Milliy mafkuraning samaradorligi, uning ta'sirchanligi, shaxs, jamiyat manfaatlarining uyg'unlashganligi bilan o'lchanadi. Tajriba shundan dalolat berayotirki, mamlakati-mizning ayrim viloyatlarida xuddi o'sha aloqadorlik zaiflashib qolgandek bo'ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov xalq deputatlari qashqadaryo viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, ba'zi birovlar o'z manfaatini uylab, jamiyat manfaatini unutib quyayotirlar. Oqibatda bozorlarimizda narx-navoni, mahsulotni yetkazib bergan chinakam dehqon emas, balki olibsotlar belgilamoqda. Boshqacha aytganimizda, dehqon bozorlarida olibsotlarning monopolizmi vujudga keldi. Boz ustiga peshona teri bilan mahsulot yetkazgan haqiqiy dehqonga bozordan bir qarich joy topilmaydi. Tarozidan urush, xaridorning haqqiga hiyonat qilish kabi yaramas illatlar kundan-kunga avj olib borayotir. Mutasaddi idoralar bunday bododliklarni ko'rsalar ham ko'rmaslikka, bilsalar ham bilmaslikka olayotirlar. Ayrim hollarda esa olibsotlar bilan pinhona ittifoq tuzmoq-dalar. Xuddi shuning uchun ham milliy mafkura shaxs, jamoa, jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirmog'i darkor. Shaxs bilan jamoa, shaxs bilan jamiyat orasida vujudga kelgan har qanday ziddiyatlarni, muammolarni bartaraf etish uchun mafkuraviy muhit yaratilishi lozim.

Shunday qilib, milliy mafkura yordamida uzluksiz tarbiya tizimi vujudga keladi. Bu tizim jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtiradi. Uzluksiz tarbiya jarayonining samaradorligi umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'limning tarbiyaviy qudratini oshirish, dars jarayoni bilan bo'sh vaqt mafkuraviy ta'sirning birligini ta'minlash yordamida amalga oshirilsa, oila, mehnat jamoalari, jamoa tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalari, mahalalarda ish bilan so'z birligini ta'minlash, rahbarning mafkuraviy jarayon targ'ibotchisi yoki tashkilotchisining shaxsiy o'rnak ko'rsatishi, aqliy yetukligi, axloqiy pokligi bilan bajariladi. Ayniqsa, mafkuraviy ta'sir jarayonining tashkilotchisi va targ'ibotchisi mustaqil shaxs bo'lishi hal qi-luvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, mafkuraviy ta'sir jarayonining har bir tashkilotchisi o'z faoliyatida "shaxsni shaxs tarbiyalaydi" qoidasiga kattiq amal qilishlari zarur.

Uzluksiz tarbiya, turgan gapki, jamiyatda mavjud bo'lgan: fan, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalarining yagona davlat dasturi asosida bir maromda mafkuraviy ta'sir ko'rsa-tishi, kishilarning shaxsiy munosabatlaridagi xayrihohlik, hamdardlik, hamjihatlik bilan ham bog'liq. Shuningdek, mafkuraviy jarayon o'z ta'siri bilan aholining barcha qat-lamlarini o'ziga qamrab olishi lozim. Buning uchun esa ushbu jarayon tashkilotchilari aholining turli ijtimoiy qatlam-larini: milliy, professional, ruhiy, yoshlik xususiyatlarini aniq bilishlari darkor. Boshqacha aytganimizda, mafkuraviy ta'sir aholining har bir tabaqasining moddiy

va ma'naviy ehtiyojiga mos tushmog'i zarur.

Xullas, uzluksiz ijtimoiy tarbiya, ya'ni milliy mafkura-ning samaradorligi oshirmoq uchun har tomonlama ilmiy asoslangan yagona umumdavlat dasturini ishlab chiqish lozim. Ushbu dasturda milliy mafkuraning maqsadi va vazifalari, tarbiyaviy ta'sirning asosiy yo'nalishlari va sohalari, amalga oshiruvchi vositalari, uslublari va usullari, ta'sirchanligini oshiruvchi omillari aniq belgilangan bo'lishi kerak. Respubli-kamiz matbuoti xususan "Muloqot" jurnali sahifalarida keyingi yillarda milliy istiqloq mafkurasi to'g'risida bayon qilingan fikr-mulohazalar ushbu dasturning asosi bo'lib xizmat qila oladi, deb hisoblaymiz. Xuddi shuning uchun ham jurnal sahifalarida e'lon qilingan milliy istiqloq mafkurasiga doir maqolalarni alohida to'plam qilib chop etish, uni har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni huzurida "Milliy mafkura konsepsiyasi"ni ishlab chiqish uchun alohida ishchi komissiyasi tashkil etilsa, uning ishiga mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan insonshunos olimlar jalb qilinsa, ishlab chiqilgan hujjat umumxalq muhokamasidan o'tkazilsa, nur ustiga a'lo nur bular edi. Bir ibora bilan aytganda, O'zbekistonning o'ziga xos, o'ziga mos milliy mafkurasini yaratish va uni amalga oshirish yo'llarini takomillashtirish-milliy istiqloq talabidir. Bu borada shubhasiz ziyolilarimiz yalovbardorlik qilmoqda. Milliy istiqloq mafkurasi bobida qalam tebratayotgan barcha ziyolilar aql-zakovatini, fikr-mulohazalarini to'plamoqda. O'zbekis-tonning o'ziga xos, o'ziga mos milliy mafkurasini shakllan-tirish va uni amalga oshirishni tezlashtirmoq, takomillash-tirmoq uchun respublika Prezidenti devoni, viloyat hokim-liklari huzurida maxsus bo'limlar yoki uyushmalar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday mafkuraviy muassasalar ishiga fuqarolar ijtimoiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi insonshunos olimlarni-yetuk mutaxassislarni jalb etish lozim. Shuningdek aholining barcha tabaqalarining ijtimoiy tarbiyasi muammolarini kompleks o'rganuvchi "Insonshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti" va ushbu ilm dargohini viloyat hokimliklari huzurida bo'limlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Uzluksiz tarbiya bobida mamlakatimizda mavjud bo'lgan intellektual imkoniyatlarini milliy istiqloq manfaatiga safarbar etish uchun O'zRFA tarkibida "tarbiya akademiyasi" tashkil etilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Milliy istiqloq mafkurasi yangi jamiyatning bunyodkori bo'lmish barkamol insonning ijtimoiy qiyofasida insoniyat-ning buyuk siymolari orzu qilgan eng oliyjanob fazilatlar va xislatlarni, o'z xalqining, millatining tarixiy, madaniy va ma'naviy merosidan faxrlanish tuyg'usini hosil qilish orqali milliy ong va uning tashqi ifodasi bo'lgan milliy g'ururni shakllantiradi. Milliy qadriyatlarga tayangan umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, milliylikka asoslangan vatanparvar-likni ulug'lash orqali baynalmilallikni qaror toptiradi.

Bu mafkura respublikamizda mavjud bo'lgan barcha sotsial institutlar: oila, mahalla, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat kollektivlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar, tashki-lotlarning tarbiyaviy faoliyatini muvofiqlashtiradi, ular-ning fuqarolarga bir maromda uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni ta'minlaydi.

Bu mafkura ijtimoiy adolat prinsiplari va normalariga asoslangan eng demokratik

mafura bo‘lmog‘i, totalitarizm va ekstremizm, shovinizm va millatchilik, shuningdek mahalliychi-likning har qanday ko‘rinishlariga chek qo‘yadi.

Bu mafura O‘zbekistonimizni jahonning ilg‘or mamlakat-lari qatoriga olib chiqishi uchun davlatimiz iqtisodiy, intellektual, ma‘naviy-madaniy qudratini har tomonlama oshirishga, davlatlararo siyosatda betaraflik, xalqaro munosa-batlarda teng huquqli hamkorlikka qaratiladi.

Bunday ijtimoiy qudratni eng avvalo jamiyatni boshqarish ilmining asosi bo‘lgan ijtimoiy fanlarning yirik mutaxsislari, olimlar, fozillar, davlat arboblari, siyosiy partiyalar va turli ijtimoiy harakatlarning rahbarlari yaratishi zarur. Turgan gapki, milliy mafura, ya‘ni milliy istiqloq mafurasini yaratishda mamlakatimizda mavjud bo‘lgan barcha madaniy-ma‘rifiy uyushmalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ayniqsa universitetlar, institutlar ijtimoiy fan kafedralarining xissalari salmoqli bo‘lishi kerak. Gazeta, radio, televideniye, jurnallarimiz ham bunday ulug‘vor ishdan chetda qolmasliklari darkor.

Bu mafura hozirgi zamon insonshunosligining eng ilg‘or yutuqlariga tayanadi. Insoniyat qulga kiritgan umuminsoniy madaniyat durdonalariga suyanadi.

§4. Milliy mafuraning ilmiy-nazariy asoslari.

Milliy istiqloq mafurasining ilmiy-nazariy asoslari Prezident Islom Karimovning asarlarida, nutqlarida, maqo-lalarida ishlab chiqildi. Milliy istiqloq mafurasi g‘oyalarini fuqarolar ongiga singdirish yo‘llari, uslublari, usullari ko‘rsatildi. Uning samaradorligini oshiruvchi omillari va vositalari aniqlandi.

Milliy istiqloq mafurasining ilmiy-nazariy asos-larini yaratishda, Prezident I.Karimovning “Taffakkur” jurnali bosh muharririning savollariga bergan javoblarida (1998 yil №2) olg‘a surilgan fikr-mulohazalar yirik ahami-yatga ega (3,31-48). Xususan, ushbu javoblarda I.A.Karimov, mam-lakatimizda insonparvar demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo‘lsada, turli xil maqsad va manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to‘xtagan yo‘qligiga e‘tibor qaratadi. Bunday tortushuvlardan ko‘zlangan maqsad fuqarola-rimiz ayniqsa yoshlarimiz ongi va faoliyatiga ta’sir o‘tkazish, ularni dunyoqarashiga o‘zlarining manfaatlarni tiqishtirish, ma‘naviy jihatdan zaif va tobe qilishga qaratilganligini har tomonlama isbotlab berdi.

I.A.Karimovning fikriga ko‘ra, bugungi zamonda mafura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham qo‘proq kuchga ega” (3,33). Ana shunday bir sharoitda inson “o‘z mustaqil fikriga, sobit e‘tiqodiga, o‘ziga tayanib yashaydigan hayotiy milliy qadriyatlariga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amrimahol”(3,33).

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyat qurish sharoitida mafkuraviy vakum-bushliq vujudga kelishiga aslo yo‘l quyib bo‘lmaydi. Chunki “ba‘zan beozorgina bo‘lib turgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma‘lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi” (3,35). Xuddi shuning uchun ham, -I.A.Karimovning ta’kidlashicha-“g‘oyani, fikrni ta’qiq bilan, ma’muriy choralar bilan yengib bo‘lmaydi. g‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma‘rifat bilan bahsga

kirishish, olishish mumkin.

Har bir inson, har bir fuqaro buni yaxshilab tushunib, mag'iz-mag'ziga yetib olishi kerak, chunki jamiyatning mustahkam va ravshan mafkurasini bo'lmasa, o'z oldiga quygan aniq bir maqsad-muddaosi bo'lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi" (3,35). Shuning uchun ham, I.A.Karimov jamiyatni milliy g'oyasi, milliy mafkurasini yaratish o'ta dolzarb ekanligiga e'tiborni qaratadi.

Prezidentni tushuntirishicha, "Mafkurani shakllantirish jarayonida, avvalambor, mamlakatni butun hayoti, o'tmishi, kela-jagi, butun taqdiri uchun qayg'uradigan, Vatan qismatini o'z qismati deb biladigan keng jamoatchilikning ilg'or dunyoqarashi va tafakkurga asoslanishi lozim.

Ikkinchi shart shundan iboratki, milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qushgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi aha-miyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor" (3,36).

Insonparvar, demokratik jamiyat mafkurasini I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "shu jamiyatni tayanchi bo'lmish oddiy inson va uni manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizni bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim" (3,37). Milliy mafkura, eng avvalo fuqarolarimizga, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'u-sini, xalqimizni istak-niyatlarini, yangi jamiyat o'z oldiga quygan mushtarak maqsadlarni o'ziga mujassamlashtirmog'i, odamlarni yangi jamiyat qurishdek eng buyuk maqsadga chorlay-digan yagona g'oya atrofida birlashtirmog'i darkor. Buning uchun esa mamlakatimiz xududida yashovchi turli millat, turli elatga mansub fuqarolarni milliy manfaatlarini va ehtiyojlarini, ularni urf-odatlarini, rasm-rusumlarini chinakkamiga hur-mat qilmoq lozim.

Shuningdek milliy mafkura mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalamog'i, vatandoshlarimiz ongi va faoliyatida milliy g'urur, milliy iftixorni shakllantirmog'i kerak.

Prezident I.A.Karimov o'zining asarlarida, milliy g'oyani yaratishga, uni mazmun va mohiyatini ilmiy-nazariy tushun-tirib berishga fidoyilik qildi. Bunday ilmiy-nazariy fidoyilikni I.A.Karimovning "Turkiston" gazetasining mux-biri savollariga bergan javoblarida (1999 yil fevral) yaqqol ko'rishimiz mumkin (4). I.A.Karimovning fikriga ko'ra, milliy g'oya odamlarga real voqelik ko'rsatayotgan ta'sirni hisobga olmog'i zarur. Buning uchun esa milliy g'oya, milliy ongning mohiyatini tushunib olish katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'z navbatida milliy g'oyani qanday bo'lishi, uni keng jamoatchilik xususan, yoshlar orasida targ'ib etishning samarali usullarini izlab topish kerakligini ta'kidlaydi.

Milliy mafkurani shakllantirishda, shubhasiz, xalqimiz, millatimiz taqdiriga xavf solib turgan mafkuraviy tahdid-larni aniq hisobga olishi zarurligiga, I.A.Karimov alohida e'tibor beradi. "Turkiston" gazetasi muxbiri savollariga javob berib, hozirgi sharoitda eng muhim mafkuraviy tahdidlardan biri-musulmon xalifaligini tiklash g'oyasi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Bunday g'oya tarafdorlari, yagona mafkuraviy makon barpo etish, yordamida Islom dinini siyosatlashtirish orqali, musulmonlar yashaydigan xududlarni yagona xalifalikka birlashtirish g'oyasini ilgari suradilar. Milliy mafkura bunday g'oyani soxta ekanligini dalillab bermog'i,

dindan har qanday g'oyaviy-siyosiy maqsadlarni amalga oshiruvchi vosita sifatida foydalanishga qarshi turmog'i zarur, deb hisoblaydi.

Prezidentning fikriga asosan, milliy mafkura sohasida bizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yana bir xavf-bu o'zbek xalqini tarixini soxtalashtirish yordamida odamlarni o'tmishidan judo qilishga urinishdir. Xuddi shuning uchun ham milliy mafkura, millatni asrashi uchun esa uning haqiqiy tarixini tushuntirib berishi, uni avaylab himoya qilishi kerak. Shuningdek, milliy mafkuraning samaradorligi uni xalqaro demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashishidir.

I.A.Karimov milliy mafkurani ilmiy-nazariy asoslari-ni mustahkamlash, uni samaradorligini oshirish yo'llari to'g'risidagi fikr-mulohazalarini davom ettirib, "Fidokor" gazetasining muxbiri savollariga bergan javobida (2000 yil iyun) ta'kidlaganidek, bugun insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluk-siz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir (2,6). Shuning uchun ham, mafkuraviy sohada hech qachon kurash tuxtamaydi. Mafku-raviy sohada hech qanday murosa bo'lishi mumkin emas. O'z navbatida mafkuraviy sohada hech qachon bo'shliq bo'lmasligi lozim. Mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, bizning orzu-umidlarimiz, ya'ni insonparvar, demokratik jamiyat g'oyalariga mutlaqo yot g'oyalar egallashi turgan gap. Endilikda hech kimga sir emas, "hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojuya xatti-harakatlar, yovuz ishlar avvalo mafku-raviy bushliq tufayli sodir bo'lmoqda" (2,8), deb ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov har tomonlama isbotlab berganidek, saksoninchi yillarni oxirida mamlakatimizda vujudga kelgan mafkuraviy bushliqdan usta-korlik bilan foydalangan diniy ekstremizm g'oyalari mamla-katimizda kirib keldi. Ekstremistlar "muqaddas dinimizning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'ur yoshlarni o'z tuzog'ig'a ilintirib, bizga begona bo'lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi" (2,8). Bunday nayranglarni ortida qanday mudhish maqsad yotganini, taassufki dastlab anglab yetmadik. Mafkuraviy bushliq tufayli kirib kelgan o'zgacha mafkuralar ta'siridan qutilmoq uchun I.A.Karimovning e'tirof etishicha "odamlarimiz avvalambor yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmazlik, ota-bolalarini muqaddas qadriyatlarini asrab avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning, men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashga erishishdir" (2,11). Buning uchun esa, farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tarixi-mizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosa-batni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immuni-tetini kuchaytirishimiz zarur.

Shunday qilib, Prezident I.A.Karimovning fikriga muvo-fiq, jamiyatimiz mafkurasi, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'no-mazmunini belgilab beradi. Ana shunday ma'no-mazmunni to'raligicha ochib beradigan, uning o'zida mujassamlashtiradigan "Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasi"ni yaratish zarur. Ushbu konsepsiya eng avvalo, milliy mafkurani maqsadi va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari va sohalari, omillari va vositalari, aholi ongiga singdirish

uslublari va usullarini aniq belgilab berishi zarur.

Milliy mafkura mamlakatimizning har bir fuqarosiga bunyodkorlik tuygʻusini shakllantirmogʻi lozim. Prezidentni taʼkidlashicha, “milliy mafkurani yaratish bir yillik yoki besh-oʻn yillik ish emas, xalq, millat oʻz mafkurasini butun umri davomida takomillashtirib, boyitib boradi. Chunki, mafkura qotib qolgan aqidalar yigʻindisi emas” (2,20). Millat manfaatlariga javob beradigan, tinimsiz oʻzgarish va yangila-nishni taqoza etadigan milliy mafkurani yaratish uchun muntazam ish olib borish zarur.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizga xos boʻlgan eng muqaddas tuygʻu va tushunchalarning mujassam ifodasi boʻlishi kerak. Ana shunday muqaddas tuygʻular: Vatanga, ona tiliga, milliy qadriyatlarga muhabbatdir. Yaratilayotgan milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning yuqorida biz sanab oʻtgan muqaddas tuygʻulariga asoslanishi lozim. Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasi oilani, mahallani tarbiyaviy qud-ratini oshirishga, oilada ayolni oʻrnini eʼzozlashga qaratilmogʻi, eng muhimi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mushtarakligiga tayanmogʻi kerak. Milliy mafkura konsep-siyasini yaratishda ijtimoiy fanlar, xususan falsafa yalovbardorlik qilmogʻi darkor.

X U L O S A

Prezident I.A.Karimov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish haqida fikr yuritar ekan "fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat.

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim" (1), degan edi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yaratadigan, uni yaxlitligi, barqarorligini ta'minlaydigan buyuk qudrat-milliy mafkuradir. Chunki, milliy mafkura yordamida turli millat va elatlarga mansub mamlakatimiz fuqarolari, yagona maqsad-O'zbekistonda fuqarolik ya'ni insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek muborakbod maqsad atrofida birlashtiriladi.

Xuddi o'sha qudrat tufayli jamiyat bisotida mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy imkoniyatlari, yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish, mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash, mustaqil yashash malakalariga ega bo'lgan barkamol insonni qaror toptirishga safarbar qilinadi.

Xuddi shu qudrat tufayli jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari orasida o'zaro aloqadorlik mexanizmi yaratiladi, o'sha mexanizmning bir maromda ishlashi, ular amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarning uzluksizligi ta'minlanadi.

Xuddi shu qudrat "xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, ornomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos, taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir" (10, 6-7).

A D A B I Y O T L A R

- Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarorlik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. “Xalq so‘zi”, 2002 yil 30 avgust.
- Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi- xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir (“Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblar). Toshkent, 2000 yil.
- Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin (“Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga javoblar). Barkamol avlod orzusi. Toshkent, 1999, 31-48-betlar.
- Karimov I.A. O‘z kelajagimizni o‘z qulimiz bilan qurmoqdamiz (“Turkiston” gazetasi muxbirining savollariga javoblar).-Turkiston, 1999, 2-fevral.
- Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.-Toshkent, 1998.
- Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent, 1997.
- Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent, 1997.
- Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik.-Toshkent, 1993.
- Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.-Toshkent, 1992.
- Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-Toshkent, 2000 yil.
- Choriyev A.CH. Kuch-adolatda, bilim va tafakkurda. Bosh maqola.-Muloqot, 1998, №6, 2-5 betlar.
- Choriyev A.CH. Milliy istiqlol mafkurasi va uning asosiy xususiyatlari.-Muloqot, 1996, №6, 2-3 betlar.
- Choriyev A.CH. Insonparvar, demokratik jamiyat mafkurasi.-Iqtisod va hisobot, 1993, №10, 56-57 betlar.
- Xonnazarov q.X. Mafkura-istiqlolning nazariy asosi.-Muloqot, 1994, №1-2, 8-11 betlar.
- Hakimov N.H. Mafkurasiz jamiyat bo‘lmaydi.-Muloqot, 1994, №5-6, 8-11 betlar.

**MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING
MAQSADI VA VAZIFALARI, USTUVOR YO‘NALISHLARI
VA SOHALARI, OMILLARI VA VOSITALARI, USLUBLARI VA
USULLARI**

R E J A:

K i r i sh.

§1.Ijtimoiy tarbiya sistemasi va mafkura.

§2.Milliy istiqlol mafkurasining maqsadi va vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari va sohalari.

§3.Mafkuraviy ta’sir samaradorligini oshiruvchi eng asosiy omillar va vositalar.

§4.Mafkuraviy faoliyat uslublari va usullari.

§5.Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasini yaratish - tarixiy zaruriyat.

Adabiyotlar

K I R I S H

Mamlakatimizda milliy istiqlol mafkurasini shakl-lantirish jarayoni jadallik bilan davom etmoqda. Bu borada respublikamizning yetakchi jamiyatshunos olimlari o'zlarining taklif va mulohazalarini baralla aytishmoqda. Fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda, ularni yagona maqsad - milliy istiqlol manfaati tomon yo'naltirishda ommaviy axborot vositalari fidoyilik qilayotirlar. Ommaviy axborot vositalarida bayon qilinayotgan g'oyalar bilan tanishar ekanmiz, O'zbekistonda yagona umummilliy g'oyaga asoslangan milliy istiqlol mafkurasini konsepsiyasi ishlab chiqishga bo'lgan extiyoj kundan-kunga ortib borayotganligiga ishonch hosil qilamiz. Chunki har qanday davlat, har qanday jamiyat o'zining milliy g'oyasiga, milliy mafkurasiga ega bo'lmas ekan, u qorong'ida yo'l topa olmay yurgan sayyohga uxshab qoladi.

Mafkura haqida fikr yuritadigan bo'lsak, hohlaymizmi yoki yo'qmi, mulohazalarimiz turli millat va elat, maslak va man-faatlarga ega bo'lgan jamiyat a'zolarining ijtimoiy tarbiyasiga borib taqaladi. Xuddi shuning uchun ham milliy istiqlol mafku-rasining ijodkorlari, tashkilotchilari va targ'ibotchilari ijtimoiy tarbiya jarayonini sodir bo'lish mexanizmining nazariy va amaliy tomonlarini aniq tasavvur etishlari darkor.

§1.IJTIMOYIY TARBIYA SISTEMASI VA MAFKURA

Ijtimoiy tarbiya sistemasi¹ va uning strukturasi tiniq tasavvur etmasdan turib milliy istiqlol mafkurasining maqsad va vazifalari, ustivor yoʻnalishlari va sohalarini, omillari va vositalarini, uslublari va usullarini aniq belgilab olish amri mahol. Ushbu murakkab mexanizm strukturasi tahlilida “tarbiya” “mafkura”ga qaraganda qamrovi keng tushuncha ekanligini unut-maslik darkor.

Tarbiya ijtimoiy borliqning oʻta murakkab shakllaridan bi-ridir. Shuning uchun ham u turli ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Mafkuraviy ishlar samaradorligini insonparvar, de-mokratik jamiyat talabi darajasiga koʻtarmoq uchun avvalo ushbu jarayon tashkilotchilari tarbiya bajaradigan turli ijtimoiy funksiyalarning mohiyatini, ushbu funksiyalarning birini ikkinchisidan farq qiluvchi xususiyat va xossalari aniq ajrata bilishlari zarur. Chunonchi, bir holatda tarbiya ajdodlarni avlodlarga, oʻtmishni bugunga, bugunni esa kelajakka bogʻlovchi vorislik vazifasini bajarsa, ikkinchi bir holatda ajdodlarimiz va avlodlarimiz toʻplagan jaʼmiki yaxshi fazi-latlar va xislatlar, qadriyatlarning toʻplami, yigʻindisi, ular toʻplagan tarixiy-ijtimoiy tajriba, barcha bilimlar va ilmlarni bilish manbai boʻlib xizmat qiladi. Uchinchi bir holatda tarbiya beruvchi shaxsning professional mahoratini ifodalaydi. Shuning uchun ham tarbiyani baʼzan mahorat, sanʼat deb ham talqin qiladilar. Toʻrtinchi bir holatda tarbiya ajdodlarni avlodlarga bogʻlovchi vorislik funksiyasini bajaradi. Shuningdek, tarbiya insonning mustaqil shaxs boʻlib ka-mol topishida hal qiluvchi omil, jamiyatning barcha sotsial institutlari, mafkuraviy muassasalar amalga oshirgan tarbiyaviy ishlarning natijasi, hosilasi deb ham sharhlanadi.

Tarbiya maʼlum bir maqsadga qaratilgan, aniq dastur, reja asosida amalga oshiriladigan ongli, mafkuraviy faoliyat hamdir. Xuddi shunday mafkuraviy taʼsir yordamida inson bolasining faoliyati, jamiyatdagi maʼlum bir sotsial guruh yoki tabaqa, sinf yoki shaxs, millat yoki elat, partiya yoki davlat, oila yoki kollektiv manfaati tomon burib yuboriladi. Lekin bundan inson shaxsi faqat mafkuraviy taʼsirning mahsuli degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki inson shaxsining kamol topishida hech qanday dastursiz, rejasiz, stixiyali taʼsirning (doʻstu-birodalar, hamkasblar, qarindosh-urugʻlar suhbatlari, poyezd yoki samolyot, bozor yoki choyxonadagi gurung) ham ahamiyati katta boʻladi. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, bunday taʼsir maʼlum bir tuzma (sxema) yoki andoza asosida emas, erkin stixiyali, reglamentsiz sodir boʻladi. Shuning uchun inson shaxsni maʼlum bir maqsadga qaratilgan mafkuraviy taʼsirning mahsuli boʻlish bilan birga stixiyali sodir boʻladigan tabiiy-ijtimoiy muhit taʼsirining ham natijasidir.

Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlari turmush tarzimizning barcha jabhalariga tezkorlik bilan kirib borayotganligi oqiba-tida informatsiyalar oqimi uzluksiz ortib borayotir.⁽³⁻⁹⁾ Bunday informatsiyalar taʼsirida jamiyatning turli sotsial institutlari amalga oshirayotgan maqsadga muvofiq mafkuraviy taʼsirdan baʼzan tabiiy-ijtimoiy muhitning stixiyali taʼsiri ustunlik qilmoqda. Bunday tendensiya ayniqsa res-publikamiz bozor iqtisodiyoti tomon borayotgan hozirgi sharoitda koʻzga yaqqol tashlanmoqda. Xuddi shuning uchun ham adolatli, insonparvar,

demokratik jamiyat barpo etilayotgan O'zbekiston sharoitida xalq, millat, davlat manfaatiga qaratilgan mafku-raviy ta'sirni, tabiiy-ijtimoiy muhitning stixiyali ta'siridan ustunligini ta'minlamoq, jamiyatning barcha sotsial institutlari amalga oshirayotgan mafkuraviy tadbirlarni muvofiqlashtirish, ularni yagona maqsad - mamlakatimizda bun-yod etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlat manfaati tomon yo'naltirish, umumdavlat, umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan tarixiy zaruriyatdir.

Mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlatni barpo etish uchun ommaviy harakat avj olishi bilan ijtimoiy tarbiya jarayonini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib borayotir. Ushbu muammoga bag'ishlangan turli munozaralar, bahslashuvlar bo'lmoqda. Insonshunos olimlarimiz tomonidan bir qator sermazmun asarlar yaratildi, maqolalar e'lon qilindi. Lekin ijtimoiy tarbiya haqidagi fikr-muloha-zalar obyektini qilib aksariyat hollarda umumiy ta'lim maktab-lari, qolaversa maktabgacha tarbiya muassasalari olinayotir. Boshqacha qilib aytganimizda, ijtimoiy tarbiyaning obyektini qilib odamning inson bo'lib shakllanishi jarayonining bolalik va o'smirlik davrlari ajratib tahlil qilinayotir. Inson umrining xuddi shu davrlarida bo'ladigan tarbiyaviy ta'sir haqida turli mulohazalar yuritilib, uning ongi va faoliyati shakllanishi jarayonining keyingi davrlari orasidagi aloqadorlikka, o'zaro ta'sirga e'tibor berilmayotir. Inson umrining bolalik, o'smirlik davrlaridagi tarbiyaviy ta'sir ja-rayoni bilan uning go'daklik, yoshlik, yetuklik, keksalik davrlari-dagi o'zaro aloqadorlik mexanizmini takomillashtirish tadqi-qotchilarimiz e'tiboridan chetda qolayotir. Nazariy tadqiqotlarimizda dialektik yaxlit yondashuvning yetishmasligi tarbiyaviy ishlar amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda jamiyatning turli sotsial institutlari amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarda o'zaro aloqadorlik mexanizmi ishdan chiqdi. Tarbiyaviy ishlarda hamkorlik, vorislik mexanizmini takomil-lashtirish, jamiyatning barcha sotsial institutlari mafkuraviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, ularni bir maromda ishlatish yo'llari, uslublari va usullari aniq belgilab berilmaganligi tufayli keyingi yillarda yaratilgan dasturlar, tavsiyalar, konsepsiyalarda olg'a surilgan g'oyalar, takliflar ommaning ma'naviy mulkiga aylanmadi, mehnatkashlarning ongi va faoliyati, turmush tarziga singib ketmadi. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari tarbiya jarayoni tashkilot-chilarining kundalik ish faoliyatidan, munosib o'rin topmayotir. Boshqacharoq aytadigan bo'lsak, ijod etilgan turli ilmiy-naza-riy taxminlar, tavsiyalar amalga tatbiq etilishi sekinlashib qolayotir. Buning asosiy sababini qayerdan izlashimiz lozim? Bizning fikrimizcha, buning asosiy sababi tarbiya borasida yara-tilayotgan ilmiy-nazariy taxminlarimiz, tavsiyalarimiz metodologik zaminlarining zaifligidir. Ayniqsa tarbiya jarayo-nini o'rganishda yaxlitlik va sistemalilik prinsiplariga amal qilmaslikning oqibatidir.

Ijtimoiy tarbiya sistemasida eng asosiy o'rinni umumiy ta'lim maktablari egallaydi. Chunki endigina oila va uning yalovbardorlari - ota, ona, bobo, momolarning individual tarbiyasi ta'siridan chiqqan bolakay umumiy ta'lim maktab-larining rejalashtirilgan tarbiyaviy, ya'ni mafkuraviy ta'sir doirasiga kiradi. O'sha kundan e'tiboran murg'ak faoliyatini ja-miyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi.

Umumiy ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan tarbiya-viy ishlar jamiyatning boshqa sotsial institutlari - oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurt-lari, mexnat kollektivlari, turli jamoat tashkilotlari, mada-niy-ma'rifiy muassasalar, uyushmalar amalga oshirayotgan bir butun, mafkuraviy ta'sir doirasida bo'lib, o'sha maqsadli, ongli faoliyatning davomidir. Afsuski, umumiy ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayonini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda, yaratilayotgan turli konsepsiyalarda bunday o'zaro aloqadorlik sezilmaydi. Umumiy ta'lim maktablarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar jamiyatning boshqa sotsial institut-lari ta'siridan tashqarida qolayotgandek tuyuladi.

Ma'lumki, jamiyatning turli sotsial institutlari aniq dastur, reja asosida amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarning xammasi yaxlit, bir butun sistemani tashkil etadi. Umumiy ta'-lim maktablaridagi tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar esa o'sha bir butun sistemaning bo'lagi hisoblanadi. Hamma balo-qazo shunda-ki, keyingi yillarda tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarni takomil-lashtirish borasidagi fikr-mulohazalarimiz ma'lum bir bo'lak atrofida o'ralashib qoldi. Tarbiya borasida qilgan sa'y- harakatlarimizning amaliyotda samarasiz, quruq gap bo'lib qolayotganining asosiy sabablaridan biri ham, bizning fikri-mizcha, butun bilan bo'lak orasidagi aloqadorlik mexanizmida tub sifatiy o'zgarish yasay olmaganligimizda, o'sha mexanizmning bir maromda ishlashini ta'minlay olmaganimizda bo'lsa kerak.

Ijtimoiy tarbiya sistemasi (butun) bilan umumiy ta'lim maktablarida (bo'lak) amalga oshirilayotgan tarbiyaviy-mafkuraviy ta'sir orasidagi aloqadorlik mexanizmini tako-millashtirish yo'llari, uslublarini yaratish uchun, eng avvalo, ushbu aloqadorlik mexanizmiga halaqit beruvchi g'ovlarni bartaraf etish darkor. Bunday ziddiyatlarni bartaraf etish uchun tarbiya jarayoni taxlilida umumiy-universal bog'lanishlar, o'za-ro aloqadorlik, o'zgarish, taraqqiyot to'g'risidagi dialektik ta'-limotning yaxlitlik, sistemalilik, sababiyat, mantiqiylik, tari-xiylik prinsiplariga amal qilish zarur. Afsuski, tarbiya jara-yoni tahliliga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlarda, konsepsiyalar-da, bunday metodologik prinsiplarga rioya qilinmayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Ijtimoiy tarbiya jaryonini takomillashtirishga qaratilgan turli konsepsiyalarda dialektik ta'limotning eng muhim meto-dologik qoidalaridan biri tartiblilikka rioya qilmaslik, boshqacha aytganda, tartib bilan tahlil qilish, bayon qilishning yetishmasligi oqibatida, turli metodologik anglashilmovchi-liklar, chalkashliklar, pala-partishliklar vujudga kelayotir. Chunonchi, tarbiyaning obykti bilan subyekti, tarbiya jarayoni bilan uning natijasi, tarbiyalash bilan o'z-o'zini tarbiyalash, odam bolasini inson darajasiga ko'tarishda maqsadga muvofiq, rejali, tarbiyaviy (mafkuraviy) ta'sir bilan rejasiz, dastur-siz, stixiyali ta'sir, tarbiya samardorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar bilan uning omillari va hokazolar bir o'ringa, bir qatorga qo'yilayotir.

Bunday metodologik zaifliklarni milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish borasida aytilayotgan ayrim takliflar va mulohazalarda ham uchratish mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mafkura ijtimoiy tarbiyaning o'zi ekanligi ba'zi birovlarning xotirasidan faromush bo'lganga o'xshaydi. Xuddi shuning uchun ham

jamiyatning barcha sotsial institutlari amalga oshirayotgan mafkuraviy ishlarni milliy istiqlol maqsadi tomon yo'naltiruvchi yagona umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi, umuminsoniy qadriyatlar talablariga mos tushuvchi, aholining barcha sotsial qatlamlari, tabaqalarini o'z ta'sir doirasiga qamrab oluvchi yagona ijtimoiy tarbiya, ya'ni milliy istiqlol konsepsiyasini yaratish payti keldi.

§2. MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Milliy istiqlolimizni har tomonlama mustahkamlash, ado-latli, insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun kurash olib borilayotgan O'zbekiston sharoitida milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi va vazifalari nimadan iborat bo'lmog'i lozim?

Milliy istiqlol mafkurasining maqsadi va vazifalari haqida gapirishdan avval "maqsad" degan tushunchaning mazmunini, mohiyatini tushunib olishimiz zarur. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning "Maqsad degani – xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bay-roq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-ifti-xorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassam-lashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimiz, xalqimiz, el-yurti-mizning maqsadi o'z ulug'vorligi, hayotiyliigi va haqqoniyliigi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni-xalq, millatni-millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin" (3,10-11) degan so'zlari milliy istiqlol mafkurasining maqsadini aniq bayon qilish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Ana shunday metodologik asosga tayanib fikr yuritadigan bo'lsak, milliy istiqlol mafkurasining mag'zini insonparvar, demokratik jamiyat qurish g'oyasi tashkil etadi. Xuddi shu g'oyada xalqimizning, millatimizning butun orzu-umidlari, istaklari o'z ifodasini topgan. Xuddi shu g'oya mamlakatimiz hududida yashovchi barcha millatlar, elatlarni manfaatlariga mos tushuvchi umummilliy g'oyadir. Yagona davlat xududida yashovchi barcha millatlar va elatlar manfaatiga mos tushuvchi umummilliy g'oya bo'lmasa ko'p millatli davlat sharoitida, u yoki bu millat manfaati oyoq osti bo'lishi mumkin. Turli millat va elatlar yashayotgan O'zbekiston sharoitida barcha millat va elatlarning milliy manfaatlariga mos tushuvchi umummilliy g'oya ularni nurafshon kelajak, insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek oliyjanob maqsad atrofida birlashtiradi. Modomiki shunday ekan, milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi inson-parvar, demokratik jamiyat qurishdek yagona umummilliy g'oya atrofida fuqarolarni birlashtirishdan iboratdir.

Insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek umummilliy g'oya umuminsoniy g'oyalardan kuch-quvvat oladi. Aniqroq qilib aytganimizda, milliy istiqlol mafkurasining mag'zini tashkil etgan umummilliy g'oya Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faro-vonligi, barkamol inson, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag'rikenglik kabi umuminsoniy g'oyalarga tayanadi.(6-51-61)

Milliy istiqlol mafkurasining maqsadidan uning vazifalari kelib chiqadi. Ma'lumki, hozirgacha biz ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi har tomonlama garmonik rivojlangan

inson shaxsini yaratishdan iborat deb keldik. Har tomonlama garmonik rivojlangan, barkamol inson shaxsini vujudga keltirish, uning tavallud etish jarayoni haqida uzoq gapirdik, qop-qop qo'llanmalar, yostiqlikdek kitoblar bitdik. Sotsialistik jamiyat sharoitida voyaga yetgan kishilar o'z o'tmishdoshlaridan tubdan farq qilishi, avlod va ajdodlarining jamiki yaxshi fazilatlari, xislatlari unda mujassam bo'lishi haqida maqtanib keldik. Afsuski, o'sha orzu qilingan barkamol odam bolasining ming bor sayqal berilgan qiyofasi bizdan borgan sari uzoqlashaverdi va asta-sekin xiralashib qoldi. Chunki yonginamizda faoliyat ko'rsatayotgan xaqiqiy basharalar bilan orzu qilingan, tasvir etilgan, ko'klarga ko'tarib maqtalgan kitobiy qiyofalar orasidagi ziddiyat kuchayib, amalda allaqanday tubsiz jarlik vujudga keldi. Oqibatda bunday gaplarga hech kim, hatto tarbiya-chining o'zi ham ishonmay qo'ydi. Xuddi shuning uchun ham insonparvar, demokratik jamiyat qurayotgan O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tarbiya, xususan milliy istiqlol mafkurasining asosiy vazifasi jismonan baquvvat, madaniy-ma'naviy, barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-kor mahoratini o'zida mujassamlashtirgan, barkamol inson shaxsini shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Xalq, davlat, millat manfaatlarini to'la tasavvur etuvchi, milliy g'ururi baland, chinakam vatanparvar, milliy va umumin-soniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan va unga doimo amal qiluvchi, xalq, davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yuvchi barkamol insonni tarbiyalamasdan turib mamlakatimizni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga ko'tarib bo'lmaydi. Milliy mustaqilligimizni mustaqil fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bo'lgan mustaqil shaxs mustahkamlaydi. Mustaqil dunyoqarashga ega bo'lgan insongina mustaqil davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, intellektual qudratini barpo etadi. Boshqacha ayganimizda, asrlar davomida bobolarimiz orzu qilgan insonparvar jamiyatning bunyodkori bo'lmish barkamol inson eng avvalo mustaqil shaxs bo'lmog'i darkor. Xuddi shuning uchun ham ijtimoiy tarbiya, xususan milliy istiqlol mafkurasini yordamida, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, erkin fikrlaydigan, mute'lik va jur'atsizlik tuy-g'usidan mutlaqo xoli, mustaqil insonni tarbiyalashimiz zarur. (4-7, 3,18-19.) Mustaqil inson shaxsining karor topishiga qaratilgan barcha tarbiyaviy-mafkuraviy tadbirlar besh asosiy: aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy yunalishlarda amalga oshiriladi. Bu muhim besh ustivor yo'nalish ijtimoiy tarbiya yoki mafkuraviy ishlar sistemasining mazmunini belgilab beruvchi, uni yagona sistemaga birlashtirib turuvchi eng asosiy elementlardir. Tabiiyki, ushbu elementlar o'zaro dialektik aloqador bo'lib, biri ikkinchisiga uzluksiz ta'sir o'tkazib turadi, Bunday dialektik aloqadorlikni ko'ra bilmaslik mafkuraviy ishlarni takomillashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning ta'sirchanligini kamaytiradi.

Ijtimoiy tarbiyaning, yoxud mafkuraviy ta'sirning besh asosiy yo'nalishi orasidagi dialektik aloqadorlik turli - huquqiy, siyosiy, vatanparvarlik, baynalmilliy, diniy, jinsiy, ekologik va hokazo ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham yuqoridagi ko'rinishlarni ijtimoiy tarbiyaning, boshqacha aytganimizda, mafkuraviy ta'sirning eng muhim soha-lari, tomonlari,

qirralari yoki ko‘rinishlari deyish mumkin.

Afsuski, ba’zi olimlarimizning asarlarida, vaqtli matbuotda, kundalik mafkuraviy ishlar amaliyotida ijtimoiy tarbiyaning, ya’ni mafkuraviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari (mazmuni), uning turli sohalari, ko‘rinishlari (shakl) bilan bir o‘ringa qo‘yildi. Bizning fikrimizcha, huquqiy yoki ekologik tarbiyaning hech qachon aqliy tarbiya bilan bir o‘ringa qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday metodologik anglashilmovchiliklar mafkuraviy ishlar amaliyotida bir yoqlamachilikka, ko‘zbo‘yamachilikka olib keladi, uning samaradorligiga putur yetkazadi. O‘z navbatida, ijtimoiy tarbiya yoxud mafkuraviy ta’sirning har bir sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘ra bilmaslik, uni ajrata olmaslik ham no-donlik bo‘lur edi.

Ijtimoiy tarbiya sistemasining bir butunligini ta’min-laydigan, boshqacha aytganimizda, uni yagona bir strukturaga uyushtirib, mujassamlashtirib turgan elementlarga diqqat bilan nazar solsak, har bir elementning o‘ziga xos funksiyasi mavjud ekanligi, ular orasida allaqanday chegara bor ekanligini ishonch hosil qilamiz. Lekin ushbu chegara dinamik xarakterga ega bo‘lib, doimo o‘zgarib turadi. Xuddi shu chegaralarning mavjudligi ijtimoiy tarbiyaning ustivor yo‘nalishlari va sohalari birini-ikkinchisidan farq qiluvchi xususiyatlarini vujudga keltiradi. O‘z navbatida, xuddi shu holat, ijtimoiy tarbiyaning yuqorida eslatib o‘tilgan ustivor yo‘nalishlari va sohalari o‘zaro dialektik aloqador ekanligidan dalolat beradi. Afsuski, tarbiyaviy ishlar amaliyotida mafkuraviy ta’sirning turli sohalari biri-ikkinchisidan ajratib amalga oshirilayotir. Chunonchi, diniy tarbiyaning huquq tarbiyasidan ajratib olib borilishi, bir tomondan, dindorlarning fuqarolik huquq-larini poymol qilsa, ikkinchi tomondan, diniy urf-odatlar bi-

lan milliy urf-odatlarining qo‘shib-qorib yuborilishiga, ular orasidagi tafovut va farqni ajratolmaslikka, diniy tarbiya bilan vatanparvarlik tarbiyasini ajratib qo‘yishga sabab bo‘ladi. Diniy tarbiyaning vatanparvarlik tarbiyasidan ajratib qo‘yilishi esa ko‘pgina tarixiy obidalarimizni, madaniy merosimizning tarbiyaviy imkoniyatlarini yetarli baholay olmaslikka olib keladi. Xuddi shunday holatni vatanparvarlik tarbiyasi bilan baynalmilliy tarbiya orasidagi o‘zaro aloqa-dorlikda ham ko‘rish mumkin. Vatanparvarlik va baynalmilliy tarbiya orasidagi o‘zaro aloqadorlikning buzilishi, biriga e’tiborning kuchaytirilishi va ikkinchisiga e’tiborning kamay-tirilishi millatchilik va shovinistik, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik, milliy biqqlik, milliy xudbinlik kayfiyatlarini vujudga keltiradi. Odamlardagi milliy g‘urur, milliy manfaat xaqidagi his-tuyg‘ularning so‘nib qolishiga sabab bo‘ldi. Boshqacha aytganimizda, tarbiyadagi milliy zaminlarning mustah-kamlanishiga, milliy ongning shakllanishi jarayoniga ko‘zga ko‘rinmas g‘ov bo‘ladi. Xuddi shuning uchun ham insonparvar, demokratik jamiyat tomon jadallik bilan borayotgan respub-likamiz sharoitida milliy istiqloq mafkurasining asosiy yo‘nalishlari (mazmuni) va asosiy sohalari, tomonlari (shakl-lari) orasidagi o‘zaro aloqadorlik mexanizmini har tomonlama takomillashtirish, ayniqsa uning milliy zaminlarini mustahkamlash yo‘llarini izlab topish bugunning eng dolzarb muammo-laridan biridir.

§3. MAFKURAVIY TA'SIR SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI ENG ASOSIY OMILLAR VA VOSITALAR.

Mafkuraviy ta'sir samaradorligini oshirish, uning omillari va vositalarini tanlash, ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan ustakorlik bilan foydalanish malakasi bilan bog'liq. Xuddi shuning uchun ham mafkuraviy jarayonlarning har bir tashkilotchisi buni yaxshi bilishi lozim.

Mafkuraviy jarayon samaradorligi buyuk ikki omil – ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqtning tarbiyaviy ta'siri bilan ham bevosita bog'liq. Chunki insonning kundalik amaliy faoliyati xuddi shu ikki vaqt doirasida (o'quvchi, talabalarning amaliy faoliyatlari esa dars jarayoni va darsdan bo'sh vaqt doirasida), sodir bo'ladi. Shuning uchun ham ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqt mazmunida, shaklida, xarakterida sifatli o'zgarish yasash orqali uning tarbiyaviy qudratini mustahkamlash milliy istiqbol talabidir.

Ayniqsa, ertadan-kechgacha mehnat qilishga ko'nikib qolgan, zahmatkash xalqimizni qo'l mehnatidan ozod qilish, og'ir jismoniy quvvat talab qiladigan yumushlarni mehanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, mehnat jarayonini intellektuallashtirish; mehnat qilish uchun zarur bo'lgan barcha texnik va texnologik, madaniy va maishiy shart-sharoitlarni hozirgi zamon urbanizatsiyasi talablari darajasiga ko'tarish yordamida odamlarda o'zi bajargan ishdan, yaratgan mo'l-kol moddiy nozu-ne'matlardan chinakamiga zavq-shavq olish masalalari, mehnatga halol, vijdonan munosabatni shakllantirish ish vaqti doirasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar samaradorligini oshiradi.

Bo'sh vaqtning tarbiyaviy ta'sirini kengaytirish, uni chinakamiga inson shaxsini ulug'lashdagi imkoniyatlariga yangi stimullar, yangi turtki berish, boshqacha aytganimizda, bo'sh vaqt doirasida amalga oshiriladigan mafkuraviy tadbirlar mazmuni

va shaklini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish yordamida inson amaliy faoliyati jamiyat, kollektiv, millat manfaati tomon burib yuboriladi. Bo'sh vaqtdan unumli, oqilona foydalanish malakasini shakllantirish yordamida odamlarda o'zini-o'zi boshqarish malakasi shakllantiriladi. Xuddi shunday yo'l bilan mafkuraviy jarayon ta'sirchanligini oshirish, uning qamrov doirasini yanada kengaytirish uchun real shart-sharoit yaratiladi.

Mafkuraviy jarayon samaradorligini yanada oshirmoq uchun mafkuraviy ta'sir vositalari - fan, madaniyat, adabiyot, matbuot, radio, televideniye, teatr, kino, targ'ibot va tashviqot ishlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan ustakorlik bilan foydalanishimiz zarur. Boshqacha qilib aytganimizda, mafkuraviy ta'sirning samaradorligi mafkuraviy vositalar tarbiyaviy imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq.

Mafkuraviy ta'sir vositalari orasida ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati alohida e'tiborga molikdir. Chunki informatsiyalar oqimi tezlashgan hozirgi zamon sharoitida ommaviy axborot vositalari fuqarolarimiz turmush tarziga kun sayin chuqurroq kirib bormoqda. 1999 yilda mamlakatimizda 497 ta gazeta, 138 ta jurnal chop etilgani fikrimizning isbotidir(2-30). Afsuski, ommaviy axborot vositalari mamlakatimiz fuqarolarining uzluksiz o'sib borayotgan

madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini hali to'la qondirayotgani yo'q. Ommaviy axborot vositalarida fuqarolarning quvonchlari va tashvishlari, ularni bezovta qilayotgan muammolarni bartaraf etish yo'llari o'z ifodasini to'liq topayotgani yo'q. Shu bilan birga fuqarolarimizning katta qismi O'zbekiston Konstitutsiyasi kafolatlab bergan insonning insoniyligi, uning qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan – so'z erkinligi, ya'ni o'z fikr-mulohazasini erkin bayon qilishdek muqaddas huquqdan to'la foydalanayotganlari yo'q. Bunday holat fuqarolarimiz ongi va faoliyatida mustahkam o'rnanib olgan ma'naviy qashshoqlik ko'rinishlari - labbaychilik, topshiriqni ko'r-ko'rona bajarish, ta'zimkorlik, o'z fikr- mulohazasini kimningdir qosh-qovog'iga qarab bayon qilish, boshqacha aytganda, mustaqil fikrlash malakasining yo'qligi kabi ijtimoiy illatlar kishilar turmush tarzidan o'ta sekinlik bilan surib chiqarilayotganligidan dalolat beradi. O'z navbatida, ommaviy axborot vositalarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar o'zlarining professional malakalarini uzluksiz takomillashtirishni, fuqarolarni tashvishga solayotgan muammolarni ustakorlik bilan ilg'ab olish, ayniqsa jamiyat, davlat, shaxs manfaatlarini uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratish zaruriyatini o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

Xuddi shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Hozirgi paytda qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoat nazoratini, davlat hamda mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratini amalga oshiradigan mexanizm sifatida ommaviy axborot vositalarining mavqeini kuchaytirish zarur. Ayni shu axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan minbar bo'lishi kerak. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakillantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim (2-30-31).

Mafkuraviy vositalar yordamida fuqarolarning fikr-mulohazalariga, dunyoqarashiga ta'sir o'tkaziladi. Mafkuraviy vositalarning ta'siri qancha kuchli bo'lsa fuqarolar ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish jarayoni shuncha tezlashadi.

§4. MILLIY ISTIQLOL G'OYALARINI FUQAROLAR ONGIGA SINGDIRISH USLUBLARI VA USULLARI

Milliy istiqlol g'oyalari fuqarolar ongiga, turmush tarziga milliy mafkura yordamida singdiriladi. Bunda mafkuraviy ta'sirning turli uslublari (tushintirish, ishontirish, majbur qilish) va usullari (individual, jamoaviy, ommaviy)dan foydalaniladi. Mafkuraviy ishlar amaliyotida mafkuraviy ta'sirning eng samarali uslublari - turli tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish, targ'ibot va tashviqot, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, madaniy-ma'naviy merosning tarbiyaviy imkoniyatlariga tayanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushta-rakligiga asoslanish, jamoatchilik fikriga suyanish bo'lsa, uning keng tarqalgan usullari - yakkama-yakka ishlash, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, mahalla faollari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar yig'ilishlari, ommaviy mitinglar, namoyishlar o'tkazish hisoblanadi.

Mafkuraviy ta'sirning xuddi shu uslublari, usullari yordamida fuqarolarga insonparvar, demokratik jamiyat qurish g'oyasining mohiyati, mazmuni ochib

beriladi. Ushbu g'oyaning to'g'riligiga ishonch hosil kilinadi. Odamlar shu g'oya atrofida uyushtiriladi, birlashtiriladi. Fuqarolarni yangi jamiyat qurish borasidagi sa'y-harakatlari ham moddiy, ham ma'naviy rag'batlantiriladi. g'oyaviy jihatdan tarbiyalanadi, ya'ni g'oyaviy e'tiqod hosil qilinadi. Xuddi shu e'tiqod o'z navbatida odamlarning kundalik amaliy faoliyati uchun harakat dasturi vazifasini bajaradi.

Turgan gapki, fuqarolar ongiga insonparvar, demokratik jamiyat qurish g'oyasini singdirish, ushbu g'oyani to'g'ri, ilmiy va hayotiylikiga ishonch hosil qilish osongina, o'z-o'zidan ro'y bermaydi, g'oyaning to'g'riligiga ishontirmoq - fuqarolarning ruhiyatiga, ma'naviyatiga ta'sir qilmoq, uni o'zgartirmoq demakdir. Boshqacha aytganda, g'oyaning to'g'riligiga ishonch uyg'otish uni ro'yobga chiqarish mafkuraviy faoliyat tufayli amalga oshiriladi.

Mafkuraviy faoliyatning samaradorligini oshirish har bir mafkura xodimidan yuksak professional malaka, shaxsiy o'rnak, yuksak insoniy fazilatlar va xislatlarga ega bo'lishni taqazo etadi. Ayniqsa, bu borada mafkura xodimining nutq madaniyati, ishontirish qobiliyati, fuqarolarni orqasidan ergashtirish, ularni yangi zafarlarga ilxomlantirish malakalari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mafkuraviy ta'sirning turli uslublari, usullari yordamida fuqarolar ruhiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi. Ularga kelajakka ishonch tuyg'ulari shakllantiriladi.

Xuddi shuning uchun ham mafkuraviy ta'sir uslublari, usullari xalqning, millatning milliy qadriyatlariga asoslanishi, uning urf-odatlariga, rasm-rusumlariga, bayram va marosimlariga tayanishi lozim. Mafkuraviy ta'sir uslublari va usullarining samaradorligi xalqning, millatning orzu-umidlari bilan ham bevosita bog'liq. Shuningdek, g'oyaviy tarbiyaning mazmuni va shakli bilan ham dialektik aloqador. Chunki, g'oyaviy tarbiya yordamida insonparvarlik ideallariga

sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga, xususan xalqaro demokratiya prinsiplariga hurmat, zo'ravonlikka, behayolikka, yovuzlikka, shafqatsizlikka nafrat ruhi uyg'otiladi. O'z navbatida, turli yot va zararli g'oyalarga, mafkuralarga qarshi immunitet hosil qilinadi. g'oyaviy-mafkuraviy immunitet hosil qilish deganda o'zi e'tiqod qilgan g'oyani birovlariga zo'rlab tiqishtirish emas, balki zararli g'oyalardan, mafkuralardan saqlanish, hushyor bo'lish, uning oqibatlaridan ogoh bo'lish malakasi tushuniladi. Fuqarolarning g'oyaviy tarbiyasi qancha samarali bo'lsa, mafkuraviy ta'sir uslublari va usullarining samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Mafkuraviy ta'sir uslublari va usullarini tanlashda, uning samaradorligini oshirishda ijtimoiy fanlar muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmazlik zarur.

§5. MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI

KONSEPSIYASINI YARATISH-TARIXIY ZARURIYAT

Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasi, yuqorida eslatib o'tganimizdek, aholining hamma tabaqalarini, barcha yoshdagi kishilarning tug'ilgan kunidan umrining oxirigacha bo'lgan butun hayoti davomida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'sir jarayonini o'zida mujassamlashtirishi zarur. Eng avvalo ushbu konsepsiya mafkuraviy jarayonning milliy zaminlarini mustaqamlash

zaruriyatining chinakam ilmiy-nazariy manza-rasini yaratmog'i darkor, chunonchi bugungi fuqarolar avlodining katta qismidagi jismoniy zaiflik va ma'naviy qashshoqlikning kelib chiqishi, xalqimizning o'z tarixiy xotirasidan, madaniy-ma'naviy an'analaridan judo bo'lib, o'zligini yo'qotishi kabi ijtimoiy badbaxtliklarning sabablarini chuqur tahlil etish lozim. Sharqona milliy tarbiyaning asosi bo'lgan, birdamlik va uyg'unlik, ustoz va shogird an'analarini tiklash yo'llari va uslublarini qidirib topish kerak.

Mafkuraviy jarayonni takomillashtirishning yangi konsepsiyasi uning ijrochilariga jismoniy baquvvat, madaniy-ma'naviy yetuk, ruhan tetik, barkamol inson qiyofasini tasvirlab berishi darkor. Barkamol insonda bo'lishi zarur bo'lgan barcha insoniy fazilatlar va xislatlarni aniqlab berishi, o'sha insoniy qiyofaning barqarorligi darajasini o'lchaydigan mezonlarni ko'rsatib berishi lozim.

Mafkuraviy ta'sir samaradorligini oshiruvchi yangi modelni yuqorida eslatib o'tilgan dialektik aloqadorlik prinsipi va normalariga tayanmasdan, bu borada mavjud bo'lgan ziddiyatlarni aniqlamasdan va uni bartaraf etish yo'llarini belgilab olmasdan turib yaratib bo'lmaydi. Chunki olamda mavjud bo'lgan har qanday hodisa yoki voqeadagi ichki o'zaro aloqadorlik mexanizmi mohiyatini tushunib olmasdan turib, o'sha hodisa yoki voqeda tub sifatiiy o'zgarish yasash qiyin. Xuddi shuning uchun ham mafkuraviy ishlarni takomillashtirishga qaratilgan yangi modelda, eng avvalo, uning maqsadi va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari va asosiy sohalari, vositalari va omillari, uslublari va usullari aniq belgilab berilishi va ular orasidagi o'zaro aloqadorlikning mohiyati ochib berilishi zarur. Milliy istiqloq mafkurasining maqsadi va vazifalari aniq belgilanmasdan turib, uni amalga oshiruvchi vositalari, samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillari haqida mulohaza yuritib bo'lmaydi.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, jamiyatni barcha sotsial ins titutlari mafkuraviy ta'sir uzluksizligini va ushbu muas-sasalarning bir maromda ishlab turishini ta'minlaydigan, ularning mafkuraviy qudratini insonparvar, demokratik jami-yat quruvchisi bo'lgan barkamol insonni tarbiyalashdek mushtarak maqsad tomon yo'naltiradigan va ularning bu boradagi fao-liyatini markazlashtiradigan ijtimoiy boshqaruv mexanizmi hozirgacha barpo etilgani yo'q. Ana shunday muvofiqlashtiruvchi mexanizmning xomaki nusxasini yaratish ham mafkuraviy jarayonni takomillashtirishga bag'ishlangan yangi konsepsiya, yangi model qamroviga kirmog'i darkor.

Mafkuraviy jarayon samaradorligi, shubhasiz, ushbu jarayon boshqaruvchilarining professional mahorati bilan ham bog'liq. Axir mafkuraviy jarayonga rahbarlik qilayotgan mutasaddi shaxs chuqur professional bilimga, malakaga ega bo'lmasa, tabiiyki, ish barbod bo'ladi. Afsuski, mafkuraviy tarbiya jarayoniga bosh-qosh bo'lib turgan tashkilotchilarga ba'zan xuddi shunday profes-sional mahorat yetishmaydi. Chunki bizning o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy tarbiya sistemasi, ya'ni mafkuraviy jarayon haqida to'liq ma'lumot berilmaydi. Ayniqsa, mafkuraviy ta'sirni amalga oshirishda jamiyatning asosiy sotsial institutlari - oila, bolalar muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat kol-lektivlari, turli jamoat tashkilotlari va madaniy-ma'rifiy uyushmalar mafkuraviy faoliyatini muvofiqlashtirish, markaz-

lashtirish, ularning faoliyatidagi uzluksizlik, vorislik, hamkorlikni ta'minlash, turli aholi tabaqalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish yo'llari har tomonlama chuqur o'rgatilmaydi.

Ijtimoiy tarbiya, ya'ni mafkuraviy faoliyat tufayli amaliy faoliyat jamiyat, xalq, davlat manfaati tomon boshqarilishi, tarbiya odam bolasining tug'ilgan kundan boshlab hayot bilan abadul-abad xayrlashgunga qadar bo'lgan ehtiyoj, zaruriyat ekanligi, insoniyat yaratgan ja'miki yaxshi fazilatlar, xislat-lar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, bayramlar, marosimlar, rasm-rusumlar xuddi shu buyuk qudrat orqali ajdodlardan avlodlarga yetib kelayotganligi, boshqacha aytgani-mizda, ijtimoiy tarbiya ajdodlar va avlodlar, otalar va bolalar orasidagi vorislik vazifasini bajarayotgan buyuk kuch ekanligi har tomonlama tahlil etilmaydi. Tarbiya muammolari haqida gap ketse, darhol pedagoglarga murojaat etishadi. Pedagoglarimiz, yuqorida eslatib o'tganimizdek, tarbiyaning obyektini qilib aksariyat hollarda bolalar muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, nari borsa oliy o'quv yurtlarini oladilar. Tarbiya jarayonini to'la yaxlit o'rganmoq uchun faylasuflar, tarixchilar, sotsiologlar, ruhshunoslar pedagoglar bilan birgalashib harakat qilmoqlari darkor. Ana shunday harakatga bosh-qosh bo'ladigan "Tarbiya akademiyasi" ni tashkil etish vaqti ham yetib keldi deb hisoblaymiz.

Tarbiya muammolarini yaxlit, bir butun sistema sifatida o'rgatmoq va o'rganmoq uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida "Tarbiya nazariyasi va amaliyoti" kafedralarini tashkil etmoq milliy istiqlol mafkurasi talabiga mos tushadi. Tashkil etiladigan yangi kafedra insonparvar, demokratik jamiyat a'zolarining, huquqiy davlat fuqarolarining tarbiyasi, ana shu jarayonning milliy zaminlarini mustahkamlash orqali, umummilliy, umuminsoniy qadriyatlar tomon borish yo'llari, uslublari, usullarini belgilab beradi degan umiddamiz.

**INSONPARVAR DEMOKRATIK JAMIYAT
MAFKURASI VA BARKAMOL INSON
SHAXSINI SHAKLLANTIRISH**

REJA :

 K i r i s h

§1.Inson va shaxs tushunchalari

§2.Gumanistik tipdagi shaxs va uning tarkibi

§3.Hozirgi zamon sivilizatsiyasining inson ijtimoiy qiyofasiga ta'siri

§4.Mustaqil shaxs

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Bobolarimiz orzu qilgan barkamol insonni shakllantirmoq uchun g'oyaviy-mafkuraviy jarayon tashkilotchilari, targ'ibotchilari nafaqat uning shakllanishi jarayoni, balki «barkamol inson» tu-shunchasining mazmuni to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari zarur.

Musulmon falsafasida «barkamol inson» tushunchasini ilk bor Muhiyiddin Arabiy muomalaga kiritgan. Uning fikricha, barkamol insonning yerdagi timsoli payg'ambarimiz Muhammad edi. Aziziddin Nasafiy esa yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorifni o'zida mujassamlashtirgan kishini barkamol inson deb tushungan.

Zamonlar o'tishi bilan «barkamol inson» tushunchasining mazmuni o'zgarib bordi. Hozirgi zamon insonshunos olimlari barkamol inson deganda jismonan baquvvat, ruhan tetik, madaniy-ma'naviy yetuk, yuksak kasb-kor va yashash malakasiga ega bo'lgan, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash malakalarini o'zida mujassamlashtirgan mustaqil shaxsni tushunadilar. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, «ozod shaxs» (2-17), «erkin shaxsni» (4-21) ko'z oldilariga keltiradilar.

Ma'ruza matni «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyil-lar» fanidan saboq olayotgan talabalar, muallimlar, tashkilotchilar va targ'ibotchilarga mo'ljallangan.

Insonning fikrlash tarziga g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir o'tka-zishga ahdu-paymon qilgan, boshqacha aytganda, milliy istiqlol g'oya-larini fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongi va faoliyatiga singdirish jarayonining har bir tashkilotchisi, har bir targ'ibotchisi "inson" va "shaxs" tushunchalarini aniq tasavvur qilishlari lozim.

Inson va shaxs tushunchalarining ma'nosi, mazmuni, ular o'zida mujassamlashtirgan real voqelik haqida fikr yuritishdan avval, "odam" tushunchasining mohiyatini bilib olish darkor. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, "odam" deb ataluvchi yagona biologik turga mansub bo'lgan tirik maxluqot (gumanoid) bundan 50 ming yil ilgari vu-judga kelgan. Ana o'sha odam deb ataluvchi maxluqot inson darajasi-ga ko'tarilishguncha uzoq davom etgan antroposotsiogenez jarayonini bosib o'tgan. Xuddi shuning uchun ham inson uzoq davom etgan antro-posotsiogenez jarayonining mahsulidir.

O'sha "odam" deb nomlanuvchi tirik maxluqotni (gumanoidni) insonga aylanishi (antropogenez) va uni ma'lum bir jamiyatga (sotsiogenez) birlashish, uyushish jarayoni taxminan 3-3,5 ming yil davom etgan. Hozirgi zamon insonshunos olimlarning fikriga ko'ra, inson deb nomlanuvchi bioijtimoiy mavjudotning dastlabki aj-dodlari Pomir tog'lari, Hindiqush atroflarida vujudga kelgan.

Yevropalik tadqiqotchilar A.P. Pirmak, T.A. Popovich, shuning-dek Angliyadagi Oksford universitetining professori M.Myuller-larning yozishicha, hozirgi Yevropa, Osiyo mamlakatlarida yashayotgan xalqlar, qadim-qadimda Pomir, Hindiqush tog'lari atrofida yasha-yotgan oriy qabilalaridan tarqalgan. Xususan, bundan 3-5 ming yil avval, o'sha oriy qabilalarining bir qismi Eronga ko'chib ketishgan.

Hozirgi zamon insonshunos olimlari insonni yagona biologik turga mansub bo'lgan xususiyatlari, xossalarini tiniqroq tasavvur qilish uchun "odam" degan tushunchadan foydalanadilar. Boshqacha aytganda, "odam" insonni yagona biologik turga mansubligini ifodalovchi tushunchadir. Modomiki shunday ekan, inson qanday tushuncha? Ushbu tushuncha inson borlig'ini qanday xususiyatlarini o'zida ifodalaydi? Inson borlig'ining asosiy strukturaviy komponent-lari nimalardan iborat?

Inson uch komponent: tana-ruhiyat-ma'naviyatning yig'indisi-dir. Boshqacha aytganda, inson biologik, psixologik, ma'naviy ho-latlarni yig'indisidir. Insonni biologik holati deganda uning ta-nasida sodir bo'ladigan morfofiziologik, genetik, nerv-miyasidagi elektroximik o'zgarishlar tushuniladi. Insonning ruhiy yoki psixologik holati deyilganda uning his-tuyg'ulari, kayfiyati, xarakteri, temperamenti tushuniladi. Insonning ma'naviy holati deganda uning aqliy, axloqiy, huquqiy, siyosiy yetukligini, madaniy saviyasi, mehnatga bo'lgan munosabatini ifodalovchi fazilatlarini, kasb-kor malakalari, qobiliyatlarini tushuniladi.

Insondagi ruhiy-psixologik holatlar bilan ma'naviyati bir-lashib insonning ijtimoiy qiyofasini vujudga keltiradi. Bunday aralashuv inson biosotsial mavjudot ekanligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, inson ham biologik, ham sotsial holatlarni yig'indisidan iborat murakkab uyushmadir. Bunday murakkab uyushmani shakllantirishda tabiiy-ijtimoiy muhit, nasl-nasab muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bir ibora bilan aytganda inson jamiyatdagi ob'yektiv shart-sharoitlar

va subyektiv omillar ta'sirida shaxs dara-jasiga ko'tariladi. Shaxs deganda, insonda mavjud bo'lgan ja'miki ijtimoiy fazilatlar, individual xislatlar, xosiyatlar, karomatlar, malakalar, kayfiyatlar, qobiliyatlarni yig'indisi tushuniladi.

Shaxs – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning individual ifodasi, ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar kombina-siyasi, inson ijtimoiyligining shaklidir. Shaxs – inson ijtimoiy mohiyatining konkret ifodasidir. U insondagi insoniylik me'yorini xarakterlaydi. Shaxs – inson va jamiyat kesishgan chorrahakim, uning turli faoliyatlaridan insoniyat tarixi tarkib topadi. Shaxs tushunchasi, bir tomondan, inson ijtimoiy, ma'naviy, madaniy ri-vojining darajasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, uning ix-tiyorini, o'ziga xosligini anglatadi.

Ba'zi hollarda "shaxs" va "individuallik" tushunchalarini sinonim so'zlar sifatida ishlatishadi. Aslida bunday emas. Birinchi-dan, "individuallik" da insonning o'ziga xos tomonlari jamlansa, "shaxs" tushunchasida undagi ongillik va ijtimoiylikni ifodalaydi. O'z faoliyati, uning maqsadlarini chuqur anglagan va unga intilgan individgina shaxs bo'la oladi. Ikkinchidan, "individuallikda" asosiy e'tibor inson xislatlarining yaxlitligiga qaratilsa, "shaxs" da uning mustaqilligi diqqat markazida bo'ladi. Shuning uchun bu ikki tushunchaning hatto o'lchovlari ham turlicha: individuallikning o'lchovi xislat bo'lsa, shaxsning o'lchovi fazilatdir.

Shaxs – tashqi dunyoning subyektiv in'ikosi, o'z faoliyati va ijtimoiy ahvolining hosilasidir. Uning faoliyati doirasiga meh-nat, muomala, sport, kishilar bilan turli aloqalar, bir so'z bilan aytganda, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning turli sohalari kiradi. Shaxs ongi va faoliyatini jamiyatdan ajratib tushuntirib bo'lmaydi. Har qanday shaxsning hatti-harakatlari, faoliyatini qaysi ijtimoiy guruhga mansubligiga qarab anglash, tadqiq etish mumkin. Shu boisdan shaxs ijtimoiy strukturasi haqida gap borar ekan, uning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligini, qanday ijtimoiy vazifani bajarayotganini e'tibordan chetga qoldirmasligimiz lozim. Buning uchun shaxsning qaysi maqsadga intilayotganini o'rga-nish, aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Xullas, shaxs ijtimoiy mohiyatini o'rganish uchun shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning uch asosiy komponenti - shaxsning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, u bajarayotgan ijtimoiy vazifalar yig'indisi, uning ehtiyojlari, manfaatlari, bilim-lari, qarashlari va e'tiqodi - tahlil etilmog'i lozim.

Shaxs ijtimoiy mohiyatini uning o'z-o'zini anglashi, qadri-yatlari sistemasi, ijtimoiy munosabatlari, mustaqilligi, mas'u-liyati tashkil etadi. Shuningdek, insonning shaxs sifatida shakl-langanligining muhim o'lchovi ijtimoiy fazilatlaridir. Ijtimoiy fazilatlar – shaxsning ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitda, kishilar bilan aloqalaridan kelib chiqadigan alomatlari, belgilari yig'indisidir.

Biroq shaxs – o'ziga xos reallik bo'lgani tufayli uni faqat ijtimoiy fazilatlar yig'indisidan iborat, deb hisoblash sodda-dillik bo'lur edi. Ruhiy holatlar ham, individning ijtimoiy fazilatlar ham, axloqiy-aqliy yetukligi ham shaxs ijtimoiy mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Shaxsning o'ziga xos xususiyati, eng avvalo, uning narsa va predmetlardan tub sifatiy farqida namoyon bo'ladi. Narsa va predmetlardagi o'zgarishlar cheklangan, chegaralan-gandir. Shaxs esa ma'naviy jihatdan muntazam yangilanib va ri-vojlantirilib boradi. Ushbu jarayonning chek-

chegarasi yo'qdir.

Shaxs xulq-atvori, hatti-harakatining holatini belgilashda uning mustaqilligi katta rol o'ynaydi. Shaxs mustaqilligi inson-ning o'ziga o'zi xo'jayinligini, uning qat'iy amal qiladigan ma'lum prinsiplari, normalari mavjudligidan dalolat beradi. Tabiiyki, gap insonning o'zi uchun alohida qonunlar, axloqiy normalar kashf etishi haqida borayotgani yo'q. Bu yerda gap ijtimoiy prinsiplar va normalarni inson shaxsiy hohish-irodasidan ustun qo'yishini ta'kidlanmoqda, xolos. Shaxs amal qiladigan ijtimoiy prinsiplar, axloqiy normalar ba'zan hokimiyat ta'sis etgan qonunlarga zid bo'lib qolishi mumkin. Biroq xususiy manfaatlar bilan jamiyat manfaatlari to'qnashuvidan-da ustunroq turgan bunday vaziyatda ham ijtimoiy prinsiplar, normalar o'z kuchida qolaveradi.

Hatto eng dahshatli ijtimoiy-siyosiy sharoitda ham shaxs o'z mustaqilligini saqlash, ya'ni o'zi amal qilayotgan ijtimoiy prinsiplarga, axloqiy normalarga sodiq qolish (agar u haqiqatan ham prinsip bo'lsa) imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshiga ne-ne kulfatlar tushganiga qaramasdan o'zi tanlagan yo'ldan voz kechmagan, o'zi amal qilgan prinsiplarga sodiq qolgan bobokalonlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Boborahim Mashrablarning uqubatlariga to'la hayot yo'li fikrimizning dalilidir.

Fashistlar Germaniyasining konsentratsion lagerlarida in-sondan o'zligini, "shaxsini" amputatsiya qilishga intilganlari bar-chamizga ma'lum. Jamiyatda barcha imkoniyatlar o'rgatilgan hayvonga o'xshash "insonsimonlarni" yaratishga (chunki bundaylarni ommaviy ravishda boshqarish qulay bo'ladi) qaratilgan bir paytda ham shaxs o'z ijtimoiy prinsiplariga sodiq qolishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham shaxs faoliyatining asosi bo'lgan ijtimoiy prinsiplar hokimiyat ta'sis etgan qonunlarga zid kelishi mumkin, lekin axloq normalariga zid bo'lmasligi darkor. Chunki aynan ana shunday prinsiplariga keyinchalik qayta ko'rib chiqilmaydi, o'zgartirilmaydi.

Jamiyat shaxsning jamiyat, davlat oldidagi axloqiy, huquqiy majburiyatlari va mas'uliyatlarini ham belgilab beradi. Biroq shuni ham ta'kidlab o'tishimiz zarurki, shaxsning jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyat va majburiyatlari bilan bir qatorda jamiyat va davlatning shaxs oldidagi majburiyatlari ham mavjud. Ulardan eng asosiylari – qonunlar va qonunchilik aktlari yordamiga huquqiy tartibotni muhofaza qilish, shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya etishdan iborat. Jamiyat va davlatning shaxs oldidagi shu kabi mas'uliyat va majburiyatlari bajarilganidagina shaxs ham o'zining davlat va jamiyat oldidagi burchlarini bajarib boradi. Sotsiologik tadqiqot natijalari ushbu ikki holat orasidagi o'zaro aloqadorlik borligini yaqqol namoyon qilmoqda. Xususan, biz so'rov o'tkargan respondentlarning 29,47 foizi jamiyat va davlat o'zining shaxs oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarib borayotganini aytgan bo'lsalar, ularning 56,95 foizi qisman bajarayotganini qayd qildilar. Ushbu faktlarni yuqoridagi raqamlar bilan taqqoslasak, fikrimizning naqadar to'g'ri ekanligini amin bo'lamiz.

Jamiyatda o'z qadrini topa olmagan, qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniga ega bo'lmagan kishi o'z burchlariga ham jiddiy mu-nosabatda bo'lmaydi. Masalan, so'ralganlarning 10,11 foizi jamiyat va davlat o'zining shaxs oldidagi majburiyatlarini mutlaqo bajar-mayotganini e'tirof etdilar. Shunday fikrda

bo'lganlarning aksariyat qismi (respondentlarning 6,42 foizi) o'zlarining jamiyat va davlat oldidagi burchlarini ham bajarmaydilar. Buning sababi su-rishtirilganida o'z burchlarini mutlaqo bajarmayotganlarini ma'lum qilgan respondentlarning 57,37 foizi "Chunki yaxshi odamlar-ning yaxshi fazilatlarini jamiyatda qadrlanayotgani yo'q" deb, 18,03 foizi "Jamiyat menga hech narsa bergani yo'q, men ham jamiyatga hech narsa berayotganim yo'q" deb, 13,11 foizi "Chunki men jamiyatga ko'p narsa berdim, lekin jamiyat menga hech narsa berayotgani yo'q" deb javob qildilar. Jamiyat hayotining insonparvarlashtirilishi inson qadrini oshiradi, shaxs ham o'z burchlariga munosabatini o'zgar-tira boradi.

Biroq insonparvar, demokratik jamiyat va huquqiy davlatning barpo etilishi shaxsni shakllanishiga doir barcha muammolarni uzil-kesil hal qiladi, deb bo'lmaydi, albatta. Shuni ham unutmas-lik kerakki, ijtimoiy taraqqiyot shaxsga nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'sir ham o'tkazadi. Masalan, jamiyatning boyib borishi shaxs ijtimoiy qiyofasining ijobiy tomonga o'zgarishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Biroq jamiyatda boylar va kambag'allar orasidagi tafovutning keskinlashib borishi shaxs ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, 1998 yilda g'arbiy Yevropa mamlakatlariida eng boy 10 foiz fuqarolarning daromadi eng nochor 10 foiz fuqarolar daromadidan 8-12 marta ortiq bo'ldi. AqShda bu ko'rsatkich 16-18 ga, Rossiyada 13,4 ga teng bo'ldi.(17-44) O'zbekistonda eng boy va eng kambagal xonadonlar o'rtasidagi tafovut 1995 yilda 6 barobarni tashkil qilgan bo'lsa (9-1), 1998 yilga kelib 7,5 barobarga yetdi.(17-44) Bunday tafovutning keskinlashib borishi kishilar orasida molparastlik, poraxo'rlik, o'g'rilik kabi illatlarning ildiz otishiga olib keladi.

Respublikamizning yirik shaharlarida (butun dunyoda bo'lgani kabi) asosan moddiy manfaatlarni qondirishga bo'lgan ehtiyojlarining kuchayib borayotgani, pul ilinjida yashash, "pul yakkahokim-ligi", begonalashuv kabi ijtimoiy illatlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani hech kimga sir emas. Bugungi kunda fuqarolarimizning 9,68 foizigina ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni birinchi o'ringa qo'yadilar.

Bunday illatlarning vujudga kela boshlagan paytidayoq sezgan ayrim faylasuflar XIX asrda (aytaylik, F. Nitsshe) "Xudo o'ldi" (ya'ni Xudoga ishonch so'ndi), deb ta'kidlagan bo'lsalar, XX asrda ularning bir qismi (masalan, R. Xiggins, E. Fromm) "Shaxs o'ldi" (ya'ni shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit qolmadi), deb uqdirdilar. Xulosa shuki, har bir davr yangi, o'ziga xos muammolarni vujudga keltirib turadiki, bobolarimiz orzu qilgan gumanistik tipdagi barkamol inson shaxsni shakllantirish uchun ularni o'z vaqtida bartaraf etish zarur bo'ladi.

Barkamol insonni shakllantirish nihoyatda mushkul. Buning uchun, bir tomondan, inson imkoniyatlarining barchasini ishga solish kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi turli institutlarning tarbiyaviy-mafkuraviy imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanish lozim. Shuningdek, barkamol inson shaxsini shakllantirish insonning butun hayoti davomida cho'ziladigan jarayondir. Ushbu jarayon insonning barcha biologik, ijtimoiy hamda ruhiy jihatlari-rini safarbar etishni talab qiladi.

Inson nihoyatda murakkab biosotsial mavjudot bo'lgani uchun uning rivojlanishi

ham nihoyatda ko'p variantli bo'lishi tabiiydir. Chunonchi, inson shaxsi strukturasi ayrim komponent rivojlangan yoki rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Aqlan rivojlangan bo'lishiga qaramasdan his-tuyg'ulari yaxshi taraqqiy etmagan yoki his-tuyg'ulari yuksak darajada rivojlangan bo'lsada, aqli "o'tmas", mantiqan fikrlashga no'noq kishilarni ko'plab uchratamiz. Hatto ba'zi fazilatlar hayratlanarli darajada rivojlangan bo'lishiga qaramasdan boshqa xislat yoki fazilatlar endigina shakllanayotgan kishilar ham uchrab turadi. Bularning barchasi barkamol inson shaxsini shakllantirish jarayonni naqadar murakkab jarayon ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun barkamol inson shaxsining shakllanishini ta'minlash barcha zamonlarda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.

§2. Gumanistik tipdagi shaxs va uning tarkibi

Bobolarimiz orzu qilgan barkamol inson shaxsi, eng avvalo, gumanistik tipga mansub shaxsdir. Boshqacha aytganda, barkamol inson deganda, gumanistik tipdagi shaxs tushuniladi. g'oyaviy-mafku-raviy jarayon tashkilotchilari buni hech qachon unutmasliklari zarur.

Gumanistik tipdagi shaxsning boshqa tipdagi shaxslardan aso-siy farqi shundaki, uning barcha fazilatlar umuminsoniy e'ti-qod, insonni ulug'lash kayfiyati bilan sug'orilgandir. Uning o'ziga xos xususiyatlarini oliyjanob insonparvarlik g'oyalarga sadoqat, ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiqlik, ijtimoiy-siyosiy faollik tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, gumanistik tipdagi shaxsning mohiyati gumanizm, ya'ni insonparvarlik g'oyalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi bilan xarakterlanadi.

Insonni ulug'lash, uning huquq va erkinliklari, ehtiyoj va manfaatlarini hurmat qilish ruhida shakllangan, umuminsoniy e'tiqodga sodiq shaxs tipinigina gumanistik tipdagi shaxs deymiz. Uning tarkibi quyidagi komponentlardan tarkib topadi: aqliy zuk-kolik, axloqiy poklik, huquqiy kamolot, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy saviya, professional iftixor, siyosiy yetuklik, milliy va umuminsoniy g'urur.

Gumanistik tipdagi shaxsning tarkibida aqliy zukkolik alo-hida ahamiyat kasb etadi. Aqliy zukkolik – shaxsning tabiat va ja-miyatda sodir bo'layotgan turli voqea va hodisalarni kuzatish, uning mohiyatini ilg'ab olish, sabablarini tushunish, oqibatlarini oldin-dan ko'ra bilish, bundan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatining, shu-ningdek fahm-farosati, zehni, ziyrakligi kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Uning asosiy komponentlarini bilim, fikr yuritish qobiliyati, aql mustaqilligi, ijodkorlik tashkil etadi. Ushbu komponentlarning barchasi yuksak darajasi shakllan-ganidagina aqliy zukkolikni vujudga keltiradi.

Voqea va hodisalarning mohiyatini bilish, ulardagi sabab-oqi-bat dialektikasini aniqlash, rivojlanish tendensiyalari haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, eng avvalo, ma'lum bilimlar hajmiga ega bo'lmoq zarur. Biroq bilimlar aqliy zukkolikning muhim ele-menti bo'lsada, aqlning rivojlanganligidan dalolat bermaydi. Shaxs fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lganidagina bilimlar sama-rali qo'llanila boshlaydi. Fikr yuritish qobiliyati esa bilish naza-riyasining analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, argument keltirish kabi usullaridan mahorat bilan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Aqliy zukkolikni asosini mustaqil fikrlash tashkil etadi. Mustaqil fikrlash aqliy kamolot poydevoridir. U voqealarni tur-li nuqtai nazardan o'rganish, faktlarga nisbatan halol munosabatda bo'lish, jarayonlar mohiyatini ilg'ab olish imkonini beradi. Aqlan zukko shaxs nafaqat voqealar mohiyatini har tomonlama o'rganishga, balki ulardan yangi bilimlar olishga intiladi. Bu esa aqlning ijodiy yo'nalganligidan dalolat beradi.

Aqliy zukkolik darajasini ko'rsatuvchi eng muhim mezon – intellektual faollikdir. Intellektual faollik shaxs ijtimoiy faoliyatining muhim shakli bo'lib, inson faolligi darajasini ifodalaydi. Uning sharofati bilan shaxs yuz berayotgan voqea va jarayonlarning mohiyatini o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, borliqning turli shakllari, ular orasidagi o'zaro aloqadorlikni bilib boradi.

Axloqiy poklik ham gumanistik tipdagi shaxs strukturasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Shaxs ijtimoiy hayot mahsuli ekan, uning axloqiy fazilatlarini jamiyatdagi shart-sharoitlar shakllantiradi. Mazkur shart-sharoitlar qanchalik adolatli bo'lsa, shaxs axloqi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Halollik, kamtarlik, so-diqlik, mehribonlik kabi fazilatlar axloqan yetuk shaxsning mohiyatini tashkil etadi.

Halollik – axloqiy poklining negizi bo'lib, shaxsning pokligi, vijdonliligi, to'g'riso'zligi darajasini bildiradi. Ushbu komponent eng asosiy axloqiy fazilatni ifodalasada, uni shakllantirish boshqa fazilatlariga ko'ra murakkabroqdir. Halollik – jamiyatda axloqiy prinsiplarni, normalarni taraqqiy etganligi odamlar turmush tarzidan munosib o'rin egallaganligining dara-jasiga bog'liq. Jamiyat imkon bergan darajadagina halol bo'lish mumkin, mutlaq halol bo'lishning, nazarimizda, iloji yo'q. Faqat insonparvar, demokratik jamiyatdagina yuksak darajada halol bo'lish (lekin mutlaq emas) imkonini beradigan ijtimoiy shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Axloqiy poklikning yana bir komponenti kamtarlikdir. Kamtarlik – o'zi erishgan muvaffaqiyatlarni boshqalarnikidan ustun qo'ymaslik, ularga haddan ziyod e'tiborni qaratmaslikdan iborat. Biroq, chuqurroq o'ylab qarasa, gap erishilgan yutuqlar haqida ga-pirmaslik xususida emas, ularni ko'z-ko'z qilmaslik, o'zini "buyuk-lashtirib" yubormaslik to'g'risida bormoqda. O'zini ongli ravishda barcha ishlardan chetga olib qochgan, o'z pozitsiyasini ataylab bildir-magan kishini kamtar deb bo'lmaydi, bundaylarni prinsipsiz deyish maqsadga muvofiqdir. Gumanistik tipdagi shaxs biz tilga olgan illatlardan xoli, tom ma'noda kamtarlik fazilatiga ega bo'lmog'i lozim.

Axloqiy poklikning tarkibiy elementlaridan biri sodiqlikdir. Sodiqlik – shaxs amal qiladigan axloqiy prinsiplarning, turli kishilar va voqealarga munosabatning barqarorligini anglatadi. Bunday xususiyat yuksak darajada rivojlangan shaxslar hatto o'lim xavfi tug'ilganida ham o'z prinsiplari, qarashlariga qarshi bormaydilar, hamfikrlaridan voz kechmaydilar, qarama-qarshi pozitsiyaga o'tib ketmaydilar. Shu boisdan sodiqlik shaxsda axloqiy prinsiplarining rivojlanganligi, mustahkamligi darajasini ham ko'rsatadi.

Mehribonlik esa o'zgalarga yaxshilik qilishdan iborat. Shu sa-babli u halollik va kamtarlik bilan bog'liq. Chunki vijdonan pok, o'zini ulug'lash kasalidan xoli, o'zi amal qilayotgan prinsiplarga sodiq kishigina boshqalarga yaxshilik qilishga,

mehribon bo'lishga qodir. Biroq ortidan minnatni ergashtirgan yaxshilikni mehribonlik deb bo'lmaydi.

Biz o'rganayotgan shaxs tipining tarkibida huquqiy kamolot ham muhim o'rin egallaydi. O'z huquqiy maqomini chuqur anglab yetgan, jamiyatda mavjud huquqiy bilimlarni o'zlashtirgan, inson haq-hu-quqlariga axloq nuqtai-nazaridan baho bera oladigan, yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lgan shaxsni huquqiy yetuk shaxs deymiz. Huquqiy kamolot o'z huquqiy maqomini bilib olishdan boshlanadi. Shaxs huquqiy maqomi – uning jamiyatda egallab turgan o'rnini qonunlar yordamida ifodalashdan iborat. Shuningdek, fuqarolarga o'z ijodiy kuchlari, qobiliyatlari va iste'dodlarini erkin namoyon qilish, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyat va davlat hayotiga faol ishtirok etish imkonini beruvchi huquqiy normalar yig'indisi ham shaxs huquqiy maqomini belgilaydi. Ko'rinib turibdiki, jamiyatdagi barcha huquqiy normalar garmonik gumanistik ruhda tarbiyalangan shaxsni vujudga keltirishga xizmat qilmog'i darkor.

Shaxs huquqiy maqomining asosiy mazmunini insonning haq- huquqlari va jamiyat, davlat oldidagi majburiyatlari tashkil etadi. Shaxsning jamiyatdagi o'rnini uning huquqlari orqali ifodalanadi. Shaxs huquqlari – shaxsning jamiyatdagi moddiy va ma'naviy qad-riyatlardan, erkinliklardan foydalanishi uchun zarur bo'lgan imko-niyatlardirki, ular qonunlarda o'z ifodasini topadi. Shaxs o'z huquqlarinigina emas, jamiyat va davlat oldidagi majburiyatlarini ham yaxshi bilmog'i darkor. Faqat huquqlarini bilish jamiyatda shaxsning tutgan o'rnini haqidagi noto'g'ri tasavvurlarning vujudga kelishiga olib keladi. Faqat majburiyatlarni bilish esa shaxsning fuqaro sifatidagi faolligini so'ndiradi. Huquq va majburiyatlar-ning uyg'unligini ta'minlash jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolarni bartaraf etish, shuning bilan shaxsning rivojlanishi uchun zamin yaratish imkonini beradi.

Huquqiy kamolotning muhim komponenti huquqiy bilimlardir. Bunda nafaqat shaxsning o'z huquqlari to'g'risidagi bilimlari, balki umuman huquqning mohiyati, davlatning kelib chiqishi va ijti-moiy taraqqiyotdagi o'rniga doir bilimlari haqida gap bormoqda. Shaxs o'z huquqlarining mohiyatini bilmas ekan, davlatning jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan, fuqarolar haq-huquqlarini kafo-latlaydigan qudratli institut ekanligini tushunib yetmas ekan, hu-quqiy kamolat haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Biroq huquqiy kamolot tarkibi huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi bilan chek-lanib qolmaydi. Haqiqatan barkamol shaxs nafaqat jamiyatda mav-jud huquq va majburiyatlarni bilishi, balki ularni baholay olishi ham zarur. Shu boisdan huquqiy baholash huquqiy kamolotning mu-him komponentlari sarasiga kiradi.

Shaxs o'zining huquq haqidagi bilimlarini faoliyatida qo'llay boshlaganidagina uning huquqiy madaniyati shakllana boshlaydi. Hu-quqiy madaniyatning shakllanishi jarayoni shaxsning ijtimoiy-hu-quqiy faoliyatga ishtirokini talab etadi. Chunki ana shu amaliy fa-oliyat davomida, huquqiy normalarga rioya qilish, ularni bajarish va qo'llash jarayonida shaxs o'zining huquqiy kompetentligini va ongliligini shakllantira oladi. Fuqaroviy jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda mazkur masala respublikamizda g'oyatda dolzarb muammolar turkumiga kiradi. Aholining huquqiy madaniyati niho-yatda past darajada: o'z fuqarolik huquqlarini

biladigan kishilar soni talaygina (bunday respondentlar soni 1999 yilda 76,5 foizni, 2000 yilda 83,6 foizni, 2001 yilda 83,1 foizni, 2002 yilda 85,4 foizni tashkil etdi),(26-13) biroq ularning aksariyat qismi inson haq-huquqlaridan qanday foydalanish to'g'risida hatto tasavvurga ham ega emaslar. Ayni paytda o'z huquqlari xususida tasavvurga ega bo'lmagan fuqarolar soni ham ko'pligicha qolmoqda. Shuning uchun ham Prezident I. Karimov respublika Oliy Majlisining oltinchi ses-siyasida huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor berish zarurligini uqdirib o'tdi.(6,118-120)

Gumanistik tipdagi shaxs tarkibida mehnatga halol munosabat alohida o'rin tutadi, chunki mehnat – inson faoliyatining asosiy sohasi, hayotining mohiyatidir. Mehnat jarayoni shaxsning rivoj-lanishi uchun zamin tayyorlaydi. Mehnat qaysi sohada kechmasin, qan-day mulkchilik shakliga asoslangan korxonada amalga oshirilmasin, shaxs qobiliyatlari, irodasi va xarakterining shakllanishiga olib keladi. Insonparvar, demokratik jamiyat sharoitida esa mehnat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

Mehnatga munosabat mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharo-itlar mahsuli bo'lib, shaxs faoliyatini rag'batlantiruvchi omillar orasidagi o'zaro aloqadorlik natijasidir. Shaxs amaliy faoliyati-ni rag'batlantiruvchi barcha omillar jadallik bilan rivojlansa, shaxsning o'zi har tomonlama tarbiya ko'rgan bo'lsa, mehnatga halol munosabat vujudga keladi. Uning eng muhim elementlarini mehnat-sevarlik, kompetentlilik, intizomlilik, tashabbuskorlik va hoka-zolar tashkil etadilar.

Mehnatga halol munosabat deganda faqat shaxsning o'z majbu-riyatlarini aniq bajarishi tushunilmaydi. Bunda eng avvalo axlo-qiy fazilat bo'lmish halollikning mehnat jarayonida namoyon bo'-lishi nazarda tutilmoqda. Demak, mehnatga halol munosabat, eng av-valo, mehnatsevarlikni o'z ichiga oladi. Mehnatsevarlik esa shaxs-ning o'zini namoyon qilishga intilishi darajasini ko'rsatuvchi xusu-siyatdir. Kishilarimizning qariyb 50 foizida ushbu xususiyat yuksak darajada rivojlangan.

Mehnatga halol munosabatni shaxs intizomiga qarab ham aniqlash mumkin. Korxonada, tashkilot yoki muassasada intizom qancha qat'iy bo'lsa, o'sha yerda mehnatga halol munosabat mavjud bo'ladi. Afsuski, o'nlab korxonada va tashkilotlarda mehnat intizomi tez-tez buzilib turadi. Ko'p hollarda bunga spirtli ichimliklar sabab bo'-ladi. Professor M. Xolmatovning ta'kidlashicha, mehnat intizo-mini buzuvchilarning 45 foizini surunkali ravishda spirtli ichim-liklar iste'mol qiluvchi kishilar tashkil etadi.(18-39)

Malakalilik ham mehnatga halol munosabatning asosiy kompo-nentlaridan biridir. Shaxs ma'lum sohada, ayniqsa o'z faoliyatida vakolatli, malakali bo'lmagan ekan, korxonada o'z oldiga qo'ygan vazifa-larni bajara olmaydi, shaxs ijtimoiy qiyofasining shakllanishi jarayoniga ham jiddiy putur yetadi.

Malaka, ya'ni o'z faoliyatini chuqur biladigan shaxsgina tashab-buskor bo'ladi. Iqtisodiyotda bozor munosabatlarning joriy eta boshlanishi tashabbuskorlikni kuchaytirish uchun katta turtki bo'l-di. Bunday sharoitda shaxs ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskor-ligini namoyon etish uchun cheklanmagan imkoniyatlar yuzaga keldi. Tashabbuskorlik - shaxs tadbirkorligini xarakterlovchi mezon ham-dir. Uni ijtimoiy faollikning shakllaridan biri deyish mumkin. Tashabbuskor shaxsgina o'z maqsadlarini aniq belgilaydi, unga elta-digan yo'llar,

vositalarni topa oladi, imkoniyatlardan to'liq foydalana biladi, sodir bo'layotgan jarayonlardan to'liq, to'g'ri xulosa chiqaradi.

Mehnatga halol munosabatning eng asosiy ko'rsatkichi mehnat faolligidir. Shaxsning mehnat faolligini quyidagilarga asosan aniqlash mumkin: a) o'z korxonasidagi faoliyati davomida erishgan yutuqlari (masalan, ma'muriyat yoki jamoa qo'ygan vazifalarni bajarishi, materiallar va ish vaqtini tejashi, ishlab chiqarish saraadorligi, mehnat intizomiga rioya qilishi va hokazo); b) faoliyati davomida ishlab chiqqan ratsionalizatorlik takliflari, ixtirolari, tashabbuslari; v) ishlab chiqarishni boshqarishga ishtiroki, o'z faoliyati sohalarini kengaytirib borishi.

Mehnatga halol munosabatning muhim alomatlaridan biri professional iftixordir. Chunki o'z kasbidan g'ururlangan shaxsgina mehnatga halol munosabatda bo'ladi. Lekin buning uchun eng avvalo biror bir kasbga ega bo'lmoq lozim. Sharqda azal-azaldan kasbga ega bo'lish zaruriyat hisoblangan. Rivoyatlarga qaraganda, Dovud alay-hissalom podsho bo'lib, bir kun ko'chadagi bir keksa onaxondan so'-rabdilar: "Dovud qanaqa odam? Yaxshimi yo yomon?" Kampir: "Dovud yaxshilikka yaxshi-yu, lekin u fuqarolar haqini yemoqda. Chunki uning kasbi yo'q", - deb javob bergan ekan.(8-34)

Sovet hokimiyati yillarida aynan ana shu azaliy an'anaga darz ketdi. Yoshlarning kasb egallashi bilan bog'liq muammolar qo'l uchida hal qilindi. Natijada to'qsoninchi yillarning boshlariga kelib kasbga ega bo'lmagan yoshlar soni oshib ketdi. Chunonchi, mustaqillik-ning ilk yillarida yoshlarning 60 foizidan ko'prog'i o'z mutaxassisligi va kasbiga ega bo'lmagan, 60-70 foizidan ortig'i kam malakali va malakasiz ishlarda mashg'ul bo'lgan.(7-10) Bunday sharoitda professional iftixorni shakllantirish nihoyatda qiyin kechishi ta-biiy.

Professional iftixor mehnatga ijodiy yondashuvda, kasbga muhabbatda, kasbiy mahoratda namoyon bo'ladi.

Mehnatga ijodiy yondashuv deganda ma'lum kasb standartlariga rioya etish bilan birga yuqori natijalarga olib keluvchi usullar va vositalarni izlash va qo'llash, ratsionalizatorlik va kashfiyotchilik faoliyati, mehnatning tashkil etilishini takomillashtirish borasi-dagi sa'y-harakatlar tushuniladi. Mehnatga ijodiy yondashuv aso-sini o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish tashkil etadi. Shaxs o'z mehnatining befoydaligini, natijasizligini ko'rsa, bu sohada tashabbuskorlik ko'rsatib o'tirmaydi. Aksincha, o'z mehnatining hech bo'lmasa kichik bir guruhga foyda keltirayotganini, uning ba'zi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilayotganini anglab yetgan shaxs o'z faoliyati samarasini oshirishga harakat qila boshlaydi.

Professional iftixorning muhim komponentlaridan yana biri kasbga muhabbatdir. Afsuski, bugungi kunda bu termini ko'pchilik balandparvoz so'z sifatida ishlatadi. Aslida o'z kasbini ulug'lash, hurmat qilish – shaxs uchun farzdir. Biroq har qanday kishi ham o'z kasbiga mehr qo'yavermaydi. Kasbini mukammal bilgan, uning jamiyat uchun ahamiyatini anglagan shaxsgina o'z kasbini ulug'lay oladi. Lekin bugungi kunda ko'pchilik o'z kasbiga uning ijtimoiy ahamiyatiga qarab emas, moddiy manfaat keltirishiga qarab baho beradi. Bunday soxta ulug'lashni kasbga muhabbat bilan qiyoslab bo'lmaydi. Nafaqat farovon kunlarda, balki

muammolarga to'la davrda ham o'z kasbiga sodiq qolgan shaxsdagina shunday xislat mavjud bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotlar yuqoridagi xulosalarimizni o'ziga xos tarzda isbotlab bermoqda. Zero, fuqarolarning 54,63 foizi o'z kasbini tanlashda uning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor bergan bo'lsa, 17,58 foizi qavm-qarindoshlarning maslahatiga qarab, 7,58 foizi boshqa sabablarga asoslanganlar. Respondentlarning 1,37 foizi kasb tanlashlari uchun mezon bo'lgan biror bir fikrni, hatto ayta olma-dilar. E'tiborlisi shundaki, aynan ijtimoiy ahamiyatiga qarab kasb tanlaganlarda o'z kasblariga muhabbat ham yuqori darajada: respondentlarning 46,42 foizi buni ko'rsatib o'tdilar. Kasb tanlashda boshqa mezonlarga asoslanganlarda esa kasbga muhabbat o'rta (43,26) yoki past (10,32) darajada ekanligi ma'lum bo'ldi.

Kasbiy mahorat ham professional iftixor tarkibidan o'rin olgan muhim komponentdir. Mahorat – shaxsning o'z sohasidagi usta-korligi darajasini ifodalovchi termindir. Odatda shaxsning professional mahorati rasmiy unvonlar, darajalar ("fan doktori", "xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", "xalq artisti" va hokazolar) yordamida qayd qilinadi. Biroq, nazarimizda, o'z mehnati bilan nafaqat hamkasblari, balki o'zga faoliyat turlarining vakillari orasida ham hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan kishilarnigina mohir deb atash mumkin. Shu sababdan ayrim mutaxassislar rasmiy unvonga ega bo'lmasalarda xalq mehriga munosib topiladilar, hamkasblari tomonidan tan olinadilar. Albatta, bundan rasmiy unvonga ega ki-shida kasbiy mahorat bo'lmaydi, degan fikr kelib chiqmaydi. Aksin-cha, kasbiy mahorati yuqori bo'lgan shaxs rasmiy unvon, darajadan bebahra qolishi ham mumkin. Hayotdan bunga ko'plab misollar kel-tirsa bo'ladi.

Kasbiy mahorat shaxs ijtimoiy qiyofasida ham, jamiyat hayoti-da ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning yetishmasligi nafaqat axlo-qiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, AqShda har 10 korxonaning 6 tasi 23 foiz holatda kasbiy mahoratning yetishmasligi tufayli omadsizlikka uchraydi.(25-21)

Gumanistik tipdagi shaxsni xarakterlovchi muhim fazilat-lardan yana biri madaniy saviyadir. Madaniy saviya inson barka-molligini ifodalovchi muhim xarakteristika bo'lib, uning sivilizatsiyalashganligi darajasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qanchalik o'zlashtirganligining holatini ifodalaydi. Insonning ongliligi, bilimdonligi uning madaniyatligidan dalolat beradi. Shuningdek, madaniy saviya insonning maishiy, xulq-atvor, hatti-harakat madaniyati, moddiy va ma'naviy boyliklardan oqilona foydalana bilish qobiliyati, belgilangan tartib-intizomlarga rioya qilish, kiyinishi, ovqatlanishi, bo'sh vaqtdan foydalanish malakalarini o'zida qamrab oladi. Uning eng muhim ko'rsatkichi intellektual faollikdir.

Albatta, biz tilga olgan komponentlar shaxs tarkibida alo-hida-alohida tarzda emas, kompleks holda mavjud va ular orasida ma'lum chegara o'rnatib bo'lmaydi. Biz gumanistik tipdagi shaxs tar-kibi xususida aniq tasavvurga ega bo'lish uchungina bilish nazariyasi usullari va uslublariga asoslanib, ularni alohida tarzda o'rganib chiqdik.

Yuqorida tilga olingan ijtimoiy fazilatlar yuksak darajada shakllanganidagina shaxs faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'ladi. Faol hayotiy pozitsiya – ijtimoiy,

fuqaroviy burch va axloqiy mas'uliyat yig'indisidir. Mazkur tushuncha uning ijtimoiy va shaxsiy man-faatlarini qondirish, ijtimoiy va shaxsiy turmush sharoitlarini insonparvarlik ideallarga muvofiq takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlarini ham anglatadi. Shaxs ijtimoiy vazifalarni, jamiyat talablarini tushunib olib, ularni o'z e'tiqodiga, faoliya-ting normalariga aylantirganidagina faol ijtimoiy pozitsiya shakllana boshlaydi. Unga ega shaxs o'z mamlakati moddiy va ma'na-viy boyliklarini oshirishga, yurt farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shaxs faol hayotiy pozitsiyasining shakllanishi jarayoni turli darajalarda namoyon bo'ladi. Uning yuqori darajasi ijtimoiy tu-zum, turmush tarzi bilan bog'liq. Gumanistik tipdagi shaxsning ij-timoiy ahamiyatga ega fazilatlar ham asosan shu darajada shakl-lanadi. Mazkur jarayonning ikkinchi darajasi esa shaxsni bevosita o'rab turgan ijtimoiy muhitdan (mehnat jamoasi, jamoa tashkilot-lari, oila va shu kabilar) iborat. Nihoyat, uchinchi darajani shaxs-ning ma'naviy dunyosi – ehtiyojlari, manfaatlari va qadriyatlar sistemasi tashkil etadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gumanistik tipdagi shaxs umuminsoniy e'tiqodga ega, insonni ulug'lash ruhida tarbiyalangan shaxs bo'lib, nihoyatda murakkab tarkibga ega. Uning tarkibida aqliy zukkolik, axloqiy poklik, huquqiy kamolot, mehnatga halol muno-sabat, madaniy saviyaning alohida o'rni bor. Ushbu fazilatlar yuqori darajada shakllanganidagina shaxs faol hayotiy pozitsiyasi ega bo'-ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov I.A.Milliy istiqloq mafkurasi–xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir ("Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar).- T.:2000.
- 2.Karimov I.A.O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.:1999.
- 3.Karimov I.A.O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. ("Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga javoblar). Turkiston.1999.2 fevral.
- 4.Karimov I.A.Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni -millat qilishga xizmat etsin («Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblar). Barkamol avlod orzusi.- T.:1999.
- 5.Karimov I.A.qamolot yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. Xalq so'zi.2001. 28 yanvar.
- 6.Karimov I.A.Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. Tom 5.- T.:1997.
- 7.Bobomurodov E.Bozor va yoshlar. Fan va turmush.1996.№1.
- 8.Bulatov S. Dunyoning to'rt tomoni. Muloqot.1998. №4.
- 9.Valiyev A,K, Kahhorov M. Jamiyatimiz sinfiymi?Fan va turmush. 1997. №2.
- 10.Dyurkgeym E.O razdelenii obshestvennogo truda. Perevod s fransuzskogo P. Yushkevicha.- Odessa:1994.
- 11.Markuze G. Odnomerno'y chelovek.- M.:1994.
- 12.Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.:2000.
- 13.Milliy istiqloq g'oyasi:asosiy tushuncha va tamoyillar.- T.:2001.
- 14.TofflerE. Stolknoveniye s buduhim. Inostr. literatura.1972.

- 15.Fromm E. Begstvo ot svobodo‘.- M.:1990.
- 16.Fromm E. Zdorovoye obshestvo.Psixoanaliz i kultura.- M.:1995
- 17.Xolbekov A, Mulk egasi bo‘lish imkoniyati. Iqtisod va hisobot. 1998. №1.
- 18.Xolmatova M.Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish – sog‘lom avlodni tarbiyalash omili. Xalq ta‘limi.1998.№4
- 19.Choriyev A.CH. Sotsialno‘y oblik sovremennoy molodeji.- T.:1996.
- 20.Choriyev A.CH. Mustaqil fikrlovchi shaxs. Muloqot.1998. №3.
- 21.Choriyev A.CH. Madaniy saviya. Muloqot.1998.№6.
- 22.Choriyev A.CH. Ijtimoiy qiyofa. Muloqot.2001.№4.
- 23.Choriyev A.CH. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. P-kitob.-T.:2002.
- 24.Choriyev S.A. Barkamol inson- insonparvar jamiyat mahsuli. Muloqot.1999.№1.
- 25.g‘ofurov U. Kichik korxonalar samaradorligi qanday oshirilishi mumkin? O‘zbekiston iqt.axborotnomasi.1999.№1-2.

**MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI
VA INSONPARVAR, DEMOKRATIK JAMIYATINING
MA'NAVIY-AXLOQIY ZAMINLARI.**

MA'RUZANING REJASI

K i r i s h

1. Insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlash - milliy istiqlol talabi.
2. Kishilar sihat-salomatligini tiklash jamiyat ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlashning muhim sharti.
3. Fuqarolar intellektual aktivligini oshirish-yangi jamiyat ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlashning qudratli omili.
4. Xulosa.

KIRISH.

Mamlakatimizda bunyod etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyat qurilishini jadallashtirishning eng muhim sharti, uning ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlashdir. Yangi jamiyatning ma'naviy –axloqiy zaminlarini mustahkamlamasdan turib, uning boshqa jabhalari taraqqiyotini tezlashtirish amrimahol.

Xo'sh, bunday murakkab vazifani uddalamoq uchun nima qilmoq zarur? O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida bu borada qanday g'oyalar ilgari surilmoqda? Ushbu g'oyalarni fuqarolar ongi, shuuriga, kundalik turmush tarziga singdirish uchun nima qilmog'imiz zarur? Chunonchi, fuqarolar ayniqsa yoshlarda milliy o'zlikni anglash, unga yangi mazmun va ma'no ato etish, inson shon-sharafini ulug'lash, insoniy haq-huquqlar va demokratiya, tinchlik va osoyishtalikni hurmatlash tuyg'ulari shakllanish jarayonini tezlashtirish uchun nima qilmog'imiz lozim?

Milliy madaniyat va ma'naviyatni o'ziga xosligini tiklash, xususan, sihat-salomat bo'lishning an'anaviy-sharqona xususiyatlarini, kishilarimizning intellektual faolligi, bilimga, ilmga chanqoqlik, unga hurmat kabi fazilatlarni tiklash uchun mafkuraviy ta'sirning qanday shakllaridan foydalanish kerak? Ta'lim tizimida, bu borada qanday ishlar amalga oshirilayotir?

Sizning e'tiboringizga havola qilinayotgan ma'ruza matnida yuqorida tilga olingan muammolar yechimi haqida, baholi qudrat fikr-mulohaza yuritiladi.

ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlash-milliy istiqlol talabi.

Milliy istiqlol mafkurasining ta'sirchanligini oshirish-ning muhim shartlaridan biri, mamlakatimizda bunyod etilayotgan yangi - insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlashdir.

Insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy-axloqiy zaminlarini barpo etish va uni mustahkamlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida, ma'ruzalarida har tomonlama isbotlab berildi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonda qurilayotgan yangi jamiyatning ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlash, xususan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho madaniy-ma'naviy merosning o'ziga xosligini tiklash - davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda milliy - madaniy qadriyatlarni tiklash ishlariga "Xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon" [6-138] deb qaralmoqda. "Shu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'analariga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi davrni qabul qilmaslikka jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin". [6-138] ekanligini ham unutmashlik darkor.

Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, bunyod etilayotgan yangi jamiyatning ma'naviy-axloqiy zaminlari quyidagi to'rt asosiy negizga:

1. Odamlarning yuksak milliy qadr - qimmat, or-nomusi, shon - sharofini ulug'lash, milliy urf - odatlar, rasm - rusumlar, marosimlarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash yo'li bilan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ayniqsa inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlarga sadoqat, insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri bo'lgan - tinch, osoyishta yashash huquqini hurmatlash, e'zozlash tuyg'usini shakllantirishga; [8-65, 68, 77]

2. Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklash yo'li bilan xalqimizning ma'naviy madaniyatini mustahkamlash va rivojlantirishga; [8-65-73]

3. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish orqali, har bir fuqaroda mavjud bo'lgan professional malaka, intellektual qobiliyat, ma'naviy - madaniy imkoniyat-larni erkin namoyish qilishga; [8-65-70]

4. O'zbekistonning har bir fuqarosiga, o'z oilasi nasli -nasabi bilan faxrlanish, qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi - yulduz, ishonchli kompas vazifasini bajaruvchi eng oliyjanob tuyg'u-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishga [8-76, 65] tayanadi.

Mamlakatimizda qurilayotgan insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy - axloqiy zaminlarini mustahkamlamoq uchun, Prezident Islom Karimov aytganidek, eng avvalo, hamma narsadan ustun turuvchi buyuk bir muammoni yechish, jamiyatni ma'naviy inqirozdan qutqarish, odamlarni qullik va mutelik iskanjasidan ozod qilish lozim. [7-7] Boshqacha aytganimizda O'zbekistonda bunyod etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy - axloqiy zaminlarini mustahkamlamoq uchun odamlarning katta qismi ongi va faoliyatida xukmronlik qilayotgan, vabodan ham, Nagasaki, Chernobl fojeasidan ham, dahshatliroq ijtimoiy illat - ma'naviy qashshoqlikni bartaraf etish darkor.

Totalitar tuzum sharoitida ma'naviy qashshoqlik yildan-yilga quloch yozaverib, borgan sari xuruj qilib minglab, millionlab odamlarni, butun boshliq millat, elatlarni o'z komiga tortdi. Ma'naviyati xuvillab qolgan millionlab kishilar jamiyatning kichik muruvvatchalariga aylandilar. Ko'r-ko'rona topshiriqni bajaradigan, o'z xotirasidan, dinidan, madaniyatidan, urf-odatidan, rasm-rusumlaridan benasib etil-gan qulvachchalar, xo'jayinning sodiq yugurdaklari, boshliqqa hamisha qullik qilib sharpasi ko'rinishi bilan to'rt oyoqlab emaklab yuguradigan, ta'zimkor, g'irt nodon yuqoridan topshiriq olsa, hatto o'z padari buzrukvor yoki oq sut bergan onaizoriga ham xanjar bilan o'qtalishdan qaytmaydigan mustaqil fikrlash, ishlash va yashash madaniyatidan benasib bo'lgan odamsimon kishilar sulolasi vujudga keldi. Oqibatda yolg'on so'zlash, va'daning ustidan chiqmaslik, omonatga xiyonat qilish, nafsu xavoga berilib yo'ldan ozish turmushimizga borgan sari chuqurroq o'rtnashib oldi. Kichik xatoni kechirmaydigan, har qadamda o'ch olishga shoshilayotgan, birovning yaxshiligini yashirib, yomonligini oshirib ko'rsatadigan kishilar paydo bo'ldi. Xuddi shuning uchun ham, O'zbekistonda barpo etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlamoq uchun, jamiyat a'zolarining katta qismi ongi va faoliyatida xukmron bo'lib turgan, vabodan ham, Nagasaki, Xirosima, Chernobil dahshatlaridan xavfliroq illat - ma'naviy qashshoqlikdan qutilmoq darkor. Jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash lozim.

Yangi jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash borasidagi barcha tarbiyaviy - mafkuraviy tadbirlar, Prezident I.A. Karimov, ta'kidlaganidek, eng avvalo, mil-latimizni, xalqimizni yuksak ma'naviy – axloqiy qadriyatlarga va ularni har tomonlama rivojlantirishga asoslanmog'i darkor. Jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini yangilash, poklash yordamida, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, barkamol insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlashdir. [1-18-19]

Insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlamoq uchun fuqarolarimizda vatan tuyg'usini mustahkamlamoq darkor “Inson o'zligini anglagani, nasl - nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ulib o'sgan yurtga muhabbat shu qadar cheksiz bo'ladi” [1-22]. Shuningdek, yangi jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlashning eng muhim yo'llaridan yana biri ona tiliga muhabbat tuyg'usini rivojlantirishdir. Chunki xalqning millatning eng yaxshi insoniy fazilatlari, eng yaxshi insoniy xislatlari, millatning butun orzu - umidlari, manfaat va ehtiyojlari “ona tili, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarar” [1-23]. Xuddi shuning uchun ham ona tilining milliy josibasini tiklash, yangi jamiyat ma'naviy –axloqiy zaminlarini mustahkamlashning muhim shartidir.

Jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash-uning asosiy yacheykasi oiladan boshlanadi. Oilaning tarbiyaviy -mafkuraviy qudrati esa, avvalo, ayolni oiladagi o'rni bilan bevosita bog'liq. Xuddi shuning uchun ham jamiyatning ma'naviy –axloqiy zaminlarini mustahkamlash ayolning oiladagi

o'zni, jamiyatdagi mavqei bilan bog'liq. Ayolning oiladagi o'zni, jamiyatdagi mavqei qancha baland bo'lsa, oilaning jamiyatni ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlashdagi hissasi shuncha yuqori bo'ladi.

Jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash mahalla bilan ham bog'liq. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda yashovchi barcha millatlar elatlar taqdirida mahallalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Tarixning guvohlik berishicha mahallada yashovchi kishilar hayotning quvonchlari va tashvishlarini birga baham ko'rganlar. Do'stu-birodarlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarining shakllanishida mahalla muhiti ulkan ahamiyatga ega ekanligi hammaga ma'lum. “Shu ma'noda, mahallani o'zini -o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin” (1-24).

Insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy- axloqiy zaminlarini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash (biz bu haqda keyingi ma'ruzala-rimizdan birida batafsil to'xtalamiz), tarixiy xotirani, diniy qadriyatlarimizni tiklash bilan ham bevosita bog'liq. Chunki, diniy qadriyatlarning tiklanishi, xaqqoniy yoritilgan tarix jamiyatning ma'naviy – axloqiy asoslarini mustahkamlashda ishonchli manba vazifasini bajaradi. Diniy qadriyatlarni bilmay turib, tarixiy xotirani tiklamay turib, milliy istiqloq mafkurasining ijtimoiy - falsafiy asoslarini anglab bo'lmaydi. O'z navbatida ishonchli ilmiy - falsafiy asosga ega bo'lmasdan turib yangi jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash amrimahol. Xullas, insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash insonparvar, demokratik jamiyat talabidir.

§2. Kishilar sihat-salomatligini tiklash-

jamiyat ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlashning muhim sharti.

Insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlamoq, fuqarolar ongi va faoliyatini ma'naviy qashshoqlikdan qutqarmoq uchun, eng avvalo uni vujudga keltirgan sabablarni aniq bilishimiz lozim. Bizning fikrimizcha bugungi fuqarolarning katta qismining ma'naviy qashshoq bo'lib qolishining obyektiv sabablaridan biri, keyingi 30-40 yil ichida mamlakatimizda tug'ilib voyaga yetgan kishilar avlodining jismonan zaiflashib qolganligidir. Chunonchi, o'tgan asrning saksoninchi yillari oxirida Respublika xalq ta'limi vazirligida bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda umumiy ta'lim maktablarini tugatayotgan o'quvchilarning 58 foizi salomatligining zaifligi uchun erkin kasb tanlay olmagan edilar. O'quvchilarning 30 foizdan ortiqrog'i surunkali kasalliklar bilan ogrikanligi aniqlangan edi. qishloq maktablarida tahsil olgan 12-17 yoshdagi qiz bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkarilganda ularning 68 foizida jinsiy rivojlanish jarayoni buzilganligi qayd etilgan edi [9-52-53]. Akademik Izrail boshchiligidagi davlat komissiyasining ma'lumotlarida o'tgan asrning saksoninchi yillar oxirida O'zbekistonning ba'zi hududlarida aholining 80 foizi turli - tuman kasalliklarga chalinganligi alohida ta'kidlangan edi. Aholi salomatligini zaiflashib borishi, turgan gapki ularning jismoniy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda

Respublika sog'liqni saqlash vazirligida e'tirof etilganidek, o'tgan asrning to'qsoninchi yillar boshida balog'at yoshiga yetgan bolalarning o'rtacha og'irligi 46 kilogrammga tushib qoldi. Armiya safiga chaqirilayotgan yigitchalarning bo'y - basti ham yildan - yilga pasayib borayotganligi kuzatildi. Xuddi shuning uchun ham, O'zbekistonda barpo etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy - axloqiy zaminlarini mustahkamlamoq uchun, - Prezident Islom Karimov yozganidek, sihat - salomat bo'lishning an'anaviy qadrini qayta tiklash va oila qadri bilan sharaflil bir o'ringa qo'yish kerak [8-69]. Lekin, shuni unutmaslik zarurki, oila qadriyatlar va qon - qarindoshlik munosabatlarining qayta tiklanishi va o'z umrini yashab bo'layotgan oila - urug' munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy va kasb jihatidan erkin bo'lish imkoniyatini anglatishi lozim[6-147]. Xalqimizning sihat-salomatligini qayta tiklash uchun mamlakatimizda sog'lom avlod uchun kurash boshlandi. Shu nom bilan orden ta'sis etildi. Maxsus halqaro jamg'arma tuzildi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, bu bejiz - emas. Sog'lom avlod deganda faqat jismonan baquvvat kishilar emas balki ma'naviy boy avlod ham tushuniladi[7-9]. Shuningdek, sog'lom avlod deganda, nafaqat jismonan baquvvat, nafaqat ma'naviyati boy, balki ruhi, fikri sog'lom, iymon - e'tiqodi butun, bilimli, mard va jasur, vatanparvar avlod ham tushuniladi[2].

Sog'lom avlodni shakllantirishdek o'ta mas'uliyatli jarayonga bosh - qosh bo'layotgan har bir tashkilotchi, har bir targ'ibotchi respublika aholisining salomatligi zaiflashib borishi ekologik vaziyatning keskinlashib ketganligi bilan bevosita bog'liq ekanligini bilishi lozim.

O'zbekistonda ekologik vaziyatning keskinlashib ketganligining asosiy sabablaridan biri turli - tuman zaharli kimyoviy moddalarning qishloq xujaligi, ayniqsa paxtachilikda me'yorida ortiq ishlatilganligidir. Chunonchi, o'tgan asrning saksoninchi yillarda bir gektar g'uzaga ishlov berish uchun har yili 220-250 kilogramm azot, 120-130 kilogramm fosfor, 50-60 kilogramm kaliy ug'itlari ishlatildi. Sobiq Ittifoqning boshqa xududlarida ushbu ko'rsatkich 3 kilogrammdan oshmas edi. g'o'za bargini to'kishda 1947 yildan e'tiboran, pestitsidlardan foydalanildi. Saksoninchi yillar oxirida mamlakat paxtazorlarida pestitsidning 80 turi ishlatildi. Har gektar paxta maydonlariga 54,5 kilogramm pestitsid sepildi. Lekin paxta dalalarida ishlatilgan pestitsidlarning 14 turining inson organizmiga ta'siri o'rganildi xolos [10-52-53]. Tadqiqotlar natijasida pestitsidlar tarkibida insonning jismi va aqliy qobiliyatini yemiruvchi dioksin degan o'ta xavfli modda borligi aniqlandi. O'sha xavfli zahri - qotil bugun o'zbek ayolining sutidan topildi. Xuddi o'sha sutdan bahramand bo'lgan ming - minglab go'daklar ota -onalarini tanimasdan hayot bilan xayrlashayotirlar yoki jismonan nogiron, zaif bo'lib qolayotirlar. Mutaxasislarning guvohlik berishicha, pestitsidlarning inson organizmiga ko'rsatgan ta'sirini xavfli AESlarning radioaktiv chiqindilarining dahshatli ta'siridan 9 barobar ortiq ekanligini ma'lum bo'ldi.

Turli kimyoviy dorilarning uzluksiz me'yorida ortiq ishlatilishi natijasida mamlakatimiz tuprog'i, suvi, havosi buzildi. Dalalarimizdagi tuproq tarkibida inson organizmi uchun o'ta xavfli bo'lgan ftor, uran, toriy kabi moddalar ko'payib ketdi, Ichimlik suvi tarkibidagi nitrat miqdori normadagi 20-45 milligram o'rniga

80-120 milligram va undan ham oshib ketdi. Inson tanasida mavjud bo'lgan qon tarkibidagi kislorodni xuddi o'sha nitrat o'ziga tortib olishi ma'lum bo'ldi. Natijada qondagi gemogloblin ayniydi. qonda kislorodning yetishmasligi natijasida uning bosimi oshib ketadi. Bunday holat nafaqat inson jismini, balki aqlini ham zaiflashtiradi.

Mamlakatda ekologik vaziyatning keskinlashuviga qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan turli kimyoviy moddalar bilan shaharlarda barpo etilayotgan sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli chiqindilar ham sabab bo'layotir. Bunday holat O'zbekistonning sanoati rivojlangan shaharlari uchun, ayniqsa xarakterlidir. Chunonchi, Olmaliq shahri aholisining har biriga 1374 kilogramm, Farg'onada 676, Navoiyda 606, Angrenda 509 kg zaharli chiqitlar to'g'ri keladi. Umuman 1990 yilda respublika aholisining har biriga hisoblaganda zaharli moddalar chiqiti 203 kilogrammni tashkil etgan edi [11-1-14].

O'zbekistonda ekologik vaziyatning yildan-yilga keskinlashib borishiga suv manbalarining tabiiy holatining o'zgartirilganligi ham sabab bo'layotir. Chunonchi, keyingi 20-30 yil ichida paxtadan yuqori hosil yetishtirishga bo'lgan uzluksiz intilish oqibatida mamlakatimizda yirik - yirik suv omborlari barpo etildi, katta - katta kanallar qazildi. Suv manbalarining tabiiy yo'li o'zgartirildi. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlimining boshqaruvchisi Orol dengizi halokat yoqasiga kelib qoldi. Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida tabiat muvozanati buzildi. Tabiat muvozanatining buzilishi inson salomatligiga salbiy ta'sir etdi. Oqibatda inson bilan jamiyat, jamiyat bilan tabiat orasidagi ziddiyat keskinlashib ketdi. Bunday sharoitda inson tomonidan tabiatga ko'rsatilayotgan "ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda [6-114]. Xuddi shuning uchun ham, tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishga, atrof - muhitga ziyon yetkarishiga va respublikada ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik" [8-20] zarur.

Insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy - axloqiy zaminlarini mustahkamlash, atrof - muhit musaffoligini ta'minlashga qaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash va unga amal qilish bilan bevosita bog'liq. Chunki, - I.A. Karimov yozganidek, - "tabiat va ma'naviyat ekologiyasi bir - biridan ajralmasdir" [8-69]. Ushbu dialektik aloqadorlik mexanizmi, ya'ni tabiiy muhit bilan insonning jismoniy va ma'naviy qiyofasi, yohud ekologiyasi musaffo hayotiy muhit [6-134] bilan barpo etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy - axloqiy asoslari orasidagi dialektik aloqadorlik mexanizmining mohiyatini, har bir mafkura xodimining o'zi chuqur tushunib olmog'i darkor. Ayniqsa bu borada umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari fidoyilik ko'rsatishlari zarur. Xususan umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan "Inson va jamiyat" o'quv kursidan saboq berish jarayonida mamlakatimizda ekologik vaziyatning keskinlashib ketishi oqibatida vujudga kelgan turli ziddiyatlarni har tomonlama bartaraf etish yo'llari, vositalari va omillarini aniqlash, ekologik ta'lim va tarbiya sistemasini vujudga keltirish, ta'lim sistemasining dolzarb vazifalaridan biridir.

Xullas, insonparvar, demokratik jamiyat ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlashning eng muhim sharti – odamlar sihat - salomatligini tiklashdir. Xalqimizda hikmatli bir naql bor: “Sog‘lom tanda sog‘lom aql” deyishadi. Xuddi shuning uchun ham, odamlar sihat - salomatligini tiklamasdan turib, mamlakatimizda bunyod etilayotgan yangi jamiyatni ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash amri mahol.

§3. Fuqarolar intellektual aktivligini oshirish-

yangi jamiyat ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlashning qudratli omili. Insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlashning eng muhim omillaridan biri fuqarolar intellektual aktivligini oshirishdir. Fuqarolar intellektual aktivligini oshirmasdan turib yangi jamiyatning ma'naviy – axloqiy zaminlarini mustahkamlash haqidagi fikr -mulohazalarimiz quruq chaqiriq bo‘lib qolaveradi. Endilikda hech kimga sir emas, bugungi yurtdoshlarimiz katta qismining ma'naviy qashshoq bo‘lib shakllanishining eng asosiy subyektiv asoslaridan biri - keyingi 20-30 yil ichida kishilar ongi va faoliyatida intellektual passivlikning xukmron bo‘lib qolganligidir. Intellektual passivlikning vujudga keltirilishi, turgan gapki, xalq maorifi tarmoqlarida avtoritar pedagogika rahnomaligida amalga oshirilgan ta'lim va tarbiya bilan bevosita bog‘liq. Boshqacha aytganimizda kishilar ongi va faoliyatidagi intellektual passivlik ya'ni bilimga, ilmga bo‘lgan intilishning so‘nib qolishining ildizlari xalq maorifi tarmoqlarida amalga oshirilgan ta'lim va tarbiyaga borib taqaladi [9].

Xalq maorifi tarmoqlarida amalga oshirilgan ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligining pasayib ketishining sabablarini qayerdan izlashimiz zarur?

Xalq maorifi tarmoqlarida amalga oshirilayotgan, ta'lim va tarbiya samaradorligining pasayib ketishi, boshqacha aytganimizda maorif sistemasi intellektual va tarbiyaviy qudratining zaiflashuvi hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq va uning natijasidir.

Ma'lumki, jahon sivilizatsiyasi tarixida, XX asr tabiiy va texnikaviy bilimlar taraqqiyotida buyuk inqilobiy o'zgarishlar yasadi. Ushbu o'zgarishlar insonning turmush tarziga ijobiy ta'sir o'tkardi. Ushbu ijobiy ta'sir ostida kamol topgan odam bolasida tabiiy - texnikaviy bilimlarni ulug'lash kayfiyati uzluksiz ortib boraverdi. Tabiiyki, tabiiy - texnikaviy bilimlarga sajda qilish kayfiyati xalq maorifi tarmoqlariga ham o'z ta'sirini o'tkardi. Oqibatda tabiiy - texnikaviy bilimlardan ta'lim berishga mo'ljallangan o'quv predmetlari va uning ijodkorlarini har tomonlama raqobatlashtirish yildan -yilga ortib boraverdi. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan o'quv predmetlarini asosiy va asosiy bo'lmagan, fundamental va nofundamental fanlarga ajratish kabi g'ayrivilizatsion kayfiyat vujudga keldi. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlariga asosan tabiiy texnikaviy fanlar mutaxassislari rahbariy lavozimlarga tayinlandi. Oqibatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlovchi, odob, ma'naviyat va madaniyatni ulug'lovchi, jahon sivilizatsiyasi yutuqlari tomon boshlovchi ijtimoiy - gumanitar fanlarga o'gay ko'z bilan qarash tendensiyasi kuchayib ketdi. Xuddi shuning uchun ham, ijtimoiy - gumanitar fanlar bilan tabiiy - texnikaviy fan vakillari orasida ko'zga ko'rinmas ziddiyatlarni bartaraf etishning eng muhim omili “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi”da ta'kidlanganidek ta'lim va tarbiya jarayonini

insonparvarlashtirish xalq maorifi tarmoqlariga bo'lgan rahbarlikni demokratlashtirishdir[3-43-44].

Ilmiy texnika taraqqiyoti natijalarini inson turmush tarzining barcha jabhalariga tadbiq etish zaruriyatining uzluksiz ortib borishi "axborotlar oqimi"ni kuchaytirib yubordi. "Axborotlarning portlashi" vujudga keldi. Bunday holat ham tabiiyki ta'lim tizimining barcha tarmoqlariga o'z ta'sirini o'tkardi. Natijada darsliklar, o'quv - qo'llanmalar, o'quv dasturlar yangi - yangi axborotlar bilan uzluksiz boyib boraverdi, Boshqacha aytganimizda, tinglovchilarga ko'proq, yangiroq axborot berishga harakat qildik. Ammo berilgan axborotlarni yigit va qizlar qanday qabul qilayotganliklari bilan qiziqmadik. Chunonchi, umumiy ta'lim maktablarida axborotlarning hajmi yildan - yilga ko'paya borishi natijasida o'tgan asr saxoninchi yillar oxirida bitiruvchilarning 30 foizi asab - ruhiy kasalliklarga duchor bo'ldilar. Dars jarayonida berilgan ma'lumotlarni faqat 19 foiz o'quvchilar o'zlashtirib oldilar holos [9-16]. Natijada o'quvchi yoki talabaning kelgusi amaliy faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni "o'zlashtirish" "qabul qilish", "hazm qilish" imkoniyati bilan, fikrlash qobiliyati, olingan ma'lumotlarni amalga tadbiq etish malakasi orasidagi ziddiyat borgan sari keskinlashib boraverdi.

Buning oqibatida faqat umumiy ta'lim maktablarida emas, balki o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'limning mazmuni va shakli orasidagi nomutanosiblik kuchayib ketdi. Tabiiyki bu hol, o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yigit va qizlarda bilim olish, olingan bilimlarni rivojlantirishga ishtiyoq uyg'onmadi. Boshqacha aytganimizda, yoshlarimizda intellektual loqaydlik vujudga keldi. Xuddi shuning uchun ham xalq maorifi sistemasining barcha shahobchalarini, umumiy ta'lim va hunar maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari jamoalari zimmasiga, o'quvchi, talaba yoshlarimiz faoliyatida vujudga kelgan ushbu ko'zga ko'rinmas "bo'shliq"ni bartaraf qilish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Bunday murakkab muammo ya'ni ta'lim berish jarayoni mazmunida tub sifatiy o'zgarish yasash, ta'lim berish jarayonini qat'iyat bilan jadallashtirish o'quv predmetlarining birini - ikkinchisiga qo'shib predmetlashtirish, o'quvchilarning majburiy dasturdan tashqari bilimlarni egallashga intilishlarini kuchaytirish yo'li bilan hal etish mumkin.

Ta'lim berishning uzoq yillar davom etgan axborot berish modelidan voz kechmoq uchun maorifimizning barcha bo'g'inlarida, eng avvalo umumiy ta'lim maktablarida o'rganilayotgan o'quv predmetlarining sonini tubdan qisqartirish zarur. qisqartirilgan o'quv predmetlari asosida o'tilgan darslar uch asosiy yo'nalishda: tabiat, jamiyat va inson haqidagi umumiy ma'lumot berish bilan chegaralansa. Tabiat haqida gapirganda ona zaminimiz, musaffo osmonimiz, serhosil dalalarimiz go'zalligi, yer osti va yer usti boyliklarimizning tarovati, keyingi yillarda vujudga kelgan murakkab ekologik vaziyatni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumot berilsa; jamiyat haqidagi xabarlarimizda xalqimizning o'tmishi va bugungi madaniyatini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, adabiyoti, san'ati, tarixi, dini, urf - odati, rasm - rusumlari, bayramlari, quvonch va tashishlari haqida so'zlasak; Inson haqidagi darslarimizda odob - ahloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, halollik, savob - uvol, vijdonan ishlash, yashash va o'qish yo'llari haqida ma'lumotlar bersak ma'qul bo'lmasmidi? Barcha o'qish va

o'qitish ishlari yigit va qizlarga mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish malakasini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, hozirgidek har qadamda uchrab turadigan ota - ona, jamiyat hisobidan yashovchi, faqat "ber"ni biladigan, mute, ma'naviy qashshoq, tekinxo'rlar soni kamaymikan?

Ta'lim berish jarayonida beriladigan axborotlar hajmini qayta ko'rib chiqish xalq maorifi sistemasining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Yoshlarga berilayotgan bilimlar hajmi eng avvalo ularning kundalik faoliyati uchun zarur bo'lishi lozim. Boshqacha aytganimizda, o'quv jarayonida beriladigan bilimlarning ko'p yoki ozligini hamon ba'zi bировlar o'quv predmetlarining sonini ko'paytirish haqida bosh qotirmoqdalar. Hatto umumiy ta'lim maktablarining o'quvchilariga falsafa, iqtisod, mantiq, psixologiya, biofizika, bolalar tarbiyasi va psixologiyasi kabi fanlari o'qitishni taklif qilmoqdalar. Axir bolaning o'ziga, ya'ni ta'lim va tarbiyaning obyektiga bola tarbiyasi va psixologiyasi haqida dars o'tsak insofdan bo'ladimi?

Mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurilishi avj olayotgan hozirgi sharoitda o'quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, darsda olingan bilimlar, tinglov-chilarning aql - farosatini tarbiyalaydigan, mustaqil fikrlash madaniyatini, shaxsiy individual qobiliyatlarini rivojlanti-radigan eng muhim vositaga aylanmog'i lozim. Olingan bilim-lardan yoshlarimiz kundalik turmushida mustaqil foydalana bilishni o'rganishlari lozim.

Umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim berish jarayonini tub sifatiy yangi bosqichga ko'tarish uchun, o'tiladigan darslarning hayotiylikiga, kundalik turmushimiz bilan aloqadorligiga alohida e'tibor bermoq zarur. Dars jarayonida faqat o'quv programmaları talablariga muvofiq qoidalarni bayon etishning o'zi kifoya qilmaydi. Balki, darslarda hayotimizdagi tashvishlar va quvonchlarning real manzarasini bayon etishimiz lozim bo'ladi. Ayniqsa o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda esa o'qilgan ma'ruzalardan olingan nazariy qoidalar, mulohazalar yuzasidan bahslashuvni davom ettirish lozim. Nafaqat ma'ruzalardagi, balki matbuot, radio, televideniya aytilayotgan, jamoatchilik-ning fikr va mulohazalarini tahlil qila bilish masalasini hosil qilish vositasi bilan mutaxassislariga mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga molikdir.

Afsuski, xalq maorifi sistemasida amalga oshirilayotgan ta'lim jarayonini yaxlitligini ta'minlaydigan, jahon ta'lim standartlari talablari asosida, qayerda (qaysi bo'g'inda), qancha, qanday axborotlar berishni aniq belgilab beruvchi va ular orasidagi aloqadorlik mexanizmini mustahkamlovchi, nazorat qiluvchi aniq konsepsiya hamon ishlab chiqilmagan. Huddi shuning uchun ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni turmushga tatbiq etish borasida to'plangan tajribani va uning dastlabki natijalarini chuqur tahlil etib ta'lim andozalari o'quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohatlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ya'ni yangi avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar kiritish darkor" [4-37]

Xalq maorifi sistemasi intellektual qudratini zaiflashu-ving ikkinchi muhim sababi - ta'lim va tarbiya jarayonida tenglashtirish ideologiyasining hukmron bo'lib olganligi edi. Hammani tenglashtirishga qaratilgan monoideologiya barcha uchun o'rta ma'lumot olishni majbur qilib belgilanganligida o'zini yaqqol ifodasini

topdi. Natijada maorif tarmoqlarida “ikkisiz” va “ikki yilsiz” ishlash praktikasi avj olib ketdi. Ko‘pchilikka “uch” baho qo‘yish urf bo‘ldi. Bilimli bola, bilan bilimsiz bolaga bir xil ma‘lumot berildi. Iste‘dodli o‘quvchi yoki talaba bilan qobiliyatsiz bola birga o‘qitildi. O‘qituvchini faoliyati, o‘zlashtirish foizi bilan baholandi. Umumiy ta‘lim maktablarining intellektual va tarbiyaviy qudrati - o‘quvchilar va o‘qituvchilar soni, oliy ,o‘rta ma‘lumotli o‘qituvchilar soni, o‘quv korpuslari, laboratoriyalar, sinf xonalarining soni, maktab kutubxonasidagi kitoblar soni bilan o‘lchandi. Huddi shuning uchun ham xalq maorifi tarmoqlarining intellektual va tarbiyaviy qudratini insonparvar, demokratik jamiyat talablari darajasiga ko‘tarmoq uchun ta‘lim va tarbiya jarayoniga uzoq hukmronlik qilgan barchani tenglashtirishga qaratilgan monoideologiyaning salbiy oqibatlarini bartaraf etmoq uchun eng avvalo majburiy ta‘limdan voz kechmoq darkor. Ta‘lim berishni tabaqalashtirish, iste‘dodli o‘quvchi yoki talaba uchun alohida-alohida o‘quv xonalari tashkil etmoq, ta‘lim berishni individuallashtirmoq, umumiy ta‘lim maktablariga chinakam muqobilik vazifasini bajaruvchi xususiy maktablarni barpo etmoq, maorif tarmoqlari intellektual va tarbiyaviy qudratini o‘lchovchi yangi mezonlar sistemasini ishlab chiqish lozim.

Xalq maorifi tarmoqlari intellektual va tarbiyaviy imko-niyatlarining pasayib borishining uchinchi muhim sababi bu yerda amalga oshirilgan ta‘lim va tarbiyaning milliy zaminlarini zaiflashib qolganligi edi.

Umumiy ta‘lim maktablarida, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida amalga oshirilayotgan ta‘limning mazmuni yerli xalqning tarixi, madaniyati, dini, urf - odati, turmush tarzi bilan bog‘lanmadi. O‘qish va o‘qitish ishlarining asosida Yevropa sistemasi asos qilib olindi. Boz ustiga ajdodlarimizning ilmiy - madaniy, tarixiy merosining nodir durdonalarini yetkazishda vorislik vazifasini bajargan yozuvimiz qayta - qayta almashtirildi. O‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, ko‘rgazmali qurollar asosan rus tilida chop etilgan kitoblarning nusxalari edi. Kimyo, fizika, algebra, biologiya, jurofiya, tarix, astronomiya, boshlang‘ich harbiy ta‘lim kabi fanlardan beriladigan saboqlarda sharqona milliy ruh mutlaqo sezilmadi.

O‘qish va o‘qitish ishlarida baynalmilallik milliylikdan ajratib amalga oshirildi. Milliy madaniyat xaqida darslarda deyarli gapirmadik, yog‘och uymakorligi, badiiy kulolchilik, mis-garlik, kashtachilik e‘tibordan chetda qoldirildi. Butun dunyoni lol qoldirgan qadimiy tarixiy arxitektura yodgorliklari haqida so‘zlamadik. O‘z tariximiz qolib o‘zgalar tarixini o‘rgandik. Xalqimiz tarixini esa soxtalashtirdik, siyosatbop qilib bayon etdik. Yoshlarimizga o‘tmishda o‘zbek xalqi savodsiz bo‘lgan, imzo chekish o‘rniga barmoq bosgan deb alahsiradik. Asta-sekin o‘quvchilar, talabalar milliylik deganda o‘z xalqi, xususan o‘zbek madaniyatini baynalmilliylik deganda Yevropa xalqlari urf - odatlari, rasm - rusumlarini tushuna boshladilar. Natijada o‘zbek xalqining urf - odatlari, rasm - rusumlari ya‘ni an‘analari o‘zining umumbashariy, umuminsoniy xususiyatlarini namoyish qila olmadi, balki boshqalarga taqlid qilishdan, sotsial andozalar olishdan iborat bo‘lib qoldi. Boshqacha aytganimizda baynalmilallik bora - bora “boshqa millat vakillariga yon berish” degan mazmun kasb eta boshladi. Darsliklarimizda millatlararo hamkorlik, do‘stlik bir tomonlama talqin qilindi. Buning oqibatida Yevropa xalqlari, ayniqsa rus xalqining madaniyati, adabiyotiga

ta'zimkorlik yildan - yilga ortib boraverdi. Milliylik haqida gapirish esa jinoyat bilan barobar deb qaraldi. Bu xaqda og'iz ochgan o'qituvchiga millatchi degan tamg'alar bosildi.

Oqibatda Sovet hokimiyati yillarida shakllangan yigit-qizlarning ko'pchiligi milliy qadriyatlardan benasib bo'lib qoldilar, sharqona odob, insoniy fazilatlardan yiroqlasha boshladilar. Turmush tarzlarida Yevropaga xos odatlar, muomalalarida, qiliqlarida ruscha xarakter vujudga keldi. O'z milliy tili, madaniyatini mensimaslik; o'z millatining kelajagi, milliy ehtiyojiga befarq qarash avj olib ketdi. Boshqacha qilib aytganimizda, yerli millat kishilarning ma'lum bir qismida, ayniqsa ziyolilarning ayrimlarida nigilistik kayfiyat shakllandi. Xuddi shuning uchun ham maorifimiz tarmoqlarida sifatiiy burilish yasash uchun, eng avvalo, yaratilayotgan o'quv dasturlarida, darsliklar va qo'llanmalarda millatning milliy xususiyatlarini albatta inobatga olish zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonlarida milliy xususiyatlarni inobatga olmay turib, Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganidek, "o'z vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas"[8-78]. "Shu bois mamlakatimizning istiqloq yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan o'yg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda"[3-5]

Maktablarimiz, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarimiz amalga oshirayotgan ta'lim berish sistemasida xalq pedagogikasining asrlar va avlodlar sinovidan o'tgan ilg'or an'analari, Abdulla Avloniy, Abdulla Alaviy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Xamza Hakimzoda Niyoziy singari xalq murabbiylarining o'qish va o'qitishdagi ilg'or g'oyalari inobatga olinmadi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va tarixining ajralmas qismi bo'lgan islom dini maktablari, madrasalaridagi ta'lim va tarbiya sistemasining yutuqlaridan foydalanish u yoqda tursin, balki u yerdagi o'qish va o'qitish ishlari masxara qilindi. Bunday noxushliklar maorifimiz tarmoqlarida amalga oshirilayotgan ta'limning haqiqiy muhitdan ajralib qolishiga sabab bo'ldi.

Odamlardagi ishonch, umid mehrobi bo'lgan, insof va diyonat tayanchi hisoblangan minglab buyuk allomalarni yetkazib bergan Markaziy Osiyo madrasalarining ta'lim berishdagi eng muhim usuli - yodlashni ko'r - ko'rona ritorika deb kamsitib keldik. Afsuski, yodlash, og'zagi nutq malakasini vujudga keltirishning, uning yanada mustahkamlanishi uchun asosiy shart ekanligi allaqachonlar isbotlangan bo'lsa ham, bu xaqda lom - mim demadik. Bugungi o'rta va oliy ma'lumotga ega bo'lgan ba'zi yigit - qizlarimizning nutq madaniyati sayozligini, o'z fikr mulohazalarini erkin, ravon gapira olmasligining sababi ham maktablarimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sistemasidan yodlash usulini chiqarib tashlaganligidir. Ta'lim berish sistemasida yodlash uslubiga e'tiborning kamayib ketishi o'quvchilar, talabalar xotirasining zaif bo'lishiga olib keldi.

Umumiy ta'lim maktablarida ham, o'rta, oliy o'quv yurtlarida ham yoddan gapirish o'rniga, aytilgan kichkina qoidani ham yozib olishga odatlandik. Oqibatda tarjimai holimizni ham qog'ozsiz aytib berolmaydigan bo'lib qoldik. O'quvchidan tortib universitetning domlasigacha dars jarayonida ularga konspektlar hamkorlik qildi. O'qituvchi yoki domla leksiyaga konspektsiz qo'yilmaganidek, daftarsiz

kelgan o'quvchi yoki talaba darsdan chiqarib yuborildi. Boz ustiga mashg'ulotlarda haddan ziyod ko'rgazmali qurollar, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishga xuruj qildik. Bunday biryoqlamalik yoki talabalarda faqat ko'rsatilgan, namoyish etilgan narsanigina xotirasiga saqlab qolish qobiliyatini o'stirib, abstrakt tafakkur yuritish madaniyatini pasaytirib yubordi.

Sharq maktablarida, madrasalarida keng quloch yoygan ta'limning musohaba usuliga bepisand qaradik. Ta'limning musohaba usuli tinglovchini faol fikr - mulohaza yuritishga, atrofida sodir bo'layotgan voqealarni har tomonlama tahlil qilishga, o'zining fikr yoki mulohazasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini suhbatdoshi orqali tekshirib ko'rishga real imkoniyat yaratadi. Ta'lim berishning ushbu sharqona uslubi, yigit va qizlarda eng avvalo ishonch tuyg'usi, mustaqil fikr yuritish malakasini vujudga keltiradi. Dadillikka o'rgatadi, boshqalarni ham eshitish, uni hurmatlash, o'z fikr -mulohazalarini boshqalarniki bilan taqqoslash, solishtirish, tahlil qilish, o'zgalarni aql - farosati bilan o'zinikini charhlash, o'tkirlash, qiyoslash, o'zini tuta bilish malakalarini hosil qiladi. Boshqacha aytganimizda, ta'limning musohaba usuli aqlning quvvat olishida buyuk vosita vazifasini bajaradi. Ta'lim berishning musohaba usulining tarbiyaviy qudrati shundaki, u har bir yigit yoki qizda biron mavzuda bahslashayotgan, o'zining fikr - mulohazasiga muqobil qarama -qarshi turuvchi raqibiga ham, do'st - birodarlarcha munosabatda bo'lish madaniyatini shakllantirdi.

Afsuski, sharq pedagogikasining olamshumul yutuqlari o'rta va oliy pedagogika o'quv yurtlarida o'rganilmadi, uning umuminsoniy kadriyatlarini shakllantirish borasidagi obro' e'tibori tilga ham olinmadi. Oqibatda bugungi muallimlarimizning ko'pchiligi ta'lim berishning milliy qiyofasidan begonalashgan ijrochilarga aylanib qoldilar. Huddi shuning uchun ham dars jarayonida ta'lim berishning musohaba usulidan foydalanish milliy maktablar yaratish yo'lidagi urinishning debochasidir. Ta'limning musohaba usuli yuqorida aytganimizdek tinglovchiga xo'r fikr yuritishga munozara qilishga keng sharoit yaratib bersa, o'z navbatida muallim uchun ham o'z shogirdlarining har birining fikr irodasini, madaniy saviyasini rivojlantirish darajasini bilib olishga, hayotdagi pozitsiyasini aniqlashga katta yordam beradi.

Ta'limning milliy zaminlarini barpo etishni, eng avvalo, umumiy ta'lim maktablari qurilishlarini milliy lashtirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Maktab binolarini milliy me'morchilikning qadimiy an'analariga muvofiq qilib ko'rish, ko'p qavatli va ko'p o'rindi binolar (1000-2000 o'rinli) qurishdan, o'qish va o'qitish ishlarini aralash tilda olib borish amaliyotidan voz kechmoq kerak. Chunki ta'lim va tarbiyani ikki tilda olib boriladigan maktablarga qaysi millat vakillarining soni ko'p bo'lsa ozchilikka o'z ta'sirini, ya'ni tili va urf-odatlarini singdiraveradi. Bunday noxushliklar tabiiyki ozchilikning milliy kadriyatlarining kamsitilishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya berishning milliy zaminlarini tiklash, o'g'il va qiz bolalarni alohida - alohida o'qitish bilan bog'liqdir. Chunki qadimga ajdodlarimiz hech qachon bir joyda o'qishmagan. Hozirgi zamon ruhshunoslik ilmi ham ikki jinsdagi bolalarning aqliy, jismoniy rivojlanish darajasi turlicha bo'lishi, bir - biridan tubdan farq qilishini allaqachonlar aniqlab berishgan. Yoshlarning balog'atga

yetish jarayonining tezlashuvi ta'lim va tarbiyaga salbiy ta'sir etishi hammaga ma'lum xaqiqat-ku? Har ikki jinsdagi o'quvchilarga bir xil talab qo'yish insofdanmi? O'sha bir xillik qizlarimizning yigitlashib, yigitlarimizning qizsimon bo'lib yetishishiga sabab bo'lmadimi? O'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalardagi talablar bir qolipda bo'lgan, ikki jinsning xarakteri, psixologiyasi biri - ikkinchisiga o'xshab yaqinlashib qolishi turgan gap. Ana shuning uchun ham o'g'il va qiz bolalarni alohida o'qitishni tashkil etish bugunning kechiktirmasdan amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammolaridan biridir.

Hullas, xalq maorifi tarmoqlarida amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonida tub sifatiy burilish yasash yo'li bilan mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yigit va qizlarda bilimga chanqoqlik, ilmga intilish boshqacha aytganimizda, intellektual aktivlik shakllantiriladi. Faqat intellektual aktivlik odamlarni ma'naviy qashshoqlik illatidan xolis qiladi.

Fuqarolarning intellektual faolligining oshishi bilan insonparvar, demokratik jamiyatning ma'naviy - axloqiy zaminlari mustahkamlanadi.

X U L O S A

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mamlakatda insonparvar, demokratik jamiyat qurilishi boshlandi. Yangi jamiyatni shakllantirishda mustaqillik yillarida mamlakatimizda vujudga kelayotgan xuquqiy davlat kafolat bermoqda. Barpo etilayotgan yangi jamiyatni ma'naviy -axloqiy zaminlarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Endilikda xalqimizning tarixiy xotirasi tiklanayotir. Milliy urf - odatlarimiz, rasm - rusumlarimiz, bayramu - sayillarimiz tiklanmoqda. Milliy qadriyatlarimizga yangicha mazmun, yangi shakl bag'ishlash yo'li bilan fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalanmoqda.

Inson haq - huquqlari va erkinligi, saylash va saylanish, tinch va osoyishta yashash kabi, xalqaro demokratiya prinsiplariga mos tushuvchi umuminsoniy qadriyatlar fuqarolarimiz turmush tarzidan asta - sekin munosib o'rin egallamoqda. Kishilarimizga o'zlarida mavjud bo'lgan professional malaka, intellektual qobiliyatlarni, nodir iste'dodlarini namoyish qilish uchun real imkoniyatlar vujudga kelmoqda.

Milliy istiqlol g'oyalaridan ilhomlangan O'zbekistonning har bir fuqarosida, o'z oilasi, o'z nasli - nasabi, o'z kasbi, o'z vatani, ona tili, dini, tarixi, madaniyati bilan faxrlanish tuyg'usi shakllanmoqda. O'zbekiston jahonning ilg'or mamlakatla-ri safidan munosib o'rin olish uchun intilmoqda. Bularning hammasi pirovard oqibatda mamlakatimizda barpo etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyatni ma'naviy - axloqiy zamin-lari mustahkamlashga munosib hissa qo'shmoqda.

A D A B I Y O T L A R:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, 2000.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1999.
3. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.Toshkent, 1999.
4. Karimov I.A. Sog'lom avlod-xalqimiz kelajagi.-"Xalq so'zi", 1999 yil 9 dekabr.
5. Karimov I.A.Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik.Toshkent, 1993.
6. Karimov I.A.O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, 1992.
7. Choriyev A.CH. qanoatova F.B. Ta'lim tizimining intellektual qudrati. Toshkent, 1992.
8. Choriyev A.CH. Choriyev S.A. Millatlararo munosabatlar madaniyati. qarshi, 1993.
9. Choriyev A.CH. Eshmatov M.E. Ekologik tarbiya va qishloq yoshlarining kamolati.Toshkent, 1993

**JAMIYATNING BARCHA IJTIMOIIY INSTITUTLARI
TARBIYAVIIY IMKONIYATLARINI MUVOFIQLASH-
TIRISH MILLIY ISTIQLOL TALABI.**

R E J A.

Kirish.

§1.Jamiyatning ijtimoiy institutlari tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirishda milliy istiqlol mafkurasining roli.

§2.Mafkuraviy tasir sistemasi.

§3.Mafkuraviy tasir jarayonining uzluksizligi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar

K I R I S H

Mamlakatimizda bunyod etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurish tajribasi jamiyatni mafkurasiz tasavvur etish mumkin emasligini yana bir bor isbotladi. Aniq mafkuraviy dasturga ega bo'lmagan har qanday davlatda boshboshdoqlik avj oladi. O'z maqsadi va muddolarini, orzu-umidlarini oldindan belgilab olmagan, uni amalga oshirish yo'llari, omillari va vositalarini, usullari va uslublarini aniq tasavvur etmagan jamiyat yoki davlat hech qachon rivojlana olmaydi.

Milliy istiqlol mafkurasining maqsadi va vazifa-larini omma ongi va shuuriga singdirish uchun jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish eng muhim vazifalardan biridir. Boshqacha aytganimizda, milliy istiqlol mafkurasi, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlar - oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar, tashkilot-larning tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, fuqarolarga bir maromda uzluksiz tarbiyaviy ta'sir o'tkazishini ta'minlamoq darkor.

Ushbu ma'ruza matnida mutaxassislarning ijtimoiy institutlar tarbiyaviy imkoniyatlariga doir mulohazalari, ularni muvofiqlashtirishga bag'ishlangan tavsiyalari umumlashtiriladi.

tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirishda milliy istiqlol mafkurasining roli

Mamlakatimizda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish tarixiy zaruriyatga aylandi. Mustaqil O'zbekistonning davlat mafkurasida insonparvar, demokratik jamiyat qurish, o'sha jamiyatning bunyodkori bo'lgan jismonan baquvvat, manaviy barkamol inson shaxsini tarbiyalash g'oyasi yotmog'i lozim. Mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo'lgan milliy manfaatni chuqur idrok etuvchi, milliy g'ururi baland, chinakam vatanparvar shaxsni tarbiyalamasdan turib, mamlaka-timiz iqtisodiy, madaniy - manaviy mustaqilligini taminlash amri mahol. Boshqacha aytganda, milliy mustaqil-likni mustaqil shaxs yaratadi. Mustaqil tafakkurga ega bo'lgan insongina mustaqil davlatimiz qudratini barpo etadi. Xuddi shuning uchun ham avlod – ajdodlarimiz orzu qilgan fozil jamiyatning bunyodkori bo'lgan barkamol insonni tarbiyalash milliy istiqlol mafkurasining mazmunini tashkil etadi. Milliy istiqlol mafkurasida yangi jamiyatning bunyodkori bo'lmish barkamol insonning ijtimoiy qiyofasida insoniyat-ning buyuk siymolari orzu qilgan eng oliyanob fazilatlar va xislatlarni, o'z xalqining, millatining tarixiy, madaniy va manaviy merosidan faxrlanish tuyg'usini hosil qilish orqali milliy ongini va milliy g'ururini shakllantiradi.

Insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun kurash olib borilayotgan O'zbekiston sharoitida milliy istiqlol mafkurasining vazifalarini amalga oshirishda jamiyatning barcha ijtimoiy institutlarini tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganimizda, milliy istiqlol mafkurasida, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari - oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy talim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, madaniy-marifiy uyushmalar, tashkilotlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, fuqarolarga bir maromda uzluksiz tarbiyaviy tasir o'tkazishni taminlash darkor. Lekin ijtimoiy institutlar-ning tarbiyaviy imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanish uchun eng avvalo tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi tushunmoq, mafkuraviy ta'sirni tabiiy-ijtimoiy muhitning stixiyali ta'siridan ustunligini ta'minlash yo'llarini aniqlamoq lozim.

A. Choriyev ta'kidlaganidek, tarbiya borliqning o'ta murakab shaklidir. Xuddi shuning uchun ham u turli ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Mafkuraviy ishlar samaradorligini insonparvar, demokratik jamiyat talabi darajasiga ko'tarmoq uchun tarbiya bajaradigan turli ijtimoiy funksiyalarning mohiyatini, ushbu funksiyalarning bir-biridan farqini, bir-biri bilan aloqadorligini tushunmoq zarur. Chunonchi, tarbiya - bir holatda ajdodlarni avlodlarga, o'tmishni bugunga bog'lovchi vorislik vazifasini bajarsa, ikkinchi bir holatda ajdodlarimiz va avlodlarimiz to'plagan yaxshi fazilatlar va xislatlarni, barcha bilim va ishlarni bilish manbaidir, Uchinchi bir holatda tarbiya tarbiyachining professional mahoratini ham ifodalaydi. Shu manoda tarbiyani bazan mahorat, sanat deb ham talqin qiladilar. Shuningdek, tarbiya insonning mustaqil shaxs bo'lib kamol topishida hal qiluvchi omil, jamiyatni barcha ijtimoiy institutlari amalga oshirgan tarbiyaviy ishlarning natijasi, hosilasi deb ham ifodalanadi.

Tarbiya malum bir maqsadga qaratilgan, aniq dastur, reja asosida uzluksiz amalga

oshirilayotgan ongli faoliyat hamdir. Xuddi shunday tarbiyaviy tasir yordamida odam bolasining faoliyati ijtimoiy guruh yoki tabaqa, sinf yoki shaxs, millat yoki elat, partiya yoki davlat, oila yoki kollektiv manfaati tomon burib yuboriladi. Lekin bundan inson shaxsi faqat tarbiyaviy tasirning mahsuli degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki tarbiya nafaqat ongli faoliyatlarning yig'indisi, qola-versa ongsizlik ham stimol beradi. Inson shaxsining kamol topishida hech qanday dastursiz, rejasiz stixiyali tasirning ahamiyati katta bo'ladi.

Yuqorida takidlaganimizdek, bunday tasir malum bir sxema yoki andoza asosida emas, erkin stixiyali sodir bo'ladi. Shuning uchun inson shaxsi malum bir maqsadga qaratilgan tarbiyaviy tasirning mahsuli bo'lishi bilan birga stixiyali sodir bo'ladigan tabiiy-ijtimoiy muhit tasirining ham natijasidir.

Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlari turmush tarzi-mizning barcha jabhalarida tezkorligi bilan kirib borayotganligi oqibatida informatsiyalar oqimi uzluksiz ortib borayotir. Usha informatsiyalar tasirida jamiyatning turli ijtimoiy institutlari amalga oshirayotgan maqsadga muvofiq ongli tasirdan, bazan tabiiy - ijtimoiy muhitning ongsiz stixiyali tasiri ustunlik qilmoqda. Bunday tendensiya ayniqsa jumhuriyatimiz bozor iqtisodiyoti tomon borayotgan hozirgi sharoitda ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Xuddi shuning uchun ham insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun kurash avj olib ketgan O'zbekiston sharoitida xalq, millat, davlat manfaatiga qaratilgan tarbiyaviy tasirni, tabiiy-ijtimoiy muhitning stixiyali tasiridan ustunligini taminlash, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan zaruriyatdir.

Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Milliy istiqloq mafkurasining asosiy vazifasini ro'yobga chiqarish uchun eng avvalo jamiyatda faoliyat ko'rsata-yotgan ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaning mohiyati, stixiyali tarbiyaviy ta'sir bilan maqsadga muvofiq tarbiya-viy ta'sir orasidagi tafovutni ilg'ab olish kerak.

2. Tarbiya bir tomondan ongli faoliyatlar yig'indisi bo'lsa, ikkinchi tomondan ongsizlikni ham ifodalaydi. Tabiiy-ijtimoiy muhitning stixiyali ta'siri ana shunday ongsiz xarakterga ega bo'ladi.

3. Tabiiy - ijtimoiy muhitning stixiyali ta'siridan ongli, mafkuraviy ta'sirning ustivorligini ta'minlash uchun eng avvalo mafkuraviy ta'sir sistemasi shakllantirilishi darkor.

§2. Mafkuraviy tasir sistemasi.

Barkamol inson shaxsini shakllantirish uchun birinchi navbatda mustahkam mafkuraviy ta'sir sistemasini shakllantirish zarur bo'ladi. Bu sistemada jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari o'z o'rniga, o'z funksiyalariga ega bo'lmog'i kerak, biroq ularning barcha imkoniyatlari milliy istiqloq manfaati tomon yo'naltirilmog'i lozim.

Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun zarur bo'lgan ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr - oqibat, keksalarga, davlatimiz

ramzlariga hurmat singari chinakam insoniy fazilatlar odamlarda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Hammasining zaminida yosh avlodga oilada, umumta'lim maktablarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida sidqidildan beriladigan chuqur ta'lim -tarbiya yotadi.

Jamiyatning, davlatning, insonning kelajagi oiladan boshlanadi. Oila - jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el - yurt, mustaqillik ozodlik haqida beriladigan ilk tushuncha va tasavvurlar bolaning mur-g'ak qalbida bir umrga muhrlanib qoladi. "Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demo-kratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyoj-lari va qadriyatlari shakllanadi... Bu esa oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir. (Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.- Toshkent, 1996, 47-bet).

Jamiyatning barcha ijtimoiy institutlarining, eng aso-siy bo'g'ini bo'lmish – oila va uning muqaddasligini ta'minlash muhim masalalardan biridir. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyat-larning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Biroq oila mazmun va mohiyatiga ko'ra har bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga egadir. Sharqda oila tushunchasi oila qurish va uning mustahkamligini, farovonligi va barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, avlod - ajdodlari, jamiyati oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir - biriga nisbatan ezgulik bilan mehr - oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh - urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon - esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi." (qarang: Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-Tom. "O'zbekiston", - Toshkent, 1996, 49-bet).

Shuning uchun ham jamiyatning barcha ijtimoiy institut-larining eng asosiy bo'g'ini bo'lmish – oila va uning muqad-dasligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Demak, oila poydevorining mustahkamligi – jamiyat poydevorining mustahkamligini ta'min-lashning asosiy shartidir, uning moddiy va ma'naviy barkamolligi esa davlat va jamiyat farovonligining negizidir.

Ma'lumki, oilaning bir nechta asosiy vazifalari mav-juddir. Chunonchi, birinchidan, oila reproduktivlik funksiya-sini bajaradi, ya'ni farzand ko'rish orqali avlodlar vori-siyligi va davomiyligini, kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotini ta'minlaydi. Ikkinchidan, oila nuklearlik (nuklear – lotincha so'z bo'lib, yadro degan ma'noni anglatadi) funksiyasini bajaradi. Oilaning ko'p bo'g'inililigini ifodalaydigan, er - xotin va bolalardan iborat bo'lgan oila nuklear oila deb ataladi. Uchinchidan, oilada birgalikda iqtisodiy-moliyaviy xo'jalik faoliyati yuritiladi. To'rtinchidan, oilada dunyo voqealaridan voqif bo'lish, uning mazmunini oila

a'zolari o'rtasida muhokama etish imkoniyatlari mavjud. Biroq oila bajaradigan eng muhim funksiya tarbiya bilan bog'liqdir.

Mafkuraviy ta'sir sistemasida maktabgacha tarbiya muassasalarining o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ular oila bilan xamkorlik qilgan holda insonlarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalashga da'vat etilgan. Maktabgacha tarbiya muassasalarining asosiy vazifasi inson kamoloti asoslarini shakllantirishdan, uning bilimga qiziqishini, madaniy - axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki ko'nikmalarini, ilmga muhabbat qo'yishini o'stirishdan, salomatligini mustahkamlashdan iborat.

Biroq bugungi kunda maktabgacha tarbiya muassasalari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'la bajara olmayotir. Moddiy tanqislik, mutasaddi tashkilotlarning e'tiborsizligi, ularda ishlayotgan xodimlarning malakasizligi bolalar ijtimoiy qiyofasiga samarali ta'sir ko'rsatishga xalal berayotir. Maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyaviy imkoniyat-larini mustahkamlash uchun eng avvalo ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash, malakali kadrlar bilan ta'min-lash zarur bo'ladi.

Umumiy talim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari amalga oshirayotgan bir butun, yaxlit tarbiyaviy tasir doirasida bo'lib, ushbu maqsadli, ongli faoliyatning davomidir. Umumiy talim maktablarida yigit va qizlarning ilk ijtimoiy qadriyatlari, axloqiy, siyosiy, huquqiy va boshqa qarashlari shakllanadi.

Biroq umumta'lim maktablarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari tasiridan tashqarida qolayotgandek tuyuladi. Hatto o'quv jarayoni bilan bo'sh vaqt ramkasida amalga oshirilayotgan maqsadga muvofiq ijtimoiy tasir biri - ikkinchidan ajralib qolmoqda.

Umumta'lim maktablarida va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar haqida gapirganimizda, uning tashkilotchilari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya sistemasi haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishlari lozimligini ham nazarda tutishimiz darkor. Malumki, jamiyatni turli ijtimoiy institutlari aniq dastur, reja asosida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarning hammasi yaxlit, bir butun sistemani tashkil etadi. Umumiy talim maktablaridagi tarbiyaviy ishlar o'sha bir butun sistemaning bo'lagi hisoblanadi. Keyingi yillarda tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish borasidagi fikr - mulohazalarimiz malum bir bo'lak atrofida o'ralashib qoldi. Tarbiya borasida qilgan say - harakatlarimizning amaliyotda samarasiz, bo'lib qolayotganligining asosiy sabablaridan biri butun bilan bo'lak orasidagi aloqadorlik mexanizmida tub sifatiy o'zgarish yasay olmaganligimizda, o'sha mexanizmni bir maromda uzluksiz ishlashini taminlay olmaganimizda bo'lsa kerak. Afsuski, yaratiladigan konsepsiyalarda ham o'sha butun bilan bo'lak orasidagi aloqadorlikni takomillashtirish yo'llari, uslub-lari ko'rsatib berilmagan.

Mafkuraviy ta'sir sistemasining markaziy komponenti mehnat jamoasi bilan bog'liq. Chunki aynan mehnat jamoasi yordamida shaxs jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda ishtirok eta boshlaydi. Mehnat jamoasida shaxsning ijtimoiy qiyofasi shakllanadi, ehtiyojlari va manfaatlari qondiriladi. Xuddi shuning uchun ham K. Gelvetsiy, T. Mor, T. Kampanella, A. Sen-Simon, Sh. Furye, R. Ouen va boshqa mutafakkirlar mehnat jamoasi muammolariga alohida e'tibor berganlar.

O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatdagi mehnat jamoalarining qiyofasi tubdan o'zgardi. Bugungi kunda mehnat jamoalarining qariyb 70 foizi xususiy sektorga taalluqli. Bu hol, albatta, mehnat jamoalarining tarbiyaviy imoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Afsuski, ushbu ta'sir aksariyat hollarda salbiy xarak-terga ega bo'lib qolmoqda. Chunki xususiy sektorda mashg'ul bo'lgan mehnat jamoalari asosiy e'tiborni daromadga qaratmoq-dalar. Ma'naviy - axloqiy rivojlanish bilan bog'liq masalalar esa hatto rejalashtirilmaydi ham. Buning natijasida mehnat jamoalarining tarbiyaviy imkoniyatlari to'liq ro'yobga chiqmay qolayotir. Insonparvar, demokratik jamiyat barpo etish va barkamol avlodni shakllantirish vazifasini o'z oldimizga qo'yar ekanmiz, mehnat jamoalarining diqqat - e'tiborini nafaqat daromad, balki ma'naviy-axloqiy rivojlanish muammolari bilan ham mashg'ul etish yo'larini izlab topishimiz lozim.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar davomida fuqarolarning hayotdagi pozitsiyasini shakllanti-rishda, jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasi samara-dorligini oshirishda jamoat tashkilotlarining, xususan mahalla kengashlari va madaniy - ma'rifiy uyushmalarining roli oshib bormoqda. Ayniqsa, jamoat tashkilotlari, mahalla kengashlari va oilaning yoshlar tarbiyasi borasidagi hamkorligi takomillashmoqda. Ushbu hamkorlikning rivojlana borishi milliy istiqlol mafkurasi vazifasining bajarilishi uchun puxta zamin tayyorlaydi.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1.Oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari murakkab mafkuraviy ta'sir sistemasini tashkil etadilar.

2. Mafkuraviy ta'sir sistemasining samaradorligi ushbu sistema elementlari faoliyati bilan bog'liq muammolarning o'z vaqtida aniqlanishi va bartaraf etilishi bilan bog'liq.

3.Mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyatning barpo etila borgani sayin mafkuraviy ta'sir sistemasi tar-biyaviy imkoniyatlari ham kengaya boradi.

§3.Mafkuraviy tasir jarayonining uzluksizligi.

Mafkuraviy ta'sir samaradorligini oshirish uning omillari va vositalarini tanlash, ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish malakasi bilan bog'liq. Xuddi shuning uchun ham, mafkuraviy ta'sir jarayonining uzluk-sizligini yuzaga keltirish uchun jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari amalga oshirayotgan ijtimoiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari – aqliy, axloqiy, huquqiy tarbiyaning birligini, yaxlitligini taminlamoq lozim.

Ma'lumki, aqliy tarbiyaning asosiy maqsadi aqliy zukkolikni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i darkor. Aqliy zukkolik – shaxsning tabiat va jamiyatga sodir bo'layotgan turli voqea va hodisalarni kuzatish, uning mohiyatini ilgab olish, sabablarini tushunish, oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, bundan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatining, shuningdek fahm-farosati, zehni, ziyrakligining rivojlanganligi holatini ifodalovchi kategoriyadir. Uning asosiy komponent-larini bilimlar, tafakkur yuritish qobiliyati, aql musta-qilligi, ijodkorlik tashkil etadi.

Ushbu komponentlarning barchasi yuksak darajasi shakllanganidagina fikrlash madani-yati ham yuksaladi.

Axlokiy tarbiyaning asosiy maqsadi esa axloqiy yetuklikni vujudga keltirish bilan bog'liq. Axloqiy yetuklik ham gumanistik tipdagi shaxs strukturasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Shaxs ijtimoiy hayot mahsuli ekan, uning axloqiy fazilatlarini jamiyatdagi shart - sharoitlar shakllantiradi. Mazkur shart - sharoitlar qanchalik adolatli bo'lsa, shaxs axloqi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Halollik, kamtarlik, sodiqlik, mehribonlik kabi fazilatlar axloqan yetuk shaxsning mohiyatini tashkil etadi.

Nihoyat, huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi huquqiy komillikni shakllantirishdan iboratdir. O'z huquqiy maqomini chuqur anglab yetgan, jamiyatda mavjud huquqiy bilimlarni o'zlashtirgan, inson haq - huquqlariga axloq nuqtai - nazaridan baho bera oladigan, yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lgan shaxsni huquqiy komil shaxs deymiz. Huquqiy komillikning tarkibiy qismlarini ham ana shu komponentlar tashkil etadi.

Aqliy, axloqiy, huquqiy tarbiya birligining taminlanishi fuqarolarda nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usining shakllanishi jarayonini jadallashtiradi. Boshqacha aytganda, mafkuraviy tasir jarayonida aqliy, axloqiy, huquqiy tarbiya birligi qancha mustahkam bo'lsa fuqarolardagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usi shuncha kuchli bo'ladi. Mafkuraviy tasir jarayonida aqliy, axloqiy, huquqiy tarbiya birligining taminlanishi insonning amaliy faoliyatida umuminsoniy – axloqiy prinsiplar, umuminsoniy huquqiy normalarga rioya qilinishi uchun real imkoniyatlar yaratadi. O'z navbatida, bunday dialektik aloqadorlik insonning g'oyaviy - siyosiy faoliyatiga ham yangi quvvat ato etadi. Xuddi shu quvvat inson ongi va faoliyatining xalq, millat, davlat manfaati tomon burilib ketishiga sabab bo'ladi.

Milliy istiqlol mafkurasi yordamida uzluksiz tarbiya tizimi vujudga keladi. Bu tizim jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini shaxsning aqliy, axloqiy va huquqiy shakllanishiga safarbar etadi. Uzluksiz tarbiya jarayonining samaradorligi umumiy talim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida talimning tarbiyaviy qudratini oshirish, dars jarayoni bilan bo'sh vaqt mafkuraviy tasirining birligini taminlash yordamida amalga oshirilsa, oila, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari, madaniy - marifiy uyushmalari mafkuraviy jarayon targ'ibotchisi yoki tashkilotchisining shaxsiy o'rnatish ko'rsatishi, aqliy yetukligi, axloqiy pokligi bilan bajariladi. O'z faoliyatida mafkuraviy tasir jarayonining har bir tashkilotchisi "insonni inson tarbiyalaydi" qoidasiga amal qilishlari zarur. Uzluksiz tarbiya jamiyatda mavjud bo'lgan fan, adabiyot, sanat, ommaviy axborot vositalarining yagona davlat dasturi asosida bir maromda mafkuraviy tasir ko'rsatishi, kishilarning shaxsiy munosabatlaridagi hamdardlik, hamjihatlik bilan ham bog'liq. Shuningdek, mafkuraviy jarayon o'z tasiri bilan aholining barcha qatlamlarini o'ziga qamrab olishi lozim. Buning uchun esa ushbu jarayon tashkilotchilari aholining turli ijtimoiy qatlamlarini milliy, professional, ruhiy, yoshlik xususiyatlarini aniq bilishlari, qolaversa, mafkuraviy tasir aholining har bir tabaqasining moddiy va ma'naviy ehtiyojiga mos tushmog'i zarur.

Jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari amalga oshirayotgan mafkuraviy ishlar samarali kechishi uchun milliy istiqloq maqsadi tomon yo'naltirilgan, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi talablariga mos tushuvchi, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari, tabaqalarini o'z ta'sir doirasiga qamrab oluvchi milliy istiqloq konsepsiyasi yaratilmog'i lozim.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Milliy istiqloq mafkurasining asosiy vazifasini ro'yobga chiqarish uchun mafkuraviy ta'sir sistemasining uzluksiz faoliyat ko'rsatishiga erishishimiz lozim. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi shaxsni aqliy, axloqiy va huquqiy jihatdan shakllantirishga qaratilmog'i dardkor.
2. Aqliy, axloqiy va huquqiy tarbiya birligining ta'minlanishi shaxsni umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida shakllantiradi, uni umuminsoniy norma va prinsiplar asosida faoliyat ko'rsatishga undaydi.
3. Aqliy, axloqiy va huquqiy tarbiya birligini va uzluksizligini ta'minlash uchun umumdavlat ahamiyatiga molik milliy istiqloq konsepsiyasi ishlab chiqilishi zarur.

X u l o s a

Milliy istiqloq mafkurasining asosiy vazifasini ro'yobga chiqarish, ya'ni barkamol, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bo'lgan shaxsni voyaga yetkazish uchun o'zbek jamiyatidagi barcha ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish zarur. Buning uchun esa ushbu ijtimoiy institutlar yagona mafkuraviy ta'sir sistemasini vujudga keltirishlari lozim. Ushbu sistemaning asosiy komponentlarini oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari tashkil etadilar. Ularning tarbiyaviy ta'siri samarali bo'lishi uchun uzluksiz faoliyat ko'rsatishi lozim. Ushbu uzluksizlik barcha tarbiyaviy imkoniyatlarning shaxsni aqliy, axloqiy va huquqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilishi orqali ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda- Toshkent, 1999, 20-29 betlar.
- Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent, 1997, 170-188 betlar
- Karimov I.A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin. Adolatli jamiyat sari.-Toshkent 1998, 107-122 betlar.
- Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.
O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.
1-Tom.-Toshkent, 1996, 44-49 betlar.
- Karimov I.A. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-Tom.
Toshkent, 1996, 200-218 betlar.
- Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-Tom.-Toshkent, 1996, 33- 42 betlar.
- Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.
3-Tom. Toshkent,1996, 274-284 betlar.
- Jabborov I.J. qudratli davlat mafkurasini.-Muloqot, 1993, № 9-10, 21-22 betlar.
- Jo‘rayev N.J. Demokratiya va tarixiy jarayon.-Muloqot, 1998, № 1, 12-19 betlar.
- Choriyev A.CH. Sotsialniy oblik sovremennoy molodyoji.- Toshkent, 1996, 113-121betlar.
- Choriyev A.CH. Milliy istiqlol mafkurasining o‘ziga xos xususiyatlari.- Muloqot, 1996, №4, 15-17 betlar.
- Choriyev A.CH. Tarbiyaga kompleks yondashish-milliy istiqlol talabi. Istiqlol mafkurasini va tarbiya.- qarshi, 1994, 10-19 betlar.
- Shodimetov Y.SH. Istiqbol va istiqlol masuliyati.- Muloqot, 1992, №4-5, 12-13 betlar.

MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINING SHAKLLANISHIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR AHAMIYATI.

MA'RUZANING REJASI:

Kirish.

§1. qadriyatlarni falsafiy tushunish.

§2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash yo'llari.

§3. Milliylikka asoslangan baynalmilal tarbiya - milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlashning muhim sharti.

Foydalanilgan adabiyotlar

K i r i sh

O‘zbekistonda insonparvar, demokratik jamiyat qurilishi avj olib borilayotgan hozirgi sharoitda milliy va umum-insoniy qadriyatlarning mushtarakligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishishi bilan qadriyatlar muammolarini o‘rganish yildan-yilga avj olib bormoqda.

qadriyatlar allaqanday hodisa, voqea yoki narsaning o‘ziga xos xususiyati yoki xossasi emas, balki uning mohiyati, o‘z navbatida borliqning u yoki bu obyektining yashashi, mavjud bo‘lib turishi uchun tom ma’nodagi zaruriy shartidir.

Har qan-day qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mahsuli, ya’ni har qanday qadriyat odamlar tomonidan yaratiladi, avlodlar tomonidan o‘zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimuly beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta’minlashga alo-hida e’tibor berila boshlandi. Chunki milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko‘p uyg‘unlashgan bo‘lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi. Ayni paytda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarak-ligining ta’minlanishi milliy istiqloq mafkurasi samara-dorligining muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur ma’ruza matnida mutaxassislarning bu boradagi fikr va mulohazalari umumlashtiriladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish yo'llari haqida fikr-mulohaza yuritishdan avval, "qadriyatlar" tushunchasining mazmuni, ushbu tushunchada o'z ifodasini topgan obyektiv voqelikning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Avvalo, ta'kidlash joizki, mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishishi bilan O'zbekistonda qadriyatlar muammolarini o'rganish yildan-yilga avj olib bormoqda. Aniqroq qilib aytganimizda, qadriyatlar falsafasi shakllanmoqda. Lekin keyingi yillarda chop etilgan ilmiy-falsafiy, xususan, ilmiy-publitsistik adabiyotlarda "qadriyatlar" iborasini juda keng ma'noda ishlatish, hatto uni "madaniyat", "ma'naviyat" tushunchalariga tenglashtirish, ba'zi hollarda esa "qadriyatlar" va "an'analar" iboralarini bir o'ringa, bir qatorga qo'yish, tenglashtirish holatlari sodir bo'lmoqda. Shuningdek, ba'zi birovlar "qadriyatlar" tushuncha-si'i "moddiy-tabiiy boyliklar" kategoriyasiga o'yenglashtir-moqdalar. Yana boshqa birovlar esa qadriyatlarni moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ajratmoqdalar.

Bunday boshboshdoqliklarning âujudga kelishi "qadriyat-lar" tushunchasining iazmuni va mohiyati, shakli va ko'rinish-lari, tarbiyaviy ta'sirini tahlil qilishda hali ishonchli metodologik asos hozirgacha yaratilmaganligidan dalolat beradi.

qadriyatlarning madaniy meros bilan o'zaro aloqadorlik mexanizmi va uning tarbiyaviy imkoniyatlarini tiniqroq tasavvur etmoq uchun ushbu ijtimoiy-madaniy voqeani o'rganishga faqat sotsiologik yoki fenomenologik yondashuvning ûzi kifoya qilmaydi. Ushbu murakkab ijtimoiy-madaniy voqeani tahlil etishda kulturologik yondashuvga asoslanishi-miz ñamarali natija beradi deb hisoblaymiz. Kulturologik yondashuvga asoslanib, "qadriyatlar" tushunchasining iazmuni va mohiyatini, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengroq tadqiq etsa bo'ladi. Ayniqsa "iadaniyat-ma'naviyat-qadriyatlar" kontekstining oahlil qilinishi qadriyatlar xususida fundamental tasavvurlar hosil qiladi.

Madaniyat falsafiy mushohada obykti sifatida 2-3 ming yildan buyon o'rganilib kelinmoqda. Xuddi shuning uchun ham hozirgacha madaniyatga 200 ortiq turlicha ta'rif berilgan. Bizning fikrimizcha, qadimda madaniyat deganda inson bilan tabiat orasidagi aloqadorlik, insonni tabiatni o'zgartirish ya'ni "ikkinchi tabiat", "sun'iy muhit" yaratish borasidagi malakasi, mahorati tushunilgan bo'lsa, bizning zamonamizda madaniyat deganda insonning kundalik amaliy faoliyati tufayli yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari tushuniladi. Xullas, qayerda inson mavjud bo'lsa, qayerda u faoliyat ko'rsatsa, qayerda odamlar biri-ikkinchisi bilan muloqotda bo'lsa, o'sha yerda madaniyat sodir bo'ladi.

Madaniyat deganda faqat odamlarning savodxonligi yoki savodsizligini tugatish tushunilmaydi. Balki kishilarning iyehnat qilishi, o'qishi, yashashi, ishlashi, maishiy turmushi, bir ibora bilan aytganda, turmush tarzining barcha jabhalaridagi faoliyatining holati, darajasi tushuniladi. Xuddi shuning uchun ham madaniyat inson ongi va faoliyatining ûzaro aloqadorligi darajasini ham ifodalaydi. Insonning kunda-lik amaliy faoliyati moddiy va ma'naviy sohâlarda sodir bo'lgani

uchun madaniyat ham shartli ravishda moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

Moddiy madaniyat moddiy ishlab chiqarish sohäsida mehnat qilayotgan kishilar faoliyatini xarakterlasa, ma'naviy madaniyat odamlarni ma'naviy ishlab chiqarish borasidagi faoliyatini ifodalaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, har qanday moddiy madaniyatda ma'naviy madaniyatni, har qanday ma'naviy madaniyatda moddiy madaniyatning oà'siri bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, moddiy va ma'naviy madaniyat biri-ikkinchisiñiz yashay olmaydi, biri-ikkinchisi bilan dia-lektik aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

Ma'naviy madaniyatning iag'zini (yadrosini) qadriyatlar tashkil etadi. qadriyat allaqanday hodisa, voqea yoki narsaning o'ziga xos xususiyati yoki xossasi emas, balki uning mohiyati, o'z navbatida, borliqning u yoki bu obyektining yashashi, mavjud bo'lib turishi uchun tom ma'nodagi zaruriy shartidir. qadriyatlar inson bisotida turli-tuman ehtiyojlarning va his-tuyg'ularning mavjudligidan dalolat beradi, atrofida sodir bo'layotgan voqealarni, hodisalarni turlicha baholashlari uchun zamin yaratadi. Chunonchi, birovlar uchun o'ta qadrli, o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan u yoki bu hodisa boshqa birovlar uchun qadrsiz, sariq chaqalik ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarni oddiy qilib ijobiy yoki salbiy (ahamiyatsiz, ahamiyati kamroq, qadr-qimmati sezilmaydigan), absolyut va nisbiy, obyektiv va subyektiv qadriyatlarga bo'lish mumkin. Mazmuniga qarab mantiqiy, etik, estetik va narsalar qadriyatlariga bo'lish mumkin. O'z navbatida, xayrli, foydali va zaruriy qadriyatlarga ajratish mumkin. Shuningdek, qadriyat-larni: haqiqatni, ezgulikni, go'zallikni ulug'lovchi qadriyat-larga ajratish mumkin.

Har qanday qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mahsulidir. Boshqacha aytganimizda, har qanday qadriyat odamlar tomonidan, ya'ni odamlarning ajdodlari tomonidan yaratiladi, boshqa avlodlari tomonidan o'zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimuly beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir, shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda konkret tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur.

qadriyatlar insonning orzulari-istaklari, niyatlari-umidlari, bir so'z bilan aytganda, ideal sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham, buyuk nemis faylasuflari V. Vindelband, G.Rikkertlar oà'kidlaganidek, qadriyatlar hech qachon obyektga ham, subyektga ham bog'liq bo'lmagan mustaqil olamni vujudga keltiradi. Bu olam makon va zamon qonun-laridan ustun turadi. Shuningdek, insoniyatning buyuk ma'naviy xazinasini bo'lgan qadriyatlar hech qachon o'zgaribmaydi, balki M.SHeler, N.Gartman aytganidek, insonning qadriyatlar haqidagi tasavvurlari o'zgaradi. Butun olam qadriyatlar bilan to'lib-toshgan bo'ladi va borliqqa hamisha yangi ma'no ato etadi. Shuning uchun ham butun voqelik qadriyatlarning "o'ziga xos namoyishi"dan iboratdir.

Hizirgi zamon qadriyatshunos olimlarining fikriga ko'ra, qadriyatlarning ham

o'ziga xos qonunlari bor. Bu qonunlar inson irodasiga bo'yso'nmaydi. qadriyatlar obyektiv olamning subyektiv in'ikosi bo'lgani uchun kishilarning amaliy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Hatto odamlar turmush tar-zini o'zgartiradi. Xuddi shuning uchun ham kishilar o'zlarining turmush tarzlarini insoniyat yaratgan qadriyatlar talablariga qarab o'zgartirib boradilar.

Amaliyot o'ndan dalolat berayotirki, qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi va hech qachon undan tashqarida yashamaydi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlar jamiyat ijti-moiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsuli bo'lib, unda zamonning ruhi, imkoniyatlari, odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'zgarishi bilan qadriyatlarning ma'nosi va mazmuni o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyat-larning tarbiyaviy imkoniyatlariga baho berganda konkret tarixiy shart -sharoitlarni inobatga olish lozim.

Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino qadriyatlar haqida fikr-mulohaza yuritganlarida, eng avvalo, insonning ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini, xislatlari, xosiyatlarini, insonning ruhiy-ma'naviy kamolati uchun yordam beradigan buyuk xazinasini tushunganlar. Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha, qadriyatlar - borliqning nomoddiy holati bo'lib, odamlarning turmush-tarzi, ehtiyojlari, manfaatlari, orzulari va umid-lari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, odamlar turmush tarzidagi hamkorlik, kishilarning dushmanga qarshi birlashib kurash zaruriyatidan kelib chiqqan. Abu Ali ibn Sino fikriga ko'ra, qadriyat haqida gap ketsa, eng avvalo, insonning qadr-qimmatini haqida fikr yuritmoq darkor. Uning tushutirishicha, insonning qadri boshqalar bilan qilgan hamkorligi, yaxshi insoniy fazilatlarga intilishi, donoligi, boshqalarga qilgan yaxshiligi bilan o'lchanmog'i darkor.

Musulmon Sharqi mamlakatlarida keng tarqalgan diniy-falsafiy ta'limot - tasavvuf namoyondalari ham, qadriyatlar deganda insonning qadr-qimmatini, uning ruhiy-ma'naviy yetuk-ligiga qarab belgilanmog'i lozimligini qayta-qayta takrorladilar. Xususan, tasavvufning eng yirik oqimlaridan biri kubraviyada ta'kidlanishicha, insonning ruhiy-ma'naviy yetukligini ifodalovchi asosiy mezonlar: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, tavajjuh, sabr, muroqaba, zikr, rizo hisoblansa, tasavvufning boshqa bir oqimi naqshbandiyada qayd etilishicha, insonning ruhiy-ma'naviy kamolatini ifodalovchi mezonlar xush dar dam, nazar bir qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, vuqufi adadiy, vuqufi zamoni, vuqufi qalbiy hisoblanadi. Tasavvuf falsafasining buyuk namoyondalari Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Abdu-holiq g'ijduvoni, Aziziddin Nasafiy, Bahouddin Naqshbandiy, Hoja Ahror Valiy kabilar inson ma'naviy qadriyatlarining asosida poklik, hayo, sabr-bardosh, qanoat, chidam, bezorlik, hokisorlik kabi insoniy xislatlarni qo'yishgan. Yuqori-dagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar ichida eng ulug'i, eng a'lo insondir. Chunki, inson har qanday ma'naviy boyliklarning e'jodkoridir. Xuddi shuning uchun ham insonning ongi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqarida turgan bironta qadriyat bo'lishi mumkin emas. Insonning qadr-qimmatini, uning jamiyatdagi, davlatdagi, ja-moadagi, iladagi mavqei, eng avvalo, uning yuksak ma'naviy-ahloqiy yetukligi, professional malakasi bilan o'lchanadi.

Shunday ekan, qadriyatlar o'z mohiyati, mazmuniga qarab inson aql-zakovatini, ahloq-odobini, mehnatga halol, vijdonan munosabatini, go'zal did va jismoniy kamolatni ulug'lovchi qadriyatlarga a'loqasizlikni darkor. qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yoshi, professional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyat qurilishi avj olgan mamlakatimiz sharoitida, inson o'zining shaxsiy-individual xususiyatlariga tayanishi, o'z baxt-iqbolini o'z qo'li bilan yaratishi haqida qayg'urishi, jamiyat va davlat muassasalariga emas, balki o'z qobiliyatiga umid bog'lashi, uning qadr-qimmatini belgilovchi asosiy mezonga aylanayotir.

Insonning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Milliy qadriyatlar har bir kishining tili, tarixi, dini, adabiyoti, san'ati, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, bayramu-sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy merosi, insoniy fazilatlarini, xislatlarining yig'indisidir. Milliy qadriyatlar o'sha mil-latga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir. Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq. Shuning uchun ham "milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham millat o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomil-lashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgari harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon yetkazib boradigan eng asosiy obyektidir" (Nazarov q. Aksiologiya. qadriyatlar falsafasi. Toshkent, 1998, 56-bet).

Milliy qadriyatlar millat yaratgan madaniy-ma'naviy merosni, xususan millat kishilariga xos barcha insoniy fazilatlar, xislatlarni o'tmishdan bugunga yetkazadi. Xuddi shuning uchun ham milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga har bir millatning o'zi mas'uldir. Har qanday sharoitda ham, chunonchi biron millat ozod, farovon bo'lganida ham, qullik, tobelik iskanjasiga tushib qolganda ham, unda milliy qadriyatlarini saqlab qolishi uchun ichki imkoniyat mavjud bo'ladi.

Milliy qadriyatlar kishilar tarixiy birligini ta'min-laydigan etnik makonda shakllanadi va turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi. Kishilarning ongi va faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Odamlarning kundalik turmush tarzida, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarida, manfaatlarida qiziqish-larida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar bir joyda qotib qolmaydi, tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zga-rib, takomillashib boradi. Yangicha mazmun va yangicha shaklga kiradi.

Milliy qadriyatlar o'tmishdan bugunga tomon harakatda bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham milliy qadriyatlar ajdodlardan avlodlarga o'tib to'radi. O'z navbatida, ajdodlarni avlodlar bilan bog'lovchi ko'priklar vosita vazifasini bajaradi. Milliy qadriyatlar millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq bo'ladi. Lekin milliy qadriyatlar faqat o'sha millat yashayotgan etnik makonda

faoliyat ko'rsatadi, undan tashqarida chiqa olmaydi, deb bo'lmaydi. Milliy qadriyatlar etnik makondan chiqib, boshqa millat qadriyatlari bilan qo'shib-qorilib turadi. Xuddi shuning uchun ham milliy qadriyatlar har bir millatning o'ziga xos qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi halqadir.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik, o'ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, tarixiy xotira-sida, yashash ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm-rusumlarida, bayramu-sayillarida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.

Milliy qadriyatlarning iyegizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bola-jonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Bunday insoniy fazilatlar, xislatlarning qaror topishida, shubhasiz islom madaniyatining ta'siri bor. Chunki o'zbeklar bir necha asrlardan buyon e'tiqod qilib kelgan islom madaniyatining asosi hisoblangan "qur'onu Karim" va "Hadisu Sharif" qoidalarida ham insonning insoniy fazilatlarini, xislatlarini eng oliy qadriyat sifatida har tomonlama ulug'langan, xuddi shu holat o'zbek milliy qadriyatlari umuminsoniy qadriyatlar bilan tezroq uyg'unlashishi uchun real imkoniyat yaratadi. O'z navbatida xuddi shu holat milliy qadriyatlarimizni tezroq tiklanishi uchun ichki stimuly berayotir.

Milliy qadriyatlarni tiklash - ularga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demo-kratik qadriyatlar xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mamla-katda tinchlik, totuvlik, barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida jahonning obro'li tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga quydi. Tinchlik, millatlararo totuvlik, barqarorlik, davlatlararo o'zaro hamkorlikni uzluksiz takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublika hukumati-ning tashabbusi bilan 1995 yil 15-16 sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro seminar-yig'ilishini bo'lib o'tganligi, 1995 yil 10-11 oktabrda O'zbekiston va Tojikiston hukumat-larini mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash muammolarini birgalikda muhokama qilinganligi fikrimizning isbotidir.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro seminar-kengashda BMT, YEXHT, MDH, Islom konferensiyasi tashkilotlari delegatsiyalari, BMT Xavfsizlik kengashiga a'zo mamlakatlar, Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari, shuningdek, mintaqaga tutash davlat-lar delegatsiyalari -

jami 31 davlat, 6 xalqaro tashkilot ishtirok etdi. Ushbu seminar-kengash mintaqada xavfsizlik va barqarorlik tizimini o'rnatish va uni amalga oshirish yo'lida, Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari uchungina emas, balki bu mintaqaga chegaradosh ulkan hudud uchun ham juda zarur bo'lgan hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asosni shakllantirishda, turli fikr va yondashuvlarni yuzaga chiqarish va ularni bir-biriga yaqinlashtirishda, shuningdek mintaqada demokratlashtirish jarayonini tezlashtirishda, inson huquqlarini har tomonlama muhofaza qilishda ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Endilikda tinchlik, totuvlik, barqarorlikning âujudga kelishi nafaqat milliy va umuminsoniy qadriyatlarning iushtarakligini ta'minlayotir, balki mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarni, millatlarni halqaro hamjamiyat bilan birlashtiruvchi vositadir. Insonparvarlik, yaxshilik, sofdil-lik singari umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilgan va birgalikda baham ko'rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon hamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishi mumkin. Xuddi shu holat o'z navbatida milliy qadriyatlarni umuminsoniy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashish jarayonini tezlashtiradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashib borayotganligini, mustaqillik yillarida O'zbekistonda vujudga kelgan fuqarolarni tinch, totuv yashashga, barqarorlikka intilishida ham yaqqol ko'rish mumkin. Endilikda tinchlik, millatlararo totuvlik, barqarorlik O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlar, millatlar, elatlarning âuyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatiga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qadriyatlar ma'naviy madaniyat bilan bog'liq fenomen bo'lib, murakkab tipologiyaga ega. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ana shu tipologiyada o'ziga xos o'ringa ega. Ular shaxsga qudratli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, chunki ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar insoniyat ma'naviy taraqqiyotida erishilgan yutuqlar konsent-ratsiyasi bo'lib, shaxs ijtimoiy qiyofasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi.

§2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash yo'llari

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishganidan keyin milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushta-rakligini ta'minlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu hol qator tadbirlar, sa'y-harakatlarda o'z ifodasini top-moqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlashda ko'ppartiyaviylikning qàror topayotganligi real shart-sharoit vazifasini o'tayotir. O'z navbatida, ko'ppar-tiyaviylik jamiyatimiz turmush tarziga demokratik tamoyil-larni kirib kelayotganligining muhim alomatidir. Ko'ppartiya-viylikning qàror topishi fuqarolar uchun tanlash, saralash, musobaqalashish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Fikrlar, mulohazalar rangba-rang bo'lishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Chunki siyosiy partiyalar xalqning muayyan qismini o'z atrofida birlashtiradi. Siyosiy partiyalarning diqqat marka-zida davlat hokimiyatini demokratik saylovlar orqali egallash turadi. Xuddi shuning uchun ham siyosiy partiyalar davlatni idora qilish vakolatiga ega bo'ladi. Davlat hokimiyatini egallash

esa, o'z navbatida, siyosiy partiyaning dasturiy maqsadlari, xalqqa bergan saylovoldi va'dalarini bajarish uchun rasmiy muruvvat bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mushtarakligiga asoslangan yangi jamiyat qurilishi boshlanishi bilan turli partiya va harakatlarning paydo bo'layotgani ijo-biy hol qarashlarni rangba-rangligi to'g'ri yo'lini tanlab olishga yordam beradi. qaysi g'oya insoniy bo'lsa, odamlarga foydasi tegsa, o'sha g'oya jamiyatga kerak.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlashda mamlakatlararo madaniyat kunlarining ûtkazi-lishi katta ahamiyatga ega bo'layotir. Chunonchi, 1994 yil 23 mayda O'zbekistonda qozog'iston kunlari, 1995 yil may oyida qozo-g'istonda O'zbekiston kunlari, 1996 yil aprel oyida O'zbekis-tonda Tojikiston kunlarining ûtkazilishi o'zbek, qozoq, tojik xalqlari orasidagi qadimiy do'stlik, birodarlik, yaxshi qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlashda salmoqli hissa qo'shdi. Shuningdek, davlatlararo madaniy-ilmiy aloqalar, xususan xalqaro ilmiy anjumanlar, kongresslar, konfe-rensiyalarni hamkorlikda o'tkarilishi ham milliy va umumin-soniy qadriyatlarning iushtarakligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 1995 yil 18-CAPut!' sentabr kunla-ri BMT rahbarligida Nukusda o'tkazilgan Orol dengizi havza-sidagi davlatlarning barqaror rivojlanishi muammolariga bag'ishlangan; 1995 yil 2-3 oktabrda Toshkentda "Germaniya va O'zbekiston: tarixiy, siyosiy va strategik jihatdan qiyoslash muammolari" mavzuida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalar ana shunday ahamiyatga ega edi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligini ta'minlashda mamlakatimizda "Turkiston-umumiy uyimiz" shiori ostida amalga oshirilayotgan tadbirlar, xalqaro sport musobaqalari, ayniqsa milliy kurash va tannis bo'yicha o'tka-zilgan iusobaqalarning hissasi ham áyeqiyos bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat barpo etishning boshlanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligining ta'minlanishi uchun real shart-sharoit yaratdi. Bu borada O'zbekistonda o'tkazilayotgan qator anjumanlar, tadbirlar millatimiz tarixi davomida vujudga kelgan qadriyatlarni umumjahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida shakllangan qadriyatlar bilan biriktirish imkoniyatini yaratmoqda.

§3. Milliylikka asoslangan baynalmilal tarbiya milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini taminlashning muhim sharti.

Ko'p millatli mamlakatimiz sharoitida milliylikka asos-langan baynalmilal tarbiya milliy va umuminsoniy qadriyat-lar mushtarakligini ta'minlashning eng muhim shartdir. Respublikamizda insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun kurash avj olgan hozirgi sharoitda baynalmilal tarbiyani yangi bosqichga ko'tarmoq uchun, eng avvalo, milliylik va baynal-milallik orasidagi dialektik aloqadorlik mexanizmini to'la tushunib olmoq darkor. Milliylik va baynalmilallik tuyg'ulari inson faoliyatida o'z ifodasini nimalarda topadi? Milliylikning baynalmilallikka o'sib o'tish jarayoni qanday sodir bo'ladi? Insondagi milliy va

baynalmilal his va tuyg‘u-larning mustahkamligini ifodalovchi mezonlar nimalardan iborat? Odamlarda chinakam baynalmilal qadriyatlarni shakl-lantirish uchun qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish zarur?

Milliylik deganda, eng avvalo, o‘z millatini ulug‘lash va uni himoya qilish, milliy g‘urur va nafsoniyat tuyg‘usi, o‘zining tili, adabiyoti, madaniyati va san‘ati, dini, tarixi va urf-odatlari, barcha ma‘naviy qadriyatlarini qadrlash, o‘zi tug‘ilib, voyaga yetgan ona diyorini ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko‘llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tushuniladi. Baynalmilallik deganda boshqa millat va elatlar manfaatini hamisha e‘tiborga olish, ularning tili, adabiyoti, madaniyati, san‘ati, tarixi, dini, urf-odatlarini hurmat qilish, qadrlay bilish demakdir. Boshqacha aytganda, bisotida baynalmilallik tuyg‘usi bo‘lgan inson dastlab o‘z millati yoki elatining milliy qadriyatlarini o‘zlashtirib oladi. Milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali boshqa millat va elat yaratgan umuminsoniy qadriyatlarni, ya‘ni insoniyat yaratayotgan barcha ilg‘or progressiv qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Milliylik va baynalmilallik inson faoliyatidagi biri ikkinchisi bilan dialektik aloqador bo‘lgan eng muxim his va tuyg‘ulardir. Insonning insoniy fazilatlarini xarakterlovchi ikki holat, ikki darajadir. Bu ikki holat, ikki daraja biri ikkinchisiz yashay olmaydi, mavjud ham bo‘lmaydi. Agar uning biri shikastlansa, ikkinchisi ham darhol shikastlanadi. Boshqacha aytganimizda, inson faoliyatidagi bu ikki tuyg‘uning biri kuchsizlansa, ikkinchisi ham darhol zaiflashadi. Lekin shuni alohida ta‘kidlash zarurki, baynalmilallikning zami-nida milliy ong yotadi. Chunki insonda milliylik tuyg‘usi bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millat, elatga mansubligini his qila olmasa, o‘sha millat yoki elatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy manfaatlarini tushinib yetmasa, uni himoya qila bilmasa, urf odatlariga rasm-rusmlariga amal qilmasa, madaniyati, ada-biyoti, tili va tarixidan yiroq bo‘lsa, bunday kishi chinakam baynalmilalchi bo‘la olmaydi. Shoirlar aytganidek, milliy zamindan uzilgan odam vaznsizlik holatida ish ko‘rayotgan kosmonavtga o‘xshaydi. U na osmonning yiroqligini, na ona yerning azizligini biladigan “manqurtga” aylanadi.

Sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarimizda baynalmilallik milliylikdan ajratib qo‘yildi. Zo‘r berib baynalmilallik haqida gapirdiku, milliy ong, milliy g‘urur haqida lom-mim demadek. Umum-ta‘lim maktablarining dasturlarida milliy madaniyatni, millat tarixini, milliy tilni o‘qitishga e‘tibor berilmadi. Natijada yigit va qizlarimizning ko‘pchiligi milliy qadriyatlarimizdan benasib bo‘lib voyaga yetdilar. Oilada ham, maktabda ham Yevropa madaniyati va tarixi tashviqot qilindi. Milliy madaniyat esa deyarli unutib qo‘yildi. Ayniqsa, o‘zbek xalqining amaliy san‘ati, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik e‘tibordan chetda qoldi. Butun dunyoni lol qoldirgan qadimiy tarixiy arxitektura yodgorliklari haqida gapirmadik. O‘z tariximiz qolib, o‘zgalar tarixini o‘rgandik. Yoshlarimizga o‘tmishda o‘zbek xalqi savodsiz bo‘lgan, imzo chekish o‘rniga barmoq bosgan, deb alahsiradik. Birov qo‘limizdan tortib, hoy birodar, og‘zingga qarab gapir, sen savodsiz deb atayotgan o‘sha xalqning o‘tmishda son-sanoqsiz madrasalari bo‘lgan, o‘sha xalq dunyoga At-Termi-ziy, Ahmad Yassaviy, Navoiy, Beruniy, ibn Sino, Al-Xorazmiy, Ulug‘bek kabi allomalarni yetkazib bergan, deb bizni

to'xtatib qo'yadi.

Baynalminallik milliylikdan ajralgan holda allaqachon mavhum, anglab bo'lmaz holat sifatida talqin qilindi. Jami-yatshunoslar milliylik jarayonini chuqurroq tahlil qilishdan o'zlarini olib qochdilar. Tojikiston xalq yozuvchisi Fotih Niyoziy aytganidek, baynalminallik, ya'ni internatsionalizm osmonga chiqarib qo'yildi. Unga qo'l uzatgan odamning ko'zi xira tortdi. To'g'rirog'i qo'lini kuydirdik, ko'zini so'qir qildik. Bu haqida gap ochgan kishi bilan tegishli organlar shug'ullanadigan bo'ldi. Umuman, milliylik haqida gapirish jinoyat bilan barobar deb qaraldi. Oqibatda og'zini ko'pirtirib internatsionalizm to'g'risida ma'ruza o'qigan unitar davlatning tashviqotchi-targ'ibochilarining kasri o'laroq odamlarning milliy manfaatlarini tuproqqa tenglashtirildi, milliy g'urur bo'g'ib qo'yildi.

Milliy g'ururni bo'g'ib tashlashdan muddao milliy ongning shakllanishiga yo'l qo'ymaslik edi. Chunki milliy g'urur tuyg'u-sidan benasib kishi milliy manfaat va milliy ehtiyojni tushunib ololmaydi. Boshqacha aytganimizda, bunday kishida milliy ong bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham mustamlakachilik siyosatining yalovbardorlari Sovet hokimiyati yillarida O'rta Osiyo va qozog'iston respublikalari, ayniqsa O'zbekistonda odamlarda milliy ongning rivojlanishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatib keldilar. Milliy madaniyatning rivojlanishiga yo'l qo'yamadilar. Mahalliy millat kishi-larining ma'naviy qadriyatlarini kamsitib, uni yo'qotib tash-lashga, ayniqsa O'rta Osiyo va qozog'istonliklar uchun avlod va ajdodlarining noyob madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan musulmon madaniyati va axloqini tag-tomiri bilan qo'porib tashlashga urindilar. Milliy birdamlik, milliy totuvlikning ashaddiy dushmani bo'lgan mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilikning rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdilar. Bunday ijtimoiy illat-larning yildan-yilga tobora chuqurroq ildiz otishini ko'rgan mustamlakachilar ich-ichlaridan quvondilar. Mustamlakachilik siyosatining nazariyotchilari va tashkilotchilari mahalliychilik va urug'-aymoqchilik odamlarda milliy ongning rivojlanishida to'sqinlik qiladigan qudratli g'ov ekanligi juda yaxshi bilishardi. Bunday noxushliklar, tabiiyki, yerli millat kishilarining milliy nafsoniyatiga tegdi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash uchun mehnatkashlar orasida olib borilayotgan baynalminal tarbiyaning shakl va uslamlariga, mazmuniga alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa, baynalminal tarbiyaning iqtisodiy asosini ishlab chiqish zarur. Chunki ko'p millat va elatni birlashtirgan sobiq ittifoqda baynalminal tarbiyaning iqtisodiy asosi yaratilmagan edi. Ba'zi bir respublikalar boqimanda bo'lib qoldi, bu yerdagi xalqlar boshqalar hisobiga yashayapti, degan o'ylovsiz mushohadalar millatlararo munosabatlarimizga sovuqlik tushirdi, odamlar-ning milliy nafsoniyatiga tegdi. Sobiq ittifoq amaldorlari millat va elatlar, respublikalar ittifoq jamg'armasidan nima olayotganlari to'g'risida ko'proq gapirishdi, boshqalardan nimalar qabul qilib olayotganlari haqida esa gapirishni hohlamadilar.

Xuddi shuning uchun ham ko'p millatli O'zbekiston Sovet hokimiyatining achchiq sabog'ini uqib, baynalmilal aloqalar-ning iqtisodiy asoslarini o'rganadigan alohida institut tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning fikrimizcha,

xuddi shu institut ko'p millatli davlat sharoitida turli millat va elatlarning milliy ehtiyojlarini o'rganib, uni qondirish yo'llari haqida konkret taklif va rejalar ishlab chiqish-da, qaysi millat, qaysi elat umumdavlat jamg'armasiga qancha hissa qo'shgani, undan nimalar olayotganini aniq hisob-kitob qilishda munosib rol o'ynaydi. "Hisobli do'st ayrilmas", deb bekorga aytishmagan. Albatta, bunda har bir millat yoki elat ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, ularning ko'p millatli davlat hamyoniga qo'shayotgan hissalarini jahon bozori narxlarida baholanishi lozim. Ana shunday mexanizm yaratmasdan turib, turli millat va elatni o'zida birlashtirib turgan mamla-katlar sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mushtarakligini ta'minlab bo'lmaydi. Baynalminal tarbiyaning samarasi ham o'ziga yarasha bo'ladi.

Sovet hokimiyati yillarida baynalmilal tarbiya milliy asosdan ajratib amalga oshirildi. Umumta'lim maktablari o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirib bormadi. Bunday maktabni tugatgan yigit-qizlar orasida qo'liga biron marta o'zbek do'ppisini ushlab ko'rmaganlar borligi sir emas edi. Ko'pgina yigit-qizlarning ko'cha-ko'ydagi yurish-turishlari o'zbek xalqining udumlarini deyarli eslatmaydi, balki allaqa-chon Yevropalik kishilarnikiga o'xshab ketadi. Shunday bo'lishi tabiiy. Chunki baynalmilal tarbiyaga bag'ishlangan tadbirlar dabdabali uchrashuvlar, hayotdan ajralib qolgan soxta chaqi-riqlar ostida amalga oshirildi. Odamlardagi baynalmilal tuyg'ular ular o'qiyotgan yoki ishlayotgan jamoadagi millat va elatning soni, jamoa yoki oilaning boshqa respublikalarda yashovchi kishilar bilan bordi-keldisi, qardosh mamlakatlar bilan amalga oshirayotgan aloqalarga qarab belgilanar edi. Bunday biryoqlamalik tarbiyaviy ishlarimizning samaradorli-gini ko'tara olmas edi.

Hozirgi sharoitda baynalmilal tarbiyaning samaradorli-gini oshirish uchun odamlarda eng avvalo milliy g'urur, milliy qadriyatlarni ulug'lash, vatanparvarlik, do'sti-birodarlik tuyg'ularini shakllantirish lozim. Bunday ishni amalga uddalamoq uchun har bir millat va elatning milliy qadriyatlarini ulug'lash borasidagi jamoat tashkilotlarining faoliyatini tubdan qayta qurish maqsadga muvofiqdir. Bu borada keyingi vaqtlarda respublikamiz shahar va qishloqlarida xalq bayramlari va marosimlarining qayta tiklanishi va ularni takomillashtirishga e'tiborning oshganligi diqqatga sazovordir. Ramazon va qurbon Hayitlarining nishonlanishi, ayniqsa, Navro'z bayramini tiklanishi jamoatchilik tomonidan qizg'in ma'qullandi. Yaqin o'tmishda xalq turmushining madaniy va ma'naviy sohasida ma'muriyatchilikka yo'l qo'yilganligi, asrlar davomida tarkib topgan ananalarni mensimaslik kabi holatlar barham topdi. Har yili 21-martni Navro'z bayrami, 21 martdan 21 aprelgacha bo'lgan davrni "rahm-shavqat" va "atrof-muhitni muhofaza qilish oyligi" deb e'lon qilingani va bu davr ichida "Xotira va qadrlash" kuni, "Birinchi pushta", "Birinchi ekin", "Don, maysa va suv" kuni, bolalarning "Boychachak" bayrami, "Lola sayli" kabi ko'pgina marosimlarning tiklanishi odamlarda milliy g'ururning va shu orqali umuminsoniy qadriyatlarining shakllanishida, oxir-oqibatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mushtarak bo'lishida katta rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mushtarakligini ta'minlash uchun mamlakat ta'lim maskanlari va mehnat

jamoalaridagi baynalmilal tarbiyani milliylik asosida amalga oshirmoq zarur. Bunday tarbiya yordamida har bir kishi eng avvalo o‘z milliy qadriyat-lari, tili, yozuvi, urf-odatlarini, tarixi, madaniyati, adabiyoti-mukammal bilishi, shu orqali boshqa millat va elatlarning ham milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashga malaka va ko‘nikma hosil qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, 1999, 22-27 betlar.
2. Karimov I.A. Olloh qalbmizda, yuragimizda Turkiston – press” axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. Xalq so‘zi, 1999, 6 mart.
3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent, 1998, 3-31 betlar.
4. Karimov I.A. Elni Vatan manfaati birlashtiradi. O‘zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-Tom. Toshkent, 1996, 247-254 betlar.
5. Karimov I.A. Istiqbol yo‘li: muammolar va rejalar O‘zbekiston: milliy istiqbol iqtisod, siyosat, mafkura. 1-Tom. Toshkent, 1996, 3-35 betlar.
6. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-Tom. Toshkent, 1996, 33-42 betlar.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-Tom. Toshkent, 1996, 274-284 betlar.
8. Abilov. A. Ma’naviy yangilanish. Xalq so‘zi. 1998, 17 iyul.
9. Jo‘rayev N. J. Agar ogoh sen... Toshkent, 1997, 114-127 betlar.
10. Nazarov q.N. Aksiologiya. qadriyatlar falsafasi Toshkent, 1998, 47-65 betlar.
11. Nazarov q.N. qadriyatlar tizimi: barqarorlik va o‘zgarishlari. - Toshkent, 1994, 9-23 betlar.
12. Soifnazarov I. qadriyatlarimizning qudratli manbai. Muloqot, 1998, № 6. 27-28 bet.
13. Tulenov J.T. qadriyatlar falsafasi.- Toshkent, 1998, 191-291 betlar.
14. Choriyev A.CH., Eshmatov M. Ekologik tarbiya va qishloq yoshlari kamoloti. Toshkent, 1992, 18-31 bet.
15. Choriyev A.CH., Choriyev S. Millatlararo munosabatlar madaniyati. qarshi, 1993, 67-90 betlar.
16. Yusupov E. Y. qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni. Toshkent, 1995, 3-30 betlar.

MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR MADANIYATI

KIRISH

Ko'p millatli mamlakat, shu jumladan O'zbekiston sharo-itida insonparvar, demokratik jamiyat barpo etishning muhim omillaridan biri millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq. Chunki mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari orasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirmas, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga oladigan va qondirish yo'llarini izlab topadigan ijtimoiy institutlar va mexanizmlarni shakllantirmas ekanmiz, fuqarolarni yagona milliy g'oya atrofida jipslashtira olmaymiz. Shu boisdan ham milliy istiqol g'oyasi va mafkurasi xususida gap ketganda, uning millatlararo munosabatlar madaniyatini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq ekani e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor. "Odamlarning qalbi va ongiga milliy istiqol g'oyasi tamoyillarini singdirishga qaratilgan aniq siyosat" olib borilayogan bir sharoitda ushbu xulosa ayniqsa o'zgacha ahamiyat kasb etadi. (qarang: Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- Xalq so'zi, 2002, 30 avgust).

Mazkur ma'ruza matnida mamlakatimizdagi millatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, millatlararo muno-sabatlar madaniyatini shakllantirish muammolari, etnoslar orasidagi munosabat madaniyatining milliy istiqol mafkura-rasi bilan mushtarakligi haqida fikr yuritiladi.

SHAKLLANTIRISH – INSONPARVAR, DEMOKRATIK JAMIYAT TALABI

Ko‘p millatli O‘zbekiston sharoitida insonparvar, demokratik jamiyat barpo etilishi, huquqiy davlat poydevori yaratilishi ko‘p jihatdan mamlakatda millatlararo munosa-batlar madaniyatining takomillashtirilishiga borib taqaladi. Binobarin, milliy istiqloq mafkurasining shakllanishi ham millatlararo munosabatlar madaniyatining yuksalishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Millatlararo munosabatlar madaniyati umuman madaniyatga xos xususiyatlarni o‘z ichiga olish bilan birga o‘ziga xos xossalarga ham ega. Shuning uchun ham mazkur kategoriyani tadqiq etish uchun “munosabat” va “madaniyat” tushunchalarining mohiyatini aniqlab olishimiz kerak.

“Munosabat – ma’lum sistema elementlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni xarakterlovchi falsafiy kategoriyadir. (Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. Pod red. S. S. Ave-rinseva, V.A.Arab-oglo‘ i dr.- Moskva, 1987, s.454). Biz tadqiq etayotgan sohada sistema vazifasini millat va elatlar o‘tasa, alohida etnoslar shu sistemaning elementlarini tashkil qiladilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, millatlararo munosa-batlar madaniyati – millat va elatlarning jamiyat hayotining turli sohalaridagi o‘zaro aloqalari, o‘zaro bog‘liqliklarini ko‘rsatuvchi kategoriyadir.

Ma’lumki, millatlararo munosabatlar madaniyati ham jamiyatning, ham alohida ijtimoiy guruhning, ham shaxsning xarakteristikasi bo‘lishi mumkin. Shu boisdan uni uch dara-jada tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Biz quyida millat-lararo munosabatlar madaniyatini shaxsning muhim fazilati sifatida tahlil etayotirmiz.

Gumanistik tipdagi shaxsning turli millat va elat vakil-lari bilan munosabatda bo‘lish madaniyatiga ega ekanligi uning ijtimoiy-siyosiy bilimlari, faoliyati darajasi va xarakteriga, shuningdek unda bu munosabatlarni tartibga so-luvchi ijtimoiy qadriyatlar va normalarining shakllangan-ligi darajasiga qarab aniqlanadi. Shuning uchun ham shaxs millatlararo munosabatlar madaniyatining shakllanganligi darajasini ko‘rsatuvchi mezonlar quyidagilardan iborat:

shaxsning milliy madaniyat, tarix, din, til va an‘analardan xabardorligi va ularga munosabati;

shaxsning millat ehtiyoj va manfaatlaridan xabardorligi va ularga munosabati;

shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shakllan-ganligi;

shaxsning o‘zga millat qadriyatlariga munosabati va hokazo-lar.

Madaniyatning biz ko‘rib chiqayotgan shakli, tabiiyki, millatlararo munosabatlar jarayonida shakllanadi. Millat-lararo munosabatlar – turli etnos vakillari o‘rtasidagi alo-qalar yig‘indisidir. Ushbu munosabatlar davomida millat va elat vakillari qator ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’na-viy omillar ta’siri ostida harakat qiladilar. Shaxsning ma’lum sinf va ijtimoiy guruhga mansubligi ham uning o‘zga millat va elatga munosabatini belgilovchi omil vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, tarixiy taraqqiyot davomida vujudga kelib, shakllangan an‘analar, ijtimoiy tuyg‘u va kayfiyatlar, mavjud geografik va madaniy-maishiy sharoitlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Millatlararo munosabatlarning ikki tomoni mavjud. U, birinchidan, bir mamlakat hududida yashayotgan millat va elat-lar orasidagi turli aloqalarni, ikkinchidan esa,

turli mamla-katlarning xalqlari orasidagi o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shu boisdan mazkur aloqalardan, ular davomida vujudga keladigan muammolardan nafaqat ko'p millatli, balki aholi-sining milliy tarkibi nisbatan oddiyroq bo'lgan mamlakatlar ham xoli emaslar. Darvoqe, keyingilarini bir millatli mamlakat deb bo'lmaydi, chunki bugungi kunda Yer yuzida 2 mingdan ortiq millat, elat, qabila bo'lsa-da, ularning 90 foizi o'zga davlatlar tarkibiga kiradi. (qarang: Vestnik Mos-kovskogo Universiteta, 1984, №6, s.29). Shu sababdan milliy tarkibiga ko'ra "sof" mamlakatlar uchramaydi.

Millatlararo munosabatlar jarayoni har qanday davrda ham, har qanday mamlakat sharoitida ham muammosiz kechmaydi. Ijtimoiy progressning o'zi ziddiyatlardan xoli bo'lmaganligi tufayli bu sohada ham u yoki bu masalalar vujudga kelib turadiki, ularni aniqlash, bartaraf etish yo'llarini izlash dav-latning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi. Millatlararo munosabatlarni boshqarish uchun eng avvalo ana shu ziddiyatlarni vujudga keltirgan sabablarni aniqlash, uning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish zarur bo'ladi. Shu munosabat bilan ta'kidlab o'tish joizki, mazkur ziddiyatlarning ikki guruhi mavjud:

- 1) obyektiv shart-sharoitlar ta'siri natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlar;
- 2) subyektiv omillar faoliyati davomida namoyon bo'ladigan ziddiyatlar.

Ushbu ziddiyatlar o'z mohiyatiga ko'ra quyidagilardan ibo-rat bo'lishi mumkin: ko'p millatli mamlakat sharoitida istiqomat qilayotgan millat yoki elat vakillarining manfaatlari bilan umum-davlat manfaatlari orasidagi (ya'ni xususiylik bilan umumiylik o'rtasidagi) ziddiyat;

bir mamlakatda birgalikda turmush kechirayotgan ikki millat yoxud elat vakillarining manfaatlari orasidagi (ya'ni xususiylik va xususiylik o'rtasidagi) ziddiyat;

bir mamlakatda yashayotgan etnoslarning umumiy ehtiyoj va manfaatlari bilan mamlakatning umumdavlat manfaat-lari orasidagi (ya'ni umumiylik bilan umumiylik o'rta-sidagi) ziddiyat.

Mazkur ziddiyatlarning bartaraf etila borishi millat-lararo munosabatlar madaniyati, shuningdek siyosiy madaniyat saviyasini oshiradi.

Mualliflarning nazarida, bugungi kunda millatlararo munosabatlardagi muammo va ziddiyatlarning aksariyat qismi sobiq Sovet Ittfoqidan meros bo'lib qolgan. Shuning uchun bu muammolar ko'p jihatdan etnik xarakterga emas, ijtimoiy-siyosiy xarakterga egadir. Jamiyatimiz hayotining turli soha-larida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini berishi bilan ushbu muammolar ham yechila boradi.

Millatlararo munosabatlardagi muammolarni taraqqiyot-ning umumiy qonunlari kontekstida, jahonda yuz berayotgan voqealarga asoslangan holda hal etib bormoq zarur. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoq kerakki, jahon iqtisodiyoti va ilmiy-texnika progressi millatlar o'rtasidagi integratsion jarayon-larni jadallashtirib yubormoqda. Mustaqillik – o'zgalardan xoli bo'lish emas, balki boshqa millatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy aloqalarni kuchay-tirish demakdir. Millatning turli ehtiyojlarini qondirish jahon progressi, insoniyatning umumiy taraqqiyoti bilan aloqadorligi ana shundan dalolat beradi. Biroq bunday integ-ratsiya millatlarning o'ziga xos qiyofasini yo'qola borishiga, millatlarning bir-

biriga qo'shib ketishiga emas, balki, ak-sincha, milliylikning nihoyatda boyishiga, birgalikda turmush kechirish madaniyatining yuksalishiga olib keladi va milliy mustaqillikning mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, millat-lararo munosabatlar sohasidagi muammolarni hal etmoq, bu borada vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olmoq uchun eng avvalo millat ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olish, ularni qondirish yo'llarini topish zarurdir. Milliy ehtiyojlar – kishilarning kundalik talablari, orzu-niyatlarining nafaqat yig'indisidan, balki integratsiyasidan iborat. Ularni qondirish jarayoni esa jamiyatning rivoj-langani darajasi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, geogra-fik-siyosiy shart-sharoitlar bilan bog'liq.

Millatlararo munosabatlar madaniyati milliy ong va millatning o'z-o'zini anglashi bilan chambarchas bog'liq. Uning yuksalishi milliy ongning o'sishiga, o'z navbatida, milliy ong rivoji esa shaxs millatlararo munosabatlar madaniyatining yuksalishiga olib keladi. Milliy ong va millatning o'z-o'zini anglashi – millat ma'naviy hayoti hamda ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib, unda kishilarning ma'lum millatga mansubligini tanlashi o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, milliy ong – millat tomonidan o'z mohiyatining va o'zga mil-latlar orasidagi o'rining anglanishidir. U millatning o'zi to'g'risidagi tasavvurlari yig'indisidir. Bugungi kunda milliy ongning xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining muhim omiliga aylanishi ham shundandir.

Milliy ong – ijtimoiy hayotdagi milliy omillarning subyektiv in'ikosi bo'lib, uning asosiy komponenti shaxs tomonidan o'zining ma'lum millatga mansub ekanligini anglab yetilishi bilan bog'liq. Shaxs o'z turmushini, shu etnosga man-subligini o'z ijtimoiy ahvoli chig'irig'idan o'tkazib baholagani tufayli milliy ong ham shaxsning qaysi guruhga mansubligiga bog'liq bo'ladi.

Gumanistik tipdagi shaxsning milliy ongi o'z millatining mehnat qilish, fikrlash, o'zga millatlar bilan munosabatda bo'-lish madaniyatiga tayanadi. Bu esa shaxsdan ma'lum darajada ma'rifatli va madaniyatli bo'lishni talab etadi. Shaxsning milliy o'z-o'zini anglash jarayoniga aloqadorligi darajasini ko'rsatuvchi mezonlar o'z millatining tilini bilishi, millat tarixi, madaniyati, san'ati, dinidan xabardorligi, millat hayotiga qiziqishi va hokazolardan iborat.

Milliy ong strukturasi Vatanga va milliy qadriyat-larga munosabat, milliy g'urur, milliy manfaatlar haqidagi tushuncha, milliy ruhiyat va hokazolar tashkil etadi. Ular orasida ayniqsa milliy xarakter muhim atribut rolini o'taydi. Bu tushunchada millat tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos tomonlari, uning xo'jalik faoliyati, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti va geografik muhitining xususiyatlari o'z ifoda-sini topadi. Xuddi ana shu hollar millat vakilining psixikasi, faoliyati, odatlari, didi, ahloqi va fikrlash madaniyatida yorqin iz qoldiradi. Tabiiyki, millat turmu-shining o'zgarishi bilan uning milliy xarakteri ham o'zgara boradi. Shunga qaramasdan, u naqadar barqarorki, kishilar madaniyati va ma'naviy faoliyatiga alohida tus berib turadi.

Milliy ong tarixiy bilimlar ta'siri ostida shakllanga-ni tufayli ma'lum ma'noda tarixiy ong hamdir. Millatning o'z tarixini his etishi – milliy ongning muhim atributidir. O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi porloq bo'lmaydi. Biroq

bundan tarixi qadim-qadimdan boshlangan xalqni yorqin kelajak kutadi, degan xulosa ham kelib chiqmaydi. Aks holda bugungi kunda Misr, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlardagi turmush darajasi eng yuqori bo‘lmog‘i lozim edi. Boy tarix – kelajakni ta’minlovchi ko‘pdan-ko‘p omillardan biridir, xolos.

Milliy ong milliy madaniyatni rivojlantiruvchi muhim omillardan biridir, chunki u orqali millat o‘z manfaatlarini, tarixi, o‘zga millatlar bilan o‘zaro munosabatlari mohiyatini anglab yetadi. Milliy madaniyat esa umuminsoniy madaniyatning konkret-tarixiy shaklidir. U millatning tarixiy ildizlari bilan bevosita bog‘liq. Milliy madaniyat millatning yaxlit-ligini, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlovchi qudrat vazifasini o‘taydi.

Milliy ong, bir so‘z bilan aytganda, milliylikda o‘z ifodasini topadi. Zotan, kishilarni millatga birlashtirgan narsa biologik emas, ijtimoiy omillar, chunki biror bir mil-lat umumiy qon guruhiga, umumiy “biologiya” ga ega emas, Vaho-lanki, til, ruhiyat, madaniyat kabi ijtimoiy omillarsiz millatni yaxlit bir etnos sifatida tasavvur qilish nihoyatda mushkul. Xuddi shuning uchun ham millat va elat turmushi, kela-jagi haqida fikr yuritayotganda birinchi navbatda ijtimoiy omillarga e’tibor bermoq zarur. Ana shu ijtimoiy omillar yig‘indisi milliylikni tashkil etadi.

Bugungi kunda insoniyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan umumiy tendensiyalardan biri – miqdoriy ko‘rsatkichlar va hududiy ekspansiyaga asoslangan ekstensiv taraqqiyot yo‘lidan sifatli ko‘rsatkichlarga tayana-digan, turmush xilma-xilligini, tabiiy va insoniy resurs-lardan oqilona foydalanishni talab etadigan intensiv taraqqiyot yo‘liga o‘tishdan iboratdir. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarni rivojlantirishga, milliylikni ulug‘lashga e’ti-bor kuchayib boradi.

Milliylik milliy tilda ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Milliy tillarni saqlash va rivojlantirish muammosi o‘z vaq-tida nihoyatda qizg‘in muhokama qilingani bizga ma’lum. Xusu-san, tarix fanlari nomzodi P. YE. Kandel “Voproso‘ filosofii” jurnalining tashabbusi bilan milliy munosabat-lar nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “davra sto-lida” o‘z fikrini bildirib, shunday degan edi: “... U yoki bu milliy davlat tuzilishi miqyosida biror bir tilga davlat tili maqomini berish orqali o‘z tili va madaniyatini himoya qilishga intilmoq - nafaqat boshqa millat vakillariga nisbatan adolatsizlik, balki o‘z millati va fuqarolariga nisbatan ham – agar ularning tanlash erkinligi cheklanayotgan bo‘lsa - g‘ayriinsoniylikdir. (qarang: Filosoficheskiye probleme‘ teo-rii i praktiki natsionalno‘x otnosheniy pri sotsializme. Materialo‘ “kruglogo stola”. – Voproso‘ filosofii, 1988, №9, s.51).

Muallif o‘zining keyingi mulohazalarida jahon madaniyati nuqtai-nazaridan rivojlanmagan tilni lingvistik muzey eksponati sifatidagina saqlab qolish zarurligi, biroq ularni sun‘iy ravishda o‘limdan olib qolish shu xalq vakil-larini sivilizatsiyaga qadar bo‘lgan turmush tarziga majbur-lashdan o‘zga narsa emasligi haqidagi fikrni ilgari surgandi. Uning fikrini to‘g‘ri tushungan bo‘lsak, gap kichik elatlarning tillari xususida borayotir. Shunga qaramasdan, P. YE. Kandel-ning fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi. Milliylik - baynalmil-liylikning manbai ekan, uning ifodasi bo‘lmish milliy til ham yashashga haqlidir.

Milliylikni millatchilikdan ajrata bilmoq kerak. Mil-latchilik milliy ustunlik ruhiyati va mafkurasidir. Uning asosini milliy his-tuyg‘ularning burttirib ko‘rsatilishi tashkil etadi. Odatda millatchilik shu millatning “saylan-ganligi”

haqidagi g'oyalarni tug'diradiki, buning oqibatida millat tarixiga doir turli faktlar, madaniyatining o'ziga xos tomonlari o'zga millatlarni kamsitish yo'lida ishlatila boshlanadi. Bu borada ayniqsa shovinizmning – yirik millatlarga xos millatchilikning salbiy oqibatlari beqiyosdir. Shovinizm nafaqat o'zga millat huquqlari va milliy qadriyatlarini tan olmaslikni, balki siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan kam-sitishni targ'ib etadi.

Shuning uchun ham milliylikni rivojlantirayotganda bir tomondan uning umuminsoniy mazmunining cheklanmasligiga (chunki millat huquqlari inson huquqlaridan kengroq bo'la olmaydi), ikkinchi tomondan esa baynalmilliylikka e'tibor bermoq zarur. Jahonda integratsion jarayonlar kuchayib bora-yotgan bugungi kunda uning ahamiyati ayniqsa o'sib bormoqda. Baynalmilliylik deganda eng avvalo o'z tabiatiga ko'ra barcha millatlarning manfaatlari va ehtiyojlariga mos tushadigan aloqa va jarayonlarni tushunish kerak. Baynalmilliylik milliyliksiz mavjud bo'la olmaydi, chunki undagi barcha ahamiyatli tomonlarni o'z ichiga oladi. Milliylik baynalmilliylikning manbai bo'lgani tufayli uni boyitib va shuning bilan taraqqiyotini jadallashtirib boradi.

Millat va elatlarning ehtiyojini inobatga olib, qon-dirib borish, ularning milliy o'ziga xosligini saqlab qolish va shuning bilan millatlararo munosabatlar madaniyatini yuk-saltirish uchun esa milliy siyosatni to'g'ri olib borish zarur. Ko'p millatli mamlakat sharoitida ilmiy asoslangan milliy siyosat konsepsiyasiga amal qilinsa millatlararo munosabatlariga oid muammolar hamisha o'z vaqtida, samarali hal etib boriladi. Mustaqillikni mustahkamlash va insonparvar, demokratik jamiyat qurishdek murakkab ijtimoiy jarayon ke-tayotgan bugungi kunda milliy siyosat qator prinsiplarga asoslanmog'i lozimki, shundagina millatlararo munosabatlar madaniyatining yuksalishi uchun zamin yaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, millatlararo munosabatlar madaniyati deganda shaxsning milliy madaniyat, til, din va an'ana, ehtiyoj va manfaatlardan xabardorligi va ularga munosabati, shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shakllanganligi darajasi, uning o'zga millat qadriyatlariga munosabati tushuniladi. Uning shakllanishi mamlakatdagi millatlararo munosabatlarning holatiga, millatlararo munosabatlarga doir ziddiyatlarning o'z vaqtida bartaraf etib borilishiga bog'liq. Millatlararo munosabatlar madaniyatini yanada mustahkamlash uchun milliylik va baynalmilliylikning mushtarak holda rivojlanishiga erishish lozim. Ana shundagina milliy istiqbol g'oyasi millati va elatidan qat'iy nazar barcha fuqarolarning ma'naviy mulkiga aylanadi.

§2. Sovet hokimiyati yillarida millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi sabablari

Sovet hokimiyati yillarida mamlakat hududida yashovchi turli millat va elatlarning turmush tarzi, buguni va istiqboliga taalluqli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy muammolar o'z vaqtida hal etilmadi. Ayniqsa, millatlar va elatlarning milliy xususiyatlariga loqaydlik bilan qarash turli millat vakillarining noroziligini kuchaytirib yubordi.

Sovet Ittifoqi tarixiga nazar tashlasak, ittifoqchi respublikalar va boshqa milliy uyushmalarning huquqlari asta-sekin cheklab qo'yilganining guvohi bo'lamiz.

Chunonchi, milliy respublikalarning mustaqil siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy fa-oliyat ko'rsatishiga yo'l berilmadi. Mamlakat "temir qafas" bilan o'rab olinib, turli millat va elatlardan iborat bo'lgan sovet xalqi jahondan ajratib tashlandi. Matbuot va so'z erkinligiga yo'l berilmadi. Saylovlar va parlament faqat xo'jako'rsinga joriy qilinib, ularning zimmasiga mustamla-kachilarning ko'rsatma va yo'l-yo'riqlarini so'zsiz bajarish vazifasi yuklandi. Natijada Sovet federatsiyasining mazmuni siyqalashib, nomi esa hujjatlardagina saqlanib qoldi, xolos. Rahbarlikdagi yakkahokimlik, buyruqbozlik, ma'muriyatchilik, hech kim bilan hisoblashmaslik avj olib boraveradi. Zo'ravonlik va o'zboshimchalik yildan-yilga avj olib ketdi. Butun-butun xalqlar o'zlari yashab kelgan tarixiy joylaridan zo'rlik bilan ko'chirib yuborildi. Chunonchi, stalinchilik qrim tatar, chechen, qorachoy, bolqar, qalmaq kabi ko'pgina xalqlarni yoppasiga vatanlaridan badarg'a qildilar. Millatlar va elatlarning milliy huquqlari, milliy manfaatlarini nazar-pisand qilinmadi, ular oyoq-osti qilindi. Tabiiyki, bunday adolatsizliklar mamlakat hududida yashovchi turli millat va elat kishilarining baynalmilliy qadriyatlariga, ularni xalqlar do'stligi g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xalaqit berdi.

Mahkamachilik, zo'ravonlik, ur-yiqitlar ostida o'zbek xalqining eski o'zbek yozuvidagi madaniy boyliklari ham shafqatsizlik bilan yo'q qilindi. O'tmish madaniyati, ayniqsa qadimiy musulmon madaniyati haqida gapirish, targ'ibot va tashviqot qilish og'ir jinoyat sifatida ta'qib qilindi. Bunday bebaho madaniy boyliklarni bunyod etishga ishtirok etgan avlodlar merosini ajdodlarga topshirish, yetkazish imkoniyati-ga ega bo'lgan eski zamon mahalliy ziyolilari vahshiylarcha yo'q qilindi. Yerli millatga xos milliy xususiyatlarning ko'pchiligi burjua millatchiligining ko'rinishlari deb e'lon qilindi. Maktab va ko'chalarni buyuk ajdodlarimiz nomi bilan atashga millatchilikning ko'rinishi deb qaraldi. Bunday nayrang-larning hammasi "madaniy inqilob" bayrog'i ostida amalga oshirildi.

Mustamlakachilik siyosati turli-tuman makru-hiylalar yordamida borgan sari avj olib boraveradi. Sovet hokimiyati yillarida birgina o'zbek xalqi uch bor savodsizlik balosiga giriftor etildi. Ming yillardan buyon madaniyat kaliti bo'lib kelgan eski o'zbek yozuvidan 1929 yilda majburan voz kechilib, lotin yozuviga o'tildi. So'ngra 1940 yilda lotin yozuvi bekor qilinib, kirillitsa yozuvi qabul qilindi. Bu o'ta dahshatli tarixiy fojia edi. Bunday tadbirlar yordamida o'zbek xalqi o'z o'tmishidan ajratib qo'yildi. Mazkur fojianing zaminida millatlarni birini ikkinchisiga qo'shish, yagona millat yaratish g'oyasi yotardi.

Sharqona ta'lim va tarbiya usullariga ham zarba berildi. Minglab allomalarni voyaga yetkazgan masjidlar, madrasalar yopib tashlandi, ular omborxonayumolxonalarga aylantirildi. Asriy madaniy obidalarimiz zeru-zabun etildi. Bebaho, nodir qo'lyozmalarimiz o'tda yoqildi, suvda oqizildi. Sovet hokimiyatining amaldorlari Turkiston xalqining buyuk mada-niyati, boy tarixi, dunyo fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning nomlarini tarix sahifalaridan o'chirib tashlashga qanchalik urinmasinlar, baribir jahonning ilg'or kishilari turkistonliklarni buyuk Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy avlodi deb bilishdi, izzat -hurmatlarini kanda qilishmadi.

Sovet hokimiyati amalga oshirgan mustamlakachilik siyosati sobiq Ittifoqda yashovchi barcha millat va elatlarning turmush tarzini ruslashtirishda yaqqol namoyon bo'ldi. Tabiiyki, bunday makkorona siyosatning zaminida kelajakda barcha millat va elatlar qo'shib ketadi, degan xomxayol yotardi. Ma'lumki, I.V.Stalin VKP(b)ning XVI syezdida xalqlarning siyosiy tomondan birlashishi bilan tillarning qo'shilishi masalasini ko'tarib, avval zonal, so'ngra yagona til paydo bo'lishi to'g'ri-sidagi "nazariyasini" bayon qilgan edi. (Stalin I.V. Asarlar. – Toshkent, 1950, t.12, 409-bet). Bu uydirma ruslashtirish siyosati-tining nazariy asosini tashkil etdi.

Ruslashtirish siyosati tarafdorlarining bashoratiga ko'ra, SSSR hududida yashovchi barcha millat va elatlar mamlakatda soni jihatdan eng ko'pchilikni tashkil etgan, eng yirik va ilg'or hisoblangan rus xalqi bilan, so'ngra esa u orqali biri ikkinchisi bilan qo'shib ketishi lozim edi. Boshqacha aytganimizda, rus millati va rus tili zaminida yagona sovet millati tarkib topishi darkor edi. Xuddi shuning uchun ham butun tarbiya, tashviqot va targ'ibot mexanizmi, adabiyot, san'at va fan rus xalqining faqat ijobiy tomonlarini ulug'lashga qaratildi. Bunday vazifaning bajarilishidagi yagona kalit rus tili hisoblandi. Shunday xomxayollar ta'sirida rus bo'lmagan boshqa xalqlarda rus xalqiga va rus tiliga intilish sun'iy ravishda kuchaytirildi.

Milliy teatrlar uchun tayyorlangan san'at asarlari, film ssenariylari avvalo rus tilida yaratilib, imperiya mah-kamalari tasdig'idan o'tganidan so'ng mahalliy millat tiliga tarjima qilinardi. Milliy teatr repetitsiyalari, badiiy filmlarni suratga olish jarayonlari rus tilida olib bori-lardi. Ilmiy va badiiy adabiyotlarning ko'pchiligi ham rus tilida chop etildi. Jumladan, birgina O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tarix instituti 1988 yilda ilmiy ishlarining 80 foizini rus tilida, 16 foizini xorijiy tillarda, atigi 4 foizinigina o'zbek tilida nashr etdi (Yosh leninchi, 1989, 12 iyul).

Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonning deyarli barcha viloyat, tuman va shaharlarida markazlaridagi yasli-bog'chalarda tarbiya asosan rus tilida olib borildi. Bunday muassasalarda tarbiyalangan millat farzandlari ruhiyatidan, fikr-muloha-zasi, yurish-turishi, turmush tarzidan milliy ruh yo'qoldi, ular o'zga millat ma'naviy olami ta'sirida shakllandilar, kamol topdilar. Bunday bolalarning ko'pchiligi o'qishni ham rus maktablarida davom ettirdilar. Oqibatda millati o'zbek, lekin ona tili rus tili bo'lgan shaxslar vujudga keldi. Bunday tipdagi kishilar o'z millatining milliy xususiyatlaridan ham batamom ajralib qoldilar, rus millatining milliy xususi-yatlarini esa o'zlariga to'la singdirib ola olmadilar. Ana shun-day uslublar yordamida mustamlakachilar O'zbeistonda o'z tili, tarixi, dini, o'z xalqining urf-odatlariga loqaydlik bilan qaraydigan, nigilistik kayfiyatdagi katta bir avlodni vujud-ga keltirdilar.

Sovet hokimiyati yillaridagi iqtisodiy siyosat ham ijtimoiy adolat prinsiplariga zid edi, shu bois millatlar-aro munosabatlar madaniyatiga va uning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiyotning o'ta markazlashtirilishi oqi-batida ishchi va dehqon yaratgan asosiy foyda davlat hamyonida to'plana bordi. Shubhasiz, bunday hol unitar davlatning iqtisodiy qudratini oshirdi, ayniqsa, mamlakatning harbiy potentsiallari yildan-yilga kuchayib, mustahkamlanib bordi.

Markazlashtirilgan iqtisod ikkinchi jahon urushidan keyingi besh yilliklarda

xarobaga aylangan mamlakatni tiklashda katta rol o'ynadi. Iqtisodiyotning markazlashtiri-lishi natijasida SSSR hududida yashovchi barcha millat va elatlarning xavfsizligi ta'minlandi. Mamlakat tarixida bi-rinchi marta 40 yildan ortiqroq tinchlik, osoyishtalik hukmronlik qildi. Biroq iqtisodiyot markazlashtirilishining yildan-yilga mustahkamlanib borishi ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishiga olib keldi. Tabiiyki, bunday holning yildan-yilga chuqur ildiz ota borishi turli respublikalardagi aholining milliy manfaatlariga mos tushmadi. Amalga oshirilgan bir yoqlama iqtisodiy siyosat millatlararo mojarolarning asosiy manbalaridan biriga aylanib qoldi. Chunki sobiq SSSR hududida faoliyat ko'rsatgan turli millat va elatga mansub ishchi va dehqon peshona teri bilan yaratilgan ijtimoiy foydaning 91,5 foizi davlat xazinasiga tushib, uning o'ziga 8,5 foizigina qoldi, xolos. (qarang: Yosh leninchi, 1991, 5 noyabr).

Totalitar davlat amaldorlari turli mintaqalardagi dehqonlar mehnatiga turlicha baho belgilashdi. Ayniqsa, o'zbek dehqonining og'ir mehnatiga to'lanadigan haq boshqa mintaqalarda to'lanadigan o'rtacha mehnat haqidan 21,5 foizga kam qi-lib belgilangan edi. Jumladan, O'zbekistondagi ish haqi RSFSRdagidan 34,0, Belorussiyadagidan 29,0, qozog'istondagidan 33,2, Litvadagidan 49,6, Latviyadagidan 62,5 foizga, Estoniya-dagidan esa 2 martadan ham kam edi (O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1991, 4 yanvar).

O'zbekistonda fuqarolar mehnatiga arziyas haq to'lanayot-gan bir paytda Amerika ishchilari bir soatlik mehnatlari uchun o'rta hisobda 14,77 dollar ish haqi olishardi. Norvegiyada esa bir soatlik ish haqi – 21,86 dollar, Germaniyada – 21,53 dollar, Shveysariyada – 20,93 dollar, Finlandiyada esa 20,76 dollarni tashkil etardi (Turkiston, 1992, 10 yanvar).

qo'limizga qog'oz - qalam olib, hisob-kitob qilib ko'rsak, O'zbekiston saksoninchi yillarning oxirida har yili sobiq Ittifoqning boshqa respublikalaridan 13 milliard so'mlik mahsulot qabul qilib kelgan. Jumladan, sobiq SSSRning boshqa regionlaridan har yili 3,8 million tonna don, 1,5 million tonna un, 4 million kubometr yog'och, 4,8 million tonna ko'mir, 13 million tonnadan ko'proq neft va neft mahsulotlari, 4,4 million tonna metall, 600 ming tonnaga yaqin qand-shakar olib kelinardi. Keltirilgan mahsulotlarning asosiy qismi mashinasozlik va metallurgiya sanoati uchun ishlatilgan. Umu-man o'sha yillari respublikaga keltirilayotgan mashinasozlik va metallga ishlov berish buyumlarining qiymati 11 milliard so'mdan oshardi.(Sovet O'zbekistoni, 1990, 29 mart). Lekin buning evaziga O'zbekistonda ishlab chiqarilgan paxtaning 90 foizi, meva va sabzavot mahsulotlarining 50 foizidan ko'prog'i, pilla va qorako'l terining asosiy qismi respublikadan tashib ketilardi. O'zbekiston sobiq Ittifoqning gaz va metallurgiya sanoati korxonalariga katta mahsulot yetkazib berardi.

O'zbekiston o'zining yuqori sifatli oltini bilan ham Sovet Ittifoqi xazinasini to'ldirib keldi. Chotqol, qurama, Nurota tog'lari, qizilqum sahrosi bag'rida joylashgan Mar-jonbuloq, qalmiqqir, Uchquduq, Zarafshon, Muruntov, Navoiy, Sovetobod kabi oltin konlarining dovrug'i butun dunyoga mashhur. Muruntov oltin konidan qazib olinayotgan oltin o'zining tozaligi bo'yicha eng yuqori sifatga ega (99,99), tannarxi bo'yicha esa SSSR hududidan qazib olingan oltin ichida eng arzoni hisoblanardi.

Muruntovdan 1967 yildan buyon oltin qazib olinadi. Mu-taxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda, bu konda oltin zahirasining qalinligi 400 metr bo'lgan. Ana shu zahiraning 200 metr qalinligi qazib olib ketilgan (Fan va turmush, 1992, №1, 3-bet). Kon ishga tushgan paytdan respublikamiz mustaqil-likka erishguniga qadar birgina Muruntov oltin konidan sobiq Ittifoqning turli idoralari 500 million kubga yaqin tilla tuproqni tashib ketdilar. Ana shunday qudratli oltin konini ishga tushirish uchun Sovet imperiyasi bor-yo'g'i bir million so'm sarflagan edi, xolos.

O'zbekistonda mavjud bo'lgan konlardan mustamlakachilik-ning keyingi yillarida 90 tonnadan oltin qazib olingan. To'qsoninchi yillar boshidagi xalqaro narx bilan baholaganda, bir gramm oltin 15,5 dollar edi. Shunga asosan hisob-kitob qiladigan bo'lsak, respublikamiz hududidan yiliga 1,39 mil-liard dollar qiymatga teng oltin Sovet imperiyasi xazinasiga tushib turgan.(Fan va turmush, 1992, №1, 3-bet).

Respublika yetkazib bergan har bir gramm oltini uchun It-tifoq xazinasidan bor-yo'g'i 1 so'm 70 tiyin mablag' olgan, xolos. Vaholanki, 1991 yil London birjasida 1 gramm oltin 11 dollarga sotildi. O'sha yili 1 dollar bizning pulimiz hisobida 100 so'mga teng bo'lganini inobatga olsak, bir gramm oltinning o'sha paytdagi qiymati 1100 so'm bo'lgani aniq bo'ladi. (Turkiston, 1992, 15 yanvar). Ana shunday hisob-kitob qilsak, O'zbekiston oltinining qiymati hammaga ayon bo'lib qoladi. Shu sababdan ham qazib olingan oltinning haqiqiy miqdori, uni qayta ishlashdan keladigan daromad yerli aholidan mutlaqo sir tutildi.

Ana shunday hisob-kitob bo'lmaganligi uchun ham millat-lararo munosabatlar madaniyatining iqtisodiy asoslari yemi-rildi va qudratli Sovet imperiyasi tanazzulgi yuz tutdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, millatlararo munosabat-lar madaniyatini shakllantirish, ularni yagona milliy g'oya at-rofida jipslashtirish uchun turli millat va elat vakillari orasidagi aloqalarning ma'naviy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash zarur bo'ladi. Sovet hokimiyati yillarida ushbu asoslar zaiflashib ketgani tufayli millatlararo munosa-batlar keskinlashib bordi va oxir-oqibatda Sovet Ittifo-qining inqirozga yuz tutishiga, millatlararo munosabatlar madaniyatining esa rivojlanmay qolishiga olib keldi. Shu sababdan ham milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish vazifasini o'z oldimizga qo'yar ekanmiz, millatlararo munosabatlarning ma'naviy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlashimiz darkor.

§3. O'zbekiston respublikasining mustaqillikka erishishi va millatlararo munosabatlarda tub sifatiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi

1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. O'zbeklarning tinch, parlament yo'li bilan mustaqillikka erishish uslubi jahon milliy-ozodlik harakati tarixida o'ta noyob ijtimoiy-siyosiy voqea bo'lib, milliy manfaatlari oyoq-osti etilgan, milliy g'ururi so'ndirib yuborilgan qadimiy o'zbek xalqining insonparvar, demokratik jamiyat barpo etish bobidagi azmu-qaroriga qanot ato etdi.

Mustaqil O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Uning hududida azaldan o'zbeklar bilan yonma-yon qoraqalpoqlar, qirg'izlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, arablar,

uyg'urlar, shuningdek, ozarbayjonlar, tatarlar, armanlar, gruzinlar, ruslar, ukrainlar, koreyslar, yahudiylar, beloruslar, bosh-qirdlar, chuvashlar va boshqa 100 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. O'zbekiston hukumati o'z hududida yashovchi barcha millatlar va elatlarga teng siyosiy huquqlarni va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishda barcha imkoniyatlarni kafolatlamoda. Irqchilik, shovinizm, millatchilik, terrorizm, xalqaro huquqlarni cheklash yo'lidagi har qanday urinishlarga qat'iy chek qo'yimoqda.

Millatlararo munosabatlar madaniyati mamlakat taraqqiyotini jaddallashtiruvchi omil hamdir. Zero, turli etnoslar orasidagi millatlararo totuvlik ta'minlanganidagina ular yagona g'oyaning ro'yobga chiqishi yo'lida xizmat qiladilar. "O'zbekistonning milliy-madaniy rang-barangligi, - deb yozgan edi I.Karimov o'zining "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli risolasida, - milliy o'zlikni anglashning o'sishi va ma'naviy jihatdan qayta uyg'onishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatni yangilash, uning ochiq-ligining qudratli omili bo'lib xizmat qiladi hamda respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi". (qarang: Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- Toshkent, 1996, 293-bet). Shu sababdan ham mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilashda ko'pmillatlilikka, millatlararo munosabatlarni yuksaltirish muammolariga alohida e'tibor berildi.

Bunday mushtarak taraqqiyot yo'lining eng muhim xususiyati mahalliy xalqning milliy xususiyatlariga tayanish-bilan bog'liqligi ham e'tirof etildi. Boshqacha aytganimizda, mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lining asosida milliy omil (respublika hududida yashovchi xalqlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, tarixiy-diniy, ax-loqiy qadriyatlar, shuningdek, jo'g'rofiy o'ziga xoslik, psixo-logik-ruhiy kayfiyatlar) hal qiluvchi ahamiyatga egadir. qadim zamonlardan buyon xalqimiz o'zining tinchliksevarligi, oso-yishtalik va hamjihatlikni sevishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumatining tinchlik-osoyishtalikni barqaror qilishga qaratilgan barcha harakatlari xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bugun O'zbekistondan tashqarida ham 4 milliondan ortiq-roq o'zbek yashaydi. Mamlakatimiz ichkarisidagi u yoki bu nojo'ya harakat millatdoshlarimiz taqdirini tahlikaga solib qo'yishi mumkin. Xuddi shuning uchun ham O'zbekiston hukumati millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirishga, boshqa mintaqalarda yashovchi millat va elatlar tinchligi, osoyishtaligini ta'minlashga diqqat-e'tiborni qaratmoqda. Millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish respublikamizda barqaror siyosiy muvozanatni vujudga keltirishning muhim shartidir.

Bugungi O'zbekiston taraqqiyot yo'lining eng muhim xususiyati – birovlarining ichki ishiga aralashmaslik, tarix-ning bir necha bor sinovlaridan o'tgan diplomatiya-iqtisodiy hamkorlikning turli uslublaridan foydalanish, o'zaro yordamga asoslanganligidir. Shu bois O'zbekiston siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan tashqi iqtisodiy faoliyatini kundun-kunga kengaytirib bormoqda. Respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyatida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zolari, Yevropa davlatlari, jahoning rivojlangan mamlakatlari alohida o'rin

egallayotir.

Mustaqil O'zbekiston tinchlik va osoyishtalikni ta'minlab, bozor munosabatlari tomon jadallik bilan intila-yotir. Uning taraqqiyot jarayonini barqarorlashtirish uchun za-rur bo'lgan qonunlar qabul qilindi. Aholining barcha qatlam-larini ijtimoiy himoya qilish uzluksiz amalga oshirilayotir. Sovet hokimiyati yillarida faqat xam ashyo yetishtirishga qaratilgan samarasiz iqtisodiyotdan asta-sekin voz kechilib, mulkchilikning turli shakllari qaror topmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kirit-moq uchun mavjud tabiiy, ishlab chiqarish, fan va texnika imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, shuningdek ishlab chi-qarish strukturasi mahalliy sharoit va jahon iqtiso-diyotidagi zamonaviy yo'nalishlarni hisobga olgan holda tako-millashtirish zarur bo'ladi. Buning uchun eng avvalo bu yerda yetishtirilgan xom ashyoni qayta ishlab chiqaradigan, hozirgi zamon fani, texnikasi va texnologiyasiga asoslangan sanoat kosplekslarini barpo etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa hozirgi zamon mashinasozlik, metallurgiya sanoati tarmoqlarini kengaytirish yo'li bilan mahalliy yoshlarni industrial mehnat bilan ta'minlash va shu asosida yerli millat kishilaridan malakali ishchilar avlodini yuzaga kelti-rish lozim. Shuning uchun ham respublika hukumati mashinasoz-lik va metallurgiya borasida dunyoning eng nufuzli firma va kompaniyalari bilan muzokaralar o'tkazib, shartnomalar tu-zishga intilmoqda. Chunki respublikani yuqori darajada sano-atlashtirmasdan turib, aholining tirikchilik darajasini yax-shilab bo'lmaydi.

Iqtisodiyotdagi muammolarni hal etish uchun ma'naviyat-ning roli ham katta, albatta. Shuning uchun ham Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 21 noyabrida bo'lib o'tgan USH sessiyasida: "Iqtisodiy anglash, to'g'ri boshqarish uchun nima kerak? Siyosat kerak, aql-zakovat kerak, ma'naviyat kerak. Shu sababli ham birinchi xalq qadriyatlarini tiklash odamlar tafakkuridagi qullik kishani-ni yo'qotish, ularda o'zlariga ishonchni mustahkamlashdan boshladik...", - degan edi.(O'zbekiston ovozi, 1991, 21 noyabr). Darhaqiqat, mustaqillikning birinchi yilidayoq xalqimizning milliy qadriyatlarini, yo'qolib ketish arafasida turgan urf-odatlar va rasm-rusumlari, marosimlarini tiklashga katta e'tibor berildi. Necha yillar davomida saxiylik, mehru-oqibat timsoli bo'lib kelgan Navro'z bayramining keng nishonlanishiga erishildi. Bayram arafasida aholining kam ta'minlangan tabaqalariga, yolg'iz va nogiron qariyalarga, e'tiborga muhtoj fuqarolarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, ularning xolidan xabar olish yo'lga qo'yildi. qadimdan-qadimdan xalqimizning urf-odati bo'lib kelgan sayillar, hasharlar tiklandi. Taqdir taqozosi bilan ota-onasiz qolgan va bolalar uylarida tarbiya ko'rayotgan yetim bolalarga davlat mablag'lari hisobidan sunnat to'ylari tashkil etildi va bu xayrli ishni bundan keyin ham davom ettirilishi uchun zaruriy choralar ko'rildi.

Davlatning dindorlar va diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabati ham qayta ko'rib chiqildi, o'nlab tarixiy obidalar diniy tashkilotlarga qaytarildi. Yangi masjidlar va madra-salar ochildi. Ro'za hayiti, qurbon hayiti bayram deb e'lon qilindi. qur'oni Karim o'zbek tilida chop etildi. Hadis kitoblari xalqqa yetkazilmoqda. Bundan tashqari minglab musulmonlar uchun Makkaga ziyoratga borib kelish imkoniyatlari yaratildi.

O‘zbek madaniyatini yuksaltirish uchun ham baholi qudrat tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, davlat uchun har bir so‘m hisob-kitob qilib turilgan bir paytda madaniyat sohasidagi qator an‘analarni davom ettirishga urinilmoqda. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarning saksoninchi yillar oxiriga kelib o‘tkazilmay qo‘yilgan va nihoyat yaqindagina Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan kinofestivali buning yaqqol misolidir. Madaniyat sohasidagi muammolarning bartaraf etilishiga katta e‘tibor berilayotgani bejiz emas. Chunki o‘zbek madaniyatining saviyasi butun Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati ravnaqiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham dunyoga tanilgan yozuvchi Chingiz Aytmatov: “qadim-qadimdan o‘zbek madaniyatining O‘rta Osiyoga ko‘rsatgan ta‘sirini ko‘hna Vizantiyaning Rusga ko‘rsatgan ta‘siri bilan qiyoslash mumkin... Bolalikdan qadim tarix va madaniyatga, o‘zbek xalqiga hurmat ruhida tarbiyalanganmiz, o‘zbek xalqi o‘zining milliy xusu-siyatlari bilan hech qanday shak-shubhasiz barcha tan olgan shunday hurmatga loyiq”,-degan edi (O‘zbekiston ovozi, 1991, 6 sentabr). Biroq madaniyat borasida o‘z yechimini kutib turgan dolzarb muammolar hali anchagina. Moddiylikning ma‘naviy-likdan ustunligi hukmron bo‘lgan hozirgi sharoitda madaniy taraqqiyot muammolarining hal etilishi og‘ir kechishi tabiiy. Xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizning mustaqil-likka erishishi O‘zbekiston Respublikasining jahondagi ri-vojlangan mamlakatlar safidan munosib o‘rin egallashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratdi. Ko‘p millatli O‘zbekistondek jannatmakon o‘lkada odamlarning to‘q-farovon yashashi, ular-ning hurligi, tengligi uchun barcha sharoitlarning vujudga kelishi bilan kundalik turmushning barcha jabhalarida ijtimoiy adolatning o‘rnatilishi uchun real imkoniyatlar yaratildi. Ijtimoiy adolatning qaror topishi, shubhasiz, millatlararo munosabatlar madaniyatida ham tub burilish yasaydi.

§4. Milliylikka asoslangan baynalmilliylik – millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish sharti

Ko‘p millatli jumhuriyatimiz sharoitida milliy munosabatlarni uyg‘unlashtirish, millatlararo munosabatlar madaniyatini takomillashtirishning eng muhim sharti – turli millat va elat vakillarida o‘zaro hurmat tuyg‘usini tarbiyalashdir. Respublikamizda insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun kurash avj olgan hozirgi sharoitda millatlararo munosabatlar madaniyatini yangi bosqichga ko‘tarmoq uchun odamlarda baynalmilliy his va tuyg‘ularni shakllantirish muhim ahamiyatga molikdir. Buning uchun esa, eng avvalo, milliylik va baynalmilliylik orasidagi dialektik aloqadorlik mexanizmini to‘la tushunib olmoq darkor.

Baynalmilliylik boshqa millat va elatlar manfaatini hamisha e‘tiborga olish, ularning tili, adabiyoti, madaniyati, san‘ati, tarixi, dini, urf-odatini hurmat qilish, qadrlay bilish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, bisotida baynal-milliylik tuyg‘usi bo‘lgan inson dastlab o‘z millati yoki elatining milliy qadriyatlarini o‘zlashtirib oladi. Milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali boshqa millat va elat yaratgan umuminsoniy qadriyatlarni, ya‘ni insoniyat yaratayotgan barcha ilg‘or progressiv qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Milliylik va baynalmilliylik inson faoliyatidagi biri ikkinchisi bilan dialektik

aloqador bo'lgan eng muhim his va tuyg'ulardir. Insonning insoniy fazilatlarini xarakterlovchi ikki holat, ikki darajadir. Bu ikki holat biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Agar uning biri shikastlansa, ikkinchisi ham darhol shikastlanadi.

Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, baynalmilliylik zaminida milliy ong yotadi. Chunki insonda milliylik tuyg'usi bo'lmasa, u o'zining qaysi millat, elatga mansubligini his qila olmasa, o'sha millat yoki elatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy manfaatlarini tushunib yetmasa, uni himoya qila bilmasa, urf-odatlar va rasmlariga amal qilmasa, madaniyati, adabiyoti, tili va tarixidan yiroq bo'lsa, bunday kishi chinakam baynalmilliychi bo'lolmaydi. Shoirlar aytgani-dek, milliy zamindan uzilgan odam vaznsizlik holatida ish ko'rayotgan kosmonavtga o'xshaydi. U na osmonning yiroqligini, na ona yerning azizligini biladigan manqurtga aylanadi.

Sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarimizda baynalmilliylik milliylikdan ajratib qo'yildi. Zo'r berib baynalmilliylik haqida gapirdigu, milliy ong, milliy g'urur haqida lom-mim demadik. Umumta'lim maktablarining dasturlarida milliy madaniyatni, millat tarixini, milliy tilni o'qitishga e'tibor berilmadi. Natijada yigit va qizlarimizning ko'pchiligi milliy qadriyatlarimizdan benasib bo'lib voyaga yetdilar.

Milalatlaro munosabatlar madaniyatida tub burilish yasamoq uchun mehnatkashlar orasida olib borilayotgan baynalmilliy tarbiyaning shakl va uslublari, mazmuniga alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa baynalmilliy tarbiyaning iqtisodiy asosini ishlab chiqish zarur. Chunki ko'p millat va elatni birlashtirgan sobiq Ittifoqda baynal-milliy tarbiyaning iqtisodiy asosi yaratilmagan edi. Ba'zi bir respublikalar boqimanda bo'lib qoldi, bu yerdagi xalqlar boshqalar hisobiga yashayapti, degan o'ylovsiz mushohadalar millatlararo munosabatlarimizga sovuqlik tushirgandi. Xuddi shuning uchun ham ko'p millatli davlat sharoitida baynalmilliy aloqalarning iqtisodiy asoslarini o'rganadigan alohida instiut tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu instiut ko'p millatli mamlakat sharoitida turli millat va elatlarning milliy ehtiyojlarini o'rganib, uni qondirish yo'llari xaqida konkret taklif va rejalar ishlab chiqishda, qaysi millat, qaysi elat davlat jamg'armasiga qancha hissa qo'shdi, undan nimalar olayotganini aniq hisob-kitob qilishda munosib rol o'ynaydi. "Hisobli do'st ayrilmas", deb bekorga aytishmagan. Ana shunday mexanizm yaratmasdan turib, turli millat va elatni o'zida birlashtirib turgan mamlakatlarda millatlararo munosabatlar madaniyatida tub burilish yasash xaqidagi gaplar gapligicha qolaveradi. Baynalmilliy tarbiya-ning samarasi ham o'ziga yarasha bo'ladi.

Mehnatkashlarda baynalmilliy tuyg'uni mustahkamlash uchun dastavval har bir millat va elat kishisida o'zligini tanish, o'zligini namoyon qilish malakalari bo'lishi kerak. Milliy g'urur, milliy iftixor, milliy or-nomus tuyg'ulari shakllanishi lozim. Shaxsning o'zida milliy tuyg'ular bo'lmasa, boshqalarni hurmatlash tuyg'usini shakllantirib bo'lmaydi. Baynalmilliy tarbiyada shunga erishish lozimki, har bir kishi eng avvalo betakror mustaqil shaxs sifatida muayyan milliy jamoaning vakili ekanligini his etsin, o'zini vatanning fuqarosi deb tushunsin, so'ngra unda butun bashariyat g'amidan chetda qolmaslik tuyg'usi shakllansin. Ana shunday tuyg'u, ana shunday kayfiyat kimning ongida, faoliyatida hukmron bo'lsa, unday kishini

haqiqiy baynalmilliychi deb atash mumkin.

Boshqacha qilib aytganimizda, baynalmilliy tarbiyaning zaminida milliy qadriyatlar yotmog'i, unda o'z xalqining madaniyati va turmush tarziga tayanib o'zga xalqlar madaniyatini, o'z ona tiliga asoslanib boshqa xalqlar tilini o'rganish asos qilib olinishi lozim. Chunki o'zligini anglamagan inson o'zgaralar qadriga ham yetmaydi. Chinakam baynalmilliy tarbiya ildizlari ham shundagina mustahkam bo'ladi. Xullas, haqiqiy baynalmilliy tuyg'uga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash deganda chinakam barkamol insonni voyaga yetkazishni tushunmoq lozim.

Baynalmilliy tuyg'uga ega bo'lgan odam zamonasining eng dolzarb muammolaridan chetda tura olmaydi. Bunday kishilar ko'pincha eng ilg'or progressiv, gumanistik g'oyalar bilan qurollangan bo'ladi. Ana shu g'oyalar qarichi bilan olamda sodir bo'layotgan voqealarni baholaydi. Tabiat musaffoligini saqlab qolish, tinchlik uchun olib borilayotgan har bir kishining harakati baynalmilliylikning eng muhim mezonlaridandir.

Hozirgi sharoitda baynamilliy tarbiyaning samarador-ligini oshirish uchun odamlarga eng avvalo milliy g'urur, milliy qadriyatlarni ulug'lash, vatanparvarlik, do'stu-birodarlik tuyg'ularini shakllantirish lozim. Bunday ishni amalda uddalamoq uchun har bir millat va elatning milliy qadriyatlarini ulug'lash borasidagi jamoat tashkilotlarining faoliyatini tubdan qayta qurish maqsadga muvofiqdir. Bu borada keyingi vaqtlarda respublikamiz shahar va qishloq-larida xalq bayramlari va marosimlarining qayta tiklanishi va ularni takomillashtirishga e'tiborning oshganligi diqqatga sazovordir. Ramazon va qurbon hayitlarining nishonlanishi, ayniqsa, Navro'z bayramining tiklanishi jamoatchilik tomonidan qizg'in ma'qullandi. Yaqin o'tmishda xalq turmushining madaniy va ma'naviy sohasida ma'muriyatchilikka yo'l qo'yilganligi, asrlar davomida tarkib topgan an'analarni mensimaslik kabi holatlar barham topdi. Har yili 21 martni Navro'z bayrami – dam olish kuni, 21 martdan 21 aprelgacha bo'lgan davr “Rahm-shafqat” va “Atrof-muhitni muhofaza qilish oyligi” deb e'lon qilingani va bu davr ichida “Xotira kuni”, , “Birinchi ekin”, bolalarning “Boychechak” bayrami, “Lola sayli” kabi ko'pgina marosimlarning tiklanishi odamlarda milliy g'urning va shu orqali umummilliy qadriyatlarning shakllanishida katta rol o'ynaydi,

Millatlararo munosabatlar madaniyatini hozirgi zamon talabi darajasiga ko'tarmoq uchun, eng avvalo, tarbiya yordamida har bir kishi o'z milliy qadriyatlari, tili, yozuvi, urf-odati, tarixi, madaniyati, adabiyotini mukammal bilishi, shu orqali boshqa millat va elatlarning ham milliy qadriyatiga hurmat bilan qarashi malaka va ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Xullas, millatlararo munosabatlar sohasida hayot kun tartibiga qo'ygan va o'z yechimini kutayotgan muammolar bugun yangicha tafakkur yuritishni taqozo etmoqda. Xususan, millat-lararo munosabatlar madaniyatini yanada mustahkamlash uchun ko'p millatli mamlakat sharoitida baynalmilliy tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilishi lozim. Buning uchun esa baynalmilliy tarbiya-ni milliylikka asoslantirmoq muhim ahamiyat kasb etadi.

- Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- Toshkent, 1996.
- Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Tom 2.- Toshkent, 1996.
- Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3.- Toshkent, 1996.
- Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Tom 4.- Toshkent, 1996.
- Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. Tom 5.- Toshkent, 1997.
- Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent, 1997.
- Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Tom 6. – Toshkent, 1998.
- Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Tom 7.- Toshkent, 1999.
- Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Tom 8.- Toshkent, 2000.
- Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Tom 9.- Toshkent, 2001.
- Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- O'zbekiston ovozi, 2002, 31 avgust.
- Abdullayev G. Natsionalnoye i internatsionalnoye v s fere bo'ta.- Tashkent, 1991.
- Atamuradov S. Natsionalnoye samosoznaniye i internatsionalnoye vospitaniye.- Tashkent, 1991.
- Achildiyev A. Tendensii razvitiya natsionalnogo samosoz-naniya.- Obhestvenno'ye nauki v Uzbekistane, 1993, №1.
- Jo'rayev N., Boboyorov B. Millatlararo munosabatlarning ma'naviy asoslari.- Muloqot, 2001, №4, 2-4-betlar.
- Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent, 2000, 59-60-betlar
- Mustaqil O'zbekiston va millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.- Toshkent, 1995.
- Xushmurodov I., Nazarov q. Milliy munosabatlar va ma'naviy madaniyat.- Toshkent, 1990.
- Choriyev A.CH., Choriyev S.A. Millatlararo munosabatlar ma-daniyati.- qarshi, 1993.
- Choriyev A.CH. Sotsialno'y oblik sovremennoy molodeji.- Tashkent, 1996.
- Yoqubjonova O. Til va internatsional tarbiya.- Toshkent, 1992.
- American bodies: cultural histories of the vehicle equal. Edited by Tim Armstrong. - Sheffield: Sheffield Academic, 1996.
- Rietbergen P. J. G. N. Europe: cultural history.- London: Routledge, 1998.
- Ross. I. C. Umbra : a cultural history.- London: Viking, 1996.
- Sherfherd S. English drama: a cultural history.- Oxford: Blackwell, 1996.